

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ШАРҚШУНОСЛИК ИНСТИТУТИ



“ШАРҚШУНОСЛИК КЕЛАЖАГИ ЁШЛАР НИГОҲИДА”



TDSHI

YOSH SHARQSHUNOSLAR FORUMI

ЁШ ШАРҚШУНОСЛАРНИНГ I ФОРУМИ
МАТЕРИАЛЛАРИ ТЎПЛАМИ

Тошкент - 2017

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ШАРҚШУНОСЛИК ИНСТИТУТИ

***ШАРҚШУНОСЛИК КЕЛАЖАГИ
ЁШЛАР НИГОҲИДА***



**ЁШ ШАРҚШУНОСЛАРНИНГ I ФОРУМИ
МАТЕРИАЛЛАРИ ТЎПЛАМИ**

22 апрель 2017 йил

Тошкент – 2017

Ушбу тўпламда Халқаро Фирдавсий мукофоти лауреати, шарқшунос олим, Хорижий шарқ мамлакатлари адабиёти кафедрасининг асосчиси, филология фанлари доктори, профессор Шоислом Шомухамедов хотирасига бағишлаб ташкил этилган “Шарқшунослик келажаги ёшлар нигоҳида” номли Ёш Шарқшуносларнинг I Форуми материаллари жамланган.

Масъул муҳаррир:

Филология фанлари номзоди, доцент
Гулчеҳра Рихсиева

Нашрга тайёрловчилар:

Нигора Махмасобирова
Сирожиддин Махатов

Ушбу илмий тўплам ТошДШИ Кенгашининг 2017 йил 30 март кунисидаги 8-сонли йиғилишида нашрга тавсия этилган.

Мақолаларнинг мазмунига илмий раҳбар ва муаллифлар масъулдир.

© Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2017

КИРИШ СЎЗИ

Бугунги кунда жаҳонда глобаллашув жараёнлари жадал суръатларда ривожланаётган бир шароитда ҳам иқтисодий ривожланиш, ҳам ижтимоий-маданий юксалишда ифм-фаннинг ўрни тобора ортиб бормоқда. Юксак ва конструктив инсон капталига эга бўлган, ўз тараққиёт йўлини танлаб олган ҳамда фан ва таълим ривожига катта эътибор қаратаётган мамлакатларнинг олимлари бугунги кунда жаҳонда ҳар жабҳада етакчилик қилиб келмоқда. Шу сабабли ҳам ҳар бир мамлакат учун фан ва таълимни ривожлантириш, уларни сифат жиҳатдан янги босқичга олиб чиқиш, айниқса олий таълим тизимининг самарали фолиятини йўлга қўйиш, талабаларнинг тадқиқий фикрлаш, ижодкорлик қобилиятларини ривожлантириш, олий таълим ҳамда ишлаб чиқариш ўртасидаги корпоратив ҳамкорликни йўлга қўйиш энг асосий вазифалар сифатида белгиланмоқда. Бу жараёнларда Марказий Осиёда танилган, шарқона анъаналар ва кадриятларга таянган ҳолда минглаб талабаларга замонавий билимларни бериб уларни катта ҳаётга тарбиялаётган институтимиз ҳам фаол иштирок этмоқда деб ҳеч шубҳасиз айта оламиз. Зеро, бугун, Тошкент давлат шарқшунослик институтида, айнан иқтидорли, билимга чанқоқ талабаларнинг ташаббус билан буюк шарқшунос олим, Хорижий Шарқ мамлакатлари адабиёти кафедраси асосчиси, юзлаб иқтидорли шарқшуносларни тайёрлаган, Халқаро Фирдавсий мукофоти лауреати, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган фан арбоби, филология фанлари доктори, профессор **Шоислом Шомухамедов**нинг илмий ижодига бағишлаб *“Шарқшунослик келажаги ёшлар нигоҳида”* номли **Ёш Шарқшуносларнинг I Форуми** ташкил этилмоқда. Форумдан кўзланган асосий мақсад институт иқтидорли талабалар ўртасида илмий-ижодий ҳамкорликни йўлга қўйиш, янги фикр ва ғоялар алмашилиши учун қулай муҳитни шакллантириш, талабаларнинг илмий фаолиятга бўлган қизиқишини янада ошириш ҳисобланади. Ўйлайманки, бу анжуманнинг ташкил этилиши азиз талабаларимизга ўзига хос мактаб вазифасини ўтайди. Шу ўринда бўлажак шарқшуносларга қандай ҳислатларга ва малакага эга бўлиш кераклиги ҳақида яна бир бор эслатиб ўтмоқчиман. Аввало, сизлардан:

- дунё талабларига жавоб бера оладиган, кенг қамровли билимларга эга бўлган, хорижий Шарқ ва Ғарб мамлакатлари тилларини мукамал билиш билан бир қаторда яқин, Ўрта ва Узоқ Шарқ ҳамда Жанубий ва Марказий Осиё мамлакатлари маданияти, тарихи, фалсафаси, иқтисоди ва ижтимоий-сиёсий жараёнлари, халқаро сиёсати ҳамда чуқур билимларга эга бўлган юксак мақсадларни қалбига жо қилган ватанпарвар замонавий шарқшунос бўлиб етишиш;
- умумбашарий ва миллий кадриятларга, анъаналарга ҳурмат ва эҳтиром билан муносабатда бўлиб, ижтимоий ва маданий фарқларни бағрикенглик билан қабул қилиш;
- интеллектуал ва умуммаданий даражани мукамаллаштириш ва ўз шахсини маънавий ва жисмоний такомиллашишга эришиш учун сидқидилдан меҳнат қилиш;
- танлаган соҳага оид фан ва техника ютуқларининг энг сўнгги намуналарини мукамал эгаллаш, глобал компьютер тармоқларидаги маълумотларни мунтазам равишда кузатиб бориб, таҳлил қила олиш, бунда ўзингизнинг инсоний, ватанпарвар позициянгизни аниқ намоён қилишга тайёр тура олиш;
- қаерда бўлмасин, юрт, ватан манфаатларини биринчи ўринга қўядиган, фидойи инсон бўлиб етишиш талаб этилади.

Ўйлайманки, бу форумни ташкил этиш анъанага айланади ва ҳар йили ўз билими ва салоҳиятига таянган, шарқ ва ғарб тилларини мукаммал эгаллаган, ўз олдига қўйган мақсадлари сари дадил қадам ташлаётган ёшларни кашф этишда давом этамиз.

Мен шу ўринда азиз талабаларимизга Ватанимиз тараққиётига ҳисса қўшиб, унинг довруғини оламга таратиб келаётган машҳур шарқшунослар анъаналарини давом эттиришда катта шижоат, омад ва муваффақиятлар тилайман.

*Тошкент давлат шарқшунослик институти ректори,
филология фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистонда хизмат кўрсатган ёшлар мураббийси
МАННОНОВ АБДУРАҲИМ МУТАЛОВИЧ*

БУЮК ШАРҚШУНОС – ШОИСЛОМ ШОМУҲАМЕДОВ (1921-2007)

Истеъдодли шарқшунос олим, шарқ халқлари адабиётининг оташин тарғиботчиси, машхур шоир ва таржимон, мураббий ва жамоат арбоби – Шомухамедов Шоислом Маҳмудович — Жаҳон уруши қатнашчиси, Журналистлар уюшмаси аъзоси, Ёзувчилар уюшмасининг аъзоси, Халқаро Фирдавсий мукофоти совриндори, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган фан арбоби, бир қатор давлат мукофотлари, жанговар нишонлар, орден ва медаллар соҳибидир.

У 1921 йил Тошкент шаҳрида таваллуд топган. 1939 йилда Енгил саноат техникумини тугатади ва Армия сафига чақирилди, 1952 йилда Ўрта Осиё Давлат университети (хоз. ЎЗМУ) Шарқ факультети (хозирги ТДШИ) Эрон филологияси йўналишини биритган. 1957 йилда Форс адабиёти бўйича филология фанлари номзоди, 1969 йилда филология фанлари доктори илмий даражаларини мушарраф бўлди. 1970 йилда профессор илмий унвонига лойиқ деб топилди.

1957 йилдан Ўзбекистон бадиий адабиёт нашриёти хорижий Шарқ адабиёти бўлими ташкилотчиси ва раҳбари, 1959 йилдан ТошДУ Шарқ факультети ўқитувчиси, 1960 йилдан доценти, 1960 — 1972 йиллар ТошДУ Шарқ факультетининг декани (орада 1965 йилдан хорижий Шарқ мамлакатлари адабиёти кафедраси ташкилотчиси ва мудири), 1972–1985 йиллар давомида ТошДУ илмий ишлар бўйича проректори, 1985 йилдан Шарқ мамлакатлари адабиёти кафедрасида профессор лавозимларида Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги қошидаги филология фанлари бўйича илмий тадқиқот бўйича Ихтисослашган Кенгашнинг Раиси сифатида фаолият олиб борди.

Асосан, форс-тожик мумтоз адабиёти, уларнинг таржимаси; замонавий эрон адабиёти масалалари доирасида 500 дан ортиқ илмий ишлар эълон қилган. МДХ мамлакатлари ва халқаро миқёсдаги илмий анжуманларининг кўп мартабалик муваффақиятли иштирокчиси.

Илмий, илмий-оммапбоп ва публицистик асарлари	220
Энциклопедияда нашр қилинган мақолалари	40
Тақризлар	11
Мухаррирлик фаолияти	35
Илмий ишларда раҳбарлик фаолияти	9
Оппонентлик ишлари	7

Шунингдек, бутун умрини форс-тожик адабиётиин тадқиқ ва тарғиб этишга сарф этган буюк шарқшунос олим Ш.Шомухаммедов кўплаб тиллардан, хусусан, форс тилидаги адабиёт намуналарини ўзбек тилига таржималарида ўзи жуда самарали фаолият олиб бориши билан бирга кўплаб юртимизнинг атоқли шоирларини форс адабиёти намуналарини халқимизга тақдим этиш ишларида ташаббускорлик ва жонбозлик кўрсатди (Э.Воҳидов ўзининг форс тилидан қилинган таржималарида Ш.Шомухаммедовнинг ташаббускорлигини эътироф этган эди). Бунга изоҳни унинг ўзининг Эрон адабиёти тарихи ўқув қўлланмасига ёзган сўзбошисида шундай дейди: “Эрон ва Марказий Осиё мамлакатлари ҳудудида пайдо бўлган мазкур адабиётни

тараққий эттиришда фақат ҳозирги тожиклар ва эронликларнинг аجدодларигина эмас, ўзбеклар, озарбайжонларнинг ота-боболари ҳам, шунингдек, Шимолий-Ғарбий Ҳиндистонда яшаб ижод этган шоирларнинг ҳам ҳиссалари бор. Бунинг натижасида кўп шоир ва файласуфлар тилида қайтарилиб турадиган: «Туркони форсийгу бахшандағони умранд» (Ҳофиз Шерозий), яъни «Форсийда сўзловчи (ёзувчи) турклар кишига умр бахш этувчилардир» деган қанотли ибора пайдо бўлган.

Дарҳақиқат, ўзлари туркий халқлардан чиққан бўлсалар-да, асарларини форсий тилда ёзган Афзалиддин Хоқоний, Низомий Ганжавий, Амир Хусрав Дехлавий, Навоий-Фоний, Мирзо Абдулқодир Бедил, Зебуннисо ва бошқа кўп шоирларнинг асарлари киши дилига ҳузур бахш этади. ”

Шоислом Шомуҳамедов шарқ шоирларидан – Абу Абдуллоҳ Рудакий, Фирдавсий, Умар Хайём, Саъдий, Ҳофиз Шерозий, Бобо Тоҳир, Хусрав Дехлавий, Бедил, Жомий, Навоий-Фоний ва улар қаторида замонавий шоирлардан – Эҳсон Табарий, Малик-уш-шуаро Баҳор, Жола ва бошқа адибларнинг асарларини ўзбек тилига таржима қилган.

Ш.Шомуҳамедовнинг турли тиллардан қилган таржималари	
Форс тилидан	99
Қозок тилидан	4
Қорақалпоқ, тожик, қирғиз тилларида	10 га яқин
Рус тилидан	5

Унинг қаламига мансуб 75 дан ортиқ бадиий нашрлар эълон қилинган, улар орасида ҳафталик нашрларда эълон қилинган шеърлардан тортиб шеърӣ тўпламларгача мавжуд. 10 га яқин шеърларидан намуналар эстон ва рус тилларига таржима қилинган.

- 1-Фарзарнд. Шеър – 1956. (Ёш шоирларнинг лирик шеърларидан)
- 1-шеърлар тўплами “Вақт” Тошкент. Бадиий адабийнашр. 1968. 94 б.
- “Гулбоғ”, “Гулбоғ сайри”, “Гулбоғ насими” ва Муштум журнали учун серияли “Гулбоғ” қисқа ҳикоялар туркумини эълон қилди.
- Рус тилида рубоийлари Иванов Е., Пармузин Б., Наумов А. Таржимасида, Эстон тилида “Учись мудрости в юности”, “Когда власть больше”, “Ведь это гора” П.Сеппель, Тарту Рийклик Юликоль томонидан амалга оширилди.

Ш.Шомуҳаммедов қаламига мансуб қуйидаги шеърларда, шарқона руҳ, хайёмона донишмандлик, анъанавӣ ва замонавий мотивларнинг моҳирона уйғунлиги каби классик шеърӣга хос хусусиятлар уфуриб турганининг гувоҳи бўламиз:

**Жаҳон бошдин-аёқ ҳикмат-ку, ҳикмат,
Нечун ғафлат бўлибдир бизга қисмат.**

**Хас хасликча қолур агар гирдибод,
Уни қўтарса-да, осмон қадар.
Паст пастликча қолур уни самолёт
Осмонга қўтариб чикса-да магар**

**Меҳнатдан, заҳматдан нолиб урма дам,
Тоғда ётган тошга ўхшама сен ҳам.
Денгизлар тошидек топади сайқал,
Доим ҳаракатдан тинмаган одам.**

Шунингдек, форс ва мумтоз ўзбек адиблари қаламига мансуб асарларни ўзбек ва рус тилларида чоп эттирди:

- Рудакий (Танланган асарлар.) 1957. – 127 б.
- Ҳофиз Шерозий ўзбек ва форс тилларида. – 296 б.
- Шарқ мутафаккирлари афоризмлари. 3 марта 1965 й., 1966 й., 1976 й.
- Саъдий Шерозий Гулистон. 1968. – 181 б.
- Маликушшуаро Баҳор шеърлари. 1970. – 127 б.
- Жомий (танланган асарлар.) 1971.
- Дехлавий асарлари ва ҳикматлари ўзбек ва форс тилларида. 1972 й., 1979 й., 1980 й.
- Махтумқули (Танланган асарлар). 1976. – 159 б. Рус тилида. 1977. – 78 л.
- Навоий шеърлятидан. 1977 й., 1978 й.
- Омар Хайём Рубаи. 1977 й., 1978 й.
- Фирдавсий. Рустам ва Сухроб. Шоҳномадан. 1979. – 123 б.
- Увайсий шеърлятидан. 1980 й. –122 б.
- Фурқат. 1980. – 128 б.
- Низомий (1141 - 1209). 1982.-128 б.
- Шоҳкитоб ва унинг муаллифи.1992. – 80 б.
- Абулқосим Фирдавсий. 2006. – 72 б.
- Мумтоз форс адабиёти. X-XV аср. 2011. – 256 б.

Кўплаб ижодкорлар ҳаётига бағишланган эсдаликлар, хотира китобларида мазкур ижодкорлар билан олиб борилган фаолияти ва хотиралари мисолида Ш.Шомуҳамедов ҳаётига оид лавҳалар акс этган:

- Фафур Ғулом
- Миртемир
- Абдулҳақ Абдуллаев
- Тошмуҳаммад Домла
- Брагинский
- Абдулла Қаҳҳор
- Юнус Ражабий
- Нохим Ҳикмат
- Шароф Рашидов
- Одил Мухторов
- Муфтий зивуддинхон қори
- Шухрат

Умрининг сўнгига қадар юртимиз, халқимиз уни ардоқлади. Турли эсдалик нишонлари, фахрий ёрлиқлари, халқаро мукофотлар, фахрий унвон ва медаллар, орденлар билан сийлади:

1948 – “Жасорати учун” медали

1965 – Урушда қозонилган ғалабанинг 20 йиллиги эсдалик нишони

1967 – Қуролли кучларнинг 50 йиллиги

1968 – Олий Кенгаш Фахрий ёрлиғи

1970 – 2-жаҳон уруши ғалабасининг 25 йиллиги нишони Ўзбекистон Олий

Кенгаши Фахрий ёрлиғи

1974 – ФИРДАВСИЙ номидаги халқаро мукофот

1975 – 2-Жаҳон уруши ғалабасининг 30 йиллиги нишони, Қорақалпоқ Олий

Кенгаши фахри ёрлиғи

1978 – ЎЗБЕКИСТОНДА ХИЗМАТ КЎРСАТГАН ФАН АРБОБИ

1977 – ОУМТВнинг “ОЛИЙ МАКТАБ ИШИДАГИ КАТТА ЮТУҚЛАРИ” кўкрак

нишони

1980 – ОЎМТВнинг “ХАЛҚ ТАЪЛИМИ АЪЛОЧИСИ” юлдузи билан

1992 – “Мустақиллик” эсдалик нишони

1994 – “ЖАСОРАТ” медали

1995 – 2-Жаҳон уруши ғалабасининг 50 йиллиги юбилей медали

1997 – Тошкент Давлат шарқшунослик институтининг хизмат кўрсатган профессори” фахрий унвони

1998 – “ЭЛ ЮРТ ҲУРМАТИ” ордени билан мукофотланган

2007 йилда Ш.Шомухамедов фоний дунёдан боқий дунёга рихлат қилди.

Ш.Шомухамедов хақида юртимизнинг кўзга кўринган олимлари О. Шарафиддинов. (Педагог, олим, таржимон), Қўшжонов М. (Шарқшунос олим), Ҳамид Ғулом (Олтин кўприк), Комилов Н. (Фирдавсийнинг шеърлар санъати), Ҳайитметов А. (Татар тилида), Қамар Раис (урду тилида) билан бир қаторда юзлаб уни таниган билаган мутахассислар ўз хотираларини турли нашрларда изҳор қилишди. Ўзбек тили ва адабиёти журнали каби бир қанча рўзнома ва журналлар махсус мақолалар эълон қилди.

Бундан 60 йил олдин Шоислом Шомухамедов томонидан асос солинган илмий мактаб мана бугунгача шарқшуносликка оид турли тадқиқот ва таржималар кўринишида давом этиб келмоқда. Мазкур мактаб анъаналари, нафақат, аждодларимиздан қолган маънавий меросни ўзлаштириш, балки халқлар ўртасида дўстона алоқаларни ривожлантириш учун хизмат қилмоқда.

Қаландаров Мирзажон
ТошДШИ Инновацион Марказ раҳбари

ФИЛОЛОГИЯ

ВЗГЛЯДЫ ВАН ЛИ ПО ПОВОДУ КЛАССИФИКАЦИИ ЧАСТЕЙ РЕЧИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Шомаксудова Максуда
Магистрантка 1-го курса ТаиГИБ
Научный руководитель: к.ф.н., доц. Каримов А.

К настоящему времени в китаеведении накоплен богатый опыт исследования современного китайского языка, достижения многих синологических школ позволяют говорить о том, что синология находится на мировом уровне лингвистических исследований.

Согласно «Словарю современного китайского языка» («Сяньдайханьюй цыдянь»), части речи - это «грамматические классы слов». Это определение верное. Однако если мы пойдем дальше и спросим: «А что такое грамматические классы?», то тогда потребуется более точное определение. Кроме приведенного, существуют еще два наиболее часто встречающихся определения.

Согласно первому из них, частями речи называются слова, выделяемые в некоторые классы по форме, значению и функции. Особая роль в этом определении отводится форме. Что же такое форма? Те, кто изучал иностранные языки, и особенно те, кто изучал иностранные языки со сравнительно богатой морфологией (например, русский - с очень богатой морфологией, или английский - где так же есть морфология), хорошо знают, что под формой подразумевается склонение существительных, спряжение глаголов; в некоторых языках существует также разного рода согласование прилагательных с существительными и т.д. Форма – отличительная особенность флективных языков. Во флективных языках, обладающих формой, слово в предложении видоизменяется. Морфология остаётся одной из главных составных частей грамматик западных языков. При чтении хрестоматий по английскому языку и тем более хрестоматии по русскому или французскому языку нет необходимости справляться в словаре для того, чтобы узнать, к какой части речи принадлежит то или иное слово, поскольку изменение существительных, глаголов, прилагательных в этих языках по форме различно. Если следовать рассматриваемому определению, то можно сказать, что в китайском языке части речи отсутствуют, так как в нем нет ни склонения существительных, ни спряжения глаголов и т.п.

Есть и другое определение: частями речи называются слова, объединенные в некоторые классы по выражаемому ими значению и по их функции в предложении. Здесь понятие формы отбрасывается и говорится лишь о значении и функции. Значение - предмет лексики, функция – предмет грамматики. Данное определение соединяет понятия значения и функции. Если следовать этому определению, то совершенно очевидно, что в китайском языке имеются части речи.

В прошлом при обсуждении вопроса о частях речи имели место две крайности. С одной стороны, утверждали, что китайский – это язык, в котором есть морфология; при этом полагали, что в китайском языке есть склонение существительного и т.п. Такая

точка зрения, конечно, ошибочная. С другой стороны, некоторые лингвисты считали, что в китайском языке вообще нет частей речи. Верна ли подобная точка зрения? Это зависит от того, что мы понимаем под частями речи. Если различать части речи, исходя из формы, то в китайском языке их нет, если же абстрагироваться от формы и выделять классы, исходя из значения и функции, то можно утверждать, что в китайском языке есть части речи. Мы полагаем, что в китайском языке есть части речи, и пользуемся при этом вторым определением этого понятия.

Общепризнанным считается, что основные проблемы китайской грамматики решены. Подтверждением могут служить фундаментальные труды ученых А.А.Драгунова, В.М.Солнцева, В.И.Горелова, и работы китайских лингвистов Ли Цзиньси, Ван Ли, Люй Шусяна. Эти работы заложили теоретическую базу исследования грамматики китайского языка. Признавая тот факт, что в китайском языкознании на сегодняшний день основные классы слов подробно описаны и изучены, мы считаем, что до сих пор есть вопросы частного характера, которые ждут своего исчерпывающего исследования.

Одной из трудностей, возникающих при изучении современного китайского литературного языка, является наличие слов, которые имеют одинаковое звучание и сходное основное значение, при том что их грамматическое значение и синтаксическое употребление между собой сильно различаются. Материально одно и то же слово может выступать, например, в роли существительного и глагола ('развитие' и 'развиваться' 'развивать'), глагола и предлога 'давать' и 'для'), функции локатива и послелога ('внутри' и 'в'), существительного и счетного слова ('одна чашка чая' и 'одна чашка'), предлога и союза ('из-за' и 'так как', 'ради' и 'чтобы'). Таких примеров в современном китайском языке насчитывается огромное количество, с ними связаны немалые трудности перевода с китайского языка и методики его преподавания.

Несмотря на то, что данная проблема привлекала внимание всех крупных лингвистов, занимающихся вопросами грамматики, она до сих пор остается нерешенной. Некоторые ученые считают, что здесь должна идти речь об омонимии - о словах, совпадающих фонетически, но значительно различающихся по лексическому и грамматическому значению; другие говорят об одном слове, употребленном в различных функциях.

В работах крупнейших ученых в области общего языкознания - Л.В.Щербы, В.В.Виноградова и др. - части речи рассматриваются как категории, прежде всего, грамматические; при их выделении учитываются не только морфологические и семантические признаки, но и синтаксические, под которыми понимается различная способность определенных разрядов слов функционировать в роли того или иного члена предложения, а также различная соединимость слов одного разряда со словами других разрядов. В настоящее время такой подход к определению частей речи считается общепризнанным в общем языкознании.

Раньше в наших грамматиках слова делились на девять классов, при этом единственным критерием служили функции слова в предложении. Например: все слова, которые в предложении употребляются в качестве подлежащего и дополнения, называются существительными; все слова, которые употребляются в качестве сказуемого, называются глаголами; все слова, которые употребляются в качестве определения,

называются прилагательными; все слова, которые употребляются в качестве определения к сказуемому, и обстоятельства называются наречиями.

Ван Ли неоднократно обращался к чрезвычайно важной для китайской грамматики проблеме частей речи, полагая, что они органически присущи китайскому языку, что принадлежность слова части речи может быть определена еще до его вхождения в предложение и указана в словаре. В работах 1940-х выделение частей речи он сводил к семантическим критериям. «В китайском языке разделение слов по частям речи основывается почти исключительно на значении» [2]. В работе «Грамматика современного китайского языка» [1] после дискуссии 1953-1954 о частях речи в китайском языке, в которой приняли участие ведущие китайские языковеды, указывал, что при определении частеречной принадлежности слова его основное значение должно рассматриваться в совокупности с его грамматическим оформлением и синтаксическими функциями. В работе «Части речи» [3] также высказан тезис, что «деление на части речи должно производиться по передаваемому словами значению и по функциям слов в предложении». Лексическое значение и грамматические функции следует рассматривать в единстве, учитывая также, является ли та или иная грамматическая (синтаксическая) функция регулярной для данного слова.

Ван Ли, Люй Шусян, Гао Минкай и др. объединились в «северную группировку» с центром проведения исследований в Пекине. Несмотря на такие разногласия, ученые преследовали одну цель: не копируя грамматическую систему европейских языков, создать собственную новую систему грамматики китайского языка.

На формирование взглядов Ван Ли сильное влияние оказали работы О.Есперсена о «трех рангах слов» и Л.Блумфилда о «центральном слове» и «определяющем». В основу деления слов по частям речи Ван Ли положил семантический критерий.

В прошлом при обсуждении вопроса о частях речи имели место две крайности. С одной стороны, утверждали, что китайский - это язык, в котором есть морфология; при этом полагали, что в китайском языке есть склонение существительного и т.п. Такая точка зрения, конечно, ошибочная. С другой стороны, некоторые лингвисты считали, что в китайском языке вообще нет частей речи. Верна ли подобная точка зрения? Это зависит от того, что мы понимаем под частями речи. Если различать части речи, исходя из формы, то в китайском языке их нет, если же абстрагироваться от формы и выделять классы, исходя из значения и функции, то можно утверждать, что в китайском языке есть части речи.

Вне зависимости от того, какое число классов мы установим, часто возникает вопрос о распределении слов по классам. Этот вопрос очень важен. Если нет распределения слов по классам, то возникает сомнение в том, имеются ли вообще части речи в китайском языке; если же считать, что в китайском языке есть части речи, то необходимо посмотреть, каким образом распределить слова китайского языка по классам.

Список использованной литературы:

1. Ван Ли. Чжунго сяньдай юйфа (Грамматика современного китайского языка). Т. 1-2. Шанхай, 1943-1944, с. 22-37;
2. Ван Ляо-и. Чжунго юйфа ганьяо (Основы китайской грамматики). Пекин, 1946, с. 32-42.

3. Ван Ли. Части речи // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XXII. Языкознание в Китае / Сост. М.В. Софронов. М., 1989, с. 37-55.

4. Драгунов А.А. Предисловие // Ван Ляо-и. Основы китайской грамматики. М., 1954, с. 1-21;

К ВОПРОСУ О ЗАИМСТВОВАНИИ И АДАПТАЦИИ АРАБСКОГО МАСДАРА В СИСТЕМЕ ДРУГИХ ЯЗЫКОВ: ИСТОРИЯ ВОПРОСА

*Каримжанова Гавхарихушнот
Магистратка 1-го курса ТашГИВ
Научный руководитель: д.ф.н., проф. Иномхожаев Р.*

Как известно, масдар, имеющий арабское происхождение или имя действия представляет собой абстрактное название либо самого действия как производимого, так и воспринимаемого, либо переживаемого состояния, без всяких характеристик, присущих глагольным формам или вернее глаголу¹. В качестве основных форменных критериев масдара В.Белкин отмечает следующие: «По существу дела этот именной эквивалент глагола перенял от него единственное глагольное качество – способность в определенных позициях управлять подобно глаголу, а от имени отличается отсутствием такого категориального признака, как число»².

Арабский масдар заимствовался многими языками. В большинстве случаев это имело место в эпоху арабского нашествия и распространения ислама. Это явление рассмотрено на материале разных языков, как родственных, так и неродственных. Настоящая статья представляет собой экскурс в историю изучения этого вопроса.

Работы, посвященные заимствованию и адаптации арабского масдара свидетельствуют о том, что одно и то же имя действия заимствовалось и адаптировалось языками по-разному. Целью данной статьи является анализ научных работ, посвященных фонетической, грамматической и лексической адаптации арабского масдара рядом языков, в частности таджикским, даргинским языками, а также языками дари и пашту.

Согласно Большому энциклопедическому словарю под редакцией Ярцевой В.Н. «Заимствование – это элемент чужого языка (слово, морфема, синтаксическая конструкция), перенесенный из одного языка в другой в результате языковых контактов, а также сам процесс перехода элементов одного языка в другой³. Под адаптацией понимается приспособление или прилаживание заимствованных элементов к заимствующему языку.

Процесс адаптации арабского масдара в системе заимствовавших языков может быть рассмотрен в трех аспектах, а именно:

- *путей заимствования и классификации заимствованных элементов;*
- *процесса их адаптации в заимствующих языках;*
- *тех изменений, которые происходят в структуре заимствовавшего языка.*

¹ Гранде Б. Арабская грамматика в сравнительно-историческом освещении. М., ИВЛ, 1963 г. – с.189

² Белкин В. Арабская лексикология. М., ИМУ, 1975 г. – с.78

³ Ярцева В.Н. Большой энциклопедический словарь. М.: «Большая российская энциклопедия», 1998 г. – с.158

Более подробно этот вопрос изучен с точки зрения 1-го и 2-го аспектов, 3-й вопрос остаётся пока открытым.

Вопрос о путях заимствования и классах заимствованных языковых элементов был поставлен в монографии известного афганского ученого Мухаммада Насима Негхата Саиди. В своей работе под названием «متنهای قدیم فارسی» («Древние персидские тексты») он разделил процесс заимствования арабских слов в язык дари на 5 периодов, при этом охарактеризовав каждый из них. Согласно ему, первый период приходится на X век до первой половины XII века. В этот период арабские заимствования, в языке дари встречаются редко, приблизительно 5 – 10%. Начиная со второго периода – середины XII века, количество арабских заимствований значительно увеличивается. А уже с конца XIV века, проникновение арабизмов в язык дари увеличивается настолько, что в некоторых текстах их количество доходит до 80 – 90% от общего числа¹.

Процесс заимствования арабских заимствований в язык пашту и пути их освоения были исследованы Б.З.Халидовым². Он рассмотрел пути заимствования и особенности лексических, фонетических и грамматических особенностей арабских заимствований в пашту. Он выделил несколько путей проникновения арабских элементов в язык пашту:

- ранние заимствования в период арабских завоеваний;
- заимствования в период распространения ислама
- заимствования в процессе общения афганцев с арабами в сфере торговых отношений.

В свою очередь, Белоконь В.В., Салихов Н.Х., Омаров А.А. рассмотрели проблему масдара с точки зрения его адаптации в тот или иной язык. Так, Салихов Н.Х. рассмотрел не только процесс заимствования арабского масдара и его функции в грамматической структуре таджикского языка, но и показал функционирование арабских масдаров в тексте³. Он отметил, в частности то, что арабские масдары могут выступать в качестве подлежащего, прямого и косвенного дополнения, обстоятельства и именной части сказуемого.

Омаров А.А. утверждает, что лексико – морфологические параметры масдара даргинского и арабского языков совпадают по структуре с отглагольным именем и передает это формулой «*морфологическая константа + аффикс(ы)*». Однако в даргинском языке эта структура выглядит как «*основа глагола + суффикс -ни*», а в арабском – «*основа масдара + аффикс(ы)*⁴».

По мнению Белоконь В.В., арабские слова, в частности масдары, подвергались регулярному фонетическому освоению, в результате чего наметилась довольно стройная система субституции звуков⁵. И в этой связи автор приводит следующие регулярные соответствия гласных:

Монофтонги: а, а > а, в; і, і̇ > е, і; u, u > о, и;

محمد نسیم نگهت سعیدی. متنهای قدیم فارسی/نثر فارسی و دری / مطبعه دفاع ملی/ انتشارات پوهنځی ادبیات¹

Persian classics. Dari Persian prose. Vol. 1. Edited by M.Nasim Neghat Saidi. Faculty of Letters University of Kabul. National defence printing house. Kabul, 1964.

²Халидов Б.З. Арабские заимствования в современном литературном языке пашту. *Дисс. ... канд.филол.наук* – Л., 1953 г. –с. 195.

³Салихов Н.Х. Лингвистический анализ арабских масдаров в таджикском языке. *Дисс...канд.филол.наук* – Душанбе, 2013 г.–с. 97.

⁴Омаров А.А. Морфологические и синтаксические особенности масдара даргинского и арабского языков *Дисс...канд.филол.наук* – Махачкала, 2009 г. –с.102.

⁵Белоконь В.В. Иноязычные заимствования в лексическом составе современного литературного языка дари. *Дисс.канд.филол.наук* – М. 2006. – с. 55.

Дифтонгоиды: aw>ou (или ow); ay>eu

В качестве примеров фонетической адаптации арабских заимствований в язык дари можно привести следующие изменения:

- выпадение конечного танвина даммы ُ [un] и тамарбуты, показателя женского рода – ٰ [atun];
- появление вставочных звуков, таких как [e] и [o];
- превращения эмфатических [sâd] ص, [dâd] ض, [zâ] ظ [â] è ط в обычные звуки [s], [d], [t] и [z];
- выпадение согласного звука [ayn] ع и его произношение u, [o],] ءâ ã èâ [e] функции звука [ʔ] хамзы в языке дари, деление слога на две части и краткая остановка в произношении.

Наряду с фонетическими изменениями заимствования меняют и свою семантику. Значение либо расширяется, либо сужается, либо при заимствовании масдар приобретает новое значение. Например, такие имена как, صلح [solh] *мир, перемирие*, نفس [nafas] *дыхание, вздох*, заимствуясь в язык дари не меняют первоначальное значение, масдар تحصیل [tahsil] заимствуется с расширенным значением, таким как *обучение, взимание налога*, масдары, при заимствовании сужающие свое значение – سوف [kosuf] *затмение солнца*. Помимо сохранения исходного значения, его сужения или расширения арабские масдары могут приобретать новое значение, как например شمول [šomul] со значением *включение, зачисление, поступление* и т.д.

В заключении можно сказать, что арабские заимствования и в настоящий момент активно употребляются в других языках. И работы сделанные по данной теме рассматривают масдар с точки зрения двух вышеупомянутых аспектов. Вопрос, касающийся изменений, произошедших в структуре языка-реципиента в процессе заимствований не изучен. Что еще раз доказывает необходимость еще более углубленно рассмотреть этот аспект.

XITOUY TILIDA “来” VA “去” HARAKAT YO‘NALISHI FE‘LLARI SEMANTIKASI

*Muxamedjanova Shahbora
ToshDSHI 1-kurs magistranti.
Ilmiy rahbar: f.f.n., dots. Karimov A.*

Xitoy tili tadqiqotchilari 来 (*kelmoq*) va 去 (*ketmoq*) fe‘llarini harakat yo‘nalishi fe‘llari guruhiga kiritadilar. Ularning fikricha, bular asosiy sodda harakat yo‘nalishi fe‘llari, chunki ular ishtirokida harakat yo‘nalishi ma‘nosini anglatadigan qo‘shma fe‘llar hosil qilinadi¹.

Aksariyat tadqiqotchilarning ko‘rsatishicha, 来 (*kelmoq*) va 去 (*ketmoq*) harakat yo‘nalishi fe‘llari semantikasining xususiyati shundaki, bu fe‘llar sodir bo‘layotgan harakatga nisbatan so‘zlovchining turgan joyiga ishora qiladi. Agar harakat so‘zlovchi (yoki obyekt)ga yo‘nalgan bo‘lsa, 来 (*kelmoq*), aksincha, so‘zlovchi (yoki obyekt)dan “uzoqlashish” ma‘nosi ifodalansa, 去 (*ketmoq*) fe‘li qo‘llaniladi; masalan:

¹ Bu haqda qarang. 幸承姬 Sin Sing Xi. 汉语趋向动词系统. Xitoy tili harakat yo‘nalishi fe‘llari tizimi // Вестник китайского языка. – 2000. – № 1. – Б. 97-105.

他来了。 *U keldi* (harakat so‘zlovchiga yo‘nalgan – bu yoqqa).

他去了。 *U ketdi* (harakat so‘zlovchining turgan joyidan boshqa joyga qaratilgan – u yoqqa).

Demak, harakat mo‘ljali obyektida so‘zlovchining turgan joyi olinadi. Biroq materiallar tahlili ko‘rsatishicha, harakat bayoni so‘zlovchi tomondan bo‘lishi yoki so‘zlovchiga yo‘naltirilgan bo‘lishi 来 (*kelmoq*) va 去 (*ketmoq*) harakat yo‘nalishi fe‘llarining barcha semantik xususiyatlarini qamrab olmaydi. Zero, harakatning sodir bo‘lishida so‘zlovchiga aloqador bo‘lmagan juda ko‘p vaziyatlar mavjud. Shuninguchun so‘zlovchi turgan joy doim ham harakat mo‘ljali bo‘la olmaydi.

Djan Faming “趋向动词“来”“去”新义” (“来” va “去” harakat yo‘nalishi fe‘llari haqida yangi tushunchalar”) maqolasida 来 (*kelmoq*) va 去 (*ketmoq*) fe‘llari orqali sodir etilishi mumkin bo‘lgan harakatning ikki xil mo‘ljali ni ajratadi:

1. *Harakat mo‘ljalining subyektiv aniqlanishi.* Bunda sodir etilayotgan harakat mo‘ljali so‘zlovchi tomonidan aniqlanadi. “Agar gapda harakat yo‘naltirilgan mo‘ljal aniq ko‘rsatilmagan bo‘lsa, harakat mo‘ljali sifatida so‘zlovchining turgan joyi yoki biror boshqa joy olinadi”¹.

2. *Harakat oriyentirining obyektiv aniqlanishi.* Bunda jumlada harakat mo‘ljali bo‘lgan joy mavjud. “Agar jumlada joy aniq ko‘rsatilgan bo‘lsa, bu joy sodir etilayotgan harakat mo‘ljali bo‘lib xizmat qiladi”².

Ko‘rinadiki, so‘zlovchi turgan joy doim ham sodir etilayotgan harakat mo‘ljali bo‘la olmaydi. Shunday holatlar borki, so‘zlovchiga bog‘liq yoki aloqasi bo‘lmagan biror joy mo‘ljal bo‘lib keladi. Masalan, agar o‘qituvchi ko‘chada talabani uchratib, “你下午来吧 (*Tushdan so‘ng kelgin*)”, deb aytsa, so‘zlovchining turgan joyi (bu o‘rinda o‘qituvchi ko‘chada) sodir bo‘ladigan harakat mo‘ljali emas, albatta. Bunday holatda harakat mo‘ljali – auditoriya, ya’ni bevosita so‘zlovchiga aloqador joy nazarda tutilmoqda. “初班来了五个学生” (*Boshlang‘ich guruhga beshta talaba keldi*) va “他星期五去北京” (*U juma kuni Pekinga ketadi*) gaplarida so‘zlovchining turgan joyi muhim emas. Bu gaplarda 初班 (*boshlang‘ich guruh*) va 北京 (*Pekin*) – harakat mo‘ljali obyektiv aniq.

来 (*kelmoq*) va 去 (*ketmoq*) fe‘llari harakat yo‘nalishini ifodalaydi, biroq bu harakat yo‘nalishi sodir etilayotgan harakat mo‘ljaliga nisbatan turlicha. 来 (*kelmoq*) fe‘li doimo sodir etiladigan harakat mo‘ljaliga yo‘nalgan harakatni ifodalaydi. 去 (*ketmoq*) fe‘li quyidagi ikki xil vaziyatda qo‘llanilishi mumkin:


1- vaziyat (bu vaziyatda qo‘llaniladigan 去 (*ketmoq*) fe‘lini biz 去₁ deb belgilaymiz): harakat mo‘ljaliga yo‘nalgan harakat. Bunda so‘zlovchi vaziyatni chetdan kuzatuvchi sifatida yuzaga chiqadi, masalan:

女孩向妈妈跑去。 (*Qizaloq onasi tomon yugurib ketdi*).

¹张发明 Djan Faming. 趋向动词“来”“去”新义 (“来” va “去” harakat yo‘nalishi fe‘llari haqida yangi tushunchalar)// 1983. – № 1. – Б. 95.

²Кўрсатилган мақола. – Б. 95.

Keltirilgan gapda soʻzlovchi sodir boʻlgan harakatni fakt sifatida qayd qiladi. Soʻzlovchi subyekt tomonidan sodir etilgan harakat, kuzatuvchi haqida xabar bermoqda. 1-vaziyatni sxemada quyidagicha ifodalash mumkin:




● – sodir etiladigan harakat moʻljali; S – soʻzlovchi; ← – sodir etiladigan harakat yoʻnalishi.

2- vaziyat (bu vaziyatda qoʻllaniladigan 去 (*ketmoq*) feʻlini biz 去₂ deb belgilaymiz): harakat moʻljaldan yoʻnalgan boʻlib, bunda soʻzlovchi bevosita vaziyat ishtirokchisi boʻladi.

他去三天了。(U [mening oldimdan] ketganiga uch kun boʻldi).

Mazkurgapda sodir etilgan harakat moʻljali subyektiv aniq boʻlib, bu – soʻzlovchi [men]. 2-holatni sxema koʻrinishida quyidagicha berish mumkin:



Yuqorida keltirilgan ikki vaziyatning oʻzaro farqi shundaki, birinchi vaziyatda 去₁ feʻli qoʻllanilganda, harakat yoʻnalgan oriyentir obyektiv, yaʼni aniq ifodalangan (*ona* tomonga yoʻnalgan). Mazkur holatda soʻzlovchi chetdan kuzatuvchi boʻlib, uning turgan joyi moʻljal bilan mos kelmaydi. Ikkinchi vaziyatda 去₂ feʻli qoʻllanilganda, sodir etilayotgan harakat moʻljali subyektiv, yaʼni soʻzlovchi shaxs (harakat soʻzlovchi tomondan boshqa tomonga yoʻnalgan). Soʻzlovchi vaziyat ichida va uning bevosita ishtirokchisidir.

Demak, 去 (*ketmoq*) asosiy harakat yoʻnalishi feʻli semantikasida muhim ikki vaziyatni farqlash lozim; bu tafovut harakat subyektiga nisbatan soʻzlovchining oʻrni ifodalashda koʻrinadi: a) soʻzlovchi chetdan kuzatuvchi sifatida keladi; b) soʻzlovchi vaziyat ishtirokchisi (vaziyatning ichida) boʻlib keladi.

Xitoy tilidagi asosiy harakat yoʻnalishini ifodalovchi 来 (*kelmoq*) va 去₁ (*ketmoq*) feʻllarining semantikasidagi farq harakat moʻljali yoki harakat yoʻnalishi semantikasida emas, balki xabar (maʼlumot)ning bayon qilinishida, aniqrogʻi, vaziyat nima (kim) nuqtai nazaridan tavsiflanmoqda. Masalan:

学生朝教室走来。(Talaba auditoriya tomon **jurib kelyapti**).

学生朝教室走去。(Talaba auditoriya tomon **jurib ketyapti**).

Keltirilgan misollarda sodir etilayotgan harakat yoʻnalishi bir xil, harakat moʻljal tomon yoʻnalgan, gaplardagi harakat moʻljali oʻzaro mos – 教室 (auditoriya). Semantik nuqtai nazardan bu misollarni ikki jihatdan koʻrib chiqish mumkin:

1. Soʻzlovchi harakat oriyentiri bilan bevosita bogʻliq.

Soʻzlovchi auditoriyada boʻlib, subyektning u tomon yoʻnalgan harakati haqida xabar bersa, 来 (*kelmoq*) feʻli ishlatiladi. Vaziyat soʻzlovchi tomonidan tavsiflanadi va uning oʻzi harakat moʻljali vazifasini bajaradi. Soʻzlovchi bunday holatda vaziyat ishtirokchisi sifatida auditoriyada yoki harakat sodir etilayotgan joyda boʻladi. Soʻzlovchi auditoriyadan tashqarida boʻlsa va subyekt harakatining muayyan joyga (auditoriyaga) yoʻnalganligi haqida xabar ber-

sa, 去 (*ketmoq*) fe'li ishlatiladi. So'zlovchi vaziyat ishtirokchisi, biroq u auditoriyadan tashqaridadir.

2. So'zlovchi harakat oriyentiriga bog'liq emas, u vaziyatni chetdan kuzatuvchi.

来 (*kelmoq*) fe'li qo'llanilganda xabar markazi – 教室 (auditoriya), ya'ni harakat yo'nalgan joy 教室 (auditoriya) ekanligi ta'kidlanmoqda. 去 (*ketmoq*) fe'li qo'llanilganda esa, e'tibor subyekt harakatiga qaratilmoqda, xabar markazi, tabiiyki, 学生 (talaba)dir.

来 (*kelmoq*) va 去₂ (*ketmoq*) harakat yo'nalishi fe'llarining semantikasidagi farq sodir etilayotgan harakat yo'nalishining ifodalanishiga bog'liq. Yuqorida ta'kidlanganidek, 去₂ harakat mo'ljal tomondan boshqa tomonga yo'naltirilgan vaziyatda qo'llaniladi, 来 (*kelmoq*) esa mo'ljal tomon yo'nalgan harakatni ifodalaydi. Shunday qilib, harakat mo'ljali o'zaro mos, tafovut esa sodir etilayotgan harakat yo'nalishi bilan bog'liq. Masalan:

下午他来了。 (*U kunning ikkinchi yarmida keldi [bu yerga/ biznikiga]*).

下午他去了。 (*U kunning ikkinchi yarmida ketdi [bu yerdan/ biznikidan]*).

Keltirilgan misollarda sodir etilayotgan harakat mo'ljali subyektiv anglashilgan – so'zlovchi turgan joy [bu yer]. Birinchi gapda harakat mo'ljal tomon yo'nalgan, ikkinchi gapda esa harakat mo'ljaldan yo'nalgan. Demak, 来 (*kelmoq*) va 去₂ (*ketmoq*) harakat fe'llari qo'llanilganda, harakat mo'ljali bir xil (so'zlovchi), tafovut sodir etilayotgan harakatning yo'nalishidadir (harakat mo'ljali tomon va harakat mo'ljalidan).

Demak, xitoy tilidagi asosiy harakat yo'nalishi fe'llari semantikasi so'zlovchi turgan joyga yoki so'zlovchi turgan joydan yo'nalgan harakatni ko'rsatish bilan cheklanmaydi. Bu fe'llarning ma'nosini tavsiflashda ular qo'llanilayotgan til vaziyatini inobatga olish kerak. Til vaziyati harakat mo'ljaliga nisbatan so'zlovchining o'rni, so'zlovchining turgan joyi (ichida yoki tashqarida), so'zlovchining ish-harakat jarayonida ishtirok etishi yoki etmasligiga ko'ra farqlanadi.

来 (*kelmoq*) va 去 (*ketmoq*) harakat yo'nalishi fe'llari tahlili quyidagi xulosalarga olib keladi:

1. So'zlovchi subyekt harakatida vaziyat ishtirokchisi bo'lishi mumkin. U sodir bo'layotgan harakatni tavsiflaydi, u turgan joy harakat mo'ljali bilan mos keladi. Bunday holatda 来 (*kelmoq*) va 去 (*ketmoq*) fe'llari qo'llanilganda, harakat yo'nalishi o'zaro mos bo'lmaydi.

2. So'zlovchi subyekt harakatida vaziyat ishtirokchisi bo'lishi mumkin. U sodir bo'layotgan harakatni tavsiflaydi, u turgan joy harakat mo'ljali bilan mos kelmaydi: so'zlovchi yoki harakat mo'ljali yonida, yoki harakat subyekt yonida bo'ladi. Bunday holatda 来 (*kelmoq*) va 去 (*ketmoq*) fe'llari qo'llanilganda, harakat yo'nalishi bir xil bo'lishi mumkin, tafovut – xabar markazida, so'zlovchining nimaga urg'u bermoqchi bo'lganidadir.

3. So'zlovchi subyekt harakati bilan bog'liq vaziyatda ishtirok etmaydi. U vaziyatni chetdan kuzatuvchi sifatida tasvirlaydi. Bunday holatda 来 (*kelmoq*) va 去 (*ketmoq*) fe'llarining qo'llanilishida harakat yo'nalishi o'zaro mos bo'lmaydi.

Shunday qilib, xitoy tilidagi 来 (*kelmoq*) va 去 (*ketmoq*) harakat yo'nalishi fe'llari ma'nolarini ochib berishdagi asosiy jihat bu sodir etilayotgan harakat mo'ljali hamda sodir etilayotgan harakat yo'nalishidir. Mo'ljal subyektiv (so'zlovchi) yoki obyektiv (jumlada ko'rsatilgan bo'ladi) aniqlanishi mumkin va doim ham so'zlovchining turgan joyi bilan mos kelmaydi. Harakat oriyentirini ko'rsatish bilan birga, xabar markazi va so'zlovchining harakat

vaziyatiga munosabati ham muhim. Xitoy tilidagi 来 (*kelmoq*) va 去 (*ketmoq*) harakat yoʻnalishi feʼllari semantikasi oʻta murakkab boʻlib, ularning qoʻllanilishi koʻp omillarga bogʻliq.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Задоевко Т.П., Хуан Шуин. Начальный курс китайского языка. Ч.2. Изд. 2-е, стер. – М.: Муравей, 2004.
2. Курдюмов В.А. Курс китайского языка. Теоретическая грамматика. – М.: Цитадель-Трейд; Лада, 2005.
3. Тань Аошуан. Проблемы скрытой грамматики (синтаксис, семантика и прагматика языка изолирующего строя) на примере китайского языка. – М., 2002.
4. 马烧莹 Ma Shaoin. 现代汉语趋向动词语义研究. Hozirgi xitoy tilida harakat yoʻnalishi feʼllari semantikasi tadqiqi. Magistrlik ishi. Fudan universiteti, 2004.
5. 幸承姬 Sin Sing Xi. 汉语趋向动词系统. Xitoy tili harakat yoʻnalishi feʼllari tizimi //Вестник китайского языка. – 2000. – № 1.
6. 张发明 Djan Faming. 趋向动词“来”“去”新义 (“来” va “去” harakat yoʻnalishi feʼllari haqida yangi tushunchalar)// 1983. – № 1. – Б. 95.

ХИТОЙ ТИЛИДА “СОЦИОЛОГИЯ” ТЕРМИНИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА ТАКОМИЛИ

*Фиёсов Бобур
ТошДШИ 1-курс магистранти.
Илмий раҳбар: с.ф.н. Шозаманов И.*

Тилда янги бир терминнинг шаклланиши, аввало, янги тушунчанинг юзага келиши билан узвий боғлиқ ҳисобланади. Миллат онгида шаклланган ёки бошқа миллатлардан ўрганган ғоя ёки тушунчани тилда акс эттириш биринчи галда унга ном бериш, уни аташ эҳтиёжини келтириб чиқаради.

XIX аср охири Хитой учун муҳим сиёсий, ижтимоий ва маданий ўзгаришларга бой давр бўлди. 清 *Qing* Цин сулоласи ҳукмронлигининг кучсизлашуви оқибатида юзага келган ижтимоий-иқтисодий инқироз, 1894–1895 йиллар хитой-япон урушининг салбий натижалари Хитойда тараққиётнинг янги концепцияси яратилиши зарурлигини кўрсатди. Янгича илғор фикрловчи қатор хитой олимлари Ғарбдан кўплаб илмлар катори янги тараққий этаётган фан – социологияни ҳам ўргана бошлашди.

Хитой тилида “социология” тушунчасини ифодалаш учун дастлаб “群学” *qunxue* термини қўлланилган бўлиб, мазкур термин 1895 – 1896 йилларда яратилган илмий адабиётлар, хусусан, Лянг Цичао (梁启超), Ян Фу (严复), Жанг Тайян (章太炎) ва бошқа жамоат арбобларининг илмий мақолаларида учрайди.

Маълумки, социоло́гия лот. *Societas* — жамият + кадимги юнон. Лыгпт - фан компонентларидан ташкил топган. Хитой тилида мазкур тушунчани ифодалаш учун қўлланилган илк термин 群学 *qunxue* ҳам икки компонентдан иборат бўлиб, бунда 群 *qun*

“жамоа, омма; тўда, гуруҳ” ва 学 *xue* “фан, таълимот” маъноларини англатади. “Социология” тушунчасини ифодалаш учун ясалган бу терминнинг асосини 群 *qun* морфемаси ташкил этади. 群 *qun* “жамият” маъносини ифодаламайди. Хитой лексикографик манбаларида унинг қуйидаги маънолари келтирилади: 1) ҳайвонлар тўдаси (галаси); 2) дўст, ҳамфикрлар, шериклар; 3) тўпланиш; 4) гуруҳ, тўда; 5) дўстона (муносабатлар); 6) умуммиллий; 7) кўпчилик; 8) қариндошлар [1, 3134 -3135]; [2, 2263]. Шунга қарамасдан, хитой тилида социология, яъни жамият ҳақидаги фан айнан шу морфема асосида ясалганлигини бир қанча фаразлар билан изоҳлаш мумкин: 群 *qun* конфуцийчиликда “кўпчилик, гуруҳ” маъносида кўп қўлланган. Демакки, бу сўз хитой халқи онгига сингган ва хитой олимлари янги кириб келган бу илмни қадимги хитой фалсафасига хос термин билан ифодалашни уни бутунлай ёт тушунча сифатида қабул қилишга йўл қўймас эди. Бундан ташқари 群 *qun* график жиҳатдан таҳлил қилинганда, ўзида сиёсий бўёқдорликни акс эттиради, иероглиф икки графемадан иборат бўлиб, унинг асос графемаси 君 *jun* “монарх” маъносини англатади. Шу орқали олимлар императорнинг халқ билан доим биргалигини, жамият халқни императордан айри ҳолда эмас, балки у билан уйғунлигини акс эттиришини етказмоқчи бўлганлар.

Кейинчалик Фарб олимларининг социологияга бағишланган асарлари хитой тилига таржима қилина бошланган. Бу борадаги энг катта ишлардан бири Г.Спенсернинг “Социологияни ўрганиш” асарининг хитой тилига таржима қилингани бўлиб (1898–1903 йй.), асарнинг хитойча номи ҳам 群学 *qunxue* термини воситасини берилган. Ва бу ўз навбатида мазкур терминнинг тилда янада мустаҳкам ўрнашишига хизмат қилувчи омил бўлди [3, 131].

XIX аср охирларида Хитойда кўплаб яширин гуруҳлар фаолияти бошланган бўлиб, бундай гуруҳлар 私会 *sihui* “махфий йиғин” (私 *si* “яширин” + 会 *hui* “мажлис; йиғин; учрашмоқ”) деб юритилган. Кейинчалик, мамлакатда юз берган сиёсий ўзгаришлар сабаб бундай гуруҳлар 社会 *shehui* “жамоа” (社 *she* “жамият, ташкилот” + 会 *hui* “мажлис; йиғин; учрашмоқ”) термини билан юритила бошланган. Аслини олганда хитой тарихий манбалардаги қайдлар шуни кўрсатадики, 社会 *shehui* лексемаси хитой тилида қадимдан мавжуд бўлган ва “яширин (махфий) йиғин” маъносини англатган. Масалан, “Сун сулоласи ҳаётидаги муҳим воқеалар” (《宋会要辑本》) китобида шундай жумла келтирилади: “近又有奸猾，改易名称，结集社会” Охирги пайтларда яна маккорлик кучайиб, номларини ўзгартириб, хуфёна йиғинлар ташкил қилмоқдалар [4, 6551].

Бироқ, 社会 *shehui*нинг “жамият” маъносини ифодалашни, унинг асосида ясалган қатор терминлар япон тилидан ўзлашган бирликлар ҳисобланади. Бу хусусида “Хитой тилида ўзлашма сўзлар луғати” луғат мақоласида қуйидагича изоҳ келтирилган: умумий бўлган ҳаракат доирасида ўзаро боғланган шахслар жамоаси, ёки умумий бир мақсад учун бирлашган омма. Асли япон тилида 社会 *shakai* инглизча *society* сўзининг калькаси сифатида шаклланган [5, 310].

Японияда социология фанини ўрганиш Хитойдан анча олдин бошланган бўлиб, бу фан номини таржима қилишда ҳам унинг маъно моҳияти чуқур ўрганилган ҳамда японча муқобили учун айнан 社会 *shakai* “жамият” сўзи асос қилиб олинган ва унга 学

gaku (хит. т. *xue*) “фан, таълимот” морфемаси қўшиш натижасида 社会学 *shakai-gaku* жамиятни ўрганувчи фан “социология” термини ясалган. 社会学 *shakai-gaku* французча *sociologie* сўзининг калькаси сифатида шаклланган. Кейинчалик бу термин хитой тилига ўзлаштирилган ва табиийки, хитой иероглифлари воситасида япон тилида ясалган термин, хитой тилига ўзлашгач хитойча талаффуз билан ўқилган, яъни 社会学 *shehuixue* “социология” [5, 311].

社会学 *shehuixue* “социология” термини хитой тилига ўзлашгач у олимлар ёки талабалар илмий ишларидагина эмас, матбуотда ҳам қўлланила бошлаган. Хусусан, 1902 йил 《新民丛报》 *Xinmin congbao* газетасида мазкур терминга қуйидагича изох бериб ўтилган: “社会者，日人翻译«society»英文之语。中国或译之为群，此外所谓社会，即人群之意耳。此字近日译日本书者多用之” “社会 *shehui* “жамият” инглизча “*society*” сўзининг япон тилига таржимасидир. Бу сўз хитой тилига 群 *qun* “тўда, жамоа” сўзи орқали таржима қилинар эди, зеро жамият бу инсонлар тўдаси (жамоаси) демакдир. Ҳозирда японлар таржимада 社会 *shehui* сўзини ниҳоятда кўп қўлламоқдалар” [6, 2].

Ҳатто 群学 *qunxue* терминининг асосчиси Лянг Цичао ўзининг 1901–1906 йиллар оралиғида эълон қилган илмий ишлари, мақолаларида ҳам “群学” *qunxue* термини ўрнига “社会学” *shehuixue* терминидан фойдаланганлигига гувоҳ бўлиш мумкин. У ўзининг “Миллатимиз” номли нашрида 200 марта 群 *qun* сўзини ва 60 марта 社会 *shehui* сўзини “жамият” тушунчасини ифодалаш учун қўллаган [7, 183].

1906 йилга келиб кўплаб сиёсий арбоблар нутқида ҳам “жамият” ёки “социология” тушунчалари 社会 *shehui* ва 社会学 *shehuixue* терминлари воситасида ифодалана бошлаган. Шу тариқа 1904 йилгача муомалада бўлган 群学 *qunxue* терминининг ўрнини 社会学 *shehuixue* термини эгаллаб олган.

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, хитой тилида “социология” термини бевосита Хитойда юз берган сиёсий ва ижтимоий ўзгаришлар натижасида юзага келган ва тараққий этган. Дастлаб “социология” ва унинг тадқиқот объекти бўлган “жамият” тушунчаларини ифодаловчи терминлар қадимги хитой фалсафаси конфуцийчиликка хос атама-лар воситасида ифодаланган бўлса, ўтган асрнинг бошларига келиб кўплаб хитойлик зиёлиларнинг Японияга бориб малакасини ошириши, япон олимларининг Ғарбда ривожланган фан соҳалари бўйича олиб борган тадқиқотларининг хитой илм аҳли томонидан ўрганилиши илм-фан соҳаларига оид бир қанча лексик бирликлар қатори “социология” терминини ҳам япон тилидан ўзлаштирилишига сабаб бўлди. Хитой тилига япон тилидан ўзлашган сўзларнинг синггиши ва тараққий этиши анча тез кечи-ши ҳақидаги фикрлар “социология” маъносини англатувчи “社会学” *shehuixue* термини мисолида яна бир бор ўз исботини топди. Чунки асли хитой иероглифлари воситасида япон тилида ясалган терминлар хитой тилига ўзлашгач хитойча талаффузда ўқилади ва тил ички имкониятлари асосида ясалган лексик бирликлардан деярли фарқланмайди. Тилга осон сингган бундай ўзлашмалар кейинчалик янги сўзлар, хусусан, терминларнинг ясалаши учун асос компонент бўлиб хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. 汉语大字典. –北京, 2010.
2. 辞海修订本. –香港: 商务印书馆, 1982.
3. Pan Dawei. Guanyu Zhongguo shehuixue shi. 2009. 130 – 136 ye.
¹ 流行语 Оммалашган сўз ва иборалар // https://www.chazidian.com/r_ci_50eb739f30c0e66111a1aafc14661159

²钱乃荣著。上海话流行语新编。-上海：上海大学出版社，2013年，307-311 бетлар.

(йўловчиларни бирмунча вақт давомида ташиб туриш машинаси), “腦子格式化了 *nǎozi gésì huàle*” (компьютерни Д-дискдаги маълумотларни форматлагандек, миядаги барча нарсаларни эсдан чиқариш, миянинг бўшлиғи) сўз ва иборалари эса ҳозирда жуда ҳам оммалашган. Оммалашган сўзларнинг айримлари эса, кўп йиллар давомида истеъмолда бўлади. Масалан, Шанхай диалектида XX асрнинг 20 йилларида мавжуд бўлган сўзлари ҳозирга қадар фойдаланиб келинмоқда. Баъзи бир сўзлар олдинлари ишлатилиб, бир мунча вақтдан сўнг, йўқолиб кетилган, аммо кейинчалик вазият тақазоси билан яна пайдо бўлган, қайта жонланган. Масалан, “差头 *chātóu*” (такси тўхтатмоқ) сўзи XX асрнинг 10 йилларида жуда ҳам оммалашган, шу асрнинг сўнгги йилларида йўқолиб кетган бу сўз ҳозирда айнан мана шу маънода қайта ишлатила бошланди.

Тилимиздаги кўп сўзларнинг кўчма маъноси мавжуд. Оммалашган сўз ва ибораларнинг аксарияти маъжозий маънода ишлатилади. Масалан, “免提听筒 *miǎntī tīngtǒng*” ибораси кўчма маънода ўзига-ўзига гапирадиган, яъни ҳеч ким уни эшитмайдиган инсонларга нисбатан, “调频道 *diàopíndào*” сўзи мавзунини ўзгартиришни, “放电 *fàngdiàn*” одамларни ўзига жалб қилишни, “复盘 *fùpán*” ажралишганларнинг такроран турмуш қуришларини, “死机 *sǐjī*” сўзловчи тингловчини бир зумда жавоб қайтармасдан, ўйланиб турганида шу сўздан фойдаланади. Бу сўз ва ибораларнинг барчаси аташ маъносида эмас, балки кўчма маънода ишлатилади, чунки улар таркибидаги бўғинларнинг маъноси бир-бирига мос тушмайди.

Оммалашган сўз ва иборалар маълум бир ҳудудда яшовчи қабила, уруғ ёки гуруҳларнинг оғзаки нутқида ишлатиладиган сўзлардан келиб чиққан. Маълумки, тилнинг маълум ҳудуддаги оғзаки қўлланишидаги хусусиятларини ўзида акс эттирган шакли шева ёки диалект деб аталади¹. Демак, оммалашган сўз ва ибораларда шева ҳамда диалектнинг ўрни беқиёс, чунки кундалик ҳаётда инсонлар, асосан, шева ва диалектдан фойдаланган ҳолда суҳбатлашишади. Масалан, “生猛 *shēngměng*” (жўшқин, куч-ғайратга тўлган), “火爆 *huǒbào*” (оммабоп; чакнаб турган кўзлар) сўзлари Гуандонг диалектидан келиб чиққан бўлиб, ҳозир Шанхай шаҳригача бўлган масофада оммалашиб, мана шу шаҳарларда яшайдиганлар томонидан фойдаланилмоқда. “一枪头 *yìqiāngtóu*” (бир зумда), “放鸽子 *fànggēzi*” (учрашувга келмаслик) ва “劈硬柴 *pīyìngcháí*” (овқатланишга борганда ҳамма ўзи учун пул тўлаш) сўзлари эса Шанхай диалектидан келиб чиққан.

Бир маҳаллий шевадан фойдаланувчилар орасида турли жамият вакиллари, яъни турли хил табақалар мавжуд, албатта, уларда ҳам ўзига хос, турли хил оммалашиб кетган сўз ва иборалар пайдо бўлади. Масалан, Кантон шевасидаги “炒鱿鱼 *chǎoyóuyú*” (ишдан бўшатмоқ), “按揭 *ànjiē*” (гаров, ипотека) сўзлари Гонконгдан етиб келганлигига қарамасдан, Гуанжоуда истиқомат қилувчилар бу сўзлардан фойдаланишмайди. “作秀

¹А.Абдуазизов. Тилшунослик назариясига кириш. – Т: Шарк, 2013. 130-бет.

zuòxiù” (шоу уюштирмак) ва “三八 *sānbā*” (ахмоқ; 8 март) сўзлари эса Тайвандан етиб келган.

Кўпчилик оммалашган сўз ва иборалар жамиятнинг маълум бир қатламлари вакиллари орасида кенг ёйилган ва тарқалган бўлади. Уларнинг маъноси кўпчиликка тушунарли бўлмаса-да, ана шу гуруҳ вакиллари учун фаол ва тушунарли бўлади. Масалан, “爬格子 *págézi*” (мақола ёзмак) – ёзувчилар, “背猪猡 *bèizhūluó*” (дарсдан, предметдан ўқувчига уйда ёрдам кўрсатувчи ўқитувчи) – лицей-колледж ўқитувчилар, “拉网 *lāwǎng*” (ҳар томонлама қуршовга олмак) – милиционерлар, “砌墙头 *qìqiángtóu*” (Маджонг, яъни Хитойча домино ўйнамак) – нафақага чиққан ходимлар, “关脱 *guāntuō*” (оғзингни ёп; имтиҳондан ўта олмаслик) – талабалар, “二进宫 *èrjìngōng*” (иккинчи маротаба қўлга олиниш) – безорилар орасида фойдаланиладиган оммалашган сўзлар ҳисобланади.

Оммалашган сўз ва иборалар оддий халқ вакиллари нутқида кенг фойдаланиши орқали оммалашади. Бунда мақол ва матал, вулгаризм ва жаргонларни тилга олмасликнинг иложиси йўқ, чунки буларнинг барчаси ҳаётий тажриба асосида халқ томонидан яратилган, бири панд-насихатга оид бўлса, бири ҳикматли сўз, яна бири айрим инсонлар ўртасида ишлатиладиган бузилган сўзлардир. Масалан, “马大嫂 *mǎdàsǎo*” уй ишлари билан банд бўлган уй бекаси тушунилади; “粢饭糕 *cīfàngāo*” одамни ғашига тегадиган, калтафаҳм қиз назарда тутилади; “一脚踢到十六铺 *yìjiǎotī dào shíliù pù*” узок масофага тепмак, яъни жўнаб қол деган маънода ишлатилади; “碰着依算我路道粗 *pèngzháo nóngsuàn wǒ lùdào cū*” сўзловчини қарама-қарши томоннинг хатти-ҳаракатларига нисбатан кучсиз эканини билдиради; “饭泡粥 *fàn pào zhōu*” “长得对勿起人民 *zhǎngdé duì wùqǐ rénmin*” ва “长得对勿起市容 *zhǎngdé duì wùqǐ shìróng*” иборалари ташқи кўриниши хунук бўлган инсонлар назарда тутилади.

Оммалашган сўз ва иборалардан энг кўп фойдаланувчилар ёшлар ҳисобланади, чунки ёшлар янги маълумотларни, нарса ва ходисаларни, бир сўз билан айтганда, янгиликларни жуда осон қабул қила оладиган, ижод билан шуғулланадиган жамиятнинг энг фаол бир бўғинидир. Улар ҳаётий куч-ғайратга эга, ҳар қандай тўсиқларни дадиллик билан енгиб ўтишга кодирдирлар. Масалан, ҳозирги замонавий ҳаётда улар бир қатор бир бўғиндан иборат кўплаб сифатлардан фойдаланишади, Жумладан, “爽 *shuǎng*” (қувончли), “酷 *kù*” (ажойиб), “蔻 *kòu*” (жозибали, дилбар), “跳 *tiào*” (кўзга ташланиб турувчи, ёрқин), “炫 *xiàn*” (порлоқ, ёрқин, кўзни қамаштирувчи), “妖 *yāo*” (сеҳри, жозибадор, мафтун), “牛 *niú*” (бошқалардан устун, кучли), “逊 *xùn*” (итоаткор, вафодор), “草 *cǎo*” (қўпол, бепарво), “巴 *bā*” (қолоқ) шу каби сўзлар киради. Ҳозирда кенг ишлатилаётган янги оммалашган сўз ва ибораларнинг деярли барчаси 30 ёшдан ошмаган ёшлар томонидан пайдо бўлмоқда, чунки уларда инновация, янгилик ҳамда бошқаларга бўйсиниш, итоат қилиш каби икки катта афзаллик мавжуд.

Юқоридаги мисоллардан маълум бўлдики, оммалашган сўз ва ибораларнинг хусусиятлари қуйидагилардан иборат:

- 1) Хитой тилида 流行语 *liuxingyu* оммалашган сўз ва иборалар, асосан, оғзаки нутқда фойдаланилади.
- 2) Оммалашган сўз ва ибораларнинг вақт ҳамда ҳудуд билан ўзаро боғланганлиги мавжуд.
- 3) Маъжозий маънода ишлатиладиган оммалашган сўз ва иборалар деярли 40 %ни ташкил этади.
- 4) Оммалашган сўз ва иборалардан энг кўп фойдаланувчилар ёшлар ҳисобланади.
- 5) Вулгаризм, жаргон, мақол ва маталлар, неологизмларга оид сўзлар тез суръатларда ривожланиб, оммалашади ва улар 75 %ни ташкил қилади.
- 6) Юқоридаги сўз ва ибораларнинг аксарияти лексик маъносидан тубдан фарқ қилади, ўзаро бирикмайдиган сўзлар, кўплаб оммалашган сўз ва ибораларда бирга фойдаланиб, ўз маъносини йўқотади.

Хулоса тарзида шуни айтиш мумкинки, ҳозирда кенг фойдаланиб келинаётган сўз ва иборалар турли хил йўллар орқали ясаилишига қарамасдан, ҳар бир даврнинг ўзига яраша оммалашган сўз ва иборалар мавжуд бўлиб, уни пайдо бўлиши ва ривожланишидан қатъий назар, ўзида жамиятнинг маданиятини, одатларини намоён қилади ва бойитиб боради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. 钱乃荣著。上海话流行语新编。-上海：上海大学出版社，2013年。
2. 现代汉语词典。-北京：商务印书馆，第6版，2012年。
3. 刘月华等著。实用现代汉语语法（增订本）。-北京：商务印书馆，2001年。
4. https://www.chazidian.com/r_ci_50eb739f30c0e66111a1aafc14661159

TURK VA INGLIZ XALQLARI MAQOLLARIDA “DO‘STLIK” KONSEPTI TALQINI: O‘XSHASH VA FARQLI JIHATLAR

*Zayniddinova Komila
ToshDSHI 3-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Sodiqova Sh.*

Ma'lumki, maqol — xalq ogʻzaki ijodi janri: qisqa va loʻnda, obrazli, grammatik va mantiqiy tugal maʼnoli, chuqur mazmunli hikmatli ibora. Muayyan ritmik shaklga ega. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuygʻulari, ijobiy fazilatlarini mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan¹.

¹Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Toshkent, 2003 yil. 5-jilt, 530-bet.

Turk xalq maqollarida **“Do‘stlik”** mavzusi monografik planda tadqiq etilmagan. Ammo, ayrim maqolalar ishlangan bo‘lib, shulardan biri Durbilmez Bayramning “Türk dünyası atasözlerinde arkadaşlık, barış ve hoşgörü” nomli maqolasidir. Ushbu maqolada, turk xalq maqollarida do‘stlik konsepti tinchlik, muruvvatlilik tushunchalari bilan keng qamrovli yoritilgan. Mazkur ishning o‘ziga xos jihati shundaki, unda turk tilidagi bir maqol qardosh turkiy xalqlaridagi bir necha ekvivalenti bilan qiyoslab keltiriladi. Misol uchun: *“Dostun bin tane olsa da az, düşmanın bir tane de olsa çok”* maqoli: Kazakistan Türkleri *“Dostuñ mıñ bolsa az, duşmanıñ birev bolsa da köp”* (Durbilmez, 2000);

Kırgızistan Türkleri *“Dostuñ mıñ bolso da azdıq kılát/ Duşmanıñ biröö bolso da köptük kılát* (Dostun bin olsa da az gelir/ Düşmanın bir olsa da çok gelir)” (Çelik Şavk, 2002);

“Cüz dos az, bir kas köp (Yüz dost az, bir düşman çok)” (Çelik Şavk, 2002);

Kumuk Türkleri *“Yüz dos-az, bir duşman köp* (Yüz dost az, bir düşman çok)” (Pekacar, 2006);

Türkmenistan Türkleri *“Dostuñ, müñ bolsa da entek az, duşmanıñ iki bolsa eyyem ken* (Dostuñ müñem bolsa az, duşmanıñ birem bolsa köp)” (Geldiyev, 2002);

Kosova Türkleri *“Dost bin ise azdır, duşman bir ise çoktor”* (Hasan, 1997)¹ kabi bir necha shakllarda yoritib berilgan.

Bunda ko‘rinib turibdiki, Durbilmez Bayram turk xalqining do‘stlikka oid **“Dostun bin tane olsa da az, düşmanın bir tane de olsa çok”** ya’ni **“Do‘sting mingta bo‘lsa ham kam, dushmaning bitta bo‘lsa ham ko‘p”** maqolini besh qardosh tildagi (qozoq, qirg‘iz, turkman, kamuk, kasova) ekvivalentlarini keltirib o‘tgan. Yuqoridagi maqollar ma’no jihatdan, hattoki, ba’zi so‘zlarning o‘xshashligi hamda talaffuzi jihatidan bir - biriga yaqin bo‘lib, ularda: do‘stlar qanchalik ko‘p bo‘lsa-da doimo kamdek tuyulishi, chunki inson har damda do‘stlariga suyanishi; insonning dushmani bir dona bo‘lsa ham ko‘plik qilishi, chunki bir yomon odamdan ham juda ko‘p yomonliklar kelishi mumkinligi ta’kidlangan.

Turk va ingliz xalq maqollarida **“Do‘stlik”** tushunchasining ma’no qamrovlarini qiyosiy-tahliliy usulda o‘rganish maqsadida Ömer Asım Aksoyning “Türk atasözleri ve deyimler sözlüğü” va William George Smithning “The Oxford dictionary of English proverbs” manbalariga oid do‘stlik haqidagi maqollar terib olindi. Ömer Asım Aksoyning “Türk atasözleri ve deyimler sözlüğü” kitobi 1993-yil Istanbulda chop etilgan bo‘lib, 380 ta turk xalq maqollari jamlanmasidan iborat. William George Smithning “The Oxford dictionary of English proverbs” kitobi 2002-yil Angliyada chop etilgan bo‘lib, 418 ta ingliz xalq maqollarini o‘z ichida jamlagan. Ushbu maqolaning do‘stlik konseptini qiyosiy - tahliliy jihatini yoritishda, do‘stlik mavzusiga oid maqollarning o‘n ikkitasi “Türk atasözleri ve deyimler sözlüğü” kitobidan, o‘n beshtasi esa “The Oxford dictionary of English proverbs” kitobidan harakterlilari saralab olindi.

Dastlab, turk va ingliz xalqlarining **“Do‘stlik”** haqidagi o‘zaro bir-biriga ma’no jihatidan o‘xshash bo‘lgan maqollariga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

1. Turk tilidagi **“Dost kara günde belli olur”** maqoli, turk tilidagi **“A friend in need is a friend indeed”** (Do‘st boshga tashvish tushganida bilinadi) maqoli bilan ma’nodoshdir.

¹Qarang: Türk dünyasındaki benzerleri için bkz.: Çobanoğlu, 2004:223-224.

2. Turkcha “*Akıllı düşman - akılsız dosttan hayırlıdır*” maqolining ingliz tilidagi ekvivalenti “*Better an open enemy than a false friend*” (Noto‘g‘ri do‘stdan ochiq dushman afzal) hisoblanadi.

3. “*Arkadaşların kim olduğunu söyle ve sana kim olduğunu söyleyeyim*”, maqolining esa ingliz tilidagi ekvivalenti “*A man is known by the company he keeps*” (Odam atrofidagi do‘stlarining kimligiga qarab qadrlanadi) dir.

4. Turkcha “*Dost acı söyler*” maqolining ingliz tilidagi ekvivalenti “*The eye of a friend is a good mirror*” (Do‘stning ko‘zi eng yaxshi oynadirya’ni bu yerda, yaxshi do‘st barcha nuqson-u kamchiliklarni insonga ochiq ko‘rsatuvchi oynaga qiyoslanmoqda) hisoblanadi. Ya’ni haqiqiy do‘st nafaqat insonni yutuqlarini balki, kamchiliklarini ham ochiq ayta oladi, ma’nosini bermoqda.

Demak, inson haqiqiy do‘sti kim ekanligini biror musibatli kunida yaxshi anglashi; sadoqatli do‘st doim rost gapirishi va bu bilan achchiq bo‘lsada har doim haqiqatni so‘zlab, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishi; agar do‘sti ahmoq bo‘lsa odamni noqulay vaziyatlarga solib qo‘yib, pand berishi mumkinligi, shuning uchun ham do‘st tanlashda adashmaslik kerakligi yuqoridagi maqollar orqali tushuntiriladi.

Turk tilidagi do‘stlikka oid ba’zi maqollarning ingliz tilida bir necha ekvivalentlari mavjud, hozir ana shularga to‘xtalib o‘tamiz.

“*Dost kara günde belli olur*” maqolining ingliz tilda uch xil ekvivalenti mavjud:

1. “*A friend is never known till needed*” (Haqiqiy do‘stning kimligini, unga muhtoj bo‘lmaguncha bilmaysan);

2. “*Friends are made in wine and proved in tears*” (Do‘stlar bayramda ko‘payadi, ko‘z yosh to‘kilganda sinaladi);

3. “*Prosperity makes friends, adversity tries them*”(Omad do‘stlarni ko‘paytiradi, qiyinchilik ularni sinaydi).

Bu maqollar orqali, hayotda ko‘p uchraydigan holat ya’ni, yaxshi kunda, to‘y-u bayramlarda doim do‘st-u birodarlarning ko‘payishi, hizmatda bo‘lishi; biror tanglik yoki tashvishli holatga duch kelinganda esa, manfaat uchun do‘st bo‘lganlar birdan yo‘q bo‘lib qolishi, faqatgina chin do‘stlarga yordamga shay turishlari yoritilgan.

“*Yeni dosttan vefa gelmez*” maqolining ham ingliz tilida ikki ekvivalenti mavjud.

1. “*Friendships are cheap when they can be bought by dropping the hat*” (To‘satdan paydo bo‘lgan do‘stlikning qadri kam);

2. “*Sudden friendship, sure repentance*” (To‘satdan paydo bo‘lgan do‘stdan tezda pushaymon yeyish mumkin) hisoblanadi.

Keltirib o‘tilgan maqollarda: yangi do‘sting paydo bo‘lganida eskisini unutmaginki, yangi do‘st senga tezda xiyonat qilishi mumkin. Chunki, yangi do‘st hali sinalmagan bo‘lib, ko‘p hollarda quvonchli kunda orttirilgan bo‘ladi; uzoq fursatdan beri barcha damlarda birga bo‘lib kelgan do‘stdan tezda yuz o‘girmaslik kerakligi, chunki bunday do‘stlar sinalgan va sadoqatli bo‘lishi ta’kidlanmoqda.

Turk tilidagi do‘stlikka oid maqollarning ingliz tilida bir necha ekvivalenti mavjud bo‘lganidek, ingliz tilidagi ba’zi maqollarda ham ana shunday holatni ko‘rishimiz mumkin.

Masalan: “*All are not friends that speak us fair*” (Haqiqiy do‘st bahslashadi, do‘st bo‘lmagan esa har gapni maqullaydi) maqolining turk tilida ikki ekvivalenti mavjud. Bular,

1. “*Dost dostun aybını yüzüne söyler*”;

2. ***“Dost aqlatir, dushman güldürür”***dir.

Ya’ni, chin do’st har doim ham yaxshi so’zlab, barcha fikringizni ma’qullamaydi; insonni biror aybi bo’lsa, yoki biron xato ish qilayotgan bo’lsa, albatta, haqiqiy do’st uni bu yo’ldan qaytarish uchun harakat qiladi, buning uchun kerak bo’lsa bahslashishi yoki qattiq so’zlashi ham mumkin. Lekin bu, albatta, o’z do’stining foydasi uchun qilingan ish bo’ladi. Do’st bo’lib ko’rinib, odam qilayotgan har ishni ma’qullayvergan, aslida dushman hisoblanadi. Chunki, bunday yolg’on do’stlar do’sti qachon xato qilishi poylab yuruvchi, kerak bo’lsa, uni noto’g’ri yo’lga burib yuborishga tayyor bo’lgan dushman hisoblanadi. Yuqoridagi maqollarda ana shu ma’nolar ochib berilgan.

Bizga ma’lumki, barcha xalqlarda do’stlik ulug’lanadi, do’stga vafodorlik, mehr-oqibatlilik, og’ir kunlarda do’stga tirgak bo’lish singari axloqiy mezonlar ham maqollarda keng yoritiladi. Bular do’stlik tushunchasini ochib berishdagi umumiy jihatlar bo’lib, navbatdagi misollar orqali har ikki xalq orasida do’stlik tushunchasiga bo’lgan munosabatning farqli jihatlari ham keltirib o’tiladi.

Turk maqollaridan farqli ravishda, inglizlarning **“Do’stlik”**ga oid maqollarida – pul, boylik, mansab tushunchalari ham qo’llaniladi. Bu esa, o’z navbatida g’arb davlatlarida, xatto, do’stlik ham **“boylik”** bilan o’lchanishini ko’rsatib beradi.

Shu o’rinda, sharq va g’arb madaniyatidagi tafovutlar – xalq og’zaki ijodi namunasi sanalgan maqollarda ham ochiq ko’zga tashlanishini ko’rishimiz mumkin. Fikrimning dalili sifatida quyidagi misollarni ketirib o’taman:

“A friend in court is better than a penny in purse” (Muammoni hal qilishda pul emas, “yaxshi aloqalar” ko’proq yordam beradi);

“It’s good to have some friends both in heaven and hell” (Ikki do’sting bo’lgani yaxshi-biri jannatdan biri do’zaxdan ya’ni, yaxshi aloqalar barcha narsani hal qiladi);

“Short debts make long friends” (Qarz qancha kam bo’lsa, do’stlik ham shuncha mustahkam bo’ladi);

“Friendship is like money, easier made than kept” (Do’stlik pulga o’xshaydi-uni topish oson, saqlab qolish qiyin) ushbu maqolda “do’stlik” hattoki, qadri yo’q pulga qiyoslangan;

“The friendship of the great is fraternity with lions” (Obro’li odamlar bilan do’st bo’lish, sherlar bilan oshnachilik qilish bilan barobar).

Yuqoridagi misollar orqali ko’rib o’tganimizdek, g’arb xalqlari maqollarida faqatgina yaxshi do’st orttirish emas, balki yomon do’st ham bir kun kerak bo’lib qolishi mumkinligini, ya’ni har qanday do’st bo’lsa ham bo’laveradi, chunki turli vaziyatlarda yaxshisidan ham, yomonidan ham foyda ko’rish mumkinligini ochiq oshkor etilgan. Ajablanarlisi shundaki, sharq xalqlari uchun muqaddas sanalgan do’stlikni, g’arb xalq maqollarida to’g’ridan to’g’ri “pul”ga qiyoslanishini ko’rib o’tdik. Bu esa, **“Do’stlik”** tushunchasiga bo’lgan munosabat har ikki xalq orasida keskin farq qilishini kuzatishimiz mumkin.

Turk xalqining **“Do’stlik”** haqidagi maqollarida esa, boylik, mansab tushunchalari emas, balki: ***vafu, ishonch, har qanday vaziyatda do’stiga yordam qo’lini cho’zish*** g’oyalari birinchi o’rinda turadi. Bu fikrga dalil sifatida turk xalqining **“Do’stlik”**ka oid maqollaridan namuna keltirish mumkin:

“Dost dostun eyerlenmiş atıdır” (Har qanday vaziyatda do’stiga yordam uchun hozir turish ma’nosini bermogda);

“Bin altının olacağına bir dostun olsun” (Mingta oltining bo‘lganidan ko‘ra bitta do‘stining bo‘lsin);

“Dostluk para ile alınıp satılmaz” (Do‘stlik pul bilan sotib olinmaydi). Ko‘rib turganimizdek turk xalqida **“do‘stlik”** pul bilan tenglashtirilmaydi, ammo yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek ingliz xalqida xatto **“do‘stlik”**ni ham o‘z o‘lchovi mavjud va u pul bilan o‘lchanadi.

“Dostların ziyaretlerine yavaş git, felaketlerine koş koş” ya’ni do‘stlarning yaxshi va yomon kunida birga bo‘lishlik, ayniqsa boshiga falokat tushganida do‘stga darhol yordam qo‘lini cho‘zish kerakligi yoritilmoqda.

Ushbu misol tariqasida keltirilgan maqollarda, sharq madaniyatidagi o‘ziga xoslik va g‘arb madaniyatidan farq qiluvchi jihatlar yoritilgan bo‘lib, bular: insonda qanchalik boylik ko‘p bo‘lmasin, pul birgina haqiqiy do‘stning o‘rnini hech qachon bosolmasligi; sodiq do‘st birodarining boshiga kulfat kelganida “egarlangan ot” singari har doim yordamga shay turishi kabi umumiy xulosalar berilgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, maqollar xalq og‘zaki ijodining ajralmas qismi sanalib, barchaga o‘git, namuna sifatida tilga olinadi. Har ikki xalq maqollarini qiyosiy tahlil qilish jarayonida, **“Do‘stlik”** konseptining 3 xil asotsatsiyasi aniqlandi. Bular:

I. Ikki xalq maqollarida **“Do‘stlik”** tushunchasiga oid namunalardagi o‘zaro o‘xshash jihatlar:

1. **“Do‘st” -“yaxshi inson”**; insonning do‘sti har doim birodarida faqat yaxshilikni ravo ko‘rishi, yomonliklardan himoya qilishi;

2. **“Do‘st” -“tirgak”**; ya’ni mushkul damlarda ham, baxtli kunlarda ham doim birodarini qo‘llab-quvvatlovchi inson ekanligi;

3. **“Do‘st” -“ko‘zgu”** bo‘lishi, nafaqat yutuqlarini balki, kamchiliklarini ham ochiq ayta oladigan mard inson ekanligidir.

II. Variativlik: turk va ingliz maqollarida o‘zaro variativlik, ya’ni bir necha ma’nodosh variantlarga egalilik aniqlandi.

III. Turk va ingliz xalqlarining **“Do‘stlik”** konseptiga oid maqollarida mavjud farqli jihatlar:

Sharq va g‘arb madaniyati har sohada bir biridan farq qiladi va bu farqlar maqollarda ham o‘z ifodasini topgan. Ya’ni turk xalqining **“Do‘stlik”**ga oid maqollarida: pand-nasihat, o‘git berish, do‘stiga xiyonat qilmaslik, har qanday holatda ham yordamga shay turish, vafodor bo‘lish g‘oyalari ustunlik qilsa, ingliz maqollarida esa: ko‘proq shaxsiy manfaatlar ustunligi ko‘zga tashlanadi. Ya’ni g‘arbda do‘stlik ham manfaatlar ustiga qurilishi, do‘stlikning o‘z qiymati borligi, moddiy boylik bilan o‘lchanishi, do‘st tanlayotganda u insonning yaxshi yoki yomonligidan qat’iy nazar do‘st tutunaverish (bir kun uning ham yordami tegib qolishi mumkinligi) qarashlari ham ilgari surilgan bo‘lib, ikki xalqning nafaqat madaniyatidagi, balki ma’naviyatidagi farqliliklar ham ochiq namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Toshkent, 2003. 5-jild;
2. Ömer Asım Aksoy. Atasözleri ve deyimler sözlüğü. İnkılâp Yayınevi. İstanbul, 1993;
3. The Oxford dictionary of English proverbs - William George Smith, 2002;

4. Nevin Güngör Ergan. “Türk atasözleri ve deyimlerinde aile ve akrabalık anlayışı” Ankara, 2010;
5. Durbilmez Bayram. “Türk dünyası atasözlerinde arkadaşlık, barış ve hoşgörü” İstanbul, 2007;
6. www.phrases.org.uk/meanings/proverbs.html;

СЕМАНТИКА СЛОВООБРАЗОВАНИЯ В АРАБСКОМ ЯЗЫКЕ

Хамдамова Наргиза
Студентка 3-го курса ТаиГИВ
Научный руководитель: старший препод. Касимова С.

Семантический способ образования новых слов в арабском языке связан с вопросом о полисемии, т.е. «многозначности», свойственной большинству обычных слов. Слова как названия могут легко переходить с одной вещи на другую или на какой-либо признак этой вещи или на ее часть. Поэтому вопрос о полисемии – это, прежде всего, вопрос перемены вещей при тождестве слова. Одно и то же слово может иметь несколько значений. Эти значения могут быть связанными между собой, образуют семантическое единство на общей понятийной основе (полисемия) или же могут создать тождество звуковых комплексов несвязанных семантически слов (омонимия).

Многозначность широко распространена в арабской лексике и обычна для самых употребительных слов, в отличие от однозначности – однозначные слова в арабском языке довольно редкое явление.

Полисемия (الاسماء المشتركة) издревле считается неизменным следствием диспропорции между ограниченным числом знаков речи и бесчисленным количеством понятий, которые должны быть обозначены в языке. В истории арабского языка исходные значения слов по преимуществу конкретны: арабы имели огромное многообразие конкретных наименований окружающего их мира, исторически наиболее обычным типом перехода был переход от конкретного значения к отвлеченному, абстрактному.

Древние арабские языковеды указывали, что путь к изменению значения лежит через переносное употребление слов. Первичное, непереносное употребление слов («الحَقِيقَةُ») противопоставляется их переносному, метафорическому употреблению («المَجَازُ»). Процесс закрепления в употреблении переносных значений, особенно терминов, именуется термином «النَّقْلُ» [1;31].

Изменения значений существующих слов являются результатом трех разных процессов. Два из них ограничены рамками арабского языка и сводятся либо к самостоятельному и медленному развитию эволюции в значениях слов, либо же оживлению выпавших из употребления старых слов с использованием их в новых значениях. Третий обусловлен контактами с другими языками и представляет собой заимствование арабскими словами значений, сходных по семантике иностранных слов.

В историческом плане семантические изменения обычно классифицируются по характеру семантических сдвигов в значениях отдельных слов. Их подразделяют на:

- а) сужение значений;

б) расширение значений (в этих двух случаях сопоставляются первоначальный и последующий объемы понятий);

в) смещение, сдвиг значений (метафора, метонимия, синекдоха и некоторые другие), выражающие изменение значений безотносительно к их объему.

Сужение значения заключается в переходе от общего, родового значения к частному, видовому. Например (первым дается классическое значение, вторым - современное): أَثَاثٌ – «все имущество (включая скот)» > «обстановка (дома)», وَلَدٌ – «дитя (любого пола)» > «по преимуществу мальчик». Особенно типично сужение значений в процессе терминологизации существующей лексики. Многие термины ислама были образованы именно таким способом на базе домусульманской лексики: حَجٌّ – «отправление, уход куда-либо» > «паломничество», مُسَلِّمٌ – «передающий, вручающий» > «мусульманин» [4; 35].

Расширение значения – это переход от узкого, частного значения к широкому, родовому значению: سَفْرَةٌ – «питание путника» > «обеденный стол», سَجَّادَةٌ – «коврик для молитвы» > «ковер», زَيْتٌ – «оливковое масло» > «любое растительное или минеральное масло», أُدِيمٌ – «кожа» > «кора, почва, поверхность», قَضِيَّةٌ – «судебное дело» > «дело, вопрос, проблема», بَيْغَاءٌ – «попугай» > «попугайничанье, передразнивание» и др. [2; 27].

Метафора представляет собой перенос наименования с одной вещи или явления на другую на основе их сходства и подобия: عَيْنٌ – «глаз» > «соглядатай», مَنْزِلٌ – «место, где останавливаются на привал» > «жилище», مِسْلَةٌ – «большая игла» > «обелиск».

Метонимия сводится к ассоциации по смежности – слово, обозначающее какое-либо явление, предмет обозначает смежное явление (связи типа содержание – содержащее, причина – следствие, материал – изделие из него, имя собственное – имя нарицательное и т.п.), ср. يَمِينٌ – «правая рука» > «клятва», صَفَّقَ – «ударить по рукам» > «сделка», رِصَاصٌ – «свинец» > «пули».

Метонимия как способ переноса была весьма характерным явлением в арабском языке. Отмечалось, например, что в языке арабов принято называть вещь именем причины, как называют مَطَرٌ «дождь» словом سَمَاءٌ «небо», потому что он с неба и потому что небо – причина дождя. К метонимии относится также употребление собственных имен в качестве нарицательных: طُفَيْلِيٌّ – «назойливый гость» и даже «нахлебник, паразит, приживала» от имени куфийца Туфейля, прославившегося своей назойливостью.

Удачные случаи переноса слов из одной эпохи в другую, тонко уловленное сходство между старыми значениями слова и новыми по значению своему не уступает созданию нового слова. Сравните: مَجَلَّةٌ – «свиток, книга» > «журнал», أُرْبَةٌ – «узел» > «галстук».

И, наконец, сдвиги в значениях слов нередко обусловлены прямым воздействием другого языка. Они представляют собой семантическое примыкание арабского слова к аналогичному по своему прямому номинативному значению иноязычному слову. Этот процесс семантического калькирования играет заметную роль в приспособлении арабского словаря к современным нуждам. Например, буквальный перевод иноязычных составных речений метафорического типа: لَوْنٌ صَارِحٌ – «кричащий цвет», حَقِيقَةٌ عَرَبِيَّةٌ – «голая правда», نَظَارَةٌ وَرْدِيَّةٌ – «розовые очки».

Семантическое содержание многозначного арабского слова структурно организовано, в нем можно проследить иерархию значений. Главную роль при этом играет одно основное значение, остальные подчинены ему и прямо или косвенно вытекают из него. Самым важным и главным значением является то значение, которое в наименьшей мере обусловлено контекстом. Вне контекста слово осмысливается в его основном значении. Это наиболее употребительное, общепринятое и распространенное значение. Частные, второстепенные значения всегда связаны с осмыслением слова в контекстах и вытекают из главного [4, 121]. Это хорошо видно на примере семантической структуры слова «اخ», в котором отмечены значения: 1) родной брат; 2) друг; 3) подобный, такой же (как в выражении: الثوباخو هذا هذا – «это платье такое же, как это»); 4) присущий чему-л. (как в выражениях اخو الحرب – «все время воюющий, воинственный») и, наконец, к ним добавляется последнее, пятое, обозначающее принадлежность к тому же племени (как в обращении يا اخا تميم – «брат из Тамима»). Здесь основным и прямым является первое значение, остальные прямо вытекают из него. Они менее распространены, больше связаны с выражением стилистического момента, экспрессивных и эмоциональных оттенков, различаются по показателю частотности. В то же время отдельные значения могут быть равно прямыми и номинативными, могут не иметь экспрессивно - эмоционального оттенка и быть одинаково распространенными, но в значении своем одно из них явно производно и зависит от другого. Сравните: رأس – «голова» (человека, животного) и далее – прямой перенос без всякой метафоричности в сочетании رأس الشجرة - «вершина дерева».

Арабский словарь включает большое количество слов с обобщенными значениями, которые при переводе на другой язык передаются разными словами, например, «صَوْت» обозначает звучание любого предмета, явления (человека, камня, двери, животного, птицы и т.д.), «جَرَوْ» - обозначает детеныша, щенка любого хищного зверя, «فَرَخ» - любого птенца, «بَطْن» - внутреннюю часть любого живого существа или предмета, «شَطِيَّة» - осколок любого твердого предмета и т.д. [4; 137].

Таким образом, семантический способ образования слов в современном арабском языке в высшей степени продуктивен, так как богатейшая арабская синонимика заключает в себе неисчерпаемые возможности для изменения значения существующих в языке слов. Достигаемые при этом значительные семантические сдвиги приводят в свою очередь к развитию многообразных омонимических рядов. Употребление арабских слов в новых, ранее не принятых контекстах в основном не противоречит общим лексико-семантическим нормам арабского литературного языка, представляя собой один из видов расширения семантического объема слова, и относится к числу важнейших путей развития словарного состава современного арабского языка.

Литература:

1. الدكتور محمد حسن حسن جيل "علم الاشتقاق". الطبعة الاولى. القاهرة. 2006 م
2. العلامة حفني ناصف "الدروس النحوية". الاسكندرية. 2007 م
3. Баранов Х. К. Арабско-русский словарь. Москва. 2006.
4. Белкин В. М. Арабская лексикология. Москва. 1975.
5. Гранде Б.М. Арабская грамматика в сравнительно-историческом освещении. М., 2001.

HUMANISTIC IDEAS IN THE UPANISHADS

Shakirova Nadira

2nd year student of Master's of TSIOS

Scientific supervisor: PhD, Professor Ruzmatova G.

In particular, the first time in India, which is the cradle of human civilization, social and philosophical views, his back to the historical development of the first. Such social and philosophical opinions on the holy book of the Hindus - are reflected in the Vedas and Upanishads. The philosophical views of Upanishads preserve their importance and studied still at the present time. The accuracy of information contained in them is still shown by the religious and scientific ideas. **उपनिषद** - Upanishads are without the framework of only one sector attracted people of all the areas covered, and it is important to study the Upanishads also present. The Upanishads emphasize the impermanence of the empirical world, physical reality as we experience it through our senses.

Upanishads consist of some humanistic ideas. These are:

- 1) Brahman
- 2) Atman
- 3) Avidya
- 4) Sansara
- 5) Karma
- 6) Moksha
- 7) Dhyana
- 8) Neti, neti

1. बराहमान– Brahman

Beyond Maya, there is an unchanging reality called Brahman (lit. “to expand”).

“Brahman is the fundamental principle of the universe. (Kena Upanishad IV and V)”.

“Brahman is the reality in all, and all things are in Brahman. (Svetasvatara Upanishad, IV. 2–4)”.

“Brahman is the state of non-duality. (Brhadaranyaka Upanishad, IV.v.14–15)”.

The central claims of the Upanishads about Brahman suggest that Brahman is not a personal being, not a being with attributes that characterize “persons” (e.g., self-awareness, perspectival experience, deliberative rationality, and being the subject of intentional states). On this view, Brahman is formless or attributeless (nirguna) and not a personal God. If Brahman is without form, then “gods” represent different provisional manifestations of Brahman.

“Brahman is as Personal God. The Upanishads also refer to Brahman under various attributes (saguna Brahman), including those indicative of personhood: knowledge, will, and moral goodness (Svetasvatara Upanishad, VI.1-23)”.

Some passages in Mundaka Upanishad subordinate imperishable Brahman to the supreme “Purusha” (person).

“Other later Upanishads emphasize personal theism (e.g. Katha, Isa, and Svetasvatara)”.

Brahman is as Creator. The Upanishads speak of Brahman as creator. However, even where Brahman is conceived of in personal terms, “creation” refers to a necessary emanation of the universe from the being of Brahman, like the flowing of a web from a spider. The Upanishads affirm eternal, cyclical processes of the origination of order, its evolution, and eventual dissolution.

"Bliss [ananda] is Brahman, for from bliss all beings are born; by bliss, when born, they live; and into bliss they enter at their death. (Taittiriya Upanishad, III.6)

॥इतित्रयोदशःखण्डः॥

॥चतुर्दशःखण्डः॥

सर्वखल्विदं ब्रह्मतज्जलानिति शान्त उपासीत।

अथ खलु क्रतुमयः पुरुषो यथा क्रतुरस्मिं ललोके

पुरुषो भवति तथैतः प्रेत्य भवति सक्रतुं कुर्वीत

॥३.१४.१॥

First (Chandogya, in 3.14.1), there is a definition of reality (Brahman) as “tajjalan”. This is a compressed formula which is explained (in the commentary of ShriShankara) as made up of the four syllables “tat”, “ja”, “la” and “an”. “Tat” means “that”, and it represents underlying reality. “Ja” is short for “janman”, meaning, “birth”; “la” is short for “laya”, meaning “dissolution”; and “an” is short for “ana”, meaning “breathing” or “living”. Thus, the formula “tajjalan” may be interpreted to define reality as that which underlies birth, dissolution and living on.¹

2. अतमन - Atman.

The Upanishads teach the existence of a true Self called Atman. Atman is distinguished from the individual personality or ego formed through attachments to sense objects. The true Self of each person is not identical with the body or a person’s mind as conditioned by sense experience. It is Pure Consciousness. Atman is simply consciousness or awareness without objects. Hence atman is called “pure awareness” or “non-differentiated consciousness.”. Atman is distinct from the mind, for the mind is consciousness conditioned by objects and hence duality (subject-object relation).

The “separate ego” or “false self” is an identification of the “I” with sensing, perceiving, and thinking, or the objects given through these changing mental processes. “I am this” “I am that.”

Atman is the enduring and ever-present “I” behind changing “states” of consciousness, the witnessing background of all experience. Unlike the body and the mind, Atman is eternal, unborn, and unlimited. Many Upanishads deny that Atman is an individual consciousness. It is non-dual consciousness or universal consciousness, from which it follows that the Atman of each person is the same reality.

“The wise one is not born, nor dies.

This one has not come from anywhere, has not become anyone.

¹ Ananda Wood. Interpreting the Upanishads. India. Dehli. 2003. – P. 23.

Unborn, constant, eternal, primeval, this one

Is not slain when the body is slain.

He who is the bodiless among bodies,

Stable among the unstable.

The great, all pervading Self –

On recognizing Him, the wise man sorrows not.”(Kena Upanishad II.18,22)

“That Self (Atman) is not this, it is not that (neti, neti). It is unseizable, for it cannot be seized; indestructible, for it cannot be destroyed; unattached, for it does not attach itself; is unbound, does not tremble, is not injured.”(Brhadaranyaka Upanishad, IV.V.15)

This action is met relation between Brahman and Atman.

॥इतिचतुर्विंशःखण्डः॥

॥इतिपञ्चमोऽध्यायः॥६॥

“Thou [Atman] art That [Brahman]”. (Chandogya Upanishad, VI)

A famous and controversial passage from the Upanishads. Atman and Brahman are identical. Atman and Brahman are united in some way without being identical.

3. आविदया - Avidya

The human perspective is characterized by ignorance (avidya) of the true nature of reality and the self. Human persons identify themselves with their body or with their individual states of consciousness formed through contact with and attachment to sense objects. This is the false ego or false self. The false ego is the source of human suffering or unhappiness because the false ego is a product of attachments to what is non-enduring.

4. समसारा - Samsara.

The Upanishads teach that all life forms move through repeated cycles of birth, death, and rebirth, until final liberation from this cycle. The cycle of death and rebirth is called Samsara.

5. कारमा- Karma.

Its fuel or energy is called. The termination of the cycle is called

“Where one’s mind is attached – the inner self

Goes thereto with action, being attached to it alone.

Obtaining the end of his action,

Whatever he does in this world,

He comes again from that world

To this world of action.

- So the man who desires”. (Brhadaranyaka Upanishad, IV.IV.6)

Rebirth is fueled and directed by karma (sanskrit root kri, meaning “action”).

Broadly stated, karma is a law of cause and effect according to which actions in one lifetime influence actions in the next life. Attachment to material forms of existence (modes of false ego) is the basic karmic energy that fuels samsara. The form of one’s karma is shaped by the specific nature of one’s attachments.

Rebirth is not restricted to rebirth as a human being, but it extends to the animal world and other realms of existence. The form of one’s karma (good or bad) determines the realm of existence into which one is reborn. Rebirth is not desirable.

It implies that a person is still trapped in ignorance about the nature of reality through various attachments to sense objects. Suffering, associated with material existence, has not yet been transcended.

6. मोक्ष– Moksha

Moksha is the state of release from samsara.

Attachments => False Ego => Karma => Samsara.

What is required is a dismantling or dissolution of the false ego. Therefore, we must let go of our attachments to sense objects or material forms of existence.

Since the false ego is generated by attachments to sense objects, it is dissolved by non-attachment to sense objects. Attachment to sense objects creates a disturbance in consciousness. Spiritual practice leads to Moksha (liberation). Moksha is freedom from samsara and thus freedom from suffering. Moksha is absolute consciousness: “Brahman realization” and “Self realization” since the true nature of reality (Brahman) and the true self (Atman) is perceived.

Realization of Brahman and the Self:

- Sat-Chit-Ananda
- Being (Sat)
- Consciousness (Chit)
- Bliss (Ananda)

Satchitananda is also the name of Brahman. So moksha is union with Brahman.

यथासोम्यैकेनलोहमणिनासर्वलोहमयंविज्ञात

स्याद्वाचारम्भणविकारोनामधेयंलोहमित्येव

सत्यम्॥६.१.५॥

“As rivers flow into the sea and in so doing lose name and form, even so the wise man, freed from name and form, attains the Supreme Being, the Self-luminous, the Infinite.” (Chxandogya, VI.1.5)

7. ध्याना– Dhyana.

Dhyana is meditation. Meditation stills or quiets consciousness, allowing realization of Atman. Non-attachment and meditation operate in tandem. To concentrate the mind on one thing releases the attention given to other things. Hence, meditation assists non-attachment to sense objects.

Having heard and reflected on the word of Brahman in the scriptures, one must practice concentration on the truth of Brahman and the Self, repeating mantras such as OM (which signifies the cosmic power of Brahman) or Aham Brahmasmi (I am Brahman).

8. नेतीनेती-Neti, Neti

The Upanishads also teach that atman is realized by (i) identifying the temporary nature of the mind-body, which we mistake for the Self and (ii) thereby realizing that the “I” is distinct from the mind-body. This is called “neti, neti” meaning “not this, not that.”

Through meditation, the subject realizes “I am not my thoughts; I am aware of my thoughts,” “I am not my feelings; I am aware of my feelings,” “I am not this sensation; I am aware of this sensation.” Thus, I am awareness, the witnessing background of all experience.

In conclusion, Humanism was not confined to Western thought. The spirit of humanism was present in the Eastern thought also. It is not difficult to find the traces of humanistic ideas in the ancient Indian thought. The supremacy of man can be seen asserted in a number of

instances in the ancient literature. The welfare of humankind was its central theme. The essence of Indian humanism is 'Ayamatma Brahma' (I am Brahman) and the prayer consequent to it, Lokasamasta sukhinobhavantu. The four Vedas were concerned with the problems of man's day-to-day life, customs and rituals and they were expressed through the Vedic hymns. The central purpose of the Upanishads, the concluding part of Vedic literature, was the upliftment of human life from the level of mere biological existence to a status of self-conscious spiritual being.

References:

1. Steven Rosen, *Essential Hinduism* (Westport, CT: Praeger, 2006).
2. R.C. Zaehner, *Hindu and Muslim Mysticism* (New York: Schocken Books, 1969), Chapters 2-4.
3. R.C. Zaehner, *Hinduism* (New York: Oxford University Press, 1972).
4. Swami Prabhavanda, *The Spiritual Heritage of India: A Clear Summary of Indian Philosophy and Religion* (Hollywood, CA: Vedanta Press, 1979), Chapters 1-3.
5. Keith Ward, *Concepts of God: Images of the Divine in Five Religious Traditions* (Oneworld, 1998), Chapters 1-2.
6. Hans Torwesten, *Vedanta: Heart of Hinduism* (New York: Grove Press, 1991), Chapter 1.
7. Dominic Goodall (ed.), *Hindu Scriptures* (Berkeley, CA: University of California Press, 1996).

UMUMIYLIK VA YAKKALIK HAQIDA SVAMI VIVEKANANDA QARASHLARI

Po'latov Sherdor
ToshDSHI 2-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: f.f.n, dots. Qodirov M.

‘एकअच्छेचरितकानिर्माणहजारोंबारठोकरखानेकेबादहीहोताहै।‘

स्वामीविवेकानंदा

*Minglab xatolarni sodir etganidan keyingina,
inson bir yaxshi axloqqa ega bo'ladi.
Svami Vivekananda*

O'zbekiston va Hindiston o'rtasidagi munosabatlar yuksak darajaga ko'tarilgani va o'zaro hamkorlik xalqlarimizning ko'p asrlik do'stona aloqalariga asoslanishi bilan ajralib turadi.

O'zbekistonda Hindistonni boy tarixi va o'ziga xos madaniyatiga ega mamlakat sifatida azaldan yaxshi biladilar. Xalqimizni ushbu mamlakat bilan qadimiy madaniy va savdo-iqtisodiy aloqalar, eng muhimi, samimiy do'stlik rishtalari bog'lab turadi.

O'zbek va hind xalqlari hamkorligining tarixi, adabiyoti, musiqasi, tasviriy san'ati va me'morchiligi, ularning bir-birini boyitishi ko'p jihatdan buyuk ajdodimiz Zahiriddin Muhammad Bobur nomi bilan bog'liqdir.

Hindiston Bosh vaziri Narendra Modining 2015-yil 6-iyunda O‘zbekistonga kelishi bilan uzoq yillik aloqalar yanada bir bosqichga kutarilgan edi.

Narendra Modi O‘zbekiston Hindistonning Markaziy Osiyodagi eng ishonchli va muhim sheriklaridan biri va mazkur tashrif o‘zaro munosabatlarni yanada faollashtirish va yangi bosqichga ko‘tarish uchun yaxshi imkoniyat ekanini ta’kidladi¹.

O‘zbekiston bilan Hindiston o‘rtasida aloqalar rivojlanayotgan bir paytda, bu mamlakatning mafkuraviy va falsafiy qarshlarini o‘rganish dolzarb ahamiyatga ega. Hindiston tafakkuri jarayonida muhim o‘rin tutgan shaxslardan biri Svami Vivekanandadir.

Svami Vivekananda – Yangi davrdagi hind xalqining eng yirik mutafakkirlaridan biri, millionlab hindlar yoshligidan boshlab, uni ismini “Millat otasi” bo‘lgan Mahatma Gandi ismi bilan birga bilib, ulg‘ayishadi. Uning shaxsiy hayoti va g‘oyalari diqqatga sazovordir. Uning o‘ttiz yillik hayoti va undan keyingi faoliyati ayniqsa, 1893-yilgi “Butun dunyo dinlari kongressi”dagi ishtiroki va maruzasi Hindistonning millionlab xalqida umid uyg‘otdi va milliy iftihar baxsh etdi. Uning g‘oyalari xalqning “Yo‘lchi yulduziga” aylandi. Uning faoliyati – hind xalqi hayotidagi barcha tomonlarini ochib bera oladi va uning so‘zlarini oltin kabi baholaydi, namuna sifatida taqlid qiladilar. Faylasuf sifatida, u zamonaviy hind falsafasi taqdirini belgilagan, hind madaniyatitarixini yanada boyitishda jonbozlik ko‘rsatgan, u Sharq va G‘arbn o‘rtasidagi dialogni bog‘lashda yirik vakillardan biri bo‘ldi va XX asrda hind milliy ozodlik harakati boshlanishiga ham turtki bo‘ldi. Shuning uchun ham uning faoliyatini o‘rganib borish, biz uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Naredranath Datta (keyinchalik Svami Vivekananda) Kalkuttalik badavlat advokat Vishvanath Datta oilasida 1863-yil 12-yanvarda tug‘ilgan. U bolaligidanoq fikrlash doyrasi kengligi va kuchli hotirasi bilan ajralib turardi. Yoshligidan u meditatsiyani mashq qilib borgan. U maktabda o‘qish davomida turli xil sporto‘yinlarda yaxshi natijalarni ko‘rsatib borgan. U havaskorlik teatr klubiga va gimnastika klubiga boshchilik qilgan, fextovaniyadan dars olgan, jang va boshqa sport turlarini ham o‘rgangan. U musiqa chalish va qo‘shiq aytishni ham o‘rganib boradi. U o‘z tengdoshlari orasida peshqadam bo‘lgan.

Narendra 1879-yil Kalkuttadagi Presidency College ga o‘qishga kiradi. Bir yil o‘qigandan so‘ng, Shatlandiya kollejida o‘qishni davom ettiradi va u yerda falsafani o‘rganadi. O‘qish davomida u mantiq, yevropa falsafasi va yevropa tarixini o‘rganadi.

Uning o‘qigan kitoblari orasida – Kant va Shopengauerning asarlari bor (keyinchalik Vivekananda qayta-qayta ularga murojat qiladi – bu g‘oyalar unda ziddiyat uyg‘otadi va o‘z navbatida Vedanta Kant va Shopengauerga ham tasiri bore) edi. Lekin uni o‘sha davrning vakillari bo‘lgan ingliz pozitiviztlari (J.S.Mill, G.Spenser) D.Yum ham ko‘proq qiziqtirgan (keyinchalik ular tomon ham o‘z munosabatini keskin o‘zgartiradi)².

Vivekananda ijodining dastlabki davrida G‘arb mamlakatlariga (AQSH va Angliyaga) umid ko‘zi bilan qarardi. Faylasuf-olim tasavvurida: Amerika va Angliyada omma qashshoqlikni bilmaydi va Hindistondagi ahvol bilan ularni xabardor qilinsa, ular hind xalqiga yordam qo‘lini cho‘zadilar.

1893-yili sentabrida AQSHda "Butun dunyo dinlari parlamenti" Kongressi ochildi. Chikagoda bo‘lgan bu konferensiyada “Qadirli Amerikalik aka-ukalar va opa-singillar” deb

¹“Xalq so‘zi”, 2015 y, 7 iyun, 1-b.

² С вами Вивекананда: Жизнь и наследие. Статья. Д.ф. наук. В.С.Костюченко. Калифорния, США, 1900 г.

murojatidan keyin uni olqishlar bilan kutib oladilar. Ko'pchilik mutaxassislar Vivekanandaning AQSHda bo'lishi G'arbning hinduviylikka qiziqishining boshlanish nuqtasi, deb qaraydilar. Vivekananda bunda ishtirok etib, universal dinni vujudga keltirish g'oyasini ilgari suradi. Faylasuf fikricha, "Hinduizm dini dunyoda universal dinni yaratish uchun asos bo'la oladi", deydi. Vivekananda bir necha yillar davomida Nyu-York va London universitetlarida maruzlar o'qiydi va bu esa, G'arbning hinduviylik diniga qiziqishni ortiradi. Lekin u xristian missonerlarini tanqid qilgani uchun uning muvaffaqiyati nizolansiz bo'lmadi. To'rt yillik sayohat, tinimsiz maruzalar va G'arbning teskari qarshlaridan keyin u o'z yurtiga qaytadi. Vivekanandaning fikricha, yer yuzidagi barcha kishilar din orqali bir-birlari bilan birlashmoqlari kerak, shuning uchun har bir din "o'zaro kurash"ga emas, balki "o'zaro yordam"ga amal qilmog'i kerak.

Vivekananda umrining oxirigacha dinga sadoqatli bo'libqoladi. Uning fikricha dinda butun bashariatning ta'sir etuvchi kuchini va oliy maqsadini aniq ko'rinadi. Vivekananda yoganing nazariy va amaliy mashg'ulotlari bilan tinimsiz shug'ullanadi, tez orada atrofiga sadoqatli shogirdlar va izdoshlarni to'pladi. 1897-yili u "Ramakrishna Missiyasi" nomli jamiyatni tuzadi. U tuzgan mazkur jamiyat hozirgi Hindistonda eng yirik diniy-ijtimoiy tashkilotlardan biri bo'lib, bugungi kunga qadar o'z faoliyatini olib bormoqda. Uning bo'limlari Yevropada va AQSHda mavjud.

Bu idora mamlakatning diniy va madaniy hayotida nihoyatda muhim vazifani o'tab kelmoqda. Uning faoliyatida mazkur yo'nalishlardan tashqari san'at, ilmu fan va texnika sohasida bilimlarni yoyish, maktablar, kollejlar, laboratoriyalarni ochish, shuningdek, kasalxonalar, klinikalar, dispanserlar, nogironlar uchun maxsus uylar yaratish hamda nashriyot ishlarini ham amalga oshirish katta o'rin egallaydi. Shu darajadagi ko'p qirrali ijtimoiy insonparvar faoliyat ushbu "Missiya" mamlakat hukumati e'lon qilgan dunyoviylik yohud sekulyarizm siyosatiga butunlay mos tushadi. Bunga Hindistonning yirik jamoat va davlat arboblari juda ham yuksak baho berib, jumladan, J. Neru mustaqillikka erishishdan ilgariyoq yozgan edi: "Qadimgi zamon Fransiskan rohiblari singari o'zlarini bashariyatga chidamli va xolisona xizmat qilish oliy maqsadlariga bag'ishlagan holda "Ramakrishna Missiyasi" a'zolari ham o'zlari yaratgan kasalxonalar va o'quv yurtlarida xormay-tolmay mehnat qilib, ofatchilik paytlarida Hindiston bilan birga undan tashqaridagi muhtojlarga har doim yordam berishga tayyor bo'lmoqdalar"¹.

Vivekanandaning ta'kidlashicha, dunyoning substansiyasi haqidagi masala, ya'ni olamning asosi va ibtidosi haqidagi masala Rigvedadayoq: "Kim yoki nima oldin mavjud" degan savol, Vedantada "Atma"²ni tashkil etadi, deb ta'kidlangan. Olam, Vivekananda fikricha, abadiy, atma esa, uning asosi sifatida olamning ibtidosi hisoblanadi. U (Atma) dunyoni biron bir narsadan yaratmaydi, balki unga aylanadi.

Vivekananda ta'kidlashicha, olamdagi barcha narsalar dastlabki materiya, ya'ni akashadan kelib chiqadi. Butun kuch-"gravitatsiya" yoki tortilish va itarilish kuchimi yoki hayotning o'zi dastlabki kuch "prana"dan yuzaga keladi. "Prana" o'z harakati jarayonida "akasha"dan qo'pol (dag'al) shakllarini-o'simliklarni, insonlarni, yulduzlarni va hokazolarni yaratadi. Behisob vaqtdan keyin evolutsion jarayon to'xtaydi va yana qaytadan yangi jarayon

¹Неру Ж. Открытие Индии. – М., 1955. – С. 336.

²Selection from Swami Vivikananda, 1946, 59 p.

boshlanadi. Barcha narsalar dastlabki "Prana" va "Akasha"ga qadar yanada nafis shakllarga aylanadi. Bular yangi sikl boshlangunga qadar amalga oshadi. "Akasha" va "Prana" ortida qandaydir uchinchi "Maxat" yoki "Kosmik fikr" mavjud. Bu kosmik fikr na "Akasha"ni va na "Prana"ni yaratmaydi, balki uning o'zi ularga aylanadi ¹.

Shunday qilib, koinot dastlabki materiyadan yuzaga keladi. Vivekananda buni Aflotun singari salbiy kategoriya, deb bilmaydi. Balki u abadiy bo'lib, ruhiy substansiyaga bog'liq, lekin u ruh tomonidan yaratilmaydi.

Uning fikricha, olamning substansiyasi moddiy o'zgaruvchi narsa emas, balki qandaydir o'zgarmas narsani tashkil etishi mumkin. O'zgarmas narsa moddiy substansiya bo'lishi mumkin emas, u ruhiy substansiya bo'lib, parchalanmaydigan, o'zgarmaydigan, zamon va makondan tashqarida bo'lib, sababiyat qonuniga bo'ysunmaydi. Tabiat qonuni hodisalar dunyosiga bo'ysunadi. Shunday qilib Vivekananda advaytavedanta pozitsiyasida turadi.

Yakkalik va umumiylik muomalasini hal etishda faylasuf: hissiy olamdagi barcha narsalar umumiylikning ko'rinishidir, umumiylik va yakkalik tabiatning rejasidir, - degan xulosaga keladi.

Umumiylikni Vivekananda olamdagi barcha hodisalarning sababi, deb biladi. Uni Braxma, Atma, ya'ni olamning ruhiy mohiyati, deb biladi. Lekin ba'zan u umumiylikni, koinotni yaratuvchi prinsip, uning taraqqiyot g'oyasini tashkil etuvchidir, deydi. Xudo olamni doimo yaratib turadi. Yaratilish va yaratuvchi bu ikki parallel yo'nalish bo'lib, ular to'xtovsiz harakatda bo'ladi. Bizni o'rab turgan dunyo absolyutning evolutsiyasidir. Koinot o'zgaradi, lekin absolyut o'zgarmaslik mohiyatidir.

Olamnibilish, deydi Vivekananda, hodisalarning bevosita sezgi a'zolarimizga ta'sir etishi orqali sodir bo'ladi. Vedanta falsafiy ta'limotida beshta tashqi sezgi a'zolaridan tashqari yana bir ichki sezgi a'zosi mavjud, u Manas deb ataladi. Hissiy qabullashni Vivekananda materialistik jarayon, deb biladi. Mantiqiy tafakkurni u tajribaviy bilim, deb ataydi. Bizni o'rab turgan dunyo hissiy qabullash va mantiqiy tafakkur orqali bilinadi.

Insonning ichki dunyosini bilish ancha murakkab, uni kuzatish bir muncha og'irroqdir. Uni bilish uchun mahsus a'zolar yo'q. Bu bilim tashqi olamni bilishdan muhimroqdir. Insonning ichki dunyosini yoga amaliyotining meditatsiyasi orqali bilish mumkin. Boshqacha aytganda insonning ichki dunyosini bilish bu dinning ishidir. Vivekananda bilimning uch usuli haqida gapiradi: 1) instinkt – hayvonlarga xos usul; 2) aql – insonlarga xos usul. 3) meditatsiya – oqillikdan yuqori turuvchi oliy ilohiy (сверхразумное) bilimdir. Meditatsiya orqali bilish bu mistik ilohiy kuzatish bilan bog'liq bo'lib, tashqi olamdan o'zini olib qochishga undaydi.

Bilimni Vivekananda haqiqatni bilish jarayoni, deb biladi. Haqiqatga erishish faqat aqldan, oliy bilim asosida amalga oshadi. Har bir kishi uchun maqsad bilimga erishish faqat Xudoni bilish bilan cheklanmay, oliy haqiqatni bilishdan iborat, bu insonning Xudo bilan birlikda bo'lishidir. Shunday qilib, olamning mohiyatini bilish, ya'ni xudoni bilish, jarayonida asosiy maqsaddir, deb biladi Vivekananda.

Vivekanandaning ijtimoiy qarashlari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Vivekananda jamiyat a'zolarini ikki qismga bo'lgan:

1. Boylar (oliy sinf vakillari)ga.

2. Kambag'allar (quyi sinf vakillari)ga. Kelajak, Svami Vivekananda fikricha, quyi sinf vakillarinikidir. Xalq ommasini, deydi u, Hindistonning yakka-yu yagona umididir. U jamiyatni

¹Из истории прогрессивной общественно-философской мысли в Индии. – Т., 1976. – С. 74.

qaytaqurish kerak degan. Tabiat qonuniga binoan to'rt toifa vakillari, ya'ni braxmanlar, kshatriylar, vayshyalar, shudralar jamiyatni boshqaradilar. Hokimlik qiluvchilar bir toifaning o'ziga xos kamchiliklari mavjud.

1. Braxmanlar aql kuchiga tayanadilar.

2. Kshatriylar harbiy san'atga katta e'tibor beradilar. Ular hokimiyat tepasida o'tirishganda san'at va madaniyat gurkirab rivojlanadi.

3. Vayshyalar (savdogarlar, hunarmandlar) hokimiyat tepasida turishganida braxmanlar, kshatriylar davrida qo'lga kiritilgan bilimlarni keng targ'ib qiladilar.

4. Shudralar (past tabaqa vakillari) hokimiyat tepasiga kelganida moddiy boyliklarni oqilona taqsimlaydilar. Ijtimoiy tenglik vujudga keladi. Kastachilikka bar ham beriladi.

To'rt toifadagi ijobiy tomonlar o'zaro birlashsalar, yakdil bo'lsalar, odil jamiyat yuzuga keladi. Hindistonliklarning inglizlar asoratiga tushib qolishlarida o'zlari sababchidir. Chunki ular avvalgi tug'ilganlarida notog'ri ishlar qilib katta gunohlarga botganlar, deb tanassux nazariyasini ilgari surgan.

Mutafakkirning falsafiy qarashlariga yakun yasaydigan bo'lsak, uning falsafasi ziddiyatli bo'lishiga qaramay, nafaqat o'z davrida, balki bugungi kunda ham hozirgi zamon hind faylasuflari tomonidan chuqur o'rganilib, tadbiiq etib kelinmoqda. Svami Vivekananda uch yil davomida butun Hindistonni Himoloy tog'idan Kamor burnigacha piyoda kezib chiqadi. Bu esa unga unitilmas xotira baxsh etadi va Hindistonni ich-ichidan bilish imkoniyatini beradi. Uning g'oyalari Hindiston taraqqiyotiga bugungi kunda ham xizmat qilmoqda.

СОЦИАЛЬНО-ИСТОРИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ФИЛОСОФИИ ЭКЗИСТЕНЦИАЛИЗМА В ЯПОНИИ

Исроилов Умиджон
Начальник отдела международных связей ТашГИВ
Научный руководитель: к.ф.н. Ахмедова С.

Социальная картина на Западе в 20-е годы XX века характеризуется резким обострением социальных противоречий и усилением кризисных явлений в различных сферах жизни. Возрастающий интерес к человеческому внутреннему миру, то есть индивиду способствовала усложнению социальных связей, формированию новых взаимоотношений человека и общества, также научно-техническая революция определила особенность этого этапа. На волне этих изменений в Западной Европе прокатилась новая волна философских течений, которые оказали значительное влияние на развитие философской мысли, такие, как позитивизм, герменевтика, экзистенциализм, постмодернизм.

Философия экзистенциализма, как и другие течения современной философии Запада, стал привлекать к себе определенное внимание мыслителей всего мира, в частности японских философов. В процессе проникновения философии существования в Японию, определенным образом видоизменялось в соответствии с традициями японской мысли, приобретая всевозможные оттенки, но все же сохраняя собственное лицо, а с другой стороны органически сливаясь с местными идеалистическими течениями, в итоге выступают в качестве составных частей «новых эклектичных концеп-

ций»¹. Таким образом, идеи экзистенциализма легли на благодатную почву самобытных теорий мыслителей, которое все это способствовало формированию академической философии Японии.

Исходя из ретроспективного анализа философской мысли Японии, можно сказать, что возникновение экзистенциализма обусловлено двумя причинами:

Во-первых, существует близость мировоззренческих установок философии экзистенциализма и буддизма. Так, на примере философских взглядов Мартина Хайдеггера можно отметить, что понять явное через неявное, то, что сказано, через то, что не может быть сказано, понять слово через молчание, сущее – через несущее, бытие – через небытие. Мартин Хайдеггер подчеркивал, что ничто – это и есть то же самое бытие, истине которого бывает доверенный человек, когда он преодолел субъекта в себе и когда, стало быть, он не представляет уже сущее как объект. Сокрытая сущность бытия, заказанная неприступность, ближайшим образом обнажается как вообще несущее, как ничто². И так, такая близость данного положения буддийской онтологии демонстрирует сходства с идеями экзистенциализма.

Вторая причина быстрого распространения экзистенциализма в Японии связано с социально-экономическими отношениями. Дело в том, что перед буржуазной философской идеологией, встает задача создания «нового», более современного идейного арсенала взамен прежнего, уже окончательно дискредитированного самой жизнью. Эти потребности развития буржуазной идеалистической мысли, и проявлялось, во взглядах С.Кьеркегора, Ф.Ницше, К.Ясперса, М.Хайдеггера, Ж.П.Сартра и др.

Но уже к 30-40-х годам в Японии начал утверждаться все новые позиции экзистенциализма, то есть мировоззрение японского буддизма быстро меняется и капитализируется³. Таким образом, японском обществе формируется реальная основа для восприятия идей философии существования, а впоследствии и тесного взаимодействия буддизма, синтоизма и экзистенциализма.

На современном этапе проблема относительной совместимости экзистенциализма с японской философской мыслью сводится фактически к проблеме взаимодействия философского течения экзистенциализма с традиционной религиозной и философской буддийско-конфуцианской духовной культурой. Решению проблемы посвящают усилия многие современные мыслители Японии. С одной стороны, философы-экзистенциалисты пытаются с помощью буддийской догматики преодолеть кризис философии существования, с другой, сторонники буддизма стремятся реформировать буддийскую идеологию путем привлечения экзистенциалистского мировоззренческого материала. Типичным примером этому может служить рассуждения Икэда Дайсаку, президента общества «Сока гаккай» в Японии, который считает, что «Экзистенциализм несет в себе частичное и поверхностное сходство с буддийским – тютай». Понятия «индивидуум» С.Кьеркегора, «сверхчеловек» Ф.Ницше, «экзистенция» К.Ясперса или М.Хайдеггера обозначают в философских терминах то же, что и «тютай» в японском буддизме. Тютай же указывает на истинную реальность и выступает неким посто-

¹ Михалев А.А. Проблема культуры в японской философии: К.Нисида и Т.Вацудзи, М.: 2010. – 13 с.

² Н.И. Горлач, Социальная философия Х.: «Единогор», 2002. – 236 с.

³ Там же. – 237 с.

яньством, которое проходит через все изменения форм¹. Таким образом, по утверждениям Икэды Дайсаку, идеи экзистенциализма имеют тесную близость к истинам буддийской идеологии.

Тождественность идей буддизма и экзистенциализма, также подчеркивают японские мыслители такие, как Ниситани Кэйдзи, Имамита Томонобу, Умэхара Такэси, Идзуцу Тосихико и Идзуцу Тое. Так, чтобы выявить философские структуры, лежащие в основе японской традиционной культуры, философы Идзуцу Тосихико и Идзуцу Тое пытаются осуществить синтез идей экзистенциализма и буддизма². Здесь они следуют философским взглядам Нисиде Китаро, который с мастерством сочетал религиозные и философские традиционные установки с идеями экзистенциализма.

Также оригинальные идеи в русле экзистенциализма озвучены мыслителями таких, как Синда Саво, Канеко Такэдзо, Муто Мицура. Подчеркивая, близость идей буддизма и экзистенциализма, они тогда же обращали внимание и на существенные различия между ними. Так, на примере философа Муто Мицура, который подчеркивал, что когда буддийской индивид не отделяет себя от мира, то экзистенциалист, наоборот, противопоставляет себя миру. Буддист верит в пожизненную природу, которая добра и света, верит, что человек наделен настоящим началом, что принципиально лишена ориентации на эгоизм. В экзистенциализме проявления человеческой субъективности преувеличиваются, трактуются как онтологические сущности. В буддизме существует идеал – Будды, а в экзистенциализме такой конкретный идеал отсутствует, есть только устремления индивида к подлинности бытия³. Таким образом, идеи буддизма указывают путь к достижению идеала, предлагает всем индивидам общий путь спасения от мирских человеческих страданий. В тоже время идеи экзистенциализма ограничиваются критикой не подлинности бытия массы людей, а рекомендует каждому индивиду находить свой путь подлинного бытия.

Многие японский экзистенциалисты обращают внимание и на то, что в западном и восточном экзистенциализме существует разное понимание индивида, «Я» и его отношение к обществу. Если сутью «несчастливого сознания» западных экзистенциалистов было трагическое переживание отчужденности от других, то специфической чертой экзистенциалистов-буддистов отсутствие личностного начала, отсутствие своего «Я». Поэтому в контексте западного экзистенциализма индивид склонен считать свою суть существующей самой по себе, считать свое «Я» центром Вселенной. Японец же традиционно чувствует себя причастным к миру и не мыслит себя вне общества, традиционно составляет конкретную социальную группу, свою суть отождествляет с группой⁴. И так, японский индивидуализм значительно моложе западного. Становление индивидуализма на Западе происходило столетиями, формирование же японского индивидуализма - дело двух-трех последних поколений, японцы относительно недавно оторвались от общины и получили индивидуальное свободы. В основе концепции

¹Н.А. Иофан, Человек и мир в японской культуре (сборник статей), М.: Книга по требованию, 2012. – 275 с.

²Там же. – 275 с.

³ Колесников А.С., История философии/Учебник для вузов. Глава Философия Японии. СПб.: 2010. – 541 с.

⁴Карелова Л.Б. Модели личности в японской мысли XX века в контексте проблемы соотношения «я» — «другой», Вопросы философии, - Москва, 2010. <http://iph.ras.ru/page20591446.html>

западных теоретиков экзистенциализма положено понятие индивидуальной свободы, которое составляет своеобразную объективную онтологию субъекта. Труды японских экзистенциалистов определения индивидуального сознания не имеют такого мощного цементирующего принципа и поэтому распадаются¹. Несмотря на социально-экономические условия, которые изменились, современный японец все еще крепко связан с откликом другого на свое Я, поэтому проблема утверждения собственного Я продолжает оставаться актуальной и на сегодняшний день.

И так, в данной работе, я старался показать специфические черты распространения экзистенциализма в Японии, особенности его восприятия и усвоения японскими философами того времени. Надо отметить, что после проникновения западных идей, в частности экзистенциализма, в японском обществе наступило время самопознания. Таким образом, повсеместно стало происходить возрождение новых идей и обогащение национальной идеологии японского общества, путем восприятия идей западного экзистенциализма.

АБДУРАҲМОН САЙЁҲ ТОШКАНДИЙ ВА УНИНГ “МЕЪЁР УЛ-АХЛОҚ” АСАРИ ҲАҚИДА

*Аброрхон Асатуллоев
ТошДШИ 1-курс магистранти
Илмий раҳбар: ф.ф.д., проф. Рузматова Г.*

XIX аср иккинчи ярмида мусулмон Шарқ мамлакатларида юзага келаётган миллий озодлик ҳамда тараққиёт ғояларини илгари сурган маърифатпарварлар фаолияти Россия империяси мустамлакасига айланган Туркистон ўлкасида турли кўринишларда шакллана борди. Бу даврда Маҳмудхўжа Бехбудий, Мунаввар қори Абдурашидхонов, Абдулла Авлоний, Абдурауф Фитрат каби жадидлар ўз фаолиятлари давомида илм-фан, маърифат, одоб-ахлоқ масалаларига катта эътибор қаратганлар².

Абдураҳмон Муҳаммад Содик ўғли Тошкандий ҳам XX аср бошлари матбуотида “Сайёҳ” таҳаллуси билан танилган маърифатпарвар зиёлилардан бири бўлиб, у XIX аср охири XX аср бошларида ноширлик қилиш билан бирга одоб ахлоқ, диний ва маърифий соҳаларга оид қатор китоблар ёзган. Жумладан, биргина “Меъёр ул-ахлоқ” асарининг охириги қисмида Абдураҳмон Сайёҳнинг муаллифлигида нашрга тайёрланган “Маккаи мукаррама тарихи”, “Байт ул-муқаддас тарихи”, “Арабнинг қадимий тарихи”, “Бани Исроил тарихи” каби ўнга яқин асарлар номлари келтирилган. Бундан ташқари у сиёсат, ислом, тарих, маънавият соҳаларида чоп этилган кўплаб китобларга ноширлик қилган. Шунингдек, унинг ўзи ҳам неча китоблар ёзгани маълум.

Абдураҳмон Сайёҳнинг ўлка аҳолиси китоб саводхонлигини ошириш, маҳаллий ва дунёвий янгиликлардан, ижтимоий-сиёсий ўзгаришлардан хабардор қилишга қаратилган фаолиятини унинг бош муҳаррирлигида 1915-1917 йилларда Тошкентда нашр қилинган “ал-Ислоҳ” журнали фаолиятида ҳам кўриш мумкин. Мазкур журнал нафақат Туркистон ўлкасидаб балкиқўшни мусулмон мамлакатларида ҳам машҳур бўлган.

¹Там же.

²Маънавият юдузлари. – Т.: “Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси” нашриёти, 2001. – Б.339.

Журналда ислом, шариат ва фикҳий масалалар, одоб-ахлоқ муаммолари, машҳур диний асарлардан таржималар, ўлка ҳаётига оид баҳс-мунозаларлар бериб борилган¹.

Абдурахмон Сайёҳ қаламига мансуб асарлардан иккитаси “Меъёр ул-ахлоқ” ҳамда “Танвир ул-ахлоқ фи-т макорим ул-ахлоқ” асарлари ўрта асрларда яшаб ўтган ислом оламининг йирик алломалари илгари сурган ғоялар асосида ёзилган бўлиб, одоб-ахлоққа оиддир. Мазкур асарларда муаллиф ахлоқнинг моҳияти хусусида фикр юритар экан аввало Қуръони карим, ҳадиси шариф ҳамда имом Ғаззолий, Фахриддин Розий каби алломалар асарларига ишора қилади. Асарда муаллиф томонидан анъанавий мусулмон одоб-ахлоқ масалаларига янгича ёндашувларнинг билдирилиши алоҳида аҳамиятга эга.

“Меъёр ул-ахлоқ” асари 1912 йилда Тошкентда Ғулом Ҳасан Орифжонов матбаасида тошбосма услубида чоп этилган². Китоб икки қисм (ҳисса)дан иборат бўлиб, ҳар икки қисми еттитадан бобни ўз ичига олган. Китобнинг биринчи қисми асосан ахлоқнинг назарий масалаларига бағишланган. Китобнинг иккинчи қисми эса, ахлоқнинг амалий масалаларига бағишланган бўлиб, унда инсон ахлоқи ва ахлоқнинг ижобий ҳамда салбий категорияларига мисоллар асосида тавсифлар берилган. Китоб сўнгида инсон ахлоқи ва руҳияти учун хос бўлган ўттиз иккита хислат тавсифланган. Унда исломий анъаналардан келиб чиққан ҳолда ибодат, тақво, шукр, дуо, сабр каби тушунчаларга изоҳ бериш билан бирга, инсон ахлоқининг муҳим сифатлари бўлган адаб, афв, шафқат, саховат ва эҳсон, тавозеъ ва эҳтиром, диёнат, вафо, содиқлик каби категорияларни таҳлил қилади³. Китоб сўнгида берилган маълумотга қараганда, Абдурахмон Сайёҳ “Меъёр ул-ахлоқ” асарининг учинчи ва тўртинчи қисмларини ҳам нашрга тайёрлаган⁴.

Абдурахмон Сайёҳ ахлоқ мавзусига ўзи яшаган даврдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлардан келиб чиққан ҳолда фикр билдирган. Одоб-ахлоқ масаласини Маҳмудхўжа Бехбудий, Мунаввар қори Абдурашидхонов, Абдулла Авлоний каби ўша даврнинг бошқа маърифатпарварлари сингари Туркистон жамиятини ҳалокатдан, қоқоқликдан илм-фан тараққиётига олиб чикувчи омил сифатида қарайди. Илгари сурган фикр-мулоҳазаларида “чиройли одоб-ахлоққа эришишнинг йўли бу ҳукамолар яъни замон олимлари таълимини, билимини олишдир”, деган хулосага келади.

Одоб-ахлоқ масаласини Маҳмудхўжа Бехбудий, Мунаввар қори Абдурашидхонов, Абдулла Авлоний каби ўша даврнинг бошқа маърифатпарварлари сингари Туркистон жамиятини ҳалокатдан, қоқоқликдан илм-фан тараққиётига олиб чикувчи омил сифатида қарайди. Илгари сурган фикр-мулоҳазаларида “чиройли одоб-ахлоққа эришишнинг йўли бу ҳукамолар яъни замон олимлари таълимини, билимини олишдир” деган хулосага келади.

“Меъёр ул-ахлоқ”да қуйидаги фикрлар баён этилган: “Имом Ғаззолий ахлоқ илмини тиб илмига қиёс қилиб шундай деганлар: “Бадан сиҳат-саломатлиги муҳофазаси учун тиб қоидаларига риоят қилиш ва касаллик юз берганда табибларга мурожаат қилиш лозим. Шунингдек, маънавий ҳаётийлик муҳофазаси учун ҳам ахлоқ илми таълими мутахассисига мурожаат қилмоқлик лозим ва вожибдир. Бадандаги жисмоний

¹Ўзбекистоннинг янги тарихи. I жилд. Туркистон Чор Россияси мустамлакачилиги даврида. – Т.: Шарқ, 2000. – Б.261.

²Абдурахмон Муҳаммад Содиқ ўғли Тошкандий. Меъёр ул-ахлоқ. – Тошкент: Ғулом Ҳасан Орифжонов матбааси, 1912.

³Абдурахмон Муҳаммад Содиқ ўғли Тошкандий. Кўрсатилган асар. – Б.146.

⁴Абдурахмон Муҳаммад Содиқ ўғли Тошкандий. Кўрсатилган асар. – Б.166.

касаллик шубҳасиз унинг ҳалокатига олиб келади. Ва маънавий касаллик – ахлоқсизлик ҳам маънавий ҳаётнинг ҳалокатига сабаб бўлади”.

Жисмоний касаллик инсон ҳаётини ниҳоясига етказар экан, кишилар эътиборли бўладилар ва табибларга бориб муолажа оладилар. Шундай экан, маънавий касаллик ҳам маънавий ҳаётни йўқликка олиб келишини англаган ҳолда ахлоқ илмига эътибор қаратишлари лозим¹.

“Инсон икки нарсанинг мажмуидан иборатдир. Уларнинг биринчиси жисм бўлса, иккинчиси руҳ, уни нафс ҳам дейдилар. Жисмни кўз билан кўрса, қўл билан ушласа бўлади. Руҳни эса зоҳиран ҳис этиб бўлмайди. Балки, ақл билан унинг сийратига қараб топиш мумкин. Шу сабаб кўз ва кўриш каби зоҳирий сифатлар инсон жисмига тааллуқлидир. Аммо, феъл-атвор, амаллар ва одатлар руҳга хос хислатлардирки, улар инсоннинг ботиний суврати оинасидир. Токи, инсоннинг барча аъзолари мутаносиб ва баробар бўлмас экан, зоҳирий ҳусн мукамал бўлмайди. Шундан қиёс қилиб айтиш мумкинки, инсоннинг феъл-атвор ва ҳатти-ҳаракатлари меъёрида бўлмаса унинг ботиний ҳусни мукамал бўлмайди. Ёки айтиш мумкинки, у инсоннинг ахлоқи етук бўлмайди”.

Инсон ақли ҳақида мазкур асарда бундай дейилади: “Ақлий қувват бу шундай қувватки, фикр у билан ҳосил бўлади. Турли инсонлар ўртасидаги фарқлар – яхшилик ва ёмонлик, ботин ва ботил шу қувват орқали вужудга келади”².

Фарзанд тарбияси ҳақида мазкур асарда бундай дейилади: Фарзанд тарбиясида ота-онага бу тўрт нарса зарурдир. Булар – тааддуби жисмоний, тааддуби нафсоний, ҳусни табсият, ҳусни тарбият. Тааддуби жисмоний шудирки, фарзанднинг ҳаракати ва баданини сиҳат қоидаларига мувофиқ қилмоқ, ҳамда кўп емоқ ва ичмоқ, бемаъни кийинмоқдан, қасам ичмоқ, сўкмоқ, ёлғон гапирмоқдан ман қилмоқ, ёмон ҳамсуҳбатлардан сақламоқдир.

Тааддуби нафсоний шудирки, яъни илм ва одоб ўргатмоқ, шариатнинг аҳкомлари билан таништирмоқ, ўтмишни тарих мутоаласи ила бирдирмоқдир. Яна Каломуллоҳ, ҳуснихат, луғат, сарф-наҳв, ҳандаса, ҳисоб, жуғрофия, илми фикҳ яъни, ҳалол ва ҳаромни, илми ҳадисни ўргатмоқликдир. Ана ўшанда фарзанд зарарли нарсаларни ўзидан узоқ тутиб, манфаатли нарсаларни яқин тутмоққа қодир бўлади.

Ҳусни тасбият, яъни, фарзандга яхши сўзларни ўргатиб, ёмон сўзларни сўзлашга ман қилмоқдир. Ҳусни тарбиятлардан яна бири фарзандга яхши мазҳабни ихтиёр қилдирмоқ, яхши одатларга ўргатмоқдир³.

Шунингдек Абдурахмон Сайёҳ тарбияда муаллим ҳусусида ҳам тўхталиб шундай дейди: “Муаллим деб нафсни ислоҳга келтиргувчини айтилуру. Агар ота-она жисмни камолига сабабчи бўлсалар, муаллим нафснинг жавҳари камолига сабаб бўладилар. Агар бу йўлда муаллим бирор нарсага муҳтож бўлса [ота-онанинг уларга] қўлдан келганча ёрдам бермоқ, улардан кўнгилга оғир сўзлар айтилса фарзанд тарбияси йўлидаги марҳамат даражасида билгайлар”⁴.

¹Абдурахмон Муҳаммад Содиқ ўғли Тошкандий. Меъёр ул-ахлоқ. – Тошкент: Гулом Ҳасан Орифжонов матбааси, 1912. – Б.65.

²Абдурахмон Муҳаммад Содиқ ўғли Тошкандий. Меъёр ул-ахлоқ. – Тошкент: Гулом Ҳасан Орифжонов матбааси, 1912. – Б.81.

³Абдурахмон Муҳаммад Содиқ ўғли Тошкандий. Меъёр ул-ахлоқ. – Тошкент: Гулом Ҳасан Орифжонов матбааси, 1912. – Б.114.

⁴Абдурахмон Муҳаммад Содиқ ўғли Тошкандий. Меъёр ул-ахлоқ. – Тошкент: Гулом Ҳасан Орифжонов матбааси, 1912. – Б.134.

Умуман олганда, “Меъёр ул-ахлоқ” асари нашрида Туркистон ўлкасидаги таълим муассасаларида мусулмон болалар таълим-тарбиясида одоб-ахлоқ мавзусини содда ва тушунарли қилиб ёритиш мақсад қилинганини кўриш мумкин. Зеро, ўша давр нуқтаи назаридан маҳаллий ҳамда кенг йўл очилган рус-тузем мактабларида ўрта асрларда яратилган одоб-ахлоқ ҳақидаги анъанавий китоблар ўқув дастурларидан четга чиқарилган бир пайтда, уларда илгари сурилган ғоялар ҳамда исломий анъаналар доирасида, маҳаллий маърифатпарварлар томонидан давр талабларидан келиб чиққан ҳолда қайта ишланган одоб-ахлоқ дарсликларига эҳтиёж катта эди. Мазкур асар ўз даврида ислом фалсафасини ўрганишда, одоб-ахлоқ мавзуларини ўрганишда муҳим аҳамият касб қилган эди. Унда келтирилган фикрлар бугунги кунда ҳам ўз аҳамиятини йўқотмаган.

ТАРИХ ВА МАЊБАШУНОСЛИК

AMIR TEMUR DAVRIDA MOVAROUNNAHR VA OLTIN O'RDA MUNOSABATLARINING ARAB VA FORS MANBALARIDA YORITILISHI

Sohibjon Ummataliyev
ToshDSHI2- kurs magistranti
Ilmiy rahbar: t.f.d., prof. Doniyorov A.

Temuriylar davri o'rta asrlar tarixshunosligi taraqqiyotida o'ziga xos o'ringa ega. Bu davrda o'tmishning eng mashhur va mahsuldor tarixchilaridan bir guruhi ijod qilgan, ya'ni, ular temuriylar homiyligida yaratilgan ilmiy-madaniy muhitda ta'lim-tarbiya olib, o'z iqtidorini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lganlar.

Temuriylar davri bir necha tillarda va turli davrlarda ko'plab asarlar yozilgan. Ularning har biri muallif yashagan davrdagi ijtimoiy-siyosiy muhit sababli alohida yondashuv va tamoyil asosida yozilgan. Akademik V.V.Bartold aytganidek: "Bu davr tadqiqotchisi materiallarning tanqisligidan emas, balki ko'plab kutubxonalarga tarqalib ketgan, tanqidiy yondashish, eng avvalo tanqidiy nashr etishni taqozo etadigan materiallarning ko'pligida qiyinchilikka duch keladi"¹. Shuning uchun manbalarda ba'zi bir tarixiy voqealar turlicha aks etgan. Shunday voqealardan biri Amir Temurning Oltin O'rda bilan olib borgan munosabatlari tarixidir. Ushbu maqolada Amir Temur davrida Movarounnahr va Oltin O'rda munosabatlari tarixi Temuriylar davrida yozilgan arab va fors tilidagi manbalar asosida qiyosiy tahlil etildi.

Amir Temur markazlashgan davlatga asos solgan vaqtda asosan Chig'atoy ulusi tarkibiga kiruvchi hududlarni o'z qo'lida jamlashga harakat qildi. Xorazmga uyushtirilgan harbiy yurishlar ham ayni shu maqsadga qaratilgan edi. Biroq Oltin O'rdadagi ichki nizolar uni Jo'ji ulusidagi siyosiy jarayonlarga jalb etdi. Oltin O'rda bilan munosabatlar arab va fors tilidagi manbalarda turlicha berilgan. Bu masalani qiyosiy tahlil qilishdan oldin voqeani har ikki manbada qanday yoritilganligini qisqacha keltirib o'tsak.

Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" asarida keltirilishicha, Amir Temurning Oltin O'rdadagi siyosiy jarayonlarga aralashuvi 1376-yil To'xtamishxonning Amir Temur huzuriga yordam so'rab kelishidan boshlandi. U otasi To'yxoja Oq O'rda hukmdori O'rusxon tomonidan qatl etilganidan so'ng, Movarounnahrqa qochib kelgan edi. Amir Temur unga juda yaxshi munosabatda bo'ldi va O'tror va Sovron viloyatlari hokimligini unga berdi. Bir oz muddatdan so'ng O'rusxonning o'g'li Qutlug'Bug'o bu yerga bostirib keldi. Bu jang natijasida Qutlug'Bug'o halok bo'lgach, uning qo'shini bundan ta'sirlanib, shaharni egallaydi. To'xtamish esa yana Amir Temur huzuriga qochib keladi. Amir Temur unga iltifot ko'rsatib, kerakli qurol-yarog' va qo'shin bilan yordam ko'rsatadi. Biroq u bu safar O'rusxonning boshqa o'g'li To'qtoqiyo qo'shinaridan yengilib, nochor holatda Amir Temur huzuriga keladi. O'rusxon Amir Temurga maktub yo'llab, To'xtamishni berilishini talab qiladi. Amir Temur unga javob maktubida: "Muruvvatlilik qoidasi va davlat arboblarning urf-odatlarida biror davlatdan panoh istab kelgan odamni dushman qo'lga topshirish ravo ko'rilgaymu? Bunday

¹Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи. (Таржимон ва нашрга тайёрловчи У. Уватов). Т.: Меҳнат, 1992. -Б. 8.

bo'lishi amri maholdir. Albatta agar bu xususda janjalu nizo ko'tarilsa, zaruratan jangga tayyor bo'lish kerak" deb javob beradi¹.

Shundan so'ng Amir Temur Oltin O'rda xoni O'rusxonga qarshi urush boshlashga qaror qildi. 1376-yil O'tror yaqinidagi jangdan so'ng Amir Temur O'rusxon ustidan g'alaba qozondi. O'rusxonning o'zi jangda halok bo'ldi. G'alabadan so'ng Amir Temur Oq O'rda taxtiga To'xtamishni o'tqazdi. Biroq To'xtamishning bu safar ham omadi chopmadi. Amir Temur Samarqandga qaytgach, Temur Malik boshchiligidagi mo'g'ul askarlari Oq O'rdani egalladilar. To'xtamish yana Samarqandga kelishga majbur bo'ldi. Bu uning uchinchi marotaba toj-u taxt uchun kurashda yengilib, Samarqandga kelishi edi². Lekin Amir Temur bu safar ham unga yordam berdi. 1378-yili Oq O'rdani qaytarib olishi uchun uni katta qo'shin va qurol-yarog' bilan ta'minlab, u yerga jo'natdi. To'xtamish Oq O'rdaga kelgan vaqtda Temur malik shaharda emas edi. Shuning uchun shaharni egallash unga qiyin bo'lmadi. Shu voqeadan so'ng To'xtamishning hokimiyati yanada mustahkamlanib bordi. 1380-yil Oltin O'rda xoni Mamay Kulikovo jangida mag'lubiyatga uchrab halok bo'lgach, To'xtamish Oltin O'rda taxtini ham qo'lga kiritdi³.

To'xtamish o'z hokimiyatini mustahkamlab olgach, Amir Temurning yordamini unutdi. Uni o'z dushmani deb bilib, 1387-1388-yillari Amir Temur Movarounnahrda yo'qligida u yerga bostirib kirdi va uning shahar-u qishloqlarini xonavayron qildi. Amir Temur bu vaqtda Eronda istilochilik urushlari olib borayotgan edi. Unga bu xabar yetishi bilan Movarounnahr-ga yetib kelib, turli hududlardagi uning ittifoqchilarini tor-mor etdi. Shundan so'ng 1391-yil Amir Temur To'xtamish ustiga qo'shin tortib bordi. Qunduzcha yaqinida bo'lgan jangda Amir Temur qo'shinlari g'alaba qozondi⁴.

Shu o'rinda Amir Temurning Oltin O'rda bilan munosabatlari Ibn Arabshoh tomonidan qanday yoritilganligini o'rganib chiqsak. Yuqoridagi ma'lumotlar fors manbalaridan, xususan, Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" asosida yozildi. "Ajoib al-Maqdur" da Amir Temurning To'xtamish bilan munosabatlari birmuncha boshqacha yoritilgan. U To'xtamishning Samarqandga Amir Temurdan yordam so'rab kelishi, Oq O'rdani egallashi, keyin Movarounnahr-ga bostirib kelishiga oid ma'lumotlarni birortasini zikr etmagan. Unda keltirili-shicha, Amir Temur Amir Husaynni yengach, Dasht va Totor sultoni To'xtamishxon Amir Temur ustiga lashkar tortib keladi. Ular o'rtasidagi jang 1370-1371-yillari Sayhun (Sirdaryo) bo'yida yuz beradi. Amir Temur askarlari jangda yengilish arafasida turgan vaqtda u yerga Sayyid Baraka keladi va yerdan bir siqim tuproq olib, uni Amir Temur dushmanlari ustiga sochadi. Shu voqea sabab bo'lib, Amir Temur To'xtamish ustidan g'alaba qozonadi. Ibn Arabshoh bergan ma'lumotlar Nizomiddin Shomiy keltirgan ma'lumotlardan tubdan farq qiladi. Ubaydulla Uvatov "Ajoib al-Maqdur" ga bergan izohida Ibn Arabshoh bu o'rinda 1391-yildagi Qunduzcha jangi bilan adashtirganligini aytgan⁵. Lekin bu yerda boshqa bir masala bor. Bu Sayyid Baraka masalasi. Ma'lumki, u 1370-yili Amir Temur Balxga yurish qilgan vaqtda Makkadan kelgan va Amir Temurga katta nog'ora va yalov tortiq qilgan edi⁶.

¹Низомиддин Шомий. Зафарнома.– Б.104.

²Аҳмедов Б. Амир Темур тарихий роман. Т.: Абдулла кодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1995. Б. 221.

³Муҳаммаджонов А. Амир Темур ва Теурийларсалтанати. Т.: Қомуслар бош таҳририяти, 1994. - Б. 18.

⁴Низомиддин Шомий. Зафарнома.– Б. 167.

⁵Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи.2-китоб. – Б. 113.

⁶Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Б.81.

Ibn Arabshoh Amir Temurning Balxga yurishini yoritganda Sayyid Baraka haqida hech qanday ma'lumot bermagan. U haqida birinchi marta To'xamish bilan yuz bergan jang tafsilotida ma'lumot bergan¹. Bundan xulosa qilish mumkinki, Ibn Arabshoh 1370-yilgi Balx qamali va 1391-yilgi Qunduzcha jangi voqealarini bir-biri bilan aralashtirib yuborgan.

Umumiy qilib "Ajoib al-Maqdur"dan quyidagi farqlarni keltirish mumkin:

–1391-yildagi voqeani 1371-yilda deb keltirishi;

–QunduzchadagivoqeaniSayhun (Sirdaryo) daryosibo'yidayuzbergan deb ko'rsatilishi;

–Sayyid Barakaning birinchi marta kelishini Amir Husayn bilan bo'lgan jangda emas, To'xtamish bilan yuz bergan jangda kelgan deb ma'lumot berishi.

1395-yilda sodir bo'lgan Tarak daryosi bo'yidagi jang masalasida arab va fors tarixchilarining fikri turlicha bo'lsa-da, ular bir-birini inkor etmaydi. Balki, yanada to'laroq ma'lumot olishga yordam beradi. Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" asarida atroflicha yoritilgan. Unda jangdan oldin Amir Temur tomonidan Shamsiddin Almoliqiy elchi bo'lib Oltin O'rdaga borganligi, To'xtamishxon bilan sulh tuzilganligi, lekin Amir Temur To'xtamishga ishonmaganligi sababli jang boshlagani, jangda shahzodalar va amirlarning ishtiroki, ularning qahramonliklari haqida ma'lumot berilgan. Asarda shuningdek, Qarosu², Saroy³, O'rusjuq⁴, Mo'shku⁵, Biljiman⁶, Cherkas⁷ va Qubon⁸ kabi Oltin O'rda shaharlari zikr qilingan.

Ibn Arabshoh Tarak daryosi bo'yidagi jang tafsilotini keltirish bilan birga Oltin O'rda ning tabiati, hududi va aholisi haqida, Dashti Qipchoq aholisining urf-odatlarini, xislat-u fazilatlarini, shuningdek, Saroy shahrining tarixiga doir ko'pgina ma'lumotlar keltirganki, shubhasiz, bu faktlar Oltin O'rda tarixi bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar, tarixchi-etnograflar uchun ma'lum qimmatga egadir⁹.

"Ajoib al-Maqdur"da Dashti Qipchoq Dashti Baraka deb nomlanadi. Baraka nomi Jo'jixonning uchinchi o'g'li Berkaxon (1257-1266) nomidan olingan. U islomni qabul qilgan va Dashti Qipchoqda yoyilishida katta hissa qo'shgan. Ibn Arabshohning guvohlik berishicha Berkaxongacha bu hududga islom dini kirib kelmagan. U birinchi bo'lib, Dashti Qipchoqqa islom dinini olib kirgan. Bu vaqtgacha Dashti Qipchoq aholisi butparastlik va ko'p xudolikka e'tiqod qilgan¹⁰.

Ibn Arabshoh Amir Temurning Oltin O'rdaga 1395-yil qilgan yurishiga sabab bo'lgan voqea sifatida Idiku bilan bog'liq voqeani keltiradi. Idiku Oltin O'rda xonlaridan biri bo'lib, To'xtamishxon Amir Temur oldiga yordam so'rab kelganidan so'ng u ham kelgan edi. Keyinchalik To'xtamish Oltin O'rda taxtini egallaganda, u ham Oltin O'rdaga qaytib borgan. To'xtamish uni Amir Temurning josusi sifatida bilib, undan qutulish payiga tushadi. Buni

¹Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. -B. 82.

²Qarosu – Taxminan hozirgi Varonej shahri.

³Saroy – Oltin O'rda xonligining dastlabki poytaxti. Botuxon tomonidan XIII asrning o'rtalarida asos solingan va shu sababdan uni Saroy-Botu deb ham atalgan. Hozirgi Astraxan shahri yaqinida, aniqrog'i Axtuba daryosining chap qirg'og'ida joylashgan.

⁴O'rusjuq – Bu shahar Saroy shahri yaqinida joylashgan.

⁵Mo'shku – Moskvashahri. Sharafiddin Ali Yazdiyda "Maskan" shaklida uchraydi.

⁶Biljiman (ruscha manbalarda beljamen) – uning o'rni Volga daryosining o'ng sohilidabo'lgan.

⁷Cherkas – Shimoliy Kavkazdagi Qorachoy-Cherkas viloyati.

⁸Qubon – Hozirgi Kuban daryosi, Kavkaz tog' tizmasining g'arbiy yon bag'ridan boshlanib, Azov dengiziga quyiladi.

⁹Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. (Tarjimom va nashrga tayyorlovchi U. Uvatom). T.: Mexnat, 1992. -B. 40.

¹⁰Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. -B. 147.

bilgan Idiku Amir Temurning oldiga qochib keladi va uni Oltin O‘rdaga yurish qilishga undaydi¹. Ibn Arabshoh keltirgan bu voqea garchi boshqa ba’zi tarixchilar tomonidan keltirilgan bo‘lsa-da, Ubaydulla Uvatov uni noto‘g‘ri ekanligini, aslida Idiku Oltin O‘rda xonlari tomonidan Amir Temurdan yordam so‘rash uchun yuborilganligini aytadi. U.Uvatov o‘z fikrini V.V.Radlovning “Ярлыки Тохтамыш” asaridagi fikr bilan quvvatlaydi².

Asarda Oltin O‘rdaning tabiiy chegaralari ham berilgan. U janubdan Qulzum (Kasbiy) dengizi va Misr dengizi bilan, sharq tomondan Xorazm, O‘tror, Sig‘noq, Turkiston va Sin bilan, shimol tomondan Iybir (Sibir) dashtlari bilan, G‘arb tomondan Rus va Bulg‘or hamda nasroniylar yeri bilan chegaralangan³. Ibn Arabshoh jang tafsiloti davomida uning Tarak daryosi bo‘yida 1395-yilda bo‘lganligi haqida hech narsa demagan. Faqat voqea oxirida Amir Temurning Samarqandga qaytganligi, buning Dashti Barakadagi ishlarining oxirgisi bo‘lganligini aytadi.⁴

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Oltin O‘rda bilan bog‘liq ma’lumotlar Ibn Arabshoh asarida ayrim o‘rinlarda voqea sodir bo‘lgan joy va uning vaqti haqida xatolikka yo‘l qo‘ygan bo‘lsada, unda Dashti Qipchoq haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan. Fors tilidagi asarlarda makon va zamon hodisalari aniq va izchil bayon qilingan. Arab tilidagi asarlarda bir muncha chalkashliklar, voqealarni yoritilishida biroz noaniqlik bo‘lishiga qaramay, boshqa asarlarda keltirilmagan ayrim ma’lumotlarni keltirganligi sababli, ularning alohida o‘ringa ega ekanligini ko‘rsatadi. Fors tilidagi asarlar voqealarni keltirishda izchilligi, har bir tarixiy jarayonni yilma-yil bayon qilishi bilan ajralib turadi. Shuning uchun tadqiqotchidan har ikki manbadan ham foydalanish talab etiladi.

XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA FRANSIYA MIGRATSIYA SIYOSATINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Saydullayev Sirojiddin
ToshDSHI 2-kurs magistrant
Ilmiy rahbar: t.f.f. Ismoliyova Y.A.*

Migratsion jarayonlarning shakllanishi vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib, turli ko‘rinishdagi tashqi omillar ta’sirida bir qator muammolarni vujudga keltirishi mumkin. Ana shunday tashqi omillar sirasiga butun tarix guvoh bo‘lgan ikkinchi jahon urushining noxush oqibatlarini kiritish mumkin. Ikkinchi jahon urushi jahon iqtisodiy munosabatlarida davlatlar milliy inqirozining kuchayishi hamda uning ta’sirida ishsizlik darajasining yuqori darajaga ko‘tarilishi, noqonuniy migrantlar, qochoqlar oqimining tezkor sur‘atlarda ortib borishi singari salbiy holatlarni yuzaga keltirdi. Tabiiyki, ikkinchi jahon urushi davrida va undan keyin immigrantlarni qabul qiluvchi mamlakatlarda migratsion jarayonlarni boshqarish va ularni nazorat qilishda bir qator muammolar paydo bo‘lib, immigrant mamlakatlar oldida migratsiya jarayonlari bilan bog‘liq oqilona siyosat ishlab chiqish zaruratini vujudga keltirdi. Bu davrga kelib

¹Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи. -Б.150.

²Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи. 2-китоб. (Таржимон ва нашрга тайёрловчи У. Уватов). Т.: Мехнат, 1992. -Б. 129.

³Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи. - Б. 151.

⁴Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи. 1992. -Б. 159.

ko'p yillar mobaynida tarixiy tajribaga ega bo'lgan Fransiyada migratsion jarayonlarning mazmuni va maqsadi doirasi kengayib, o'ziga xos xususiyatga ega bo'la boshladi.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng Fransiyada izdan chiqqan iqtisodiyotni qayta tiklashda mehnat resurslariga nisbatan yuqori darajadagi talab ishchi kuchini import qilishni taqozo qilar edi. Fransiya ishchi kuchiga bo'lgan talabni o'zining mustamlakalaridan ishchi kuchi jalb etish siyosati bilan qondirishga harakat qildi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng migratsiya jarayonlarini faol ravishda davlat tomonidan boshqarishga erishish uchun fransuz siyosatchilari ikkita sababni keltirib o'tishadi¹. Birinchi sabab mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga yo'naltirilgan keng ko'lamli va sifatli o'zgarishlarni amalga oshirish hisoblanadi. 1970-yilda Fransiya milliy iqtisodi aholi bandligini yuqori darajada ta'minlay olish holatida emasligi ayon bo'lib qoldi. XX asrning 60-70-yillarida Fransiyada aholi bandligi bo'yicha immigrantlarning ulushi atigi 6,6%ni tashkil etdi². Ikkinchi sabab esa, musofirlarning etno-konfessional tarkibidagi o'zgarishlar hisoblanadi. Agar e'tibor qaratadigan bo'lsak, tarixiy davrlarda Fransiya immigrantlarining aksariyatini yevropaliklar tashkil etgan bo'lsa, XX asrning oxirlaridan boshlab Afrika va Yaqin Sharq immigrantlari bu borada yetakchilikni o'z qo'lga oldi. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, bunday etno-konfessional o'zgarishlarda musulmon muhojirlarning fransuz jamiyatiga moslashishi jarayoni mamlakat uchun murakkab qiyinchiliklarni vujudga keltirishi tabiiy edi.

Yevropaning aksariyat davlatlaridan farqli ravishda, Fransiya Respublikasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ikkinchi jahon urushi tufayli va mehnat resurslarining yetarli darajada emasligi sababli immigratlarni qabul qiluvchi asosiy mamlakat bo'lib qoldi. Birinchi jahon urushidan so'ng, Fransiya madaniyatiga o'xshash bo'lgan barcha katolik mamlakatlari – Italiya, Ispaniya, Portugaliya va Polshadan immigrantlar ko'chib kelishdi. Ikkinchi jahon urushi yakunlangandan so'ng, Fransiya Italiya, G'arbiy Germaniya va Gretsiya bilan yollanma ishchilar to'g'risidagi shartnomani imzoladi. Fransiya hukumati Italiyadan kelgan ishchi kuchlarini muhim ahamiyatga ega deb hisoblardi, buning boisi italyanlar fransuz jamiyatiga osonlik bilan qo'shilib keta olish imkoniyatiga ega edi. Biroq, alohida aytish joizki, ushbu davrda italiyaliklardan ko'ra, Jazoiridan kelgan ishchilar ko'pchilikni tashkil etardi. Buning asosiy sababi Jazoirning mustaqillikka erishishi va mustaqilligining dastlabki yillarda ishsizlik muammosini migrantlar orqali hal etishga urinish edi. Davlat fuqaroligiga qabul qilish jarayoni aholini doimiy turar joyga ko'chishini rag'batlantirish maqsadida sodda ko'rinish olgan edi. Bunday rag'batlantirishdan fransuz hukumatining dastlabki maqsadi buyuk davlat maqomini saqlash hamda o'zining katta hududi uchun aholi sonini ko'paytirishdan iborat edi³. Fransiyaning migratsiya siyosatini shakllanishida mamlakatda katta miqdordagi xorijliklarning mavjudligi immigrantlar sonini chegaralashga yo'naltirilgan keskin va yuqori darajadagi iqtisodiy hamda ijtimoiy muammolarni vujudga keltirardi. Shu sababdan, 1952-yil 25-

¹ Константин Снисаренко. Миграционная политика французских правительств в конце XX — начале XXI в // Журнал международного права и международных отношений № 4, 2012. - С. 24.

² Évolution de la part des populations étrangères et immigrées en 2008 [Electronic resource] // Institut national de la statistique et des études économiques. Mode of access: <http://www.insee.fr/fr/themes/tableau.asp?ref_id=NATTEF02131®_id=0>. Date of access: 04.06.2012.

³ Maria Montserrat, Guibernau i Berdún. Governing European Diversity. Open University: SAGE, 2001. - P.80.

iyulda qabul qilingan qonunga muvofiq, tashqi ishlar vazirligi huzurida mustaqil faoliyat olib boruvchi Qochoqlar va apatridlarni himoya qilish boshqarmasi (QAHQB) tashkil etildi¹.

1950-yillar oxirida Jazoirning mustaqillik uchun kurashi fransuz fuqaroligiga ega fransuz va jazoirliklarning vataniga qaytishiga sabab bo'ldi va aynan ushbu sabab tufayli ular Fransiya hududiga erkin kirish huquqiga ega bo'ldi. Bunday huquqlar berilishi natijasida XX asr ikkinchi yarmiga kelib Fransiyada arab millatiga mansub aholining tug'ilishiga nisbatan, fransuz millatiga mansub aholining tug'ilish darajasi nisbatan sekin kechib bordi. Ushbu davrda Fransiyaning iqtisodiyoti rivojlandi va yangi immigrantlar fransuz iqtisodining kelajakdagi istiqbolini belgilay boshladi. Jazoir mustaqillikka erishgandan so'ng, immigrantlar oqimi tobora kengayib fransuz iqtisodi qurilish, avtomobil sanoati, qishloq xo'jaligi kabi ishchi kuchiga talab yuqori bo'lgan sohalarda ayniqsa yuksalib bordi. Bundan tashqari, Ispaniya, Portugaliya, Jazoir, Marokash va Tunisdan kelgan immigrantlar tropik Afrikani franko tillarida gaplashuvchi mamlakatlari, jumladan Mali, Senegal, Kamerun va Kot-d'Ivuar migrantlarini o'zi bilan birgalikda ergashtirib kelishdi. Hattoki, noqonuniy migratsiya ustidan mustahkam nazorat zaiflashib qolgan edi, chunki bu Fransiya iqtisodining ijobiy o'sishi sabablaridan biri sifatida qabul qilingan edi².

Fransuz immigrantlari orasida eng faollaridan hisoblangan marokashliklar o'z ijtimoiy muammolarini hal etishda aynan emigratsiya masalalariga alohida e'tibor qaratgan edi. Mustaqillikdan keyingi yillarda marokash hukumati emigratsiya masalasiga nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy omillarni ham hisobga olgan holda qaray boshladi. Xalqaro migratsiya instituti rahbari, professor Xein de Xaasning takidlashicha, bu paytga kelib mamlakatda mehnat migratsiyasiga, ayniqsa, qishloq hududlarida hal qilinishi kerak bo'lgan muammo, ya'ni yuqori ijtimoiy va siyosiy bosimni yengillashtirishning bir chorasi sifatida qarala boshlandi³. Bundan tashqari migratsiya jarayonlari mamlakatga yosh aholi va oilalar uchun qo'shimcha daromad manbaini shakllantirishda yordam berdi. Takidlash joizki, xorijda yashovchi jami marokashliklarning 86 %i Yevropada hamda deyarli 1/3 qismi Fransiyada yashaydi. Bunday holatni bevosita kolonial o'tmish va geografik yaqinlik bilan bog'lash mumkin. Fransuz tili Marokashdagi ikkinchi norasmiy til bo'lib, davlat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, yirik va o'rta hajmdagi kompaniyalar, fransuz tilida so'zlashuvchi mamlakatlar bilan xalqaro aloqalar hamda xalqaro diplomatiyada undan keng foydalaniladi⁴.

1968-yil may oyida yuz bergan inqiroz Fransiya Respublikasi oldida immigrantlar maqomini qayta ko'rib chiqish zaruratini vujudga keltirdi. Qolaversa, immigrantlar bir qancha nomayishlar va ommaviy noroziliklarda ishtirok etishib jamoat tartibini buza boshladi. Buning natijasida ularning bir qanchasi mamlakat hududidan chiqarib yuborildi. 1970-yilda Fransiya hukumatini migratsiya bilan bog'liq ijtimoiy mummolar xavotirga sola boshladi. Xususan, ko'chib kelganlarning turar joylar bilan to'liq ta'minlanmaganligi, savodlilik

¹ Закон № 52-893 от 25 июля 1952 года по вопросу о праве на убежище. <http://www.gisti.org/dossiers/reformes/2005-code/loi52verscode.pdf>

²Ralph Schor. Histoire de l'immigration en France de la fin du dix-neuvième siècle à nos jours, Paris, 1996. – P.340.

³ Hein de Haas. Moroccos migration transition: Trends, determinants and future scenarios//MDR working Paper № 3. “Migration and Development Revisited”.the Netherlands 2005. - P.3.

⁴ Qarang: Қодирова З. А. Марокашда меҳнат миграцияси ва унинг мамлакат иқтисодий тараққиётига таъсири// “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 6, ноябрь-декабрь, 2014 йил. – Б.4.

darajasi sayoz immigrantlar oqimining ko'payishi, ishsizlikning yuqori darajaga ko'tarilishi jinoyatchilik, shuningdek immigrantlar orasida qashshoqlar sonining tobora o'sib borishi kabi masalalar Fransiya migratsiya siyosatini qayta ko'rib chiqish va isloh qilish zaruratini yuzaga chiqardi. Bundan tashqari, 1973-yilda yuz bergan "neft inqirozi" chegara bo'ylab yollanma ishchilar kelishini vaqtinchalik ta'qiqlashga sabab bo'ldi. Iqtisodiy inqiroz sharoitida Jak Shirak ma'muriyati 1974-yil 5-iyulda Fransiya bo'ylab immigratsiyani to'xtatish to'g'risida qaror qabul qildi. Ushbu qarorning asl mohiyatini Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridan tashqari, qolgan barcha mamlakatlar uchun mehnat vizasi taqdim etishni to'xtatish tashkil etdi. 1978-yilda immigrantlarni majburiy repatriatsiya qilishning ma'muriy mexanizmlari joriy etildi. Dastur besh yilga mo'ljallangan bo'lib, 500 ming kishini Fransiyadan tashqariga ko'chirishni nazarda tutardi¹.

Bu davrda Fransiya markaziy hukumatining migratsiya siyosati bilan bog'liq harakatlari bir qancha kamchiliklarga ega ekanligini aytib joiz. Birinchidan, hukumat mamlakat uchun immigratsiya ahamiyatini yetarli baholay olmadi. Qoida tariqasida, immigrantlar fransuz mehnat bozorining o'zagini tashkil etadi. Shuningdek, immigratsiya Fransiya tub joy aholisi faolligini oshirish barobarida aholining iqtisodiy o'sishini ham ta'minlab beradi. 1946-yildan 1970-yilgacha faol fuqarolarining iqtisoddagi ulushi 5,5% ga qisqarib ketdi. 1960-70-yillarda immigrantlarning aksariyat qismini 25 yoshdan 45 yoshgacha bo'lgan mehnatga layoqatli erkaklar tashkil etdi². Ikkinchidan, majburiy repatriatsiya qilish samarasi past darajada edi. Mamlakatdan chiqib ketgan immigrantlar noqonuniy yo'llar bilan qaytishda davom etdi. 1979-yilda immigrantlarni vataniga qaytarish maqsadida ularga kengaytirilgan mablag'larni berish orqali rag'batlantirish harakatlari olib borildi, lekin bu harakat muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Chunki, immigrantlar uchun moliyaviy mablag'ni kutgandan ko'ra, doimiy ish joyining o'zi katta rag'bat hisoblanardi. Shu sababdan, amalga oshirilgan chora-tadbirlar kutilgan natijaga olib kelmadi. Immigrantlar va ularning oilalari osonlik bilan Fransiyaga ko'chib kelishda davom etdi. Bunga javoban 1980-yil 10-yanvarda "Noqonuniy immigratsiyani ogohlantirish to'g'risida"gi Qonun tasdiqlandi³. Uchinchidan, qabul qilingan chora-tadbirlar fransuz ijtimoiy-siyosiy hayoti asosini tashkil etgan liberal-demokratik qadriyatlarga zid ekanligini ko'rish mumkin. Markaziy hukumatning migratsiya siyosatiga nisbatan fransuzlarning noroziligi, ayniqsa 1980-yil 10-maydagi Milliy norozilik yurishida yaqqol namoyon bo'ldi⁴.

Fransiyaning sobiq koloniyalari o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan keying yillarda ularning ko'chib yuruvchi aholisini Fransiya hududiga erkin ravishda kirishiga ruxsat berilgan edi. Bunday erkinlik Fransiyada tabiiy ravishda noqonuniy muhojirlar oqimining keskin ravishda oshib ketishiga sabab bo'ldi. Immigrantlar, ayniqsa musulmon immigrantlar orasida

¹ L'accueil des immigrants et l'intégration des populations issues de l'immigration: Rapport au Président de la République suivi des réponses des administrations et des organismes intéressés [Electronic resource] // Cour des comptes. Mode of access: <http://www.ccomptes.fr/index.php/content/download/2473/24772/version/2/file/Immigration.pdf>. Date of access: 20.09.2012.

² Dagué, F. La population immigrée. Le résultat d'une longue histoire / F. Dagué, S. Thave [Electronic resource] // Institut national de la statistique et des études économiques. Mode of access: http://www.insee.fr/fr/ffc/docs_ffc/IP458.pdf. Date of access: 02.10.2005.

³ Loi № 80-9 du 10 janvier 1980 relative à la prévention de l'immigration clandestine et portant modification de l'ordonnance n° 45-2658 du 2 novembre 1945 relative aux conditions d'entrée et de séjour en France des étrangers et portant création de l'Office national d'immigration // Ibid. 1980. 11 jan. - P. 71-72.

⁴ Константин Снисаренко. Миграционная политика французских правительств в конце XX — начале XXI в // Журнал международного права и международных отношений № 4, 2012. - С. 25.

Fransiyaning “Muhajirlar Makkasi” deb nomlash paydo bo‘lganining o‘zi ham buning yorqin dalillaridan biridir¹. 1980-yilda xorijliklarni kelishi va yashashi uchun juda qattiq shartlar va talablar qo‘yilib, immigrantlarni davlat nazoratiga bo‘ysundirish maqsadida kuchaytiruv ishlari olib borildi.

1990-yilning boshlarigacha Fransiya Yevropaning boshqa yetakchi davlatlari orasida qochoqlarning katta qismini qabul qiluvchi mamlakat sifatida qoldi. 1990-yillarda Fransiya bo‘ylab aholining 6,3 %ini tashkil etgan 6,3 mln emigrant ro‘yxatga olingan². Ayni shu davrdan boshlab Fransiyaning immigratsion siyosati doimiy ravishda xorijliklar uchun fuqarolikni olish va ularning mamlakat hududiga kirishida ba‘zi cheklovlarni joriy etish tamoyillariga asoslangan proteksionistik tomonga o‘zgara boshladi.

Fransiyaning XX asrning ikkinchi yarmidagidagi migratsiya jarayonlarining o‘ziga xos jihatlari tahlil qilishda, Fransiya ichki ishlar vaziri Sh. Paskuaning “Le Monde” gazetasiga bergan intervyusidagi quyidagi so‘zlarini keltirib o‘tsak, maqsadga muvofiq bo‘ladi: “Fransiya allaqachon immigrant mamlakatga aylanib bo‘ldi va u buni boshqa istamaydi ham, qabul qila olmaydi ham. Butun jahon va Yevropadagi vaziyatning yomonlashuvi Fransiyaning unda qolishni istagan barcha immigrantlarni o‘zi bilan olib qolishi mumkin emasligiga ishora bermoqda. Muammo shundaki, biz bundan keyin immigrantlarni qabul qila olmaymiz”. Ichki ishlar vaziri yangi immigrantlar oqib kelishini cheklashga qaratilgan “nol darajadagi migratsiya” atamasini joriy etdi. Bundan tashqari ichki ishlar vaziri oilalarni birlashtirish dasturi doirasida xorijliklarni Fransiya kirishini tartibga soluvchi “Paskua qonuni”ni ishlab chiqdi. Bu qonun, avvalo, bir necha o‘n kishini tashkil etuvchi musulmon oilalariga tegishli edi³. Fransiya Bosh vaziri M. Rokar (1988-1991-yillar) ham “Fransiya jahonning barcha kambag‘allarini qabul qilish holatida emas”, deb ta’kidlaydi⁴.

Yuqorida ko‘rib chiqqanlarimizdan xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Fransiya XX asrning ikkinchi yarmi oxirlariga kelib migratsiya jarayonlarini davlat tomonidan nazorat qilish va boshqarishni oldingi davrlarga nisbatan kuchaytira boshladi. Buning asosiy sabablari sifatida Fransiya sobiq mustamlaka davlatlarining mustaqillikka erishishi va ulardan muhojirlar sonining keskin ravishda mamlakat hududiga kirib kelishi, 1973-yil neft inqirozining Fransiya iqtisodiyotiga ta’siri, Yaqin Sharqdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning o‘zgarib borishini keltirish mumkin. Chuqur tahlil asosida umumiy qilib aytadigan bo‘lsak, ikkinchi jahon urushidan keyingi o‘n yillikda Fransiya o‘z iqtisodiyotini rivojlantirish maqsadida immigrantlarni mamlakat hududiga erkin kirib kelishiga imkoniyat yaratib bergan bo‘lsa, yuqorida sanab o‘tilgan sabablar natijasida XX asrning oxirlariga kelib migratsiya jarayonlarini jiddiy ravishda nazorat qilish hamda noqonuniy muhojirlar oqimini cheklash siyosatini amalga oshirganini ko‘rish mumkin.

¹ Рязанцев С.В. Опыт и проблемы регулирования миграционных потоков в странах Западной Европы. Москва, 2001. - С.61.

² O‘sha manba: - С. 62.

³ Петров Г. «Законы Паскуа» немного подправят // Иностранец. 30 октября 1996. - №42.

⁴ Батырев С. Заслон от чужеземцев // Эхо планеты. - №27. июль, 1993. - С.7.

O'RTA OSIYO MINTAQASINING JANUBIY HUDUDLARINI O'RGANGAN OLIMLAR ETNOLOGIK TADQIQOT ISHLARINING UMUMIY TAVSIFI

Saydaliyev Umidjon
TDSHI 2-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: t.f.n. XaydarovI.

O'rta Osiyo xalqlarining etnografiyasi, etnogenezi va etnik tarixi masalalarining o'rganilishiga tarixshunoslik tadqiqotlarida asosli va yetarli darajada e'tibor qaratilgan. Ammo u yoki bu ilmiy muammoning alohida masalalari nuqtai-nazaridan olganda tarixshunoslik tahlillariga tortilishi lozim bo'lgan masalalar ham talaygina. Shu asosda etnograf olimlarning O'rta Osiyo tadqiqotlarining etnologik jihatlarini yoritishga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy tadqiqot ishlarini tavsiflash va tahlil etish maqsadga muvofiq deb topildi. Avvalo, O'rta Osiyo mintaqasining etnologik tadqiqotlari va etnogeniz masalalari bilan juda ko'plab olimlar ilmiy yo'nalishda izlanishlar olib borganlar. Quyida ko'rsatiladigan etnograf olimlarning izlanishlari ham shu hududda amalga oshirilganligi bilan o'xshash va harakterlidir.

O'rta Osiyo mintaqasining janubiy hududlarining etnologik tadqiqot ishlarini o'rganagan tadqiqotchi olimlardan S.M.Abramzon¹, Ananov A.G.², Abduraimov M.A.³, Andreyev M.S.⁴, Andreyev M.S.⁵, Aristov N.A.⁶, Askarov A.A.⁷, Axmedov B.X.⁸, Bartold V.V.⁹, Batrakov V.S.¹⁰, Borozna N.G.¹¹, Burxan-ud-Din-xan-i Kushkeki¹², Bo'riyev O., Usmonov M.¹³,

¹“Формы родоплеменной организации у кочевников Средней Азии” // Родовое общества. ТИЭ, 1951. Т. XIV. – С. 23-56.

²Шерабадская долина. – СПб. 1914. – 81 с.

³Вопросы феодального землевладения и феодальной ренты в письмах эмира Хайдара. – Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1961 – 107 с.

⁴Некоторые результаты этнографической экспедиции в Самаркандскую область в 1921 году // ИТОРГО, 1924. Т. XVII.

⁵Таджики долины Хуф. Верховья Амударьи. Вып. 2. - Сталинабад: Изд. АН Тадж ССР, 1958. – 526 с.

⁶Англо-индийский «Кавказ». Столкновение Англии с афганскими пограничными племенами (этноко-исторический и политический этюд) // Живая Старина. Вып. VI. 1899. – С. 18-32.

⁷Некоторые аспекты изучения этногенеза и этнической истории узбекского народа // Материалы к этнической истории населения Средней Азии. – Ташкент: Фан, 1986. – С. 3-14.

⁸Государство кочевых узбеков. - М.: Наука, 1965.–195 с., Ўзбек улуси. – Тошкент: Нур, 1992., Ахмедов Б.А. Ўзбекларнинг келиб чиқиши. – Тошкент: Фан, 1964.

⁹Гиссар (Хисар) / Соч. Т. III. – М.: 1965., Двенадцать лекций по истории турецких народов Средней Азии. / Соч. Т.5. – М.: 1968., . Сарт / Соч. Т. II. Ч. 2.– М.: 1964; 2.24. Бартольд В.В. Термез / Соч. Т. III.– М.: 1965.

¹⁰О разделении труда между кочевыми и оседлыми районами // Труды Среднеазиатского Государственного университета (Далее – Труды САГУ). – Ташкент, 1955. Вып. –LXXV. С. 113-138; Особенности развития сельского хозяйства Бухарского ханства с половины XVIII до 70-х гг. XIX века // Труды САГУ. – Ташкент, 1962. Вып. 193. – С. 154-184.

¹¹Материальная культура узбеков Бабатага и долины Кафирнигана // Материальная культура народов Средней Азии и Казахстана. – М.: 1966. – 91-120.

¹²Каттаган и Бадахшан. Данные по географии страны, естественно-историческим условиям, населению, экономике и путям сообщения / Пер. с. перс. – Ташкент: 1926.

¹³Ўзбеклар: этник тарихи ва этномаданий жараёнлар. – Самарканд: 2008. – 243 б.

Чифатойлар этник тарихидан // Марказий Осиёда аънаваний ва замонавий этномаданий жараёнлар. 2 қисм. Тошкент: 2005. 1-қисм. – Б. 138-143.

Бўриев О. Жанубий Ўзбекистон аҳолиси этник тарихидан // Тарих, мустақиллик ва миллий ғоя. – Тошкент: Академия, 2001. – Б. 206-209.

Бўриев О. Қатагон этноси ҳақида баъзи мулоҳазалар // Мустиқил Ўзбекистон ва миллатлараро муносабатлардаги барқарорлик. – Тошкент: ТошДУ, 1995. – Б.

Valixanov Ch.Ch.¹, Validiy Ahmad Zakiy², Vamberi A³, Vasilyev. P.S.⁴, Vaxabov M.⁵, Vostrov V.V., Mukanov M.S.⁶, Gavrilov M.F.⁷, Galkin M.N.⁸, Gafurov B.G.⁹, Grekov B., Grebenkin A.D.¹⁰, Yakubovskiy A.¹¹, Doniyarov X.¹², Doniyorov A.X.¹³, . Debes G.F.¹⁴, Djikiev A.¹⁵, Jabborov I.M.¹⁶, . Jdanko T.A.¹⁷, Jirmunskiy V.M.¹⁸, Jo‘rayev B.¹⁹, Zadixina K.L.²⁰, Zarubin I.I.²¹, Ivanov P.P.²², Yo‘ldoshev T.²³, Kislyakov N.A.²⁴, Kondrashev S.K.²⁵, Kuzeyev R.G.²⁶, Ligeti L.²⁷, Lipskiy V.I.²⁸, Litvinskiy B.A.²⁹, Logofet D.N.¹, . Lunin B.V.²,

¹Предания и легенда Большой киргизо-кайсацкой орды / Собрание соч. В 5-томах. – Алма-Ата: 1961.

²Ўзбек уруғлари // Ўзбегим. «Звезда Востока» журналы кутубхонаси. – Тошкент: 1992. – Б. 110-113.

³ Путешествие Средней Азии из Тегерана через Туркменскую пустыню по восточному берегу Каспийского моря в Хиву, Бухару и Самарканд, предпринятое в 1863 г. / Изд. 1-е. – М.: 1867; Изд. 2-ое. 1874.

⁴Статистические материалы для описания Бухары. Бекство Ширабадское и част Байсунского // СМА. Вып. LVII. 1894.

⁵Формирование узбекской социалистической нации. Ташкент: Госиздат, 1961. – 587 с.

⁶Родоплеменной состав и расселение казахов (конец XIX - начало XX в.). – Алма-Ата: 1968.

⁷Материалы к этнографии «тюрок» Ура-тюбинского района // САГУ. Сер 2. Ориентелла. Вып. 2 – Ташкент: 1929.

⁸Военно-статистический очерк средней и южной частей Сурханской долины // СМА. Вып. LVII.– 1894.

⁹Таджики (Древнейшая, древняя и средневековая история). Кн. 1. – Душанбе: Ирфон, 1989.

¹⁰Родословная Мангитской Династии / Материалы для статистики Туркестанского края. – Ташкент: 1874. Вып. 3. – С. 340-376.

¹¹Золотая Орда. Очерк истории Улуса Джучи в период сложения и расцвета в XIII-XVI вв. - Л.: 1937.

¹²О происхождении этнонима тюрок и о значении слова тюрок // А. Навоий номидаги Сам. ДУ.асарлари / Ўзбек тилшунослиги масалалари. – Самарканд: 1971.– № 188.– Б. 22-27.

¹³Ўзбекистон этнографияси тарихидан айрим лавҳалар (XX асрнинг 20-80-йиллари). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2003. – 80 б.

¹⁴Антропологические исследования узбеков, туркменов, хазара, таджиков, персов и белуджей / ПОАИА. Вып. 6. 1968.

¹⁵Очерк этнической истории и формирования населения южного Туркменистана. – Ашхабад: 1977.

¹⁶Ўзбеклар: турмуш тарзи ва маданияти: Ўқув қўлланма – Тошкент: Ўқитувчи, 2003. – 208 б.

¹⁷О типах этнических общностей с пережитками родоплеменной структуры в Средней Азии и Казахстане (XIX - начало XX в.) / Доклады советской делегации на IX Международном конгрессе антропологических и этнографических наук. – М.: 1973. – С. 46-52

¹⁸Эпическое сказание об Алпамыше и «Одиссея» Гомера // Фольклор Запада и Востока. Сравнительно-исторические очерки. – М.: 2004. – С. 231-239.

¹⁹Юкори Қашқадарё ўзбек шевалари. – Тошкент: 1969.

²⁰Некоторые вопросы изучения этнического состава населения бассейна Кашкадарьи в Сурхандарьинской области Узбекской ССР // КСИЕ. – Т. 37. – С. 39-45.

²¹Список народностей Туркестанского края // ТКПС. Изд. акад. наук. СССР. – Л.: 1925.– №10. – С. 24-35.

²²Очерки по истории Средней Азии (XVI-середина XIX в) - М.: Наука, 1958. – 181 с. Иванов П.П. Хозяйство джуйбарских шейхов. К истории феодального земледелия Средней Азии в XVI-XVII вв. – М.-Л.: 1954. 379 с. История Узбекской ССР. – Ташкент: Т. I. Кн. I. 1955. Кн. II. 1956.

²³Жанубий Тожикистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: 1968.

²⁴Патриархально-феодалные отношения среди оседлого сельского населения Бухарского ханства в конце XIX - начале XX в. // ТИЕ. Т. 1962.

²⁵Водопользование в Шерабадской и Сурханской долине Бухарского ханства // Материалы работы гидромодульной части отдела земельных улучшений. – М.: 1918. Вып. 14.

²⁶Роль исторической стратификации родоплеменных названий в изучении этногенеза тюркских народов Восточной Европы, Казахстана и Средней Азии // Доклады советской делегации на IX Международном конгрессе антропологических наук. – М.: 1973.

²⁷О монгольских и тюркских языках и диалектах Афганистана//Аста ориенталиа Асадемаие ссиентиарум Хунгарисае. Т. IV. Т. II-III. Будапешт. 1955.

²⁸Горная Бухара. Результаты трехлетних путешествий в Среднюю Азию, Хребет Гиссарский и Восточная Бухара: хребет Дарвазский, Мазарский и Петра Великого. 1899. – СПб.: 1905.

²⁹Исторические судьбы Восточного Туркестана и Средней Азии (проблемы этнокультурной общности) // Восточный Туркестан и Средняя Азия. – М.: 1984.

Malikov A. M.³, Masson V.M.⁴, Muxetdinov A.⁵, Nadjimov K.⁶, Nafasov T.⁷, Oranskiy I.M.⁸, Oshanin L.V., Zezenkova V.Ya.⁹, Polozov V.A.¹⁰, Potapov L.P.¹¹, Pugachenkova G.A.¹², Reshetov V.V.¹³, Rojevis R.Yu.¹⁴, Rtveladze E., Isxakov M.¹⁵, Semyonov A.A.¹⁶, Snesev A.¹⁷, Sobolev L.N.¹⁸, Sultanov M.X.¹⁹, Suxareva O.A.²⁰, Tolstova L.S.²¹, Trepavlev V.V.²², Fevralev N.²³, Xamrayev M.²⁴, Xamrokulov X.²⁵, Xidoyatov I.²⁶, Xodjayov T.K.²⁷, Xolikov E.²⁸, Shaniyazov K.Sh., Ismailov X.X.²⁹, Yudin V.P.¹, Yavorskiy I.L.², Yakubovskiy

¹Бухарское ханство под русским протекторатом. – СПб.: 1911.

² 20-30-йилларда Ўзбекистонда этнография масалаларининг ўрганилиши // XX асрнинг ўттизинчи йилларида Ўзбекистонда тарих фани (Тарихшунослик очерклари). 2-қисм. – Тошкент, 1994. Б. 309-327.

³Узбеки группы кунград долины Зерафшана в XIX – начале XX в. – Самарканд: 2007. – 124 с.

⁴Ранние кочевники Средней Азии и Казахстана. – Л.: 1975. 2.99. Массон В.М., Ромодин В.А. История Афганистана. – М. Т. II. 1965.

⁵По Восточной Бухаре // Народное хозяйство Средней Азии. – Ташкент: 1924. № 2-3.

⁶Антропологические материалы к проблеме этногенеза некоторых народов Средней Азии // Сборник научных трудов аспирантов САГУ. Вып. 1. – Ташкент: 1952.

⁷Жанубий Ўзбекистон топонимиясининг этнолингвистик анализи. – Тошкент: 1985.

⁸Таджикоязычные этнографические группы Гиссарской долины (Средняя Азия). Этнолингвистические исследования. – М.: 1983.

⁹Вопросы этногенеза народов Средней Азии в свете данных антропологии // – Ташкент: Изд-во Уз ССР, 1953.

¹⁰Узбекское общинное землепользование в Ширабадской долине и Каршинской степи УзССР // Народное хозяйство Средней Азии. – Ташкент: №7. 1925. – С.69-75.

¹¹Материал по семейно-родовому строю у узбеков «Кунград» // Научная мысль. – Ташкент: №1. 1930.

¹²К исторической топографии Чаганиана. – Ташкент: 1963.

¹³Узбекский язык. Введение в фонетику. – Ташкент: 1959.

¹⁴Поездка в Южную и Среднюю Бухару в 1906 г. // ИРГО. Т. ХЛИВ. Вып. 9. 1908.

¹⁵Два средневековых чаганианских селений // ИМКУ. Вып. 15. – Ташкент: 1979. – С. 84-94.

¹⁶К вопросу о происхождении и составе узбеков Шейбани-хана // Материалы по истории таджиков и узбеков Средней Азии: Труды АН Тадж. ССР. Вып. 1. Т. XII. 1953.

¹⁷Восточная Бухара (Военный-географический очерк) // СМА. – СПб.: 1906.

¹⁸Географические и статические сведения о Зарафшанском округе с приложением списка населённых мест Округа // ЗРГООС. Т. IV. 1874.

¹⁹Этнографические наблюдения в Сурхандарьинской области // Материалы по истории Узбекистана. – Ташкент: 1966.

²⁰К истории городов Бухарского ханства (историко-этнографические очерки). – Ташкент: 1958.

²¹Исторический фольклор каракалпаков как источник для изучения этногенеза и этнокультурных связей этого народа // Этническая история и фольклор. – М.: 1977. – С. 141-169.

²²История Ногайской орды. – М.: 2002.

²³Правобережная полоса Пянджа и Аму-Дари от Кали-Ванч до Керки // ВС. 1895. № 9.

²⁴Очерки истории Хисарского бекства конца XIX и начала XX в. // АН Тадж ССР. Т. ХИВ. 1959

²⁵Шеваҳои таджикони раёни Байсун. – Душанбе: 1961. (на тадж. языке).

²⁶К вопросу о формировании населения южных районов Узбекистана // Из истории культуры народов Узбекистана. – Ташкент: 1965. – С. 132

²⁷Дермотоглифика узбеков с родоплеменными делениями // Расы и народы. Вып. 21. – М.: 2001.

²⁸История орошения и поливного земледелия в Сурхан-Шерабадской долине. – Ташкент: Фан, 1977.

²⁹Этнографические очерки материальной культуры узбеков конца XIX – начала XX вв. – Ташкент: 1981.– 126 с.

Шаниязов К.Ш. К этнической истории узбекского народа (Историко-этнографические исследования на материалах кипчакского компонента). – Ташкент: 1974.– 342 с.

Шаниязов К.Ш. Кипчаки в узбекской этнической среде в дооктябрьский период // Этнические процессы у национальных групп Средней Азии и Казахстана. – М.: 1980.

Шаниязов К.Ш. Некоторые вопросы этнической динамики и этнических связей узбеков в XIV-XVII вв. // Материалы к этнической истории населения Средней Азии. – Ташкент: 1986. – С. 83-93.

Шаниязов К.Ш. Узбеки-карлуки. – Ташкент: 1964. – 195 с.

Шониёзов К.Ш. Қарлуқ давлати ва қарлуқлар. – Тошкент: 1999. –196 б.

Шониёзов К.Ш. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 464 б.

Yakubovskiy A.Y.³, Fayziyev T.⁴, Xudjamberdiyev Y.⁵, Kubakov K.⁶, Tolstov S.P.⁷5.28. Fayziyev T.⁸, Jarring G.⁹, Schurmann H.P.¹⁰ lar hisoblanadilar.

Tarixiy manbalar asosida keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar samarasi sifatida birinchi marta Markaziy Osiyodagi etnik jarayonlarning ilk tarixiy ildizlariga tayanib, turkiy xalqlar shakllanish jarayoni konsepsiyalarini yaratgan yuqorida tilga olib o'tgan olimlarning tarixiy-etnografik yo'nalishdagi asarlari diqqatga sazovordir. Mazkur asarlar ko'pgina adabiyotlar va arxeologik manbalar, etnografik ma'lumotlar, shuningdek, mualliflarning ko'p yillik kuzatishlari asosida yuzaga kelgan bo'lib, ularda O'rta Osiyo xalqlarining muhim etnik komponentlari tarkibida bo'lgan usun, to'xsi, xalach, qipchoq, yeti, yuz, urug', ming, bahrin, qo'ng'iroq, kenagas, mang'it, saroy, minjir, qarluq, jaloyir, do'rmon, tur, chuvash va boshqa etnik komponentlarning etnogenizi va etnik tarixi, xo'jaligi, moddiy va ma'naviy madaniyati borasida muhim ahamiyatga ega bo'lgan asosli mulohazalar va fikrlar bildirilgan.

XX asrning o'rtalaridan boshlab esa O'rta Osiyo xalqlarining etnogenezi va etnik tarixi masalalarining keng ko'lamda ilmiy jamoatchilik e'tiborida bo'lishi bilan jiddiy fundamental tadqiqotlar yaratildi. Bu tadqiqotlar jumlasiga A.Y. Yakubovskiy, A.N. Bernshtam, P.P. Ivanov, Karmisheva B.X, Shaniyazov K.Sh. kabi tadqiqotchilarning asarlarini kiritishimiz mumkin. Albatta, sovetlar davrida O'rta Osiyoda yashab kelayotgan xalqlar va umuman turkiy makroetnosning etnogenezi va etnik tarixi borasida ko'lami jihatdan katta ishlar qilingan. Shuningdek, ushbu tadqiqotlarning mantiqiy davomi sifatida T.A. Jdanko, N.A. Kislyakov, L.V. Oshanin, B.A. Axmedov, T. Xodjayov, R.G. Muqminova kabi olimlar umuman turkiy yurti va uning xalqlarining u yoki bu komponenti doirasida maxsus tadqiqotlar olib borganlar. Ushbu tadqiqotlar u yoki bu masalalarini yoritishda qimmatli manba hisoblanadivao'z o'rnida bu adabiyotlarga doimiy murojaat qilinadi. Ammo bu davrdagi tadqiqotlarning aksariyat qismi mafkuraviy tazyiqlar ta'sirida bajarilganligi, tarixiy jarayonlar bir tomonlama ya'ni, formatsiyaviy yondashuvlar asosida tadqiq etilganligi etnik jarayonlarni to'laqonli va ilmiy xolislik bilan yoritib berishda ba'zi muammolarni keltirib chiqardi.

Yetmishinchi yillarda etnogenez va etnik tarix yo'nalishida B.X. Karmishevaning ilmiy-amaliy tadqiqotlarida avtoxton etnos bilan turkiy komponentlar etnomadaniy aloqadorligining qadimiyligi borasida asosli dalillarni ko'zga tashlanadi. O'rta Osiyoning mazkur janubiy mintaqasi bo'yicha mustaqillik yillarida ham ko'pgina o'zbek olimlari K.Shoniyozov,

¹О родоплеменном составе монголов Могулистана и Могулии и их этнических связях с казахскими и другими соседними народами // ИАН Каз ССР. Отд. общ.наук. Вып. 3. 1965.

²Путешествие русского посольства по Афганистану и Бухарскому ханству в 1878 – 1879 гг. – Спб.: Т. 2. 1883.

³К вопросу об этногенезе узбекского народа. – Ташкент: 1941.

⁴Узбеки-курама (в прошлом и настоящем). – Автореф. дисс... канд. ист. наук. – Ташкент: 1963.

⁵Историко-этимологическое исследование топонимики Сурхандарьинской области Уз.ССР.–Автореф. дис.канд. фил. наук. – Ташкент: 1973.

⁶Этнический состав сельского населения верхней Кашкадарьи конца XIX–начала XX в. (Историко-этнографическое исследование: Автореф. дисс. канд. ист. наук. – Ташкент: 1973.

⁷Основные проблемы этногенеза народов Средней Азии // СЕ. 1947. № 6.

⁸О родоплеменном составе узбеков кураминцев в конце XIX – начале XX в. // Общественные науки в Узбекистане. 1963. № 11.

⁹ On the Distribution of Turk Tribes in Afganistan. An Attempt at a Puliminari Classification. Lands Universitets Arsskifi. N.F.A. Vol. 7. – Leipzig: 1939. № 34. Jarring G. Uzbek text from Afghan Turkestan, with glossary. Lands Universitets Arsskrift. N.F.A. Vol. V. – Leipzig: 1938.

¹⁰ The Mongols of Afganistan. An Ethnography of the Mongols and Related Peoples of Afganistan. The Hague. 1962.

A.Asqarov, I. M. Jabborov, Z. X. Arifxanova, U.S. Abdullayev, A.A.Ashirov, O. Bo'riyev, A.Malikov kabilar B.X. Karmishevaning o'lkada olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarini qayta ko'rib, o'rganib, o'z asarlarida tahlil qilib chiqadilar. Bu mintaqa xalqlarining shakllanish jarayoni, etnogenzi, etnik tarixiva nazariy-metodologik asosi borasida tadqiqotlar olib borgan akademik olimlarning tadqiqotlari ishning nazariy-metodologik asosini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

B.X. Karmishevaning Markaziy Osiyo xususan, tadqiq etilayotgan mintaqa aholisining etnik tarixi borasida yaratgan maqola va monografiyalari ham muhim ma'lumotlarni beradi. Shu maqsadda quyida uning ilmiy maqola va monografiyalari haqida so'z yuritimiz.

Dastlabki monografiyasini Tojikiston tarix institutining arxeologiya va etnografiya bo'limida o'qib yurgan kezarida yozdi. 1954-yilda chop ettirgan mazkur maqolasi¹ O'zbekiston janubiy hududlari mahalliy aholisiva tojik mahalliy tub aholisi haqida bo'lib, ularning etnik shakllanish jarayonlari va etnik tarixini ochib berishga harakat boshladi.

Uning keyingi maqolasi² ham bevosita birinchi ishining mantiqiy davomi hisoblanadi. Muallif turkiy xalqlarning shakllanishida asosiy rol o'ynagan eng qadimgi urug'lardan 12 tasini alohida ajratib ko'rsatadi. Bular qang'li, qipchoq, dulat, olchin, arg'in, nayman, kirey, qirg'iz, soxa yoki yoqut, tele, turk-tukyu va qorliq. Shulardan ayniqsa qang'li va qipchoqlarga katta ahamiyat beradi. Umuman olganda, bu davrda bajarilgan tadqiqotlar, garchi professional mutaxassislar tomonidan bajarilgan bo'lsa-da, muallifning o'z shaxsiy kuzatuvlari asosida yozilganligi bilan ham ahamiyatlidir.

B.X.Karmishevaning "Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана" nomli Tojikiston Fanlar akademiyasida 1976-yil Dushanbeda nashrdan chiqargan ushbu monografiyasida ham O'rta Osiyo xalqlarining muhim etnik komponentlari tarkibida bo'lgan usun, tuxsi, xalach, qipchoq, yeti, yuz, urug', ming, bahrin, qo'ng'iroq, kenagas, mang'it, saroy, minjir, qarluq, jaloyir, do'rmon, tur, chuvash³ va boshqa etnik komponentlarning etnogenizi va etnik tarixi, xo'jaligi, moddiy va ma'naviy madaniyati borasida muhim ahamiyatga ega bo'lgan asosli mulohazalar va fikrlar bildirilgan.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab O'rta Osiyo xalqlari, xususan, Janubiy O'zbekiston etnografiyasini o'rganish borasida kundaliklar, statistik xarakterdagi adabiyotlar bilan birgalikda bir qadar ilmiy asosdagi tadqiqotlar ham amalga oshirila boshladi. Karmisheva tadqiqotlarning etnografik materiallari ham XX asr oltmishinchi yillaridagi o'zbeklarning etnik tarkibi⁴ haqida muhim ma'lumotlarni beradi. Xususan, o'rganilayotgan mintaqada keng tarqalgan o'zbeklar genelogyasi haqida etnograf maxsus tadqiqot olib boradi. Bu tadqiqot urug'chilik an'analari yaxshi saqlab qolgan etnik guruhlarni alohida tarzda chuqur o'rganish uchun qilingan dastlabki sa'y-harakatlardan biri edi. Muallif o'zbeklarning yanada mayda urug'larga (geneonimlarga) bo'linishini ma'lum bir tizimga solgan holda tavsif etib beradi. Ushbu tadqiqotdan bitiruv malakaviy ishida kerakli o'rnlarda foydalanildi.

¹ Кармышева Б.Х. Узбеки-локайцы Южного Таджикистана. ТИИАЭАНТадж.ССР. Сталинабад. 1954. Т. XXVIII. Вып.1. С. 97 – 127.

² Кармышева Б.Х. Локайские мапрамачи и илгичи. Сообщения республиканского историко-краеведческого музея. История и этнография. 1955. Вып.2. С. 121 – 145.

³ Кармышева Б.Х. Жилища узбеков племен карлук южных районов Таджикистана и Узбекистана // ИООН АН Таджикской ССР. Душанбе. 1956. Вып.10-11. С. 13-23.

⁴ Кармышева Б.Х. Этнографическая группа «тюрк» в составе узбеков (историко-этнографические данные) // СЭ. 1960. №1. С. 3 – 22.

Janubiy O‘zbekiston va Tojikiston hududlari aholisining etnik tarixi masalalari borasida ilmiy tadqiqotlar olib borgan elshunos olima B.X. Karmisheva 1969-yilgi tadqiqotlari natijasida yana bir ilmiy ishini chop ettirdi. U tadqiq etayotgan mintaqada keng tarqalgan etnik guruhlaridan qo‘ng‘irot, yuz, qatag‘on, turk kabi etnografik guruhlar¹, shuningdek, turkman, tojik, arab va boshqa etnoslar tarixiga oid muhim ilmiy materiallar bayon qilingandi.

O‘rta Osiyoning mazkur janubiy mintaqasi bo‘yicha mustaqillik yillarida ham ko‘pgina o‘zbek olimlari K.Shoniyozov, A.Asqarov, I. M. Jabborov, Z. X. Arifxanova, U.S. Abdullayev, O. Bo‘riyev, A.Malikov kabilar o‘lkada olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarini qayta ko‘rib, o‘rganib, tahlil qilib chiqdilar. Bu mintaq xalqlarining shakllanish jarayoni, etnogenzi, etnik tarixi va nazariy-metodologik asosi borasida tadqiqotlar olib borgan akademik olimlarning tadqiqotlari ishning nazariy-metodologik asosini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

XX ASR OXIRI ARAB MAG‘RIBI DAVLATLARIDAGI DEMOKRATIK JARAYONLAR SHAKLLANISHI MASALALARI

Dusaliev Muysin

ToshDSHI 2-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: t.f.n., dots. Xudoyberdiyev A.X.

XX asr oxirida Arab Mag‘ribi davlatlarida demokratik jarayonlarni shakllantirish borasida ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda bir qator o‘zgarishlar sodir bo‘la boshladi. Arab Mag‘ribi davlatlari demokratik jarayonlari bir tomondan arab-musulmon olami, ikkinchi tomondan Afrika tarixidan shakllangan milliy qadriyatlar uyg‘unligi, uchinchi tomondan Yevropa davlatlarining rivojlangan demokratik jamiyat tizimlari bilan uzviy bog‘liqligi jihatidan alohida ajralib turadi.

Shimoliy Afrika mamlakatlarida ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni demokratik va islom dini qoidalari uyg‘unligi asosida shakllantirishda, albatta ushbu mamlakatlarning konstitutsiyalarida mustahkamlangan normativ-huquqiy qoidalar muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman, ushbu mamlakatlar konstitutsiyasida yozilishicha, O‘rtayer dengizi mintaqasida joylashgan arab-musulmon va Afrika qit‘asi madaniyatlari muhim ahamiyatga ega ekanligi ta‘kidlanadi. Bu mintaqadagi davlatlarning asosiy qonunlari nafaqat siyosiy-huquqiy, balki siyosiy-mafkuraviy hujjat bo‘lib, hukumatdagi guruhlarining siyosiy maqsadlarini, yoki ma‘naviy qadriyatlarini qo‘llab-quvvatlashda vosita bo‘lib xizmat qiladi. Jumladan, Marokash konstitutsiyasining muqaddimasida ta‘kidlanishicha, “Marokash qirolligi Buyuk Arab Mag‘ribining bir qismi bo‘lib, Afrika davlati sifatida, o‘z maqsadlari orasida Afrika birligini shakllantirishga xizmat qiladi”. Mavritaniya konstitutsiyasida yozilishicha, “Mavritaniya xalqi o‘zlarini musulmon, afrikalik va arab deb hisoblaydi va Buyuk Mag‘rib birligiga erishish, arab millati va Afrika hamda butun dunyo tinchligini mustahkamlashga harakat qiladi”. Shuningdek, Jazoir konstitutsiyasida, “davlat islom dunyosiga tegishli bo‘lib, Buyuk Mag‘rib, arab yeri, O‘rtayer dengizi va Afrikaning bir qismidir”, deb yozib qo‘yilgan bo‘lsa, Tunis o‘z konstitutsiyasida “islomning, Arab Mag‘ribi birligining va arab oilasiga tegishli ekanligining ishonchli

¹Кармышева Б.Х. Типы скотоводства в южных районах Узбекистана и Таджикистана (конец XIX – начало XX века) //СЭ. 1969. № 3. С. 44 – 50.

vakili bo‘lib qoladi”, deb ko‘rsatilgan. Liviya 1992-yilgi konstitutsiya deklaratsiyasida e‘lon qilganidek, “Liviya Fors ko‘rfazidan Okeangacha bo‘lgan arab birligi uchun monelik qiluvchi barcha to‘siqlarni olib tashlashga harakat qiladi. Liviya xalqi esa, arab millatining bir qismi bo‘lib, asosiy maqsadini “butun arab birligi” deb biladi”. Shuningdek, Liviya konstitutsiyasi muqaddimasida, mamlakat hududlari Afrikaning bir qismi deb ta’kidlab o‘tilgan¹.

Arab Mag‘ribi davlatlari XX asr oxirlarida jamiyatni demokratlashtirish masalasida turlicha siyosat olib bordi. Buning boisi ushbu mintaqa davlatlari turli ko‘rinishdagi siyosiy tizimga egaligi hisoblanadi. Masalan, Tunis prezidentlik respublikasi, Marokash parlamentar monarxiya hisoblanadi. Boshqa tomondan, davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi ham turlicha. Bu esa, demokratik jarayonlarni shakllantirishda Mag‘rib davlatlari oldida bir qancha muammolarni vujudga keltiradi.

Arab Mag‘ribi respublikalarida Prezidentni saylashning bugungi kunda ko‘pchilik davlatlarda qabul qilingan shaklidan foydalaniladi. Tunis, Jazoir, Mavritaniyada Prezident muqobil ravishda yashirin ovoz berish yo‘li bilan saylanadi. Hattoki, nomzod va saylovchi o‘rtasida konstitutsiyaviy oraliq instansiya tashkil etilishi mumkin. Jumladan, Tunisda saylovning so‘nggi natijalarini e‘lon qilish va prezidentlikka munosib nomzodni aniqlash maqsadida amaldagi Prezident, Milliy parlament raisi, Konstitutsiyaviy kengash raisi, apelyatsiya sudi raisi va ma’muriy tribunal raisi ishtirokida maxsus komissiya tuziladi. Bunday saylov protsedurasida Prezident mutlaq ko‘pchilik ovozi bilan saylanishi kerak. Agar ovoz berishning birinchi turida nomzodlardan hech biri ko‘pchilik ovozini ololmasa, ikkinchi turda ovoz berish birinchi turda nisbatan ko‘pchilikni ovozini olgan ikki nomzod o‘rtasida o‘tkaziladi. Bu davlatda demokratlashtirish jarayoni boshqa Mag‘rib davlatlariga qaraganda ancha sezilarlidir. Jamiyatni demokratlashtirish Prezident H.Burgibo davrida boshlangan bo‘lsada, ammo asosan Prezident Zin al-Abiddin Ben Ali davridan kuchaydi.

Yangi Prezidentning birinchi qadami qonuniy muxolifat partiya faoliyatidagi to‘siqlarni olib, mamlakatda siyosiy plyuralizmni rivojlantirishni ma’lum qildi. Ben Ali hukumatga kelgandan butun umrlik prezidentlik to‘g‘risidagi konstitutsion qonunga o‘zgartirish kiritib, prezidentlikka ikki marotaba saylanish huquqini joriy qildi. Siyosiy jarayonlarda ayollar ishtiroki kengaydi. Masalan, 1994-yil parlamentga bo‘lgan saylovlarda 7 % ni ayollar egalagan bo‘lsa, 2009-yilda 27,5 %, 2004-yil bu ko‘rsatkich 22,8 % ni tashkil qildi². Shuningdek, 2009-yildan saylovda ovoz berish huquqi 20 yoshdan 18 yoshga tushirildi va yoshlarning siyosiy jarayonlardagi ishtirokini oshirdi. Davlatda ommaviy axborot vositalaridan foydalanishda senzura yo‘l qo‘yilmaslikka harakat qilindi. Shuningdek, nodavlat-notijorat tashkilotlar faoliyatiga keng imkoniyatlar berildi.

Tunisda demokratlashtirish jarayonidagi muammolarga to‘xtaladigan bo‘lsak, birinchidan, shuni aytish mumkinki, yagona partiyaning hukmronligi uzoq muddat saqlanib qolishidir. Masalan, Demokratik konstitutsion birlashuv (DKB) partiyasi hukmron partiya bo‘lib, 2004-yilgi saylovlarda parlamentdan 152 o‘rinni qo‘lga olgan bo‘lsa, 2009-yil 161 o‘rinni egalladi³. Demokratik islohotdagi muammolarning ikkinchisi – islom tarafdorlarining jamiyat hayoti-

¹ Qarang: Мухаммадсиддиқов М. М. Хорижий Шарқ ва Ғарб мамлакатларида ижтимоий-сиёсий жараёнлар. Ўқув қўлланма. – Т.: Тошкент Давлат Шарқшунослик Институту, 2013. – Б. 116-117.

² Мягкова М.И. Эмансипация в Тунисе. Феномен арабского мира // Азия и Африка сегодня. – М., 2010. – № 7. – С. 51.

³ Kabla G. Un Plebiscite, une Gloire pour Ben Ali // Realites. 2009. Oct. – P. 12.

dagi o'zni bilan belgilanadi. Tunisda mamlakat demokratik jarayonlarini shakllantirish jarayonida islomni radikallashtirishni oldini olish dolzarb vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, bu masala «Nahda» partiyasining asoschisi mashhur islom mafkurashunosi R.Gannushi faoliyatlarida keng ko'zga tashlanadi. 1986-1987-yillarda islom tarafdorlari hukumatga qarshi manifest uyushtirdi. Natijada, hukumatda o'zgarish sodir bo'lib, Milliy qo'mitaga «Nahda» ham kiritildi. Lekin, 90-yillar boshida Prezident Ben Ali nisbatan suiqaqd tashkil qilishda ayblanib, «Nahda»ning parlamentdagi faoliyatiga chek qo'yildi¹. Shuningdek, Ben Ali davlatdagi barcha islomiy harakatlarga nisbatan qattiq chora-tadbirlar ko'rdi va ularni siyosiy jarayonlarda ishtirok etishini butunlay ta'qiqlab qo'ydi. Shu bois ham, Tunisda boshqa Mag'rib davlatlariga qaraganda, bugungi kungacha islomiy tashkilotlar siyosiy hayotda kuchli ta'sirga ega emas.

Demokratik islohotlar Tunisda ancha ko'zga tashlanarli bo'lsada, yevropalashgan tunisliklar uchun bu oddiy holat sifatida qolmoqda. Shu bois, muallaq Prezident bo'lib kelgan Ben Ali, hatto u mamlakat rivojiga katta xizmat ko'rsatgan bo'lsada, Yevropada tahsil olgan yoki ishlagan insonlar uchun va ba'zi hukumatdan norozi bo'lib yurgan muxolifat partiya uchun nomaqbul bo'lib keldi.

Marokash davlat tuzilishiga ko'ra, konstitutsiyaviy demokratik va ijtimoiy monarxiyadir. Ba'zi hollarda u teokratik va mutlaq monarxiya deb yuritilsa, boshqa hollarda parlamentar va demokratik, deb ta'kidlanadi. Islom Marokash siyosiy tizimida doimo muhim rol o'ynab kelgan. Uning Marokash jamiyatidagi ahamiyati ikki tomonlama hisoblanadi. Bir tomondan, islom rejimi holatining kuchayishiga, davlat hokimiyati organlari tizimini mustahkamlashga ko'maklashsa, ikkinchi tomondan esa, ularga qarshi turadi. Vujudga kelayotgan islom tashkilotlari rejim bilan munosabatlarda xayrixohlik kayfiyatida bo'lib, ularning taktik maqsadlari podshoh manfaatlarini bilan to'g'ri kelgan edi. Bu davrda fundamentalistlar sionizm, marksizm, so'l kasaba uyushmalari, monarxiyaga qarshi bo'lgan kayfiyatdagi ziyolilar vakillari bilan kurashish shiorlarini ko'tarib chiqishdi.

Aksariyat mamlakatlarda bo'lgani kabi Shimoliy Afrika davlatlarida ham Konstitutsiyaga binoan, davlat hokimiyati qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud organlari orasida taqsimlangan. Jazoirda ijroiya hokimiyati Prezident va hukumat, qonun chiqaruvchi hokimiyat ikki palatali parlament, sud hokimiyati sud organlari tomonidan amalga oshiriladi. Jazoir dagi davlat tizimida Prezident yetakchi o'rin tutadi². Jazoir 1962-yilda o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan davrda mamlakat parlamenti bir partiyaviylik asosida shakllantirilgan edi. Bu davrda Prezident hokimiyati juda kuchli bo'lganligi va bir partiyaviylik tizimi mamlakatda demokratik jarayonlarni shakllanishini cheklab qo'ygan edi.

Ma'lumki, prezidentlik respublikasi uning davlat organlari tizimidagi muhim o'rnidan dalolat beradi. Prezident aksariyat hollarda parlamentdan mustaqil ravishda umumiy, to'g'ri, yashirin saylovlarda saylanadi. Jazoirda ham Prezident hokimiyati muttasil mustahkamlanib borgan. Jazoirning 1996-yilda qabul qilingan Konstitutsiyasi asosida Prezident vakolatlari sezilarli darajada oshirildi³.

¹Долгов Б.В. Исламистский вызов в странах магриба // Азия и Африка сегодня. – М., 2010. – № 6. – С. 41.

²Entelis J. Islam, Democracy, and the State: The Reemergence of Authoritarian Politics in Algeria//Revised paper presented at Eighteenth Annual Symposium, Center for Contemporary Arab Studies, Georgetown University on "Islamism and Secularism in North Africa" (01-02.04.1993). – Washington.

³Дустур 1996. - ал-Жазаир: ал-Матбаъа ар-расмия, 1996. – Б.15-19.

Jazoirda demokratik jarayonlarni shakllanishi Jazoir parlamentining ko'ppartiyaviylik asosida tashkil topishi, siyosiy partiyalarning faol siyosiy targ'ibotlari va raqobati bilan ajralib turadi. 1989-yilda Jazoirda demokratik jarayonlarning faollashuvi va ko'ppartiyaviylik tizimining vujudga kelishi parlamentda o'z aksini topdi. Jazoir tarixida ilk bor 1991-yil 26-dekabrda ko'ppartiyaviylikka asoslangan saylovlarning birinchi bosqichi o'tkazilishi va unda diniy Islom xalos jabhasi (IXJ)ning g'alabasi Jazoirdagi siyosiy jarayonlarning keyingi rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Islomiy kuchlarning hokimiyat tepasiga kelishi aniq bo'lib qolgan sharoitda saylovlarning ikkinchi bosqichi bekor qilindi. 1992-yil yanvarda amaldagi parlament tarqatildi. Jazoirni boshqarishni o'z qo'liga olgan Oliy davlat kengashi tomonidan 1992-yil 22-aprelda parlament vazifalarini bajaruvchi 60 kishidan tarkib topgan Milliy maslahat kengashi ikki yillik muddatga tuzildi. 1994-yildan e'tiboran uch yil davomida parlament vazifalarini ado etgan Milliy o'tish kengashi faoliyat ko'rsatdi. Yuqoridagilar asosida 1997-yilga qadar Jazoirda demokratik parlament bo'lmaganini ko'rish mumkin. Jumladan, Jazoir mustaqillikka erishganidan keyin 35 yil mobaynida parlament (1962-1965 va 1977-1992-yillar) yoki uning vazifasini ado etgan organlar (1965-1977 va 1992-1997-yillar) amalda mamlakat rahbariyati irodasiga bo'ysundirilib, ko'proq dekoratsiya vazifasini o'tadi¹.

1996-yilda qabul qilingan Jazoir Konstitutsiyasida xalq o'z vakillarini saylash va erkin tanlash huquqiga egaligi ko'rsatildi. Konstitutsiya parlament ikki palatadan tarkib topishini ko'zda tutdi: quyi palata - Milliy xalq kengashi (MXK) va yuqori palata - Millat kengashi (MK). 1997-yil martda qabul qilingan "Saylovlar to'g'risida"gi yangi qonunda parlament (MK va MXK) va mahalliy hokimiyat organlari - Viloyatlar xalq kengashlari (VXK) va Kommunal xalq kengashlari (KXK)ga saylovlarga doir masalalar yoritildi. Jazoir jamiyatini demokratik ruhda tashkil etishda albatta siyosiy partiyalar faoliyati alohida o'ringa ega. Demokratiyalashtirish jarayoni doirasida Jazoirda 1989-yil iyulda siyosiy partiyalar tuzish haqida qonun qabul qilinishi bilan ko'ppartiyaviylik tizimiga yo'l ochib berildi. Shundan keyin mamlakatda o'nlab siyosiy partiyalarning faoliyati yo'lga qo'yildi. Ular ichki tuzilmasi, ijtimoiy mohiyati va vazifalari, g'oyalari va dasturlari, jamiyat siyosiy tizimidagi o'rniga ko'ra bir-biridan farq qiladi². Bu borada Jazoirda mavjud milliy-konservativ, diniy, millatchi, demokratik, dunyoviy partiyalar faoliyatini sanab o'tish mumkin.

Shu bilan birgalikda ta'kidlash o'rinliki, aynan Jazoirda demokratik jarayonlar sezilarli darajada shakllanganligiga qaramay, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab radikal islom tarafdorlari va aqidaparastlarning diniy davlat tuzish harakati ham ancha faollasha boshladi. Bu esa, mamlakatdagi ijmoiy-siyosiy o'zgarishlarga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi.

Natijada Jazoirda radikal hamda terroristik diniy guruhlar vujudga kela boshladi. XX asrning 80-90-yillarida Jazoirda ommaviy islom harakatlari kuchayib ketdi. Bu harakatlarning eng asosiysi "Islom Qutqarish Fronti" (IQF) bo'lib, bu harakat musulmon jamiyatining rivojlanishi uchun tanlangan yo'lini "islom yo'l" deb e'lon qildi. 1991-yil Jazoirda o'tkazilgan saylovlarda IQF o'z tarixida birinchi marta saylovchilarning 50% ovozini qo'lga kiritdi. Faqat saylov jarayonlarining armiya tomonidan to'xtatib qo'yilishigina islom harakati-

¹Самариддинов Ф. Жазоирда парламент институти ривожланишининг айрим жиҳатлари // Ўзбекистонда парламент институтининг ривож ва истиқболлари: сиёсий, ҳуқуқий ва ташкилий жиҳатлари: илмий-амалий конференция материаллари тўплами. - Т.: ТошДШИ, 2010. – Б. 214.

²О'sha manba: – Б. 214-215.

ning harakatga kelishi va Jazoir Islom Respublikasi deb e'lon qilinishini oldini oldi¹. Bu davrda Jazoirda "Al-Qiyam" ("Islom qadriyatlarini") guruhi yuzaga keldi. Bu tashkilot rahbarlari mamlakat hukumatining sotsialistik yo'nalishini islomga yot hodisa sifatida oshkora qoralashgandi. Jazoirda terrorchilik faoliyati 1979-yil mamlakat prezidenti Xuari Bumeden vafotidan keyin faollasha boshladi. Xuari Bumeden o'rniga prezidentlik lavozimini egallagan Shodli Benjadidning islom fundamentalizmi ideologlari Muhammad al-G'azzoliy va Yusuf al-Kardoviyni Jazoir diniy majmuasiga ishga taklif etishi islomning radikallashuvi jarayonini kuchaytirib yubordi.

Keyinchalik Jazoirda mamlakatda dunyoviy hukumatni ag'darib, islomiy rejimni o'rnatishga intilayotgan diniy guruh "Qurolli islom guruhi" (QIG) tashkil qilindi. 1996-yil "Qurolli islom guruhi"ning parchalanishi Jazoiridagi eng yirik terrorchilik guruhi – "Da'vat va jihod salafiy guruhi" tarkib topishiga olib keldi. 2006-yil sentabrda, 2011-yil 11-sentabrdagi terrorchilik harakatlarining navbatdagi yilligi kuni Usoma bin Ladenning o'ng qo'li Aymonaz-Zavaxiriy "Da'vat va jihod salafiy guruhi" "al-Qoida"ga rasmiy ravishda qo'shilganini xabar qildi. Shundan so'ng, "Da'vat va jihod salafiy guruhi" yangi – "Islom Mag'ribidagi al-Qoida" nomini oldi². Darhaqiqat, Jazoir demokratik jarayonlari shakllanishiga, jamiyat va davlat boshqaruvig afundamentalistik g'oyalar va terroristik harakatlar ta'siri sezilarli darajada ekanligini ko'rish mumkin.

Xulosa sifatida ta'kidlaydigan bo'lsak, XX asr oxirlarida Arab Mag'ribi davlatlarida demokratik jarayonlar shakllanishi bir-biridan farq qiluvchi turli xil ko'rinishda kechganligini ko'rish mumkin. Tunisda bu jarayonlar sezilarli darajada shakllanib borgan bo'lsa, Marokash Qirolligida bu jarayon islom dinining an'anaviy boshqaruviga asoslangan holda rivojlanib bordi. Jazoiridagi demokratik jarayonlar esa, parlamentning ko'ppartiyaviylik asosida tashkil topishi, siyosiy partiyalarning faol siyosiy targ'ibotlari va raqobati orqali shakllanishini ko'rish mumkin. Umumiy qilib aytadigan bo'lsak, Mag'rib davlatlarining demokratik shakllanishi oldida turgan eng asosiy vazifa demokratik qadriyatlarni islom dini qadriyatlarini bilan uyg'unlashtirishgan holda olib borishdan iborat.

O'RTA OSIYODA SOVET HOKIMIYATIGA QARSHI HARAKATLAR (1917-1924-YILLAR)

Toshev Xurshid
ToshDSHI 2-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: katta o'qt. Lutfullayev H.

O'rta Osiyoda sovet tuzumiga qarshi qurolli qarshilik harakatining vujudga kelishiga hamda mazkur harakatning kengayib ketishiga sabab bo'lgan bir qator omillari bor: Turkiston inqilobiy qo'mitasining qo'shinlari tomonidan 1917-yildan to 1921-yilgacha bo'lgan davr oralig'ida Turkistonda yashovchi mahalliy aholining 300 ming nafari o'ldiriladi, hobuki bu paytda milliy istiqlolchilik harakati a'zolarining soni mintaqada 20 ming nafardan oshmas edi.

¹Мухаммадсидиков М.М. Араб давлатларида демократлаштириш жараёнлари: ютуқлар ва муаммолар // Ўзбекистонда парламент институтининг ривожини ва истиқболлари: сиёсий, ҳуқуқий ва ташкилий жиҳатлари: илмий-амалий конференция материаллари тўплами. - Т.: ТошДШИ, 2010. – Б. 191-192.

²Bu haqida batafsil qarang: Foyibnazarov III. Xalqaro terrorizm: ildizi, omillari va manbalari. – T.: O'zbekiston, 2013. –B. 92, 93 – 96.

O'lkada an'anaviy musulmon turmush tarzi sovet hokimiyati tomonidan zo'rlik bilan buzila boshlangan. Masalan, ommaviy ravishda masjidlar va madrasalarning yopib tashlanishi, diniy ulamolarning siquvga olinishi hamda surgun qilinishi. Buning ustiga-ustak, qizil armiya qismlarining moddiy jihatdan yaxshi ta'minlanmaganligi, ularning o'lkadagi shaharlar va qishloqlarda yashagan mahalliy aholining mol-mulklarini yoppasiga talon-taroj qilishlariga hamda ularning o'zlarini esa qatl etishlariga olib kelgan.

Turkistonda boshlangan istiqloqlilik harakatini shartli ravishda hududiy jihatdan quyidagicha tasniflash bo'ladi:

1. Farg'ona vodiysi. "Qo'qon Muhtoriyati" kuch bilan tugatilgach, vodiya kichik Ergash, Madaminbek, Omon polvon yetakchiligida sovet tuzumiga qarshi kurash boshlanib ketgan yerlar.

2. Sobiq Buxoro amirligi hududi. Buxoro va Samarqand va unga tutash bo'lgan yerlar, shuningdek Amudaryoning yuqori oqimida joylashgan, ya'ni Afg'oniston bilan chegaradosh bo'lgan hududlar. G'arbiy Buxoroda Jo'ra Amin va Mulla Abdulqahhor qo'mondonligidagi qurolli otryadlar faol harakat qilishgan. Sharqiy Buxoroda, ya'ni Tojikiston hududlarida Ibrohimbek sovet hokimiyatiga qarshi jiddiy kurash olib borgan. Samarqand hududlarida Ochilbek, Asrorxon, Xolbo'ta yetakchiligidagi qurolli otryadlar sovet armiyasi qo'shinlariga qarshi qattiq janglar olib borganlar.

3. «Matchin bekligi», ya'ni hozirgi Tojikistonning shimoliy-g'arbiy hududlariga hamda Zarafshonning yuqori oqimida joylashgan yerlarga to'g'ri keladi. 4. Xorazm hududlari hamda Amudaryoning quyi oqimidagi yerlar. Bu joylarda Junayidxon va Durdixonlar kurash olib borganlar.

Bolsheviklar tomonidan e'lon qilingan O'lkaning mahalliy aholisi "xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi" dan foydalangan holda "Turkiston Muhtoriyati" davlatini tashkil etishdi¹. Ammo 1918-yilning fevral oyida sovet hokimiyati tomonidan qurolli kuch bilan mazkur davlatni yo'q qilinishi hamda zo'ravonlik bilan "harbiy kommunizm" siyosatini joriy etilishi natijasida, sovet hokimiyatiga qarshi Farg'ona vodiysida qurolli qarshilik harakati boshlanib ketdi².

Dastlabki istiqloqlilik guruhlar kichik Ergash qo'mondonligida Qo'qonda 1917-yilning oxirlarida paydo bo'ldi. 1918-yilning bahoridan O'sh tumanida ushbu guruhlar faol jangovar harakatlarni boshlab yuborishdi. 1918-yilning yozidan e'tiboran esa Madaminbek yetakchiligidagi guruhlar harbiy harakatlar olib borishga kirishishdi. Farg'ona vodiysi 1918-1919-yillarda Turkistonda qurolli qarshilik harakati olib borilayotgan hududga aylandi.

1919-yilning avgust oyida Madamin Ahmadbekov (Madaminbek) Janubiy Qirg'iziston hududlarida joylashgan K.Monstrov qo'mondonligidagi rus quloqlar armiyasi bilan harbiy-siyosiy ittifoq tuzishga hamda sovet hokimiyatiga qarshi birgalikda kurash olib borish bo'yicha kelishuvni imzolashga erishdi. Buning natijasida 1919-yilning sentabrida Farg'onadagi Madaminbek boshchiligidagi harbiy guruhlar hamda rus quloqlar qo'shinlari O'sh, Jalolobodni egallashga muvaffaq bo'lishdi va Andijonda janglar boshlanib ketdi³. Farg'onaga ularga qarshi kurashish uchun A.P.Sokolov qo'mondonligidagi 1-Qozon otliq polki jo'natildi.

¹"Улуғ Туркистон" газетаси, 1917, 8-декабрь

² Саидакбар Аъзамхўжаев "Туркистон Мухторияти" миллий-демократик давлатчилик курилиши таърибаси. Тошкент. "Маънавият". 2000. – Б.151.

³Иброҳим Карим. "Мадаминбек". 2-нашр. Тошкент. "Шарқ", 2000. – Б.75.

1919-yilning 24-sentabrida istiqloqchilarning qurolli guruhlari va rus quloq qo‘shinlari mag‘lubiyatga uchratildi. Lekin shunga qaramay, 1919-yilning oktabrida Ergashtom nomli chegara qo‘rg‘onidagi qo‘rboshilarning yig‘ilishida Madaminbek va Monstrovlar boshchiligida “Farg‘ona muvaqqat muhtor hukumati” tuzilganligi e‘lon qilindi¹. Bu hududda Katta va kichik Ergashlar, Madaminbek, Ko‘rshermat, Muhitdinbek, Omonpolvon, Rahmonqul, Islomqul kabi qo‘rboshilar Qizil armiya harbiy qismlariga qarshi shiddatli kurash olib borganlar.

Turkiston fronti qo‘shinlarining qo‘mondoni M.V.Frunze rahbarligidagi sovet harbiy kuchlari 1920-yilning mart oyi boshlarida Madaminbek boshchiligidagi istiqloqchilarga va Monstrov qo‘mondonligidagi rus dehqonlar qo‘shinlariga katta talofat yetkazdilar². Buning natijasida 1920-yilning mart oyida rus qo‘shinlarining Farg‘onadagi qo‘mondoni Roxalskiy bilan Madaminbek o‘rtasida tinchlik shartnomasi imzolandi. Natijada Madaminbek qurolli qarshilik kurashini olib borishini to‘xtatib, sovet hokimiyatiga taslim bo‘lishiga majbur bo‘lgan. 1920-yilning yoz faslidan boshlab qurolli qarshilik guruhlari qaytadan faollasha boshladilar. Endilikda ularga Shermuhammadbek qo‘mondonlik qila boshladi. 1920-yilning yoz faslining oxirlariga borib, ularning soni 20-30 ming nafarga yetdi. 1920-yilning oxirlariga kelib, Farg‘ona vodiysining asosiy qismida qurolli qarshilik guruhlari yo‘q qilindi.

1922-yilning oxirlariga kelib, Farg‘ona vodiysidagi qurolli qarshilik harakati muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Bunga bir qator omillar sabab bo‘lgan: Farg‘ona vodiysidagi qo‘rboshilarning bir qismi tub yerli aholiga nisbatan vaxshiy, shafqatsiz munosabatda bo‘lishgan, qo‘rboshilar o‘rtasida mustahkam birlik, ahillik bo‘lmagan. Madaminbek, Isroil Turkiston fronti qo‘shinlari tomonidan mag‘lubiyatga uchratilgan, Turkiston fronti qo‘shinlari tarafidan Farg‘ona vodiysida kurash olib borayotgan Katta Ergash, Muhitdinbek va Rahmonqul kabi qo‘rboshilarning qo‘shinlarga zarbalar berdi. Buning natijasida Katta Ergash qo‘shinlarining asosiy qismi tor-mor etilgach, u chet elga qochib ketgan, Muhitdinbek va Rahmonqul esa Turkiston fronti qo‘shinlari tarafidan asirga olinganlar hamda harbiy tribunal qaroriga ko‘ra qatl etilganlar.

Aytish mumkinki, 1918-yilning fevral oyida Turkiston Muhtoriyati davlatining bolsheviklar tomonidan kuch bilan yo‘q qilinishidan so‘ng ushbu harakat boshlanib ketdi. Farg‘onadagi sovet hokimiyatiga qarshi harakatga hatto rus quloqlar qo‘shinlari qo‘mondoni Monstrov ham qo‘shiladi. U Madaminbek bilan sovet hokimiyatiga birgalikda qarshi kurash olib borish maqsadida u bilan bitimtuzadi. 1919-yilning oktabr oyida esa “Farg‘ona muxtor muvaqqat hukumati” tashkil qilinadi. Madaminbek uning rahbari etib saylanadi, Monstrov esa uning o‘rinbosari qilib saylanadi. Madaminbekdan so‘ng qurolli qarshilik harakatiga boshchilik qilgan Shermuhammadbek davriga kelib mahalliy aholiga nisbatan zo‘ravonlik bilan munosabatda bo‘lish avj oladi. Hatto ayrim qo‘rboshilar tub yerli aholining mol-mulklarini talagan holatlari ham uchray boshlaydi. Bu hol mahalliy aholi tomonidan qo‘rboshilarning kurashlarining qo‘llab-quvvatlanmay qo‘yilishiga olib kelgan.

Buxoroda amir tuzumining ag‘darilishidan so‘ng mazkur hududda qarshilik harakati boshlanib ketadi. Uni amir hokimiyatining sodiq tarafdorlari Ibrohimbek, Mulla Abdulqahhor kabi qo‘rboshilar boshlab beradilar. Buxoro, Turkiston, Xorazm hududlarini birlashtirigan holda yagona turkiy xalqlarning xalifaligiga asos solishni maqsad qilgan Anvar poshsho

¹Ўша асаp – Б.77.

²Ўша асаp – Б.94-95.

Buxoro hududlariga kirib kelib, u tarqoq holda harakat qilayotgan harbiy guruhlarini birlashtirishga muvaffaq bo'ldi hamda 1922-yilning bahoriga borganda, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi hududlarining bir qismini egallashga erishdi. 1922-yilning 15-iyunida Anvar poshshoning harbiy guruhlariga kuchli zarba berildi; 1922-yilning avgust oyidagi harbiy harakatlar natijasida Anvar poshsho Baljuvon tumanida o'ldirildi.

Sobiq Buxoro amirligi hududlarida va Samarqand yerlarida qurolli qarshilik harakati keng tus olishiga bir qator omillar sabab bo'lgan: qo'rboshilar o'rtasida keskin dushmanlik kayfiyati va kelishmovchiliklarning yo'qligi, ko'p sonli iste'dodli qo'mondonlarning mavjudligi, ularning mahalliy aholi tarafidan keng miqyosda qo'llab-quvvatlanishlari. 1922-yilning yoz faslining boshlariga kelganda esa Anvar poshsho hamda Ibrohimbek butun Sharqiy Buxoroni nazorat qila boshladilar. G'arbiy Buxoroda esa Mulla Abdulqahhor xalq qo'z-g'olonini uyushtirgan. Bularning natijasida sovet hokimiyati tang ahvolda qolgan. Oqibatda sovet hukumati bir qator choralar ko'rishga majbur bo'lgan. Birinchidan, Buxoro Respublikasi hududlaridagi qizil qo'shinlarning soni keskin ko'paytirilgan, buning natijasida harbiy harakatlar chog'ida son jihatdan ustunlik sovet hokimiyati tomoniga o'tgan, ikkinchidan, mahalliy aholiga nisbatan qo'rqitish siyosatidan voz kechilgan hamda shariatga va musulmon turmush tarziga hujumlar to'xtatilgan. Bular tez orada o'z samarasini bera boshladi va qurolli qarshilik harakatida qatnashayotganlar soni kamaya boshladi hamda ularga qarshi o'tkazilgan harbiy operatsiyalar Turkiston fronti qo'shinlariga muvaffaqiyat keltira boshlagan.

1929-yilning oktabrida Afg'oniston taxtini Nodirshoh egallaydi hamda u Sovet davlati bilan do'stona munosabatni o'rnatadi hamda O'rta Osiyolik qurolli qarshilik harakati vakillarini qo'llab-quvvatlashdan voz kechadi. Ibrohimbek Afg'oniston hukmdori Nodirshohning siquvi sababli 1930-yilning iyun oyida Tojikiston hududiga bostirib kirishga majbur bo'lgan¹. Biroq yaxshi qurollangan va harbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan sobiq Sovet qo'shinlari 1931-yilning 23-iyunida Ibrohimbekning qo'shinlarini uzil-kesil tor-mor etishadi².

Buxoro hududida kurash olib borgan Anvar poshsho hamda shunga o'xshash turk zobitlarining maqsadi sobiq Rossiya imperiyasi tarkibida yashovchi turkiy xalqlarni birlashtirib, Turk xalifaligini tuzish edi. Ibrohimbek va Mulla Abdulqahhorlar esa mustabid amir tuzumini qayta tiklash tarafdori hisoblanishgan hamda mutaassib kayfiyatdagi, zamonaviylikni, dunyoviy taraqqiyotni qabul qila olmaydigan qo'rboshilar sanalishgan.

1920-yilning 29-fevral kuni Junayidxon Botirkent yaqinida mag'lubiyatga uchrab, Qoraqum sahrosiga chekinishga majbur bo'lgan. Oradan bir qancha muddat o'tgach, 1920-yilning oktabrida qaytadan kuch to'plab olgan Junayidxon Qo'ng'irot shahrini egallaydi hamda Nukusni qamal qiladi. 1921-yilning boshlarida qizil qo'shnlardan zarbaga uchragan Junayidxon 1921-yilning bahor faslida qaytadan Qoraqum cho'liga chekinishga majbur bo'ladi. Junayidxonni musulmon ruhoniylari hamda Xorazmda yashovchi mahalliy aholining anchagina qismi qo'llab-quvvatlay boshlaganligi sababli u o'z qo'shinlarining sonini 9 ming nafarga yetkazishga erishadi. 1923-yilning oxirlarida Xorazmda isyon ko'tariladi, unga Junayidxon boshchilik qiladi. 1924-yilning yanvarida Junayidxonning otryadlari Pitnak, Xazorasni egallashdi hamda Xiva va Yangi Urganchni qamal qilishadi. 1924-yilning mart oyida Qizil qo'shinlar Junayidxonning otryadlariga zarba berishib, ularni Xorazm vohasidan

¹ “Бухарский курбаши Ибрагим-бек Чакабаев”. П. В. Густерин. – С.1.

² Ўша асар – С.2.

surib chiqarishga muvaffaq bo'lishdi. Shundan so'ng Junayidxon Turkmaniston hududlariga chekinishiga majbur bo'ladi.

Xorazm hamda Turkmaniston hududlarida qarshilik harakatini olib borgan Junayidxon esa Xorazm hududlarida o'zining mustabid tuzumini o'rnatishni maqsad qilgan edi. U Xorazmda turkmanlarning yetakchi o'ringa ega bo'lishini istagan. Junayidxon sobiq sovet hokimiyati bilan muzokaralar olib borishga kirishgan bo'lsada, lekin hech qachon uni tan olmagan hamda qulay fursat tug'ildi deguncha sobiq sovet hokimiyatiga qarshi kurash olib borishda davom etgan.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib aytish mumkinki, Sovet hokimiyatiga qarshi qurolli qarshilik kurashini olib borganlarning asosini milliy burjuaziya, o'ziga to'q dehqonlar, ruhoniylar tashkil etishgan. Ushbu harakatda dehqonlar va hunarmandlarning, savdogarlarning bir qismi ham qatnashgan. Qurolli qarshilik harakati guruhlarining asosiy maqsadi Turkistonni Sovet Rossiyasidan mustaqil holda ajratib olish edi. Qurolli qarshilik harakati vakillari o'zlarining ko'zga ko'ringan bir qancha qo'rboshilariga ega edilar: Madaminbek Farg'ona vodiysidagi istiqloqchilik harakati rahbari sanalgan. U 30 ming nafarlik qurolli guruhlariga qo'mondonlik qilgan. Muhitdinbek ham 1920-yillarning boshlarida qarshilik guruhining yirik qo'mondoni hisoblangan. Ibrohimbek esa amirlik tuzumini qayta tiklash tarafdori bo'lib, u hozirgi O'zbekistonning Surxondaryo viloyati va g'arbiy Tojikiston hududlarida kurash olib borayotgan yirik guruhlariga yetakchilik qilgan. Junayidxon esa Turkmaniston hamda Xorazm hududlarida sovet hokimiyatiga qurolli qarshi kurash olib borayotgan qo'rboshilarning orasida eng ko'zga ko'ringani sanalgan. Junayidxon esa Xorazm hududlarida o'zining mustabid tuzumini o'rnatishni maqsad qilgan.

TURKIYA RESPUBLIKASIDA 1980-YILDAGI HARBIY DAVLAT TO'NTARILISHI

*Raxmonjonov Hikmatali
ToshDSHI 2-kurs magistranti
Ilmiy rahbar:t.f.n. Ubaydullayev U.*

Turkiya Respublikasini tashkil etishda muhim ro'l o'ynagan harbiylar o'zlari qurgan jamiyatni himoyachisi sifatida biladilar. Harbiylar o'zlari qurgan jamiyatni o'zgarishini hech ham xoxlamadilar. Shuning uchun siyosiy rejim bular qurgan jamiyatdan uzoqlashsa harbiy to'ntarishni amalga oshirib keldilar. Harbiy to'ntarishlarning yana bir asosiy sababi demokratiya madaniyatini buzulishidir. Koppartiyaviylik tizimiga o'tilganidan keyin partiyalar Yevropa andozasidan namuna ola boshladilar. Bu esa turk xalqining va harbiylarni qarshiligiga duchor bo'ldi. Shulardan navbatdagi harbiy to'ntarish Qurolli kuchlar tomonidan Umumiy harbiy vaziri Kenan Evren, quruqlik qo'shinlari qo'mondoni Nuretdin Ersin, Dengiz qo'shinlari qo'mondoni Nejat Tumer, Harbiy havo qo'shinlari qo'mondoni Tahsin Shahinkaya va Jandarma boshlig'i Sedat Jelasun tomonidan 1980-yil 12-sentabr erta tongda Turkiyada Harbiy to'ntarish amalga oshirildi va harbiy Xunta tashkil etildi. Xunta¹ respublikada davlat boshqaruvini to'la qo'lga oldi. Bosh qo'mondon armiya generali Kenan Evren va qurolli kuchlar qo'mondonlaridan tashkil topgan Milliy xavfsizlik kengashi TBMM (respublika parlamenti) va hukumatni qo'lga oldi. Butun mamlakatda komendantlik soati e'lon qilindi. Adolat

¹ Xunta (ispancha)-xarbiylarning uyushgan holda davlatni idora qilishi.

partiyasi, Xalq respublika partiyasi, Sotsialistik partiya va partiyalarining Bosh raislari qamoqqa olindi. To'ntarishdan keyin qonun chiqaruv, ijro vakolatlarini o'ziga olgan Milliy xavfsizlik kengashi o'z raisi Kenan Evrenni Davlat boshlig'i etib tayinladi. Admiral Byulent Ulusu boshchiligida yangi hukumat tuzilib, ag'darilgan Adolat partiyasi hukumatida maslahatchi-raisi o'rinbosari bo'lib ishlagan, 1980-yil 24-yanvar Iqtisodiy qarorining muallifi bo'lgan Turgut O'zal Yangi to'ntarish hukumati Bosh vazirining 1-o'rinbosari etib tayinlandi. To'ntarishdan keyin qonun chiqarish va ijro etish hokimiyatlarini o'z qo'lga olgan Milliy Xavfsizlik Kengashi raisi Kenan Evren prezidenti etib tayinlandi. Hukumatning hokimiyatdan chetlatilishiga rahbarlik qilgan quruqlik qo'shinlari bosh generali Ahmad Kenan Evren mamlakatda faoliyat olib borgan partiyalar laitsizmdan uzoqlashib, davlatchilik asoslariga xavf solganliklari, islom dinini o'z maqsadlarida foydalanishlari oqibatida mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy parokandalik yuzaga kelganligini oqibatida boshqaruv apparatida porahorlik va siyosiy fitnalar avj olganligini aytdi. Shuningdek, hukumatdagi partiyalar o'zaro kelishib mamlakatdagi ahvolni o'nglash o'rniga bir-birini aybini qidirib, tortishuvlarga berilib ketishi vaziyatni chigallashtirib yuborishi oqibatida mavjud muammolarni hal etilmay qolib ketaverishligi ta'kidlandi. 1981-yil yanvar oyida chiqish qilgan A.K. Evren diniy ruhoniyatni siyosatga aralashmay aholini diniy ehtiyojini qondirishi kerakligini qat'iy ta'kidladi¹. A.K. Evrenni 70yillarda hukumatni ag'dargan general **Jemal Gyursel**ning olib borgan siyosatini o'zginasini takrorlayotgan edi². U ham o'z navbatida mamlakatdagi diniy oqimlar va harakatlarni aholini diniy ehtiyojini ta'min etib, siyosatga aralashmasliklarini talab qilgan.

Sentabr oyidagi harbiy to'ntarish bilan Turkiyadagi demokratiyani qulashini oldini olishning yo'li sifatida chora edi. Harbiylar mamlakatda siyosiy yoki ijtimoiy va iqtisodiy inqiroz, yoki laitsizmga tahdidlar kuzatilganda o'zining borligini ko'rsatib qo'yishga qodir ekanligini ko'p bora namoyish qilgan. Harbiylar Turkiyaning millat birligini va Otaturk mafkurasini himoyachilari, jumhuriyat butunligini kafolati sifatida ko'rishadi.

Yangi konstitutsiyani ishlab chiqish uchun 1981-yil iyun oyida MXK va Maslahat majlisidan iborat yangi Ta'asis majlisini tashkil etilishi haqida qaror qabul qilindi³. Maslahat majlisi MXK tomonidan yopib qo'yilgan siyosiy partiyalarning a'zolarini mol-mulkleri musodara qilish haqida buyruq berdi.

1982-yil 7-noyabr kuni yangi konstitutsiya xalq muhokamasiga qo'yildi va 91,2% ijobiy natija bilan tasdiqdan o'tdi. Yangi konstitutsiyaga muvofiq, mamlakat prezidenti etib Kenan Evren tayinlandi⁴. Hukumat fuqarolik boshqaruviga topshirilgach, **1983-yil 24-aprelda** "Siyosiy partiyalar" to'g'risida qonun qabul qilindi va partiyalarning tuzilishi va faoliyati muvofiqlashtirilib borildi. **1982-yilgi mamlakat konstitutsiyasida** ommaning siyosiy faolligi qurbon berildi va siyosiy barqarorlikni ta'minlash uchun siyosiy plyuralizm yuzaga keltirildi, turk establishmentini vakolati kengaytirildi. Bu konstitutsiya oldingilari kabi g'arbcha modelda tuzildi va unda hammaning qonun oldida tengligi, diniy e'tiqodidan qat'iy nazar (10-modda), vijdon erkinligi va din siyosiy vosita bo'la olmasligi (24-modda), biror kishini biror din e'tiqodga majburlash yo'qligi (15-modda) kabi tushunchalar kiritilgan edi⁵.

¹ Kalaycioğlu, Ersin. Elections and Party Preferences in Turkey: Changes and Continuities in the 1990's. – Washington: Comparative Political Studies, C:27, No:3, se.1994. – P.5.

² Кондокчян Р. Турция: внутренняя политика и ислам – Ереван: Микоян, 1983. –С.89.

³ Hüseyin Batuhan. Laiklik ve Dinî Taassup. – İstanbul: Asya, 1954. –S.51.

⁴ Кондокчян Р. Турция: внутренняя политика и ислам – Ереван: Микоян, 1983. –С.55.

⁵ <http://www.tbmm.gov.tr/Anayasa.htm> (1982-yilgi Turkiya Konstitutsiyasi.)

1983-yilda MXK tomonidan siyosiy partiyalarni tuzilishiga izn bergach, markaz o'ng partiyalar siyosiy oqimida iste'fodagi general Turg'ut Sunalp boshchiligida "12-sentabr ruhi va falsafasining davomi" deya ta'rifga ega bo'lgan MDP (Millatchi Demokratik partiya) tashkil etildi. Lekin bu partiya saylovlarda yetarli ovoz olmadi va xalq ishonchi doirasida emasligini namoyon etdi.

MXK ikkinchi siyosiy partiyaning tuzilishini uncha xushlamasada, 1982-yilda Ulus hukumatidagi T. O'zal buni boshlab berdi. 24-yanvar kuni liberallashtirish va iqtisodiy barqarorlik dasturini davom ettirish sifatida Anavatan partiyasi tashkil etildi. Keyingi tashkil etilgan partiya bu – markaz so'l partiya bo'lmish Xalq partiyasi bo'ldi. Adolat partiyasining davomchisi sifatida chiqqan To'g'ri Yo'l partiyasi va Ismet Ino'nyuning o'g'li Erdal Ino'nyu tarafidan tuzilgan Sotsial Demokratik partiya vujudga keldi. MXK ko'pchilik partiyalarga veto berdi. TYP va SDP mahalliy saylovlarga qo'yilmadi. 1983-yilgi saylovlarda AVP, MDP va XP ishtirok etishdi. Saylovda AVP ga'laba qilib, 45,1% ovoz olib TBMM da raislikni o'z qo'lga oldi. 1983-yil 31-dekabrda AVP partiyasi hukumatni tuzdi va unda bosh vazir etib T. O'zal tayinlandi. T. O'zal bundan keyin ham ikkinchi bor 1987-yilgi saylovlarda g'alaba qilib yana bosh vazir bo'lgan¹.

O'zal bosh vazirlik davrida iqtisodiyotning o'ziga xosligi – uni keskin va ketma-ketlikda amalga oshirilganligida bo'ldi. O'zal "Ulkan transformatsiya" deb nom olgan liberal tadbirlar bilan turk lirasini qiymatini mustahkamlash va mamlakat iqtisodini ko'tarish choralari ko'rdi. Eksport va import uchun keng yo'l ochildi. Erkin valyuta konvertatsiyasi tizimiga o'tildi. Ilgarigi yopiq iqtisodiyot va tizimlangan import o'rnini eksportga ustivorlik beradigan ochiq iqtisodiy siyosat egalladi. Ishlab chiqarish to'la eksportga yo'naltirildi. Tovarlariga QQS joriy etildi. Davlat mulklari hususiy lashtirildi. Bo'shab qolgan valyuta zaxirasi muammosi hal etildi. Turkiyaning Yevropa va Yaqin Sharq mamlakatlari bilan yo'lga qo'ygan yaxshi aloqalari tufayli turizm va eksport sohalarida katta daromadlar kela boshladi.

O'zal birinchi bosh vazirlik vaqtida mamlakat siyosiy hayotida o'zgarishlar yuz berib, XP va SDP birlashgan holda Sotsial–Demokratik Xalq partiyasi nomi ostida faoliyat ko'rsata boshlashdi. Faoliyati ta'qiqlangan JXP sobiq raisi B. Edjevit Demokratik so'l partiyaning tuzildi. 1986-yil 6-sentabrdagi referendumlar bilan barcha siyosiy ta'qiqlar olib tashlandi. Shunday qilib, S. Demirel, N. Erboqon, A. Turkesh va B. Edjevit kabi siyosatchilar yana mamlakat siyosiy hayotiga kirib keldilar².

1987-yilgi navbatdan tashqari saylovlarda AVP saylovchilarni 36% ovozini olib yana hukumatni boshqaradigan bo'ldi. Bu saylovlarda SXP –24,75%, TYP esa 19,15% ovoz olishdi. Qolgan partiyalar 10% lik limit chegaradan o'ta olmay parlamentga kira olishmadi³. Prezident Kenan Evrenni lavozim muddati tugashi munosabati bilan 1989-yil 9-noyabrda Turg'ut O'zal mamlakat prezidenti bo'ldi. AVP raisi Yildirim Akbulut bosh vazir etib tayinlandi. Hukumatda turgan AVP ning boshqaruviga Akbulut o'rniga Mesut Yilmaz keldi. Yangi hukumat ham Mesut Yilmaz boshchiligida tuzildi. 1991-yil 21-oktabrda navbatdan tashqari

¹ Kalaycioglu, Ersin. Elections and Party Preferences in Turkey: Changes and Continuities in the 1990's. Preston: Comparative Political Studies, C:27, No:3, se.P 1994. – P.78.

² Алиев, С. М. Современное исламское возрождение и его особенности (на примере Афганистана, Ирана и Турции) // Ислам и политика. – Москва: 2001. С.124.

³ Аватков В.А. Турецкая демократизация в 90-е - ключ к сегодняшней исламизации Турции // Ближний Восток и современность. № 45. 2012. – С.18.

saylovlar o'tkazilishi haqida qaror chiqdi. Bu saylovda 27,03% ovoz bilan TYP g'alaba qildi. Undan keyingi o'rinlarda AVP, SXP, RP va DSP egalladi. 1991–yil 20–noyabrda S. Demirel boshchiligida TYP va SXP o'rtasida koalitsion hukumat tuzildi. Bu hukumat davlat xizmatchilarini maoshlarini oshirish va mamlakatda demokratik jarayonlarni o'sishini ijobiy ta'minlay oldi. 80-yillarda hukumatda TYP va AVP ning davri bo'ldi desak adashmaymiz.

1993-yil 17-aprelda prezident T. O'zal vafot etdi. Uning o'rniga S. Demirel prezident etib saylandi. TYP ga rais va bosh vazir etib Tansu Chiller tayinlandi. Bu Turkiya tarixida birinchi bor ayol kishini bosh vazir bo'lishi edi. Chiller tuzgan TYP va SXP koalitsion hukumati 1993-yil 25-iyundan 1995-yil 25-dekabrigacha faoliyat ko'rsatdi¹.

Hullas, 80-yillarda turk jamiyati turli sinovlarni o'z boshidan o'tkazdi. Iqtisodiyotni liberallashtirishi, erkin tadbirkorlik va soliqlarni kamaytirilishi tufayli aholini moddiy farovonligi biroz bo'lsada ta'minlandi. Xalq farovonligi oshdi. Lekin shu qatorda islomiy oqimlar va tariqatlar siyosatga aralashuvi, hukumat ichida o'z a'zolariga ega bo'lishi, keyinchalik ularni hukumatda muqim joy olishiga qulay sharoitni yaratgan edi. 80-yillardagi islom harakatining faoliyati natijasi, 90-yillar uchun poydevor qo'ydi. Harbiylar faqatgina tashqi siyosatda qurolanish maqsadida AQSH bilan hamkorlik qilishar va mamlakat ichki holatiga AQSHni salbiy ta'sir etishi mumkin deb hisoblaganlar. 90-yillarning oxirida harbiylar Turkiyaning Yevropa bilan integratsiyalashuviga to'siq bo'luvchi omil sifatida ko'rilmogda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Armoğlu Fahir. 20.Yüzyıl Siyasi Tarihi. İstanbul. 2007.
2. Davut Dursun; Türkiye'de Yönetim Geleneği, İlke Yayıncılık, İstanbul. 2012
3. Абдураззакова. М. Политика лаицизма в Турции: история и современность. – Ташкент: 2007
4. prof.dr. Idris Ball “Askeri darbeler ve türk dışpolitikası” Ankara 2011.

ULUG'BEK (MUHAMMAD TARAG'AY)² MIRZONING ILMIY MEROSIDAN LAVHALAR VA ULARNING O'RGANILISHIGA DOIR

*Boymatov Hamza
ToshDSHI 2-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: t.f.n., dots. Alimova R.*

Buyuk Sohibqiron Amir Temurning moddiy-madaniyat bobidagi bunyodkorlik faoliyati uning avlod-ajdodlari, birinchi navbatda Ulug'bek (1394-1449) hukmronligi davrida davom ettirildi. Taniqli olim, tarix fanlari doktori Bo'riboy Ahmedov o'zining 1996-yilda “Fan” nashriyotida chop etilgan “Ulug'bek” risolasida yozadi: “Ulug'bekning eng xayrli ishlaridan biri - bir vaqtning o'zida uchta shaharda: Samarqand, Buxoro va G'ijduvonda madrasa, ya'ni o'sha davrning oliy o'quv yurtini barpo etganligidir. Samarqandda buning uchun u bozor maydonini tanladi va 1417-yili bu yerda madrasa qurilishini boshlab, uni 1420-yili tugatdi...”

¹Eurasia Daily Monitor // Turkish Police No Nearer to Solving Attempted Ankara Bombing. Vol. 4, Issue 172, September 18, 2007.

² Muhammad Tarag'ay - Mirzo Ulug'bekning haqiqiy ismi. Sohibqiron Amir Temurning otasining ismi ham Muhammad Tarag'ay bo'lgan. An'anaga ko'ra, bobosining ismiga uyqash qilingan bu ismni saroyda ishlatish behurmat sanalgan. Shuning uchun, uning o'rniga Ulug'bek deb nom berilgan.

“Samarqanddagi madrasa qurilgan yerni u Registon deb ataydi”¹. Ulug‘bek madrasasida 100 dan ortiq talaba istiqomat qilgan va ta‘lim olgan.

Ulug‘bek dovrug‘ini jahonga tanitgan ulkan qurilishlardan yana bittasi 1420-1429-yillarda qurib bitkazilgan ulkan va hashamatli bino bu Ulug‘bek Rasadxonasidir. Ulug‘bek bu rasadxonani shu paytgacha bor bo‘lgan barcha rasadxonalardan ulug‘va har tomonlama ustun bo‘lishini o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Ulug‘bek mirzoning “Tarixi arba’ ulus” kitobida “Biz quraturg‘on rasadxona barcha jihatlar bilan ash-Shammosiyadagidan ham, Qasiyundog‘idin ham, Marog‘adagidan ham kam bo‘lmasligi lozim, degan”². Rasadxonaning boy kutubxonasi bo‘lib, unda qariyb 150 ming kitob saqlangan. Rasadxona etagida Ulug‘bek bobosi Amir Temur an‘anasiga ko‘ra ikkita bog‘qurdirdi. Ularning birini Bog‘i maydon, ikkinchisini Chinnixona nomi bilan atadi. Ulug‘bek XV asrdayoq Samarqandda birinchi astronomik akademiyaga asos solgan siymo sifatida dunyoga nom taratdi. Haqiqatdan, bu so‘zlar rivoyat yoki afsona emas, balki jahonning ulug‘allomalari tomonidan tan olingan haqiqatdir. Ulug‘bek akademiyasini tan olgan va dunyoga taratgan kishi bu fransuz yozuvchisi Volter (1694-1778)dir. Bo‘riboy Ahmedov o‘zining “Ulug‘bek”³ deb nomlangan (esse) kitobida Volterning quyidagi so‘zlarini keltiradi. “Transsaksioniyada (Movarounnahrda) uning (Amir Temurning) o‘rniga taxtga chiqqan mashhur Ulug‘bek Samarqandda birinchi akademiyaga asos soldi, yer kurrasini o‘lchashni buyurdi va astronomik jadvallar tuzilishida ishtirok etdi”⁴. Chindan ham Ulug‘bek tomonidan qurilgan rasadxona o‘z davrining akademiyasi bo‘lgan.

Ulug‘bekning nechog‘liq bilimdonligi va mahorati to‘g‘risida uning xodimi G‘iyosiddin Jamshid al-Koshiy 1417 yilda Samarqanddan otasiga yozgan xatida quyidagilarni ta‘riflagan: “Ollohga va ne‘matlarga ko‘p shukrlar bo‘lsinkim, yetti iqlimning farmonbardori islom podshohi donishmand kishidurlar. Men bu narsani odob rasmiy yuzasidan aytayotganim yo‘q, haqiqat shuki, avvalo, u kishim Qur‘oni Karimning aksariyat qismini yoddan biladilar”⁵. Ulug‘bek akademiyasida 1417-yildayoq dunyoning turli mamlakatlaridan to‘planib kelgan olimlar soni 100 dan oshib ketdi. Ular orasida adiblar, muarrixlar, xattotlar, musavvirlar, geograflar bor edi. Xususan, astronomiya va matematika soha olimlari sharafliroq va obro‘liroq hisoblanganlar. Ayniqsa, bu borada Ulug‘bek, Qozizoda Rumi, G‘iyosiddin Jamshid, Koshiy, Ali Qushchi, Mavlono Muhammad Havofiyalar eng salobatli va nufuzli bo‘lganlar. Ulug‘bek madrasasi darsxonalarida o‘quv mashg‘ulotlarinig boshlanishi, 1420-yilga to‘g‘ri keladi. Vosifiyning bergan ma‘lumotlariga qaraganda, madrasaning 1-mudarrisligiga Mavlono Muhammad Havofiy tayinlangan. Lekin, berilgan darsni Ulug‘bekdan boshqa hech kim o‘zlashtira olmagan. Madrasada ilohiyot ilmlari (Qur‘on, Hadis, tafsir) dan tashqari riyoziyot, geometriya, ilmi-xay‘at (astronomiya), meditsina, tarix, jug‘rofiya, ilmi aruz (poeziya) singari dunyoviy ilmlar ham o‘qitilgan. Ulug‘bekning avlodlarga qoldirgan ilmiy meroslari - asarlariga kelsak, ular soni jihatdan ko‘p emas. Ularning eng asosiysi «Zij» bo‘lib, bu asar «Ziji Ulug‘bek», «Ziji Jadidi Ko‘ragoniy» nomlari bilan mashhur. Undan tashqari Ulug‘bek matematikaga oid «Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola»,

¹ Amir Temur va Ulug‘bek zamondoshlari xotirasida. B. Ahmedov tahriri ostida. – T.: 1996. – B. 296

² Mirzo Ulug‘bek. Tarixi arba’ ulus. - T.: Cho‘lpon. 1993. – B. 352

³ B. Ahmedov. Ulug‘bek.– T.: Fan, 1965. – B.37

⁴<http://www.aim.uz>. Abdurahimov Q.Mirzo Ulug‘bek haqidagi maqola.

⁵ <http://www.ziyouz.com>. Abdurahimov Q.Mirzo Ulug‘bek haqidagi maqola

astronomiyaga tegishli «Risolayi Ulug‘bek» (Yagona nusxasi Hindistonda Aligarx universiteti kutubxonasida saqlanadi), tarix ilmiga bag‘ishlangan «Tarixi arba’ ulus» (“To‘rt ulus tarixi”), va musiqa ilmlarini o‘z ichiga olgan «Risolai dar ilmi musiqa» (“Musiqa ilmi haqida risola”) beshta risolani yozgan. Ulug‘bek «Zij»i o‘zining tarkibiga ko‘ra, VIII-XI asrlarda boshlangan astronomik an‘anani davom ettirgan bo‘lsa-da, uning ilmiy saviyasi va pog‘onasi ilgari «Zij»lardan ancha yuqori bo‘lgan. Bu asar kirish, muqaddima va to‘rt maqoladan iborat. Ulug‘bek asarning kirish qismida Qur‘ondan oyatlar keltirib, astronomik kuzatishlarning zarurligini nazariy jihatdan asoslamoqchi bo‘ladi. «Zij»ning birinchi kitobi 7 bobdan iborat bo‘lib, u eralar va kalendarlar masalalariga bag‘ishlangan.

Ikkinchi kitob 22 bobdan iborat. Unda matematika va sferik falakiyotshunoslik muammolari ustida so‘z boradi. Undan tashqari ana shu ikkinchi kitobda va uchinchi kitobda sinuslar va tangenslar jadvallari keltiriladi. Kitobning to‘rtinchi bobida Ulug‘bek ekleptikaning (falakul buruj osmon ekvatoriga og‘ish burchagining) miqdorini keltiradi.

«Zij»ning uchinchi kitobi 13 bobdan iborat bo‘lib, faqat falakiyotshunoslik masalalariga bag‘ishlangan. Bunda Quyosh, Oy va besh sayyoraning harakatlari haqida so‘z boradi.

Ulug‘bek asarning oxirgi — to‘rtinchi kitobi 2 bobdan iborat bo‘lib, u asosan ilmi nujumga bag‘ishlangan. Tarixchi olim Abdulahad Muhammadjonov Ulug‘bek jadvallari to‘g‘risida bunday deb yozadi: «Ulug‘bekning astronomik jadvali o‘sha zamondagi shunga o‘xshash jadvallar orasida yuksak darajada aniqligi bilan ajralib turadi. Masalan, falak al-burj tekisligining xatti istivoga og‘maligi Ulug‘bek jadvalida 23 daraja, 30 daqiqa, 17 soniyaga teng bo‘lib, hozirgi hisob bo‘yicha u 23 daraja, 30 daqiqa, va 49 soniyani tashkil etadi. Bu ikki raqam o‘rtasidagi tafovut hammasi bo‘lib, minus 32 soniyaga teng, xolos. Shunindek, Ulug‘bekning yil hisobini hozirgi aniq hisob-kitoblarga solishtirgudek bo‘lsak, u bor-yo‘g‘i 1 daqiqa-yu 2 soniyaga farq qiladi. Bular XV asr uchun g‘oyat yuksak aniqlik bo‘lib, hozirgi zamon o‘lchovlariga juda yaqindir»¹.

Ulug‘bekning «Risolai Ulug‘bek» asari hali o‘rganilmagan. Umid qilamizki, noyob asarning o‘rganilishi Ulug‘bek ijodining yangi qirralarini ochishga imkon beradi. "Zij"ga yozilgan eng mukammal sharh Samarqand ilmiy maktabining eng so‘nggi namoyandasi Nizomiddin Abdul Ali ibn Muhammad ibn Husayn Birjandiyning (1525-yil) 1523 yil yozib tugatilgan "Sharhi Ziji Ulug‘bek" asaridir. Birjandiy o‘z "Sharh"ida mufassal va aniq raqamlar bilan bayon qilib, "Zij"ning sirlarini ochadi. Ulug‘bekning ko‘plab jumllarini u chizmalar bilan tushuntirib isbotlagan².

Samarqandlik ikki buyuk olim — Qozizoda Rumi va Ali Qushchining nabirasi Miram Chalabiy (1525-yil) "Zij"ga sharh yozib, uni "Dastur alamal va tashih al-jadval" ("Amallar dasturi va jadvallarning tuzatilishi") deb atagan. Eronlik olim G‘iyosiddin Mansur al-Husayniy ash-Shiroziy (1542-yil) "Zij"ga "Risola dar ta'niq Ziji Ulug‘bek" ("Ulug‘bek "Zij"ini aniqlashtirish haqida risola") nomli sharh yozgan. XVI asrning ikkinchi yarmi va XVII–XVIII asrlardagi qator musulmon olimlari "Zij"ga sharhlar yozdilar va uni qayta ishlab o‘z zamonlari va makonlariga moslashtirganlar. Ular orasida suriyalik Taqiyiddin ash-Shomiy (1526-1585), Mazhariddin al-Qoriy (XVI asr), misrlik Abdulqodir al-Manufiy ash-Shofiy (XVI asr), eronlik Shoh Fathulloh Shiroziy (1589-yil), Muhammad Boqir al-Yazdiy (1637-

¹ A. Muhammadjonov. Amir Temur va Temuriylar saltanati. –T.: Fan, 1996. – B. 127

² <http://www.ziyouz.com>. Abdurahimov Q. Mirzo Ulug‘bek haqidagi maqola.

yil), hind Fariddin Dehlaviy (1629-yil), turk Muhammad Chalabiy (1640-yil), misrlik Rizvon ar-Razzoq al-Misriy (1710-yil), dog'istonlik Damodon al-Muhyi (1718-yil) kabi olimlarning sharhlari shular jumlasidandir. Bular orasida hind davlat arbobi va olimi Savay Jay Singhning faoliyati alohida o'rin tutadi. U Hindistonning Boburiy sultoni Muxammadshohning (1719-1748) farmoni bilan Ulug'bek rasadxonasidagi jihozlarning ta'riflariga ko'ra, Dehli, Banoras, Jaypur, Ujjayn va Mutrada rasadxonalarini barpo qiladi. So'ng u homiylik qilgan sultonga atab "Ziji Muhammadshohiy" asarini yozgan va unda Ulug'bekning ba'zi jadvallarini tayyorligicha qabul qilgan. Qori Niyoziy va dushanbelik G.Sobirovlar Savay Jay Singhning asari bilan Ulug'bek "Zij" orasidagi bog'liqlikni o'z ishlarida ko'rsatganlar¹. Bevosita Ulug'bekka bag'ishlangan Yevropadagi birinchi nashr ingliz astronomi Jon Grivs (1602-1652) qalamiga oid. Uning 1648-yilda nashr etilgan asarida Ulug'bek yulduzlar jadvalining bir qismi (98 ta yulduz) ilova qilingan. 1665 yil yana bir ingliz olimi Tomas Xayd (1636-1703) Grivs bilan bog'lanmagan holda "Zij"dagi yulduzlar jadvalini forsiy va lotincha tarjimasini nashr etgan. 1690-yil Gdanskda polyak astronomi Yan Geveliy chop ettirgan "Yulduzlar osmonining atlasidagi" ikkita gravyurada o'sha davrning mashhur astronomlari orasidan Ulug'bekka faxrli o'rin bergan, unda Ulug'bekning yulduzlar jadvalini Ptolemey, Tixo Brage, Richchioli, Vilgelm IV va o'zining jadvallari bilan solishtirgan. 1711-yil Oksfordda Ulug'bekning geografik jadvali uch marta nashr etilgan. 1807-yil o'sha yerda bu jadval yangi grek tilida ham nashr etilgan. 1725-yili ingliz astronomi D.Flemetid (1646-1719), 1767-yili ingliz olimi G.Sharp Ulug'bek yulduzlar jadvalining T.Xayd nashrini qayta nashr qilgan. 1843-yil ingliz olimi F.Beyli (1774-1844) shu nashrni yanada takomillashtirib, uch nashrni amalga oshirgan. Fransuz sharqshunosi L.A.Sediyo (1808-1876) 1839-yili Ulug'bek "Zij" idagi astronomik jadvallarning bir qismini nashr etgan. 1917-yil amerikalik olim E.B.Nobel Ulug'bek "Zij" idagi yulduzlar jadvalini 27 qo'lyozma asosida tanqidiy matnini, 1927-yil K.Shoy "Zij"ning trigonometrik jadvalini nashr etgan. Ulug'bek "Zij"i Rossiyada va sobiq Sovet Ittifoqida ham alohida tarixga ega bo'ldi. XVIII asrning birinchi yarmida Peterburg akademiyasida Ulug'bek "Zij"i maxsus muhokamada bo'lgan va olimlar J.N.Delil (1688-1768), G.Ya.Ker uni tarjimasiga kirishganlar lekin ish oxiriga yetkazilmagan².

1908-1909 yillar V.L.Vyatkin Ulug'bek rasadxonasining xarobalarini va uning asosiy asbobi – kvadratini kavlab topgandan so'ng, Samarqand olimlarining faoliyatiga yangidan qiziqish boshlanadi. Natijada, 1918-yilda V.V.Bartoldning "Ulug'bek va uning davri" asari nashr etilgan. Uzoq va yaqin o'tmish mualliflari (Darvishali Changiy, Fitrat va boshqalar)ning ta'kidlashicha, Ulug'bek yoshligidan o'zga fanlar qatori musiqa ilmidan saboq olib, bir qator kuy va usullar yaratgan, bu sohaga oid risola ham yozgan³. Ulug'bek mirzo Amir Temur sulolasiga mansub ulug'zot, ulkan davlat arbobi va buyuk dahodir. XV asrning boshlarida Mirzo Ulug'bek Samarqandda falakkiyot maktabi, rasadxonasi va u qurdirgan o'sha davrda tabiiy-ilmiy bilimlar taraqqiyotida muhim rol o'ynadi. Ushbu olimning fan taraqqiyotiga qo'shgan xissasi hozirgi kundagi barcha fanlarga ilmiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

¹ <http://www.person.ziyonet.uz>. Abdurahimov Q. Mirzo Ulug'bek haqidagi maqola

² <http://www.tarix.uz>. Abdurahimov Q. Mirzo Ulug'bek haqidagi maqola.

³ <http://www.aim.uz>. Abdurahimov Q. Mirzo Ulug'bek haqidagi maqola.

ФОРС КЎРФАЗИДА БУЮК БРИТАНИЯ МУСТАМЛАКАЧИЛИК СИЁСАТИНИНГ ЭВОЛЮЦИЯСИ

*Эгамбердиев Абдувахоб
ТошДШИ 1-курс магистранти
Илмий раҳбар: т.ф.н. Абдуллаев У.А.*

XIX аср охири – XX аср бошларида Буюк Британия ҳукмрон доиралари бор эътиборини мустамлака давлатларидаги олиб борилаётган сиёсатга қаратди. Монопол бирлашмалар аввало шу мустамлака давлатларини эксплуатация қилиш мақсадида бирлаша бошлади. Йўқотилган саноат гегемониясини Англия, мустамлака давлатларни эзиш орқали қондириш йўлига ўтиб олди. Британия ўз капиталини бу ҳудудларга чегараланмаган ҳажмда олиб кирди натижада биринчи жаҳон уруши арафасида мустамлакалардаги инглиз капитали миқдори 4 млрд. фунтга етганди¹.

Англия ҳукмрон доиралари учун кемачилик компаниялари ҳам ўз сиёсатларини самарали амалга ошира олиш учун яхши қурол бўлиб қолди. Зероки, кемалар мустамлака давлатлардан йиғилган солиқларни олиб келишар, экспорт ва импортни амалга оширишар ҳамда қўшинни тез вақтда траспортировка қилиш учун қулай эди. Бу компанияларнинг рўли айниқса Ост-Индия компаниясини йўқ қилинишидан сўнг янада ошиб кетган. АҚШ ва Германия саноатида асосий этибор оғир саноатга қаратилган бир пайтда, Англия савдо кемаларини сонини ошириш ва бу билан ўзининг сувдаги гегемониясига эришишга ҳаракат қилаётган эди.

Атлантика океанида инглизлар америкалик ва немис кемалари кучли рақобат олиб бораётган бир пайтда, Форс кўрфази ҳавзалидаги аҳвол бутунлай бошқача кўринишда эди. XX аср бошларигача британ кемачилик компаниялари ва “Ефрат энд Тигрис навигейшн компани” бу сувларда тўлиқ монополияга эга бўлиб, ўзлари истаган нархларни қўйишар ва бундан жуда катта фойда олишаётган эди. Бир тонна юкни Бағдоддан Басрагача инглиз кемаларида тошиш чет эллик савдогарлар учун икки баробар қиммат тушарди, чунки ҳудди шу юкни жуда узоқ бўлган Бағдоддан Лондонга олиб бориш ундан арзон эди. Инглизлар монополияни нафақат фойда олиш мақсадида, балки ўзларининг сиёсий ғояларини тадбиқ этиш учун ҳам фойдаланар эдилар. Яъни британ ҳукмрон доиралари унинг ёрдамида Месопотамия ва Усмонийлар империяси маркази ўртасидаги муносабатларни мураккаблаштиришга интилганлар.

Форс кўрфази ҳамда Ҳинд денгизида ҳукмронлик қилаётган британ пароход компанияларини асосий мақсади – Александриядан Бомбейгача, Басрадан то Занзибар оролигача бўлган улкан ҳудудда инглиз сиёсий гегемониясини сақлаб қолиш эди. Фақат шу ҳолатда улар улкан фойда ола олар эдилар. Аммо бу гегемонияни сақлаб қолиш учун улар бир қанча қурбонликларга ҳам боришган. Масалан, янги ташкил этилган РОПИТ (Российское общество пароходства и торговли) ни сиқиб чиқариш учун улар Форс кўрфазидан Европага юк учун фрахта² ни 70% га камайтиришган³.

Яқин Шарқ ва Шимолий Африка ҳудудлари, Форс кўрфази ҳамда Ҳинд океани сувларида гегемония ўрнатишга нафақат кемачилик компаниялари, йирик банклар,

¹Г.Л. Бондаревский. *Английская политика и международные отношения в Бассейне Персидского залива* (конец XIX – XX в.). Издательство «Наука», М., 1968. 10 – бет.

²Юк учун тўланадиган бож. Асосан тонна ҳисобига олинган

³Э. Шульце, *Борьба за персидско-месопотамскую нефть*, М., 1924, 61 – бет.

транспорт компаниялари раҳбарлари ва зодагонлар балки нефт, кўмир ва бошқа қимматбаҳо ресурсларни қазиб оладиган компаниялар ҳам қизиқиш билдира бошлади.

Бу улкан ҳудудда ўзининг гегемониясини сақлаб қолишга бўлган интилиш шу даражага етдики, транспорт ва улар билан чамбарчас боғлиқ савдо ҳамда саноат компаниялари корчалонлари бор куч ва имкониятлари билан аслида мантиққа зид назария, яъни Ҳиндистоннинг “ҳимоя чизиги” Фрот дарёси Сувайш канали ва хаттоки Босфорга бориб тақалади деган фикрни ҳимоя қилишган. Бундай позиция уларга Яқин ва Ўрта Шарқда кўпсонли рақобатчилар билан курашиш учун британ ҳукумати ва парламенти-дан ҳар томонлама ёрдам олиш имконини берарди¹. Мақсад еса – Форс кўрфази ва Қизил денгизни ўзининг “ота мерос”² сига айлантириш эди. Бу ғояни Усманийлар Банки акционерлари, турк қимматли қоғозлари эгалари ва айниқса Яқин Шарқдаги темир йўл қурувчи компаниялар акционерлари қўллаб қувватлашди.

Ғояни бу тариқа қўллаб қувватланишига сабаб сифатида, Россияни Британиянинг энг асосий колонияларидан бири ҳисобланган Ҳиндистонга бўлган кучли эътибори кўрсатилган. Британия Россиянинг Ҳиндистонга кириб келишига ишонмасда, бундан жуда ҳавотирга тушгани аниқ, чунки Форс кўрфазида рус ёки немис ҳарбий базасини пайдо бўлиши Британия колониялари учун инглиз буржуазияси ҳарбий ва сиёсий жихатдан кучсиз эканлигини очиб қўяр эди³.

Форс кўрфазини доимий назоратда тутиб туриш, Британия учун бу ҳудудда ўз маҳсулотларини сотиш учун бозор сифатида ҳам муҳим эди. Эндиликда Бомбейдан бу ҳудудга катта ҳажмларда текстил маҳсулотлари, зираворлар, калава, чой ва бошқа маҳсулотлар кириб кела бошлади. Ҳиндистон Хитой бозорларида рақобатни қўлдан бой бергандан сўнг, инглиз монополистлари уни Форс кўрфази давлатларига буриб юборишди. Форс кўрфази давлатларидан ҳам ўз навбатида кўплаб маҳсулотлар ташиб кетилган. Баҳрайдан маржон экспорт қилинган бўлса, Эронда опиум⁴ Бомбей орқали Хитойга олиб кирилган, бу инглиз ва хинд ҳукмрон доираларига мислсиз бойликлар келтирган.

Юқоридаги иқтисодий, ижтимоий ва сиёсий сабабларга асосида инглиз ҳукмрон доиралари гуруҳи Буюк Британиянинг Яқин ва Ўрта Шарққа босқинчилик сиёсати, Қизил денгиз, Форс кўрфази ва Ҳинд океанининг ғарбий қисмини “британия кўли” га айлантириш ғоясини қўллади. Бу гуруҳ ўз мақсад ва вазифаларини баландпарвоз шиор – “Ҳиндистон ҳавф остида” ортига яшириб, XIX асрнинг сўнгги чорагида Буюк Британиянинг ташқи ва мустамлака сиёсатига катта таъсир ўтказди. Кучли таъсир ўтказишига яна бир сабаб – дунёни бўлиб олишда Буюк Британиянинг асосий рақиб-лари Россия ва Франция бўлиб турган бир пайтда, “ўрташарқ” группировкасининг манфаатлари бутун инглиз ҳукмрон доиралари манфаатларига мос келарди.

¹Г.Л. Бондаревский. *Английская политика и международные отношения в Бассейне Персидского залива* (конец XIX – XX в.). Издательство «Наука», М., 1968. 16 – бет.

²Отамерос – деган маънони англатади.

³1911 йилда “Таймс оф Индия” журналининг муҳаррири Ловат Фрезер Форс кўрфазининг сиёсий-стратегик аҳамиятини қуйидагича ёзиб ўтади: “Бирор чет эл давлати Ҳиндистонда инглиз ҳукмронлигини йўқ қилиши учун Форс кўрфази ҳарбий база қуриши шарт эмас. Бунинг учун кичикроқ ҳудудни эгаллаб олиш, у ерга кичик гарнизон юбориш ёки қуролланмаган кўрғон қуришни ўзи етарли бўлади. Агар Россия, Германия, Франция ёки бирор бир бошқа кучли давлат хинд киргоғи яқинида ҳимоя кўрғони қургани ҳақида хабар тарқалса, бу бутун Ҳиндистонга кучли таъсир кўрсатади ва британ ҳукмронлиги кучига нисбатан шубҳа уйғотади. Мамлакатда зўрға сақлаб турилган ҳукмронлик ҳам йўққа чиқарилади.” (L. Fraser, *India under Curzon and after*, London, 1911, p.113)

⁴Афъюн – кучли таъсир этадиган наркотик восита

Империализм даври келиши билан дунёни бўлиб олишда асосий ролга энди инглиз-немис муносабатлари чиқди. “Ўрташарқ” гуруҳи Яқин ва Ўрта Шарқ муаммоси бўйича Франция ва айниқса Россия билан келишиб, асосий рақиб – Германияга қарши ягона фронт тузишга ҳаракат қила бошлади. Аммо бундай келишув узоқ йиллар давомида Форс кўрфазида ўрнатилган монополия орқали кўлга киритилган кўп миллионли фойдани йўққа чиқариши мумкин эди. Шу сабабли Британия парламентида, матбуотда, ҳукумат йиғилишларида бу масала бўйича жуда кўплаб можаролар кўтарилди. Аввал Солсбери¹, кейин Бальфур Британиянинг Яқин ва Ўрта Шарқдаги позицияларини ҳимоя этишда сусткашликка йўл қўйди².

Шундай бир вақтда XIX аср охиридан “ўрташарқ” группировкаси етакчиси сифатида Керзон ҳукумат саҳнага чиқди, у “Форс ва форс кўрфази масаласи”³ ни ўз шиори қилиб олди.

Керзон узоқ йиллар давомида Шарқ давлатлари бўйлаб саёҳат қилди ва уларга бағишлаб ёзилган адабиётларни ўрганди, натижада Англиянинг Ўрта Осиё, Марказий Осиё ва Ўрта Шарқ масаласи бўйича етакчи мутахассисига айланди. Керзон доим бир гапни таъкидлар эди, яъни Буюк Британия қудратининг асосий манбаи бу – Ҳиндистон, унинг Осиёдаги ҳукмронлигига раҳна солувчи асосий рақиб бу – Россиядир. У Узоқ ва Ўрта Шарқда рус сиёсатига қарши кучли тўсқинлик кўрсатишни талаб қилди ҳамда Эрон ва Форс кўрфазида инглиз босқинчилик сиёсатини қайта бошлашни илгари супди.

90-йилларнинг ўрталарида яқиншарқ ва узоқшарқ кризислари натижасида Буюк Британиянинг халқаро майдондаги аҳволи мураккаблашиб кетди, инглиз-рус ва инглиз-француз муносабатлари кескинлашиб кетди. Бундай оғир шароитда Солсбери ва унинг сафдошлари Россия билан конфликтларни чуқурлашиб кетишидан хавотирга тушишганди. 1898 йил январда Солсбери Россияга Туркия ва Хитойни таъсир доираларига бўлиш тўғрисида шартнома режасини жўнатди ва рад жавобини олди. Бу билан бир вақтда Россия Порт Артур ва Узоқ Шарқни ижараси бўйича келишувга эришди. Вазиятнинг бундай тус олиши британ ҳукмрон доирасидаги “хитой” группировкаси аъзоларини ғазабини чиқарди. Солсберининг обрўси жуда тез тушиб кетди⁴.

Шу ҳолатда Керзон кабинетдан Вейхавейни ижарага олиш ва Жанубий ва Марказий Хитойда темир йўл қуриш концессияси учун фаол курашиш учун рухсат олди⁵. Бу эса унинг колониял ҳукмрон доиралар орасида обрўсини ошириб кетишига сабаб бўлди.

Керзон узоқ кутилгандан сўнг 1898 йилда Ҳиндистоннинг вице-қироли этиб тайинланди, бу эса амалда “ўрташарқ” группировкасининг ғалабаси эди. Керзон 750 дан ортиқ табрик мактублари олди. Солсбери уни тайинлашдан бошқа йўли ҳам қолмаганди, чунки бу вақтга келиб инглиз-француз ва инглиз-рус муносабатлари кескинлашиб кетган эди. Бу ҳолатни фақатгина Керзоннинг қаттиқ кўллик сиёсати ҳал эта оларди. Унинг тайинланиши Россияга Англия нималарга қодирлигини кўрсатиб қўйиш, рус-француз муносабатларига совуқчилик солиш ва шу билан Англиянинг Франция билан бўлиши мумкин бўлган урушда, Францияни ёлғизлатиб қўйиш мақсадида амалга оширилган эди.

¹ J.A. Grenville, *Lord Salisbury and foreign Policy*, London, 1964.

² Г.Л. Бондаревский. *Английская политика и международные отношения в Бассейне Персидского залива* (конец XIX – XX в.). Издательство «Наука», М., 1968. 24 – бет.

³ G. Curzon, *Persia and the Persian Question*, vol. II, London, 1966.

⁴ В.М. Хвостов, *История дипломатии*, т. 2, М., 1954. 364 – бет.

⁵ Галеви, *История Англии в эпоху империализма*, т. 1, М., 1937, 34-35 бет.

Хулоса қилиб айтганда, Британия ҳукмрон доираларининг Форс кўрфази, Яқин ва Ўрта Шарқ ҳамда Арабистон ярим оролида олиб борган сиёсати нафақат бу ҳудудни қулай бозорга айлантириш, балки дунёни бўлиб олишда ҳам жуда муҳим аҳамият касб этган. Қай бир гуруҳ ёки ҳаракат тарафдорлари бўлмасин мақсад ягоналигича – шу ҳудудда яқка монопол ҳокимиятни ўрнатиш бўлиб қолаверди.

Британия ҳукмрон доиралари доимо Усманийлар империяси ҳудудлари бўлиб олиш, араб давлатларини эгаллаш ҳамда Ўрта ва Марказий Осиёда ҳам ўз лўқмаларини олиб қолиш пайида бўлдилар ва маълум даражада бунга ҳам эришдилар. Парламентда қайси партия ёки блок аъзолари ҳукмрон бўлишига қарамай ўша “ўрта шарқ”, “хитой” ва “жанубий африка” гуруҳлари ўз сиёсатларини давом эттираверишди. Бу сиёсатни амалга оширишдаги асосий муммолар бу албатта инглиз-рус, инглиз-герман, инглиз-француз ҳамда маҳаллий аҳоли билан бўлаётган можаролар бўлиб, улар баъзан дипломатия баъзан эса куч ишлатиш йўли билан баргараф этиб борилди.

ИБН СИНО – ТИБ ИЛМИНИНГ БУЮК СУЛТОНИ

*Саидов Санжарбек
ТошДШИ 4-курс талабаси
Илмий раҳбар: с.ф.д., проф. Идиоров У.*

Марказий Осиё халқлари маданиятини ўрта аср шароитида юксак чўққига олиб чиққан буюк алломалардан бири, кучли илм соҳиби Абу Али ибн Сино бўлиб, у Шарқда шайх ур-раис, Фарбда эса Авиценна номи билан машҳурдир.

Ибн Сино (асл исми Ҳусайн, отасининг исми Абдуллоҳ) Бухоронинг Афшона қишлоғида хижрий 370 (980) йилнинг сафар ойида, амалдор оиласида туғилди. 986-йилда ибн Сино оиласи Бухорога кўчиб келади ва шу вақтдан бошлаб ёш Ҳусайн бошланғич маълумот олишга, илм-фанни ўрганишга киришади. Унинг ёшлиги, йигитлик чоғлари сомонийлар ҳукмронлигининг сўнгги йилларига, хусусан Нух II ибн Мансур Сомоний ҳукмронлиги даври (976-997) га тўғри келади.¹

Ибн Сино истеъдодли, хотираси кучли, зеҳни ўткир бўлганлигидан ўз даврида маълум бўлган илмларни тездан эгаллай бошлади. 10 ёшидаёқ Қуръони Каримни бошдан-оёқ ёд ўқир эди. 13 ёшларидан бошланғич математика, мантиқ, фикх, фалсафа илмлари билан шуғуллана бошлайди. Ибн Сино ёш бўлишига қарамай, Абу Абдулло Нотий раҳбарлигида фалсафани, Ҳасан ибн Нух ал-Қумрийдан тиббиёт илмини ҳар томонлама ўрганади, аста-секин табиблик билан ҳам шуғулланади.²

Ибн Сино тиббиётни фақатгина “илм” деб эмас, балки уни “Тиб санъати” деб қаради. Тиббиётнинг замин категорияси деб соғлиқ ва касаллик деб таъкидлади. Ҳақиқий шифокор қандай инсон бўлмоғи лозим? Деган саволга Шифокор тиб илми ва санъатини эгаллаши учун: Файласуф, нотик, рухшунос. Хуллас, ҳар томонлама етук шахс бўлмоғи лозим деб уқтирди. Бу ўринда Ибн Синонинг қуйидаги фикрлари диққатга лойиқдир: “Табибда лочиннинг нигоҳи, қиз боланинг нафис қўллари, илоннинг донолиги, шернинг юраги бўлмоғи даркор”.

¹ Маънавият юлдузлари: (Марказий Осиёлик машҳур сиймолар, алломалар, адиблар) // Масъул муҳаррир: М.М. Хайруллаев/. - Тўлдирилган қайта нашр. - Т.: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашр., 1999. - 86-б.

² Ўша жойда 86-бет.

Ибн Сино асарларини диққат билан ўқиш, ўрганиш, таҳлил этиш шундан далолат берадики, тиб илмининг барча фундаментал асосларига аллома ўз вақтидаёқ тамал тошини қўйган.

Анатомия, морфология, физиология, патофизиология, биохимия, биофизика, патологик анатомия, микробиология, фармакология, инсон экологияси, диагностика каби илмлар асосчиси десак, асло муболаға қилмаган бўламиз.

Ибн Синонинг даҳо табиб сифатида шуҳрат қозонишининг асосий омилларидан бири - унинг тиб назариясини, хусусан, анатомия - инсон гавдаси тузилишини мукамал билишлигидир.¹

Ибн Сино ўз замонасидаёқ, “Соғлиқни сақлаш илми” концепциясининг мантиқий моделини фикран ифодалади:

1. Мизожларни мўътадил қилиш;
2. Овқат ва ичимлик танлаш;
3. Гавдани чиқиндилардан тозалаш (танани ортиқчаликдан холи қилиш);
4. Тана аъзолари жойланиш тўғрилиги, мутаносиблиги сақлаш;
5. Бурунга тортиладиган хавони етарли ва яхши қилиш (бурундан нафас олиш йўллари яхшилаш); Кийимларни муҳитга мослаб танлаш;
6. Уйқу ва уйғоқликни мўътадил қилиш;
7. Жисмоний ва маънавий ҳаракатлар мутаносиблиги (уйғунлиги);²

Ибн Сино мизожга бундай таъриф беради: Тўрт унсур тўрт хил қарама-қарши хусусиятга эга. Бу хусусиятлар унсурларнинг энг майда бўлакчаларида жойлашган. Бу бўлакчалар доимо бир-бирларига таъсир кўрсатиб турадилар. Шу ўзаро таъсир бир чегарага етганида пайдо бўладиган кайфиятга мизож дейилади.³ Инсон ички табиий меъёрини “мўътадиллик”, “маълум даража”, “мутаносиблик”, “маълум аниқ миқдор”, “ёшга хос миқдор” каби тушунчалар орқали ифода этишади.

Юнон, араб, ҳинд, форс тиббиёти мағзидан бир “қизил ип” ўтади, у ҳам бўлса одам организми табиатига хос тўрт асосий материя (арабчада –хилт): қон, балғам, савдо ва сафро мавжудлигидир. Ҳар бир хилт ўзининг “хос миқдори”га эга. Яъни, организмда учрайдиган тўрт компонент ҳар қандай миқдорда эмас, ўша организм меъёрича бўлади. Қон – организмнинг суяк тўқимаси бўлиб, ёш ҳамда жинсга қараб, ҳар бир организмда муайян миқдорда бўлади. Худди шунингдек, лимфа суяқлиги ҳам.

Ҳар тўрт суяқлик бир-бири билан ҳар қандай мунособатда эмас, балки муайян миқдорий мутаносибликда-уйғун мутаносибликда бўлади. Ибн Сино ўз фикрини давом эттириб, шундай ёзади: “Унсурлар ўз қувватлари билан бир-бирларига таъсир қилишлари натижасида уларнинг ҳаммасига мос бир кайфият вужудга келади. Ана шу кайфият мизождир.” “Кайфият” – организмнинг муайян сифат ҳолати. Мизож мўътадил ва мўътадилликдан чиққан ҳолатда бўлиши мумкин. Мизож мўътадил бўлса кишининг танаси соғлом, мўътадилликдан чиқса касаллик пайдо бўлади. Гипократ ҳам ташқи муҳит омиллари (иқлим, тупроқ, сув, кишиларнинг ҳаёт ёъсини, мамлакат қонунларини одамга, унда жисмоний ва руҳий хусусиятларининг шаклланишига таъсири жиҳатдан

¹ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi to'rt jildlik. –Т.: Davlat ilmiy nashriyoti. 2002. – 56-б.

² Абу Али Ибн Сино. Канон врачевой науки. Кн. I/Т.: “Фан” 1981. – С.296-297.

³ Абу Али Ибн Сино. Тиб қонунлари. Уч жилдик сайланма. –Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1992. – 15-б.

ажратди.¹ Инсон учун энг яхши ҳолат мизожнинг мўътадил бўлишидир. Ибн Сино шуни таъкидлаб ёзадилар: “Мизож мўътадил бўлганида гавдадаги қарама-қарши хусусиятлар миқдор жиҳатидан ўртача ва сифат жиҳатдан нуқсонсиз бўлади. Бундай киши соғломдир. Агар қарама-қарши хусусиятлар ўртача бўлмай, икки томоннинг бирига, масалан, иссиқлик ё совуқликка, хўллик ёки қуруқка ёки ҳар иккисига мойил бўлса, мизож мўътадилликдан чиқади ва танада касаллик пайдо бўлади”. Ибн Сино мўътадиллик деганда меъёрни назарда тутганини англаш қийин эмас. Ибн Сино мўътадил деган тушунчага қуйидагича тасниф беради: “Мўътадиллик – мизож эгасининг бутун гавдасида ёки бир аъзосида унсурлар миқдори ва кайфиятлари билан одамнинг мизожига керагича энг тўғри тақсимланиб, энг тўғри нисбатда тўла-тўқис бўлинганлигидан иборатдир”. Демак, мўътадиллик (мўътадил мизож) инсон гавдасида ва унинг айрим аъзоларида унсурлар ҳамда уларнинг хусусиятлари керак даражада тўғри (баробар) тақсимланган ҳолатдир. Ҳар бир суюқ хилтнинг ўзига хос миқдори бор, иккинчидан булар ҳар бири иккинчиси билан миқдорий мутаносибликда бўлади. Мана шу ҳолат – саломатлик. Бу хилтлардан бири кўпайса ёхуд аксинча камайса, одам танасида турли ҳолат келиб чиқади.

Олимнинг фикрича, иссиқ мизожли кишилар касалликларга нисбатан унчалик берилмайдиган, бақувват ва кучли бўладилар. Мизожлар ёшга қараб ўзгаради. Мўътадил мизожли кишиларнинг ҳамма ҳаракатлари мукамал ва тетикдир. У одам ёшлиқдан тез ва яхши ўсади., ўзи завқли, одашаванда ва очиқ юзли бўлади. Овқатлар, ичимликлар, дори-дармонларнинг ҳам мизожлари бўлади. Энг мўътадил фасл – куз ва баҳордир. Олхўри – ўт фаолиятини, ўт қопи ишини меъёрга солади, ўтнинг яхши ажралишини, унинг тутилиб қолмаслигини таъминлайди. “Ширин олхўри сариқ ўтни чиқаради, у бу ишни ҳамма мевалардан афзалроқ бажаради”,-деб ёзади аллома. Қон – 4,5-5 литр, Лимфа – 1-2 литр, Ўт қопи суюқлиги – сариқ сафро, талоқ ишлаб чиқарадиган суюқлик-қора сафро. Ибн Сино томонидан тамал тоши қўйилган тиб соҳалари қуйидагилар:

1. Анатомиа;
2. Паталогик анатомиа;
3. Геронтологи
4. Фтизиопульмонология;
5. Гематология;
6. Фармокология;
7. Диагностика;

Ибн Сино фикрича, “инсоннинг ақлий камолоти қирқ ёшдан ошгандан сўнг шакллана бошлайди, жисмоний етукликка эса у 25 ёшларда эриша бошлайди. Улуғ мутафаккир қани ёш умрини “суриш” имкони бўлса-ю, 25 ёшли жисмоний навқирон танага қариликка кириш босқичидаги инсон ақлини “жойлаштиради” деб йилларни суриш” ғоясини илгари суради.

Ибн Синонинг илмий меросини шартли равишда 4 қисмга, яъни фалсафий, табиий, адабий ва тиббий соҳаларга бўлиш мумкин, олим шуларнинг ҳар бирида чуқур из қолдирган. Лекин Ибн Сино асарларининг миқдорий нисбатига назар солсак,

¹ O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. III jild. T.: Davlat ilmiy nashriyoti. – 2002. 28-b.

олимнинг қизиқиш ва эътибори кўпроқ фалсафа ва тибга қаратилганини кўрамыз. Гарчи, уни “Авиценна” сифатида Ғарбда машҳур қилган унинг тиббий мероси, хусусан, “Тиб қонунлари” бўлсада, “Шайх-ар-раис” номи, энг аввал, унинг буюк файласуфлигига ишорадир¹.

Ибн Сино ўткир диагност эди. унинг баъзи ташҳис усуллари ҳозир ҳам ўз аҳамиятини йўқотмаган.² Ибн Сино меросини 450 дан ортиқ асарлар ташкил этади. Шулардан бизгача 160 тага яқини етиб келган.

Абу Али ибн Сино Марказий Осиё, хусусан Ўзбекистон халқлари маданиятини дунё миқёсида кўтаришга улкан ҳисса қўшган буюк олим. ЮНЕСКО қарорига биноан унинг 1000 йиллик юбилеи 1980 йилда дунё миқёсида кенг нишонланди.³ Агар муҳаддислар султони бўлмиш Имом ал Бухорийнинг “Ал-Жоме ас-Саҳиҳ” (ислом таълимотида Қуръондан кейин, иккинчи ўринда турадиган муҳим манба сифатида баҳоланади) асари Қуръондан кейинги ўринда турадиган бўлса, Ибн Синонинг “Тиб қонунлари” Инжилдан кейинги ўринда турадиган муқаддас тиббий китоб сифатида эътироф этилади. Бу эса ўз навбатида Ғарб ва Шарқ оламида бу буюк аллома ва унинг бебаҳо китобига нақадар юксак баҳо берилишидан далолатдир.

Хулоса сифатида шуни айтиш жоизки, Ибн Синонинг “Тиб қонунлари” асари ҳозирги кунга қадар ҳам Ғарб ва Шарқ тиббиёт оламининг асосий негизи сифатида эътироф этилади. Ибн Синонинг илмий меросини ўрганиш ишлари ҳозирги кунга келиб жадал тус олди ва натижада чет эл ҳамда Ўзбекистонда махсус илмий йўналиш - синошунослик вужудга келди. “Тиб қонунлари”нинг лотинча таржимаси тўлиқ ҳолда қирқ марта нашр этилди. Унинг айрим қисмлари немис, инглиз ва франсуз тилларига таржима қилинди. Ибн Сино асарларини жаҳоннинг турли кутубхоналарида қўлёзма сифатида сақланиб келинаётгани барчамизга маълум. Ибн Синонинг жуда кўп асарларининг аниқ таржималари ҳануз фанга маълум эмас. Шу сабабли ушбу алломанинг порлоқ ҳаёт йўли ва ноёб дурдона асарларини ўрганишга бўлган эҳтиёж кундан кунга ортиб бормоқда. Ибн Синонинг табиий фанларга бўлган қизиқиши ва уларни ўрганишга бўлган ҳаракати юксак даражада бўлди. Бироқ Ибн Синони жаҳонга машҳур қилган асари “Тиб қонунлари”дир. Нега деганда ушбу асар жуда ҳам мукамал бўлиб, унда асосан тиббиётга оид бўлган барча кўрсатмалар келтириб ўтилган. Шунинг учун ҳам ушбу асар ҳозиргача ўз аҳамиятини йўқотган эмас. Аниқроқ қилиб айтадиган бўлсам, бу асарнинг “қонун” деб номланиши ҳам бежиз эмас. Ибн Сино тиббиётни чинакам ва ҳаққоний қонунини яратиб кетди десам менимча муболаға бўлмайди. Гарчи ҳозирги даврга келиб тиббиёт соҳаси жадал суратларда ривожлансада, бироқ айрим хатоликлардан ҳоли эмас, шунинг учун ҳам Ибн Сино яратган “Қонун” асарига асосланишини ҳамда ундан келиб чиққан ҳолда инсонларнинг саломатлиги учун тўғри ташҳис қўйиш кераклигини таъкидлаб ўтмоқчиман. Зеро саломатлик умр гаровидир.

¹ O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. IV jild. T.: Davlat ilmiy nashriyoti. 2002. – 55-b.

² O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. IV jild. T.: Davlat ilmiy nashriyoti. 2002. – 57-b.

³ Ayupov O. Dunyo, siyosat, jamiyat (6). Guliston: Ziyo nashriyoti. 2015. – 103-b.

“TAYXORYO” VA “TAYXORITSURYO” QONUNLAR TO‘PLAMI YAPONIYA TARIXI MANBASI SIFATIDA

Shodmonov Bahrom
ToshDSHI 4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: s.f.d. prof. Idivov U.

Ma’lumki, yozma manbalar moddiy manbalarga nisbatan tarixda eng ko‘p foydalaniladigan manbalar sirasiga kiradi. Chunki ma’lum xronologik davrga oid tarixiy voqea-hodisalarni xuddi shu davrda yaratilgan yozma manbalardek hech qaysi moddiy manba ochib berolmaydi. Manbalar yozma shaklda bo‘lgani uchun ham bizga bir vaqtning o‘zida bir qancha ma’lumotlar beradi. Boshqa moddiy manbalar esa bunday xususiyatga ega emas. Masalan, ma’lum bir qoyatosh tasvirini oladigan bo‘lsak, unda faqat qadimgi odamlarning mashg‘ulotlari, hayot tarzi haqida ma’lumotlar berilishi mumkin. Shuning uchun ham moddiy manbalarining tarixiy voqelikdan axborot berish imkoniyati chegaralangan. Yozma manbalarda esa mamlakatlar va xalqlar tarixining barcha jihatlarini qayd etib o‘tilishi mumkin. Xuddi shunday Yaponiya tarixini o‘rganishda ham uning tarixiy manbalaridan foydalanish zarurati tug‘iladi. Umuman olganda, manbashunoslik tarixga yordamchi fan hisoblanadi. Shu boisdan tarixning yaratilishida manbashunoslik bergan ma’lumotlar alohida o‘rin egallaydi. Tarixiy manbalar ma’lum davlatning olib borgan siyosati, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayoti haqida bizga guvohlik berishi mumkin. Ba’zi manbalarda aynan qaysidir jihat ustuvor bo‘lsa, ba’zi bir manbalar xalqlar tarixining deyarli barcha jihatlarini haqida to‘la-to‘kis ma’lumot beradi. Yaponiyaning qadimgi davriga oid “Tayxoryo” va “Tayxoritsuryo” qonunlar to‘plami ham xuddi shunday manbalar qatoriga kiradi. Bu manbalarda qadimgi Yaponiyaning ham siyosiy, ham ijtimoiy-iqtisodiy, ham madaniy hayoti to‘g‘risida batafsil to‘xtalib o‘tilgan. Manbalarning qamrovi juda keng. Unda so‘z yuritilgan jihatlar qadimgi Yaponiya tarixini to‘liq qamrab olgan. Birgina ijtimoiy hayot doirasida oladigan bo‘lsak, manbada yerga egalik qilish shakllari, mulkchilik munosabatlari, soliqlar, amaldorlar va zodagonlarga hadya etilgan yerlar va ularning miqdori, oddiy aholining majburiyatlari kabi masalalar yoritilgan. Umuman olganda, ikki manba VIII asrdan toki XIX asrgacha bo‘lgan davrda Yaponiyaning davlat boshqaruvi prinsiplarini belgilab bergan asosiy qonunlar bo‘lib hisoblanadi. Quyida bu manbalarning tarixiy ahamiyati va mazmunini ochib berishga harakat qilamiz.

“Tayxoryo” qonunlar to‘plami Yaponiyaning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotiga bag‘ishlangan qonun aktlari hisoblanadi. Bungacha bunchalik to‘liq hajmdagi qonunlar majmui tuzilmagan edi. Tayxoryo qonunlar majmui 702-yilda tuzilgan. Majmuada qonunchilikning to‘liq tizimi o‘z aksini topgan. Majmuaning asosiy maqsadi esa monarxiyaga asoslangan markaziy davlatni va aristoratiya jamiyatini qonuniylashtirish edi. Bu to‘plam asosida amalga oshirilgan islohotlar natijasida Yaponiyada ilk feodal jamiyat qaror topdi. Islohotlar amalga oshirilishi ijobiy natija bilan yakunlandi.

“Tayxoryo” qonunlar to‘plami bizning davrimizgacha yetib kelgan yagona mukammal majmua hisoblanadi. Hujjatning nomiga keladigan bo‘lsak, Tayxo so‘zi imperator Mommuning birinchi hukmronlik yillari (701-703) nomi hisoblanadi. Ryo so‘zi esa fuqarolik qonunlari degan ma’noni anglatadi. Asarning rus tiliga qilingan tarjimasida boshqa tillarga nisbatan bizga ko‘proq ma’lumot beradi. Buning asosiy sababi tarjimada fuqarolik qonunlari bilan

birgalikda yer, oila va iqtisodiy hayotga tegishli bo'lgan qonunlarning ham berilgani hisoblanadi. Hujjatning to'liq haqiqiy nusxasi bizgacha yetib kelmagan bo'lsmada, Meydzi davrigacha bu qonunlar ba'zi bir o'zgarishlar bilan amal qildi. Hujjatning turli xil nusxalari esa turli yillarda ko'chirilgan. Bunday nusxalarning qatoriga quyidagilarni misol qilishimiz mumkin. Kyovara Natsuro (782-837) tomonidan 833-yilda ko'chirilgan "Ryono gige" nomli nusxa, Koremune Naomoto (859-930) tomonidan ko'chirilgan "Ryono syuge" nomli nusxa, Itidzyo Kanera (1402-1482) tomonidan ko'chirilgan "Ryono syo" nomli nusxalarning nusxalari bizgacha yetib kelgan. Ularning ko'pchiligi Tokugava syogunligi davrida ko'chirilgan.

Yapon tarixchilari tomonidan "Tayxo" qonunlar to'plamiga oid bir qator ilmiy ishlar qilingan. Masalan, Kondo Yosiki "Xyoty Ryono gige koxon" ya'ni "Ryono Gigening izohlar bilan qayta ko'rib chiqilgan matni" deb atalgan bir qator ilmiy ishlarini ko'rsatishimiz mumkin. Uning ilmiy ishlarining o'ziga xos jihati shundaki, yapon qonunlar majmuiga izohlar orqali aniq tushuntirishlar berilgan. Hujjatning eski yapon yozuvida yozilganligini hisobga olsak, bu hujjatni yanada chuqurroq o'rganmoqchi bo'lgan keyingi mualliflarga nihoyatda qo'l kelaveradi. Bundan tashqari, muallifning o'zi tarixchi bo'lganligi sababli, hujjatdagi tarixiy atamalar va arxaik so'zlar zamonaviy yapon tilida tarixiy-qiyosiy usulda berib borilgan.

Takigava Masadziro ham ushbu sohaga bag'ishlangan kitob muallifi hisoblanadi¹. Uning kitobi "Ritsuryo kenkyu" ya'ni "Ritsuryo qonunlari bo'yicha" tadqiqot deb nomlanadi. Asarda fuqarolik va iqtisodiy qonunlarga tegishli moddalar va bo'limlar alohida ajratilib o'rganilgan va izohlar bilan berib borilgan.

Sogabe Sidzuo ham "Tayxoryo" qonunlar to'plami bo'yicha kitob chop ettirgan. Bu kitob "Nittyu Ritsuryon" ya'ni "Qadimgi Xitoy va Yaponiya qonunlari haqida"² deb nomlangan. Asar ushbu sohadagi ishlarning eng mukammal namunasi desak xato bo'lmaydi. Chunki, asarda qadimgi yapon va xitoy qonunlari, ularning asl shakllari va tuzilishi, mazmuni hamda amal qilish sohalari o'rganib chiqilgan. Bundan tashqari, xitoy va yapon qonunlari, shu jumladan, "Tayxoryo" qonunlar to'plamining ham xitoy qonunlaridan farqli jihatlari va ularning bir-biriga mos bo'lgan jihatlari ochib berilgan.

Hozirgacha hujjatning rus tilidan boshqa yevropa tillariga tarjima qilingan tarjimalari mavjud emas. Bundan tashqari, hujjatning o'rganilishiga aloqador maxsus ishlar ham qilinmagan. Faqatgina X.Detmer, V.Morton, G.Sensomi kabi yevropalik tarixchilarning asarlarida "Tayxoryo" qonunlari tilga olib o'tilgan xolos.

Rus tiliga qonunlar to'plamining ikki qismi - "Ijaraga berilgan yerlar haqida qonunlar" va "Shikoyat qilish haqidagi qonunlar" akademik N.I.Konrad tomonidan tarjima qilingan va shu mavzudagi "Yaponiyadagi yerlarni ijaraga berish tizimi" deb nomlangan maqolada kiritilgan. Maqolaning ustun jihati shundan iborat ediki, olim qonunlarda uchraydigan yuridik terminlarni rus tilidagi bir necha ekivalentlari bilan berib boradi. Bu esa hujjatni tushunilishi osonlashtirgan. Lekin, rus tilidagi eng to'liq namunani ham yapon olimlari amalga oshirishgan. Bu boradagi eng yirik ish yapon filolog olimi K.Katsumi (1874-1946) tomonidan amalga oshirilgan. Uning kitobi bir necha tomndan iborat. Kitob 1939-yilda yozib tugatilgan. Muallifning ta'kidlashicha u tarjima uchun asosiy material sifatida "Tayxoryo" ning nusxasi bo'lgan "Ryono gige" ning mashhur yapon tarixchi va filologi Xanava Xokiti (1746-1821) tomonidan

¹Такигава Масадзиро. «Рицурё кэнкю» (Исследование древних законов). –Т: Nihon daigaku.1934.

²Согабэ Сидзуо (Очерк древнего права Японии и Китая). Токио, 1963.

“Yaponiya tarixi” nomli katta hajmli kitobning 12-tomida nashr qilingan zamonaviy yapon tilidagi tarjimasidan foydalangan. Soʻziga qoʻshimcha qilib, Kurabati Xanava tomonidan nashr qilingan kitobda qonunlar toʻplamining turli xil yapon kutubxonalarida mavjud boʻlgan 12 toʻliq va toʻliq boʻlmagan nusxalarini toʻliq oʻrganib chiqib, tahlil qilganini yozadi.

Manbaning tarixiy ahamiyati va mazmuni bilan tanishadigan boʻlsak, qonunlar toʻplami hajmi jihatdan yapon manbalari ichida katta manbalardan hisoblanadi. Toʻplam 30 ta qismdan iborat boʻlib, har bir qism alohida moddalarga ajratib chiqilgan. Baʼzi bir qismda yuzdan ortiq moddalar mavjud, shu boisdan kichkina tadqiqot ishida toʻplamning toʻliq tarjimasini sigʻdirishning imkoni mavjud emas. Bundan tashqari asarning koʻplab qismlari davlat mansablari, ularni egallab turuvchi amaldorlar, ularning darajalari, yordamchilar, kichik mansabdorlarga va ularning bajaradigan vazifalariga bagʻishlangan.

1-qism. Davlat mansablari va ularning darajalari. Ushbu qism 19 moddadan iborat. 1-modda “Katta shahzodalar” deb nomlangan. Bunday lavozimdagi mansabdorlar toʻrt toifaga ajratilgan. Birinchi toifaga katta davlat vaziri, ikkinchi toifaga oʻng va chap vazirlar, uchinchi va toʻrtinchi toifaga esa bosh davlat maslahatchisi, viloyatlar harbiy gubernatorlari, sakkizta vazirliklar vazirlari kirishgan. 2-moddada kichik shahzodalar va vassallar haqida. Qolgan 17 modda esa kichik va katta sakkiz darajaga kiruvchi amaldorlar haqida birinchi katta va kichik darajaga zodagonlar (lavozimsiz) va bosh vazir, ikkinchi katta va kichik darajaga hukmdorning maxsus amaldorlari va oʻng va chap vazirlar, uchinchi katta va kichik darajaga davlat bosh maslahatchisi, Saykaydo viloyatining harbiy gubernatori¹, toʻrtinchi katta va kichik darajaga taxt vorislari saroyi rahbari, markaziy ishlar vaziri va sensorlar palatasi rahbari², chap va oʻng katta boshqaruvchilar, beshinchi katta darajaga chap va oʻng oʻrta boshqaruvchilar, Saykaydo harbiy gubernatorining yordamchisi, markaziy ishlar vazirining katta yordamchisi, poytaxt boshqaruvi chap va oʻng rahbarlari, qirol oilasi katta dasturxonchisi, Setsu viloyatining³ podsho tomonidan tayinlangan rahbari, saroy tashqi qoʻriqlash xizmatining rahbari, saroyning ichki qoʻriqlash xizmati chap va oʻng rahbarlari; kichik darajaga markaziy ishlar vaziri kichik yordamchisi, oxotoneri boshqarmasi chap va oʻng boshliqlari⁴, davlat oliy maktablari direktori va boshqa iqtisodiy lavozim egalari, oltinchi katta darajaga Dzingikan boshligʻi kichik yordamchisi⁵, saroy katta kotibi, katta saroy iqtisodchisi, kavaleriya taʼmirlash xizmati boshligʻi, toʻpchilar qismining rahbari, temirchilar boshqarmasi boshligʻi, saroy bogʻlari va hovuzlari boshligʻi va boshqa amaldorlar; kichik darajaga: Dadzayfu kichik inspektori⁶, davlat xazinasiga javobgar boshqa kichik mansabdorlar, saroy oshxonasi rahbari yordamchisi, astrologik boshqarmasi rahbari oʻrinbosari, dorixonalar boshqaruvchisi yordamchisi va boshqalar, yettinchi katta darajaga saroyning oʻrta kotibi, Dadzayfu katta kotibi va kichik sudyasi, Sensorlar palatasi katta kotibi va boshqalar; kichkina darajaga davlat maslahatchisi kotibi, davlat oliy maktablari rahbari kotibi va boshqa kotiblar, sakkizinchi katta darajaga

¹ Saykaydo tarixiy-geografik hudud boʻlib, yettita viloyatni oʻz ichiga olgan, maʼmuriy va strategik jihatdan muhim ahamiyatga ega boʻlgan. Bundan tashqari, hudud boshqa hududlar bilan quruqlik tarafidan bogʻlanmagan.

² Hozirgi bosh prokuraturaga oʻxshab ketadigan davlat organi. U faqat hukmdorva davlat kengashi boshligʻiga boʻysungan

³ Saykaido maʼmuriy birligiga kirgan tarixiy viloyat

⁴ Mavqei jihatdan chap boshliqlar birinchi, oʻng boshliqlar ikkinchi oʻrinda turishgan

⁵ Sintoilylik dini qadriyatlarini va milliy anʼanalarni saqlanishiga javobgar davlat organi. Soʻzma-soʻz tarjima qilsak, “yer va osmon xudolari ishlari boʻlimi” degan maʼnoni anglatadi.

⁶ Dadzayfu hududiy birliklar boshqaruvi bilan shugʻullangan organ.

turli xil idoralarning kichik kotiblari va ustalari; kichik darajaga turli xil idoralarning kichik xattotlari kirishgan.

Manbaning eng muhim qismi ana shu qism hisoblanadi. Chunki unda qadimgi Yaponiya tarixi hukmdori saroyi va davlat tuzilishi haqida batafsil to'xtalib o'tilgan. Manbaning qolgan qismlarida sintoizm va buddizm ibodatxonalari va ularning xodimlari, soliqlar, oddiy xalq va ularning majburiyatlari, nikoh munosabatlari, qullarga bo'lgan munosabat, Yaponiyaning ma'muriy birliklari, davlat maktablari, qurolli kuchlar va harbiy qismlar haqida. Bu qismlarning har biri sohalarga tegishli mayda detallargacha yoritilgan.

"Tayxoryo" qonunlar to'plamining mantiqiy davomi sifatida "Tayxoritsuryo" qonunlar to'plami "Tayxoryo" qonunlar to'plamining jinoyat kodeksi hisoblanadi desak adashmagan bo'lamiz. Unda birinchi qonunlar to'plamida keltirilgan ko'pgina holatlar uchun jinoiy jazolar belgilanib qo'yilgan. Bu manbaning zamonaviy yapon tiliga tarjima qilinishi Inoue Mitsusada, Seki Akira, Tsutida Naosige, Aoki Kadzuo kabi tarixchi olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Lekin asar to'liq holatda bizning davrimizgacha yetib kelmagan. Mualliflar guruhining fikricha, qonunlar to'plami Tan imperiyasi jinoyat kodeksining ko'chirmasi hisoblanadi.

Rus tiliga "Tayxoritsuryo" "Tayxoryo" ni tarjima qilgan olimlar tomonidan tarjima qilingan, biroq eng to'liq namuna K.A.Popov tomonidan amalga oshirilgan. Qonunlar to'plami 12 qismdan iborat bo'lsada, uning faqat 5 ta qismigina saqlanib qolgan. Ular; birinchi, ikkinchi, uchinchi, yettinchi va sakkizinchi qismlar hisoblanadi. Shu sababdan ham ushbu besh qismning mazmuni bilan tanishib chiqamiz.

Jinoyat kodeksining birinchi qismi jinoiy jazolar haqida. Bu qism 7 ta modddan iborat. Undan jinoiy jazolarning quyidagi turlari qayd etilgan. Ular: xivchin bilan urish, kaltak bilan jazolash, katorga, surgun, o'lim jazosi.

Xivchin bilan urish jazoga qarab 10 martadan 50 martagacha belgilangan. Kaltak bilan jazolash 60 martadan 100 martagacha belgilangan. Katorga jinoyat og'irligiga qarab 1 yildan 3 yilgacha belgilangan. Surgun qisqa, o'rta va uzoq masofalarga belgilangan. O'lim jazosi esa osish va qatl qilishdan iborat qilib belgilangan. Qismda shuning eng og'ir sakkiz jinoyat sanab o'tilgan. Ular quyidagilar: isyon ko'tarish, davlat turar-joylarini, shaharlarini vayron qilish, davlatga xiyonat, yaqin qarindoshlarini o'ldirish, axloqsiz harakatlar (bu o'rinda insonni qattiq qiynab, to'rtga bo'lib o'ldirish, zahar tayyorlash va saqlash, sehrgarlik bilan shug'ullanish), buyuk odobsizlik (ibodatxonalarni vayron qilish, yomon oqibatlariga olib keladigan dorilar tayyorlash, davlat muhrini soxtalashtirish yoki o'g'irlash), burchlarning buzilishi (bu o'rinda o'z xojasini o'ldirish, davlat amaldorlarini, viloyat hokimlarini, eri yoki xotinini o'ldirish).

Kodeksning ikkinchi qismi imperator saroyi qo'riqlanishiga oid tartiblarining buzilishi haqida. Unda turli xil holatlar bo'yicha jazolar keltirib o'tilgan. 33 modddan iborat qismning 1-16 moddalari, 22, 30 va 31-moddalari bizgacha yetib kelmagan. Moddalarda gap postdan ketib qolish, navbatchilikka kelmaslik yoki o'z ixtiyori bilan undan ketib qolish kabi masalalar xususida boradi. Bu holatlarga mos ravishda jazolar belgilanib borilgan. Masalan, hukmdor kelgan vaqtda safni buzgan harbiy 100 martagacha kaltaklanishi yoki hukmdor yo'lga qoramol chiqib ketsa aybdor 70 marta kaltaklanishi belgilangan. Bu qismdan biz tarixiy jazo turlarini bilib olishimiz mumkin. Jazolarning qattiqligidan, jamiyatda tartibni

saqlab turishga katta e'tibor berilganini bilishimiz mumkin. Bunga asosiy sababi aristokratiya jamiyatining hukmron mavqeni saqlab qolishga urinish hisoblanadi. Chunki qonunlar to'plami yaratilgan bu davrda Yaponiyada aristokratiya hukmronligi qonunan amalga oshmoqda edi. Oddiy aholi esa bu jarayondan norozi edi. Shu boisdan ham tartibsizliklarning oldini olish maqsadida qattiq jazolar tizimi yaratilgan. Oddiy qoidabuzarlik uchun ham tan jarohati yetkazuvchi jazolar tayinlangan.

Asarning keyingi uchinchi qismi ma'muriy huquqbuzarliklarda qo'llaniladigan jazolar haqida. Bunday jazolar tizimi "sikiseiritsu" deb atalgan. 59 moddadan iborat qismning 3,11,25 moddalaridan boshqa barcha moddalari saqlanib qolgan. Ularda asosan ma'muriy holatlar tilga olingan. Amaldorlarni noto'g'ri tayinlash, ularning o'z vazifalarini noto'g'ri bajarishi, mehnat intizomini buzishlari kabi masalalar bayon qilingan. Agar rahbarlar xodimlarni noto'g'ri ishga qabul qilsa, ya'ni mos bo'lmagan xodimni ishga olsa, 100 marta kaltaklanishi belgilangan. Bundan tashqari xodimlarni noto'g'ri tavsiya qilinganda javobga 80 marta urib jazolangan. Ishga kechikib kelish ham eng yomon qoidabuzarliklardan hisoblangan. Har bir ishga kech qolingun kun uchun 10 darradan urilgan. Agar ishga kelmaslik jinoyatga olib boradigan bo'lsa unda 1 yilgacha katorga qo'llaniladi. Hozirgi kunda ham yapon ishchilari o'zlarining mehnat intizomi bilan dunyo hamjamiyatini lol qoldirib kelishmoqda. Bu xarakterning tarixiy ildizlari esa shu qonunda belgilab qo'yilgan tamoyillarda o'z aksini topgan.

Mavzuni o'rganish jarayonida quyidagi xulosalarga keldik:

Birinchidan, ikki manba Yaponiya tarixining qadimgi va o'rta asrlarga o'tish bosqichi haqida bir qancha ma'lumotlar beradi. Bu ma'lumotlardan Yaponiyada o'rta asrlarda ham qulchilik saqlanib qolganini, aristokratiya jamiyati qonuniylashtirilganini, konfutsiylik an'analari siyosatga ham ijtimoiy hayotga ham katta ta'sir qilganini, jinoyat uchun og'ir jazo belgilanganligini bilishimiz mumkin.

Ikkinchidan, ikkala qonun hujjati ham u yoki bu tomondan Yaponiya iqtisodiy va siyosiy rivojlanishiga katta turtki bo'ldi. Qonun hujjatlari barcha davlat tuzilmalarining barqaror ishlashi uchun qonuniy asos yaratib bergan edi. Ularning aksariyat moddalarida aristokratiya jamiyatiga og'machilik kayfiyati sezilsa ham tartiblarning qattiqqo'llik bilan o'rnatilganligi Yaponiyaning keyingi asrlardagi taraqqiyoti uchun asos bo'ldi. Ularda o'rnatilgan tartiblar va qadriyatlar yapon xalqining ongiga singishib ketdi. Birgina mehnat intizomiga qattiq rioya qilishni oladigan bo'lsak, bu an'ana VIII asr boshidagi qonun hujjatida birinchi marta aks etdi, keyinchalik esa hozirgacha saqlanib qoldi. Butun dunyo aholisi yapon ishchisi deganda mehnatsevar, boshlig'ini qattiq hurmat qiladigan, intizomga to'la rioya qiladigan kishilarni ko'z oldiga keltiradi.

Uchinchidan, manbalar Yaponiya tarixi bilan birga uning qishloq xo'jaligi, aholisi, ekinlari, yer shakllari haqida ma'lumot beradi. Ayniqsa, "Tayxoryo" qonunlar to'plamida tarixning yordamchi sohalariga tegishli atamalar va ma'lumotlar ham ko'plab uchraydi. Qonunlar to'plamini o'rganish jarayonida deyarli barcha tarixiy birliklarni uchratish mumkin.

To'rtinchidan, manbalarni o'rganish natijasida Yaponiyaning Xitoy bilan aloqalari keng rivojlangan degan xulosaga keldik. Bu borada o'sha davrda Xitoyda hukm surgan Tan imperiyasi yetakchi rol o'ynagan. Qonun hujjatlari Tan imperiyasi jinoyat va fuqarolik kodekslariga ko'p jihatdan o'xshaydi. Buni quyidagicha izohlash mumkin. Demak, Yaponiya hukm-

ron tabaqalari davlat boshqaruvining barqaror tizimini o'rnatishda Xitoy tajribalaridan foydalanishgan. Bunga asosiy ta'sir etuvchi omil esa e'tiqodning umumiyligi bo'lgan. Chunki, Tan imperiyasi davrida konfutsiychilik bilan birga buddaviylik dini ham davlat dini darajasiga ko'tarilgan. Aynan shu sababdan ham Yaponiyaga ikki e'tiqodning aralash holdagi ijobiy qadriyatlaridan samarali foydalandi. Xitoy bilan xalqaro aloqalar kuchligini manbalarning qadimgi Xitoy ierogliflarida yozilganli ham isbotlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Рицурё (Древниеуголовныйигражданскийкодексы); сер. «Нихон сисо тайкэй» (История общественной мысли в Японии; большая серия). -Т.: “Рекиши”.1981.
2. Рё но сё (Извлечение из «Тайхорё»), сост. Итидзё Канэра; переизд, в сер. «Гунсё руйдзю» (Собрание исторических документов). -Т.: “Нихон инкоуя” 1928.
3. Конрад Н. И. Избранные труды. История. М., 1974.
4. Конрад Н. И., ред. Большой японско-русский словарь. Т. 1, 2. М., 1970.
5. Попов К. А. Свод законов «Тайхорё» (702-718 гг.). XVI-XXX законы. Вступительная статья, перевод с древнеяпонского и комментариев. М., 1985.
6. そがべしずお “にっちゅりつりょん” (Qadimgixitoyvayaponqonunlarihaqida). -Т.: “Rekishi”.1963.
7. えんどうよしもと “. にほんこだいしじてん ” (QadimgiYaponiyatarixibo'yichaensklopediklug'at). -Т.: “Nipponpuressu”.1975.
8. こむねなおもと. “りよのしゅげ” (Fuqarolikqonunlarto'plamigaizohlarmajmuasi). -Т.: “Rekishi”. 1981.
9. としみつさつお. “りつりよおよびりよせいのけんきゅ” (Qadimgiqonunlarvahuquqtizimibo'yichaizlanishlar). - Т.: “”1959.
10. きよわるなつの. “りよのぎげ” (“Tayxoryo” sharhi). こくしたいけい (Yaponiyatarixi, kattaturkum).-Т.: Токио даигаку. 1955.

O'RTA ASR ARAB SAYYOHLARI ASARLARIDA MOVOROUNNAHR VA XUROSON SHAHARLARI TAVSIFI

Maxmasobirova Feruza

TIU 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: t.f.d., prof. Agzamxodjayev S.S.

O'rta asrda Movarounnahr va Xuroson hududi, undagi shaharlarm aholisi va turmush tarzi haqidagi qimmatli ma'lumotlarni beruvchi asarlar jumlasiga shu hududlarga tashrif buyurgan arab sayyohlarining asarlarini ham keltirib o'tish mumkin. Bu asarlarni o'rganish asnosid, Movoraunnahr va Xurosonning bu davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayoti haqida tasavvurga ega bo'lish mumkin. Xususan, mashhur arab sayyohi ibn Battutaning “Tuxfa-tan-nuzzorfi g'aroyibal – amsor va ajoyibal - afsor” (G'aroyib shaharlar va ajoyib safarlar haqida nazar sohiblaridan tuxfa”) asarida ham Movarounnahr haqida ma'lumotlar majud. Sayyohning to'liq ismi Shamsiddin Abu Abdulloh Muhammad ibn Abdulloh ibn Muhammad ibn Ibrohim ibn Yususfal-Lavatiyat Tanjiy bo'lib, u 703-yilda (mil.1304) Tanjada tavallud

topgan¹. Ibn Battutaning ushbu asari qisqacha “Sayohatnoma” deb ham ataladi. Ushbu asarning to‘qqizinchi bobi O‘rta Osiyo deb nomlanib, bu bobda O‘rta Osiyo hududidagi davlatlar, sultonlar va malikalar, shaharlar, ularning aholisi haqida ma‘lumotlar mavjud. Xorazm shahrini, sayyoh, turklarning katta, muhim, ulug‘vor shahri deb ataydi. Shaharning ajoyib bozorlari, keng ko‘chalari, juda ko‘p imoratlari hamda jozibador, ko‘rkam joylari bor. Shaharda hayot qaynaydi, aholisi shunchalik ko‘pki, mavjlanib turgan dengizni eslatadi², deb yozadi sayyoh. Ibn Battutaning ushbu ma‘lumotlaridan bizga ma‘lum bo‘ladiki, qadimiy tarixga ega bo‘lgan Xorazm shahri o‘rta asrlarda ham o‘zining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini yo‘qotmagan va bu shaharda doimo aholi gavjum va ko‘p bo‘lgan. Xorazmning geografik hududi va iqlimi haqida to‘xtalib o‘tar ekan, ibn Battuta bu hududdan oqib o‘tuvchi Jayhun daryosini jannatdan boshlanadigan to‘rt daryodan biri deb ta‘riflaydi. Shuningdek, yoz kunlarida ushbu daryoda kemalar Termizgacha suzib, u yerdan suli va bug‘doy olib kelishi aytilgan. Sayyoh o‘z asarida kemada bu ish uchun 10 kun ketishini aytib o‘tadi. Xorazm shahriga ta‘rif berar ekan, shuningdek ushbu shahardagi masjidning ko‘rkamligi va go‘zalligini, bu hududda faqir-u ulamolar ko‘p ekanligini ham bayon etadi. Shuni aytib o‘tish mumkinki, Xorazm shahri va uning tavsifi haqida Ibn Battutadan avval ham arab geograflari va sayyohlari asarlarida ko‘plab ma‘lumotlar uchraydi. Jumladan, IX asarda yashab ijod etgan geograf Ibn Xurdodbeh o‘zining “Kitob al masolik va-l mamolik” (Yo‘llar va mamlakatlar haqida kitob) asarida ham Xorazm haqida to‘xtalib o‘tadi. Muallif asli Eronlik bo‘lib, oliy martabali xonadonga mansub edi. Otasi Tabariston hokimi bo‘lgan, o‘zi esa Daylam viloyatini bo‘ysundirib, Abbosiy xalifasining hurmatini qozonadi. Abulqosim Ubaydulloh Xurodbeh tarix, geografiyaga oid 20 dan ortiq asar yozgani ma‘lumdir. “Kitob al masolik va-l mamolik” asarida Abbosiylar qo‘l ostida bo‘lgan shaharlar, ularning aholisi, soliq tizimi, ijtimoiy hayoti haqida ma‘lumotlar uchraydi. Muallif o‘z asarida Xorazm hududidan Jayhun daryozining oqib o‘tishini keltirib o‘tadi. Xorazmshoh unvoni, Xorazmdan hamda Kurdakdan olinadigan soliq haqida ma‘lumot beradi hamda o‘z kitobida Xuroson viloyatlari hamda chegara viloyatlari haqida to‘xtalib o‘tib, Xorazmni esga oladi. Yana bir arab geografi, IX-X asrda yashab ijod qilgan Ibn al-Faqih Xamadoniyning “Kitob al-buldon” (“Mamlakatlar tarixi”) asarida ham Xorazm shahri haqida keng ma‘lumotlar berilgan. Ushbu asarning o‘zi to‘li holda saqlanib qolmagan bo‘lsada, XI asrda yashagan Ali Ash-Shayzariy tomonidan qisqartirilgan shaklda beriladi. Mana shu qisqartirilgan qismni fransuz olimi De Gue tarjima qilgan hamda “Arab geograflari kutubxonasi” ruknida chop ettirgan³. Keyinchalik Mashhadda ushbu asarning to‘liqroq XIII asrga oid nusxasi ham topilgan. Ibn al-Faqih o‘z asarida Xorazm shahrini tasvirlar ekan, uning mo‘ynalari dunyoga dong‘i ketganligini aytadi. Shuningdek, asarda Xorazm shahrida saqlanib qolgan otashparastlar haqida ham ma‘lumotlar beriladi. Xorazm xalqining jonkuyar va mehnatkash bo‘lganligi haqidagi ma‘lumotlar ushbu uchchala asarda ham uchraydi. Umuman olganda, ushbu sayyohlarning Xorazm shahriga bergan ta‘rifidan shunisi ma‘lumki, o‘rta asrlarda ham ushbu shahar ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan muhim bo‘lgan, ko‘p sonli aholiga ega bo‘lgan yirik shaharlardan bo‘lgan. XII-XIII asrda yashagan yana bir arab geografi Shihobiddin Abu Abdulloh ibn Abdulloh al Hamaviy yoki qisqa tarzda Yoqut Xamaviyning “Mu‘jam al-buldon” (Mamlakatlar lug‘ati) asarida ham O‘rta osiyo haqida

¹N.Ibrohimov. Ibn Battuta va uning O‘rta Osiyoga sayohati. T.: Sharq bayozi, 1993. –B-11

²Ibn Battuta. Sayohatnoma. T.: Sharq, 2012. –B. 359

³Krachkovskiy I.Y. Arabskaya geograficheskaya literatura. 1957. –B-261

ko'plab ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, yuqorida qayd etilgan Xorazm shahri haqida quyidagi ma'lumotlar keltirib o'tiladi: "Jurjoniya- Xorazm markazining nomi. Jayhin daryosi bo'yidagi katta shahar, Xorazm aholisi hududni o'z tilida Gurganj deb ataydi. Arab talaffuzida esa bu nom Jurjoniya. Jurjoniyani 616-yilda mo'gullar uni egallashidan oldin va vayron bo'lishidan oldin ko'rdim. Shaharni bundanda go'zal holatda, katta boylik va ajoyib holatda ko'rganimni eslolmayman. Menga yetib kelgan xabarlarga kora mo'gullar bosiqinidan so'ng ushbu shahar vayron qilingan, aholisi o'ldirilgan va shahardan asar ham qolmagan". Xamaviy o'z asarida al-Maqdisiydan keltirilgan afsonani ham yozadi: "Xorazm aholisida kuch va qudrat bor. Ular bu hududda qal'a va uylar qurdilar va boyidilar. Qishloqlar va shaharlar qurdilar hamda o'zlarining qo'shnilari Xurosonga ham mashhur bo'ldilar. Va ular ham Xorazm hududiga ko'chib kela boshladilar. Ular, ya'ni Xorazm aholisi bundan yanada ko'paydi va mashhur bo'ldi". Shuningdek, asarda boshqa arab tarixchilarinign asarlaridan ham keng foydalanilgan va Xorazmda, shahar-u qishloqlarning har birida bozorlar borligini, qish oyi bu hududlarda juda sovuq ekanligini, Jayhun daryosi qishda qattiq muzlashi va sayyoh o'z ko'zi bilan ushbu muzalagan daryo ustida karvonlar yurayotganini ko'rganini yozadi. Xorazm shahridagi uylar fundamentga ega emas, ular buning o'rniga yengil yogochdan foydalanadilar va uni quyoshda quritilgan g'isht bilan mustahkamlashlari haqida ham to'xtalib o'tadi¹. Yoqut Xamaviy o'z asarida Al-Beruniy, Al-Maqdisiy, Ibn Fadlan, as-Sam'oniyy yaratgan asarlardan ham keng foydalangan va o'z fikrlarini berib o'tgan. Muallif asarida boshqa shaharlar haqida ham ma'lumotlar mavjud. Jumladan Marv shahrini Xamaviy maqtab tasvirlaydi va agar mo'gullar ushbu hududlarga bostirib kirmaganda aslo bu hududlardan ketgisi kelmaganini ham ta'kidlaydi. Marva foydalaniladigan 10 ta kutubxona borligini, "Mujam al-buldon" asarini yozishda aynan shu kutubxonalaridagi kitoblardan foydalanganligini muallif bayon etgan. Shahar haqida asarda quyidagi ma'lumotlar uchraydi: "Marv havosi toza, chiroyli bog' rog'lari, sayroqi qushlari, xushbo'y gullari va ularni serob qilib turadigan yomg'irlari bilan jannatga o'xshaydi. U yerdagi olimlarning asarlari butun dunyoga taraladi, binobarin u yerlik olimlarni butun dunyo taniydi".

Yana bir O'rta Osiyo tarixini yoritib beruvchi muhim manbalardan biri "Kitob al ansob" hisoblanadi. Ushbu asarning muallifi Abu Sa'd Abdulkarim ibn Muhammad as-Sam'oniyy al-Marvaziy hisoblanadi. Ushbu asar "Ansobi Sam'oniyy" ham deb yuritiladi va yuqorida ta'kidlangandek, Yoqut Xamaviy ham o'z asarida "Kitob al-ansob"dan keng foydalangan².

Ushbu asarning tarixiy ahamiyati shundaki, asarda qimmatli geografik, etnografik ma'lumotlar keltirilgan, Eron va Movarounnahr shaharlariga, geografik nomlariga alohida toxtalib o'tilgan. Asarda Buxoro shahri va uning hududi haqida ham ma'lumotlar mavjud. Buxoro O'rta asrlarda O'rta Osiyoning ulkan siyosiy va madaniy markazlaridan biri bo'lganligi, X asrda esa Somoniylar davlatining poytaxti bo'lganligi haqida aytib o'tadi. Samoniyning o'zi bir necha bor Buxoroda bo'lgan va shaharning o'zi haqida, qal'alari haqida ham yetarlicha ma'lumotga ega bolgan. Sam'oniyy o'z asarida Buxorodagi 20 ta toponimlarni sanab keltirib o'tadi hamda Buxoro yaqinidagi katta bir shahar Boykand (Poykand) haqida to'xtalar ekan, Buxoroga kelguncha bu shahar vayron bo'lgani va u yerda sarkardalarning uch ming rabotlari bo'lib, ularning qoldiqlarini o'z ko'zi bilan korganligi, hozirda bu hududlarda

¹ М. Айдогдыева., М.А. Мамедов, Р.Г.Мурадов. Средневековые письменные источники о Древнем Ургенчи. Ашхабад, 2000 г.

² Н.Хасанов. Sayyoh olimlar. Т.: O'zbekiston, 1981

ba'zi bir turkman qabilallari istiqomat qilishini aytib o'tadi. Istaxriy ma'lumotlariga tayanib esa, bu hududda katta qal'a, masjid hamda Movarounnahrda eg chiroyli mirxab (altar) borligini aytib o'tadi. Shu tariqa Sam'oniy "Al-Absob"da har bir shahar haqida qimmatli ma'lumotlarni berib o'tadi. Jumladan, asarda Marv, Xorazm, Amudaryo boyidagi shaharlar, Buxoro, Samarqand, Ustrushona, Nasaf, Kesh, Shosh va Iloq, Farg'ona kabi shaharlar, undagi toponomik nomlar, bu hududlardagi olimlar, ensklopedistlar, faylasuf, adabiyotshunoslar, fiqh olimlari, muhaddislar, sufiylarning nomlarini ham keltirib o'tadi. Shu sababli ham, "Kitob al-Ansob" hozirgi kunga qadar tarixni o'rganishdagi muhim manbalardan biridir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, arab tarixchi va sayyohlari asarlaridan biz Movarounnahr va Xuroson hududida joylashgan shaharlar, ularning hukmdorlari, aholisi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, arxitektura va qurilish sohasidagi ishlari haqida ko'plab ma'lumotlar olishimiz mumkin va albatta, ushbu asarlar O'rta asrlar tarixini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

ЖАҲОН СИЁСАТИ ВА ХАЛҚАРО МУНОСАБАТЛАР

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ҚУРОЛЛИ КУЧЛАРИНИНГ ШАКЛЛАНИШИДА ОЛИБ БОРИЛГАН ИСЛОҲАТЛАР ХУСУСИДА

Ҳайдаров Алишер
ТошДШИ 2-курс магистранти
Илмий раҳбар: т.ф.н. Ҳайдаров И.

Ўзбекистон Республикасининг биринчи Президенти Қуролли Кучлар Олий Бош Қўмондони Ислон Каримов Ўзбекистон Республикаси биринчи чакириқ Олий Мажлисининг ўн тўртинчи сессиясида сўзлаган нутқида халқ депутатлари эътиборини Қуролли Кучларни, чегара ва ички қўшинларни ягона давлат сиёсати асосида босқичма - босқич чуқур ислоҳ этиш масалаларига қаратди¹. Шу асосда армия ислоҳатлари асосий йўналишларининг назарий асослари ишлаб чиқилди.

Давлатимиз раҳбарининг аниқ ва равшан позицияси янги армияни шакллантириш ишида принципиал аҳамиятга эга бўлди. 1992 йил 14 январидан 1995 йил бошларигача бўлган давр Қуролли Кучларимизнинг ташкилий ва қайта тузилиши даври бўлди. Айни шу даврда уларнинг ташкилий-штат тузилмаси қайта қўрилди. Қуролли Кучларимиз ҳаётий фаолияти ва юқори жанговар қобилиятига алоқадор бўлган ушбу муҳим муаммоларни ҳал этиш мақсадида мамлакатимизда қисқа муддатлар ичида миллий ҳарбий кадрлар тайёрлашнинг изчил тизими барпо этилди. Тошкент олий умумқўшин, Чирчиқ олий танк, Самарқанд олий ҳарбий автомобиль ва 1994 йил июнида ташкил этилган Жиззах олий ҳарбий авиация билим юртлари, шунингдек, Тошкент ахборот технологиялари университети, 1995 йилнинг 2 сентябрида Тошкентда минтақамиздаги биринчи Қуролли Кучлар Академиясининг очилиши улкан сиёсий аҳамиятга молик воқеа бўлди².

Армияда ўтказилаётган ислоҳотлар нафақат ҳарбийлар иши, балки Юртбошимизнинг иккинчи чакириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг учинчи сессиясида таъкидлаганидек, Ўзбекистонда яшаётган ҳар қайси инсоннинг бурчига, виждоний ишига, ғурур ифтихорига айланиши лозим. Ўз элининг эгаси бўлган ҳар бир инсон армия ислоҳотларида ўз ўрнини топмоғи лозим³.

Ўзбекистон Республикасини ҳимоя қилиш Ўзбекистон Республикасининг Конституциясига ва Ўзбекистон Республикасининг “Умумий ҳарбий мажбурият ва ҳарбий хизмат тўғрисида”ги қонунига асосан республика ҳудудида истиқомат қилувчи барча фуқароларнинг вазифаси ва муқаддас бурчидир⁴. Қуролли Кучлар тўла шаклланиб бўлгач, навбатдаги вазифа уни давр талаби асосида ислоҳ қилишдан иборат эди.

Ҳарбий ислоҳотларнинг биринчи босқичи 1998 - 2000 йилларда ўтказилди. Бу даврда:

¹Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. Т.7. - Т.: “Ўзбекистон”, 1999. б.

²Хлизов А. Икки муҳим тарихий сана // Ватанпарвар. - 2012 й. - 7 дек.

³Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг “Тарихий хотира ва инсон омили – буюк келажакимизнинг гаровидир” рисоласини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. - Т.: “Ўқитувчи”, 2012. 114-115-б.

⁴Зияева Д.Х. Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан - Т.: “Шарқ”, -2012. - 228- б.

- қўшинларда тезкор бошқарувни амалга ошириш мақсадида ҳарбий округлар, чегара ҳудудлари, ички ишлар қўшинларининг ҳудудий қўшилмалари тузилди;
- муҳим стратегик йўналишларда қўшин гуруҳлари ташкил этилди;
- қўшинлар, бирлашмалар ва қисмларни қайтадан жойлаштириш тадбирлари мамлакат хавфсизлигига таҳдид солаётган хавф-хатарларни чуқур таҳлил қилиш асосида, амалга оширилиши мумкин бўлган жанговар операцияларнинг тартиби ва йўналиши, хусусияти ҳамда мазмуни, шунингдек, Марказий Осиё минтақасидаги ҳарбий ҳаракатлар майдонининг ўзига хос жиҳатларини ҳисобга олган ҳолда ўтказилди;
- ҳаво ҳужумидан мудофаа қўшинлари билан ҳарбий ҳаво кучлари бирлаштирилди ва ҳарбий ҳаво кучлари ва ҳаво ҳужумидан мудофаа қўшинлари ташкил этилди;
- сони ва тузилиши, профессионал армияга ўтишдаги илк қадам бўлди.

Ислоҳотларнинг иккинчи босқичи 2000-2002 йилларни ўз ичига олади. Бу даврда:

- Ўзбекистон Мудофаа доктринасига мувофиқ, Мудофаа вазирлиги ва Чегара қўшинлари бўлинмалари, Ички ишлар вазирлиги ва Миллий хавфсизлик хизматининг махсус қисмлари, шунингдек бошқа идораларнинг ҳарбий тузилмаларини ўз ичига олган Қуролли Кучлар тизими яратилди. Қуролли Кучларнинг ягона марказлашган бошқарувини ташкил этиш мақсадида Мудофаа вазирлиги бош штаби Ўзбекистон Қуролли Кучлари бирлашган штабига айлантирилди;

- Мудофаа вазирлиги, Чегара ва Ички қўшинлар қўшилма ва қисмларининг бутунлай янги жанговар, техник таъминот тизими жорий этилди;
- Сержантлар тайёрлаш мактаблари ташкил этилди.

Ислоҳотларнинг учинчи босқичи 2002-2005 йилларни ўз ичига олади. Бу даврда:

- мамлакатда умумий ҳарбий мажбурият ва ҳарбий хизмат тубдан ўзгартирилди;
- Ўзбекистон фуқароларнинг ҳарбий таълим ва ватанпарварлик тарбиясининг узлуксиз кўп поғонали тизими яратилди¹.

Амалга оширилган бу ишлар Қуролли Кучларни ҳар томонлама такомиллаштирди, унга жанговарлик касб эттирди, шахсий таркибни жипслаштирди, мавжуд ҳарбий сиёсий вазиятда масъул вазибаларни бажаришга қодирлигини оширди, миллий армия-мизни мамлакатда ҳамда минтақада тинчлик ва барқарорлик кафолатига айлантирди.

Давлатимиз раҳбарининг 2001 йил 26 январдаги Фармонида биноан профессионал ҳарбий хизматчиларни тайёрлашга ихтисослаштирилган сержантлар тайёрлаш мактабларига асос солиниши билан профессионал армия тизимига замин яратилди².

Қуролли Кучлар ислоҳатида тезкор-стратегик режалаштириш ва қўшинларнинг ҳарбий хатти-ҳаракатларни Қуролли Кучлар маъмурий бошқарувидан ажратиш кўзда тутилди. Қўшинларни тезкор-стратегикрежалаштириш ва уларнинг ҳарбий хатти-ҳаракатини бошқариш Бош штаб негизида ташкил этилган Қуролли Кучлар Бирлашган штаби зиммасига юклатилди ва унинг асосий ваколатлари этиб қуйидагилар белгиланди:

- миллий ҳарбий стратегик, Қуролли Кучлар қурилиши ва ривожлантирилишининг концептуал асосларини ишлаб чиқиш;

¹Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг “Тарихий хотира ва инсон омили – буюк келажакимизнинг гаровидир” рисоласини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. - Т.: “Ўқитувчи”, 2012. 115-116 - б.

² Раҳмонов А. Ватан ҳимоячилари хизмати доимо эъзозда // Ватанпарвар. - 2012 й - 21 дек.

- Куролли Кучларни, ҳарбий округларни, вазирликларни, давлат қўмиталари ва идораларнинг ҳарбий тузилмаларини тезкор- стратегик бошқаришнинг бош органи вазифасини бажариш;

- қўшинлар жанговар ҳаракатларнинг стратегик жиҳатдан ва тезкор режалаштирилиши ҳамда уларга раҳбарликни амалга ошириш;

- қонун ҳужатларига мувофиқ бошқа ваколатларни амалга ошириш¹.

Мудофаа соҳасидаги мавжуд ва эҳтимол тутилган таҳдидларни таҳлил этиш мамлакатимиз тинчлиги ва осойишталигини самарали ҳамда ишончли ҳимоя қилишга қодир бўлган тезкор, жанговар қобилияти юксак, ҳар жиҳатдан яхши таъминланган Куролли Кучларни шакллантиришни тақозо этди. Мазкур вазифаларни тезкорлик билан бажариш, қўшинлар бошқаруви самарасини ошириш, жанговарлик қобилиятини юксалтириш мақсадида мамлакат ҳудудида ҳарбий- маъмурий бирликлар, ҳарбий округлар тузиш тўғрисида қарор қабул қилинди. Ўзбекистон Республикаси “Мудофаа тўғрисида”ги қонунида ҳарбий округ тушунчасининг мазмуни келтирилган бўлиб, унга кўра ҳарбий округ, буоперацион йўналишларда Ўзбекистон Республикасининг хавфсизлиги ва ҳудудий яхлитлигини таъминловчи асосий ҳарбий -маъмурий бирлик ҳамда умумқўшин тезкор - стратегик ҳудудий бирлашмасидир².

Мамлакат ҳудудида бешта -Шимоли-ғарбий (Қорақалпоғистон Республикаси, Хоразм вилояти), Жануби-ғарбий маҳсус (Бухоро, Навоий, Қашқадарё, Сурхондарё вилоятлари), Марказий (Самарқанд, Жиззах, Сирдарё вилоятлари), Шарқий (Андижон, Наманган, Фарғона вилоятлари) ва Тошкент (Тошкент шаҳри ва вилояти) Ҳарбий округлари ташкил этилиши билан қўшинлар ва қисмларни қайта жойлаштириш амалга оширилди.

Бу тадбирлар қўшинларни энг муҳим стратегик йўналишларда жамлашга, ҳудудий мудофаанинг ҳақиқий тизимини шакллантиришга имкон берди, профессионал таркиби жиҳатидан энг мақбул армияни тузиш учун амалий ҳаракатлар бошланди. “Ўзбекистон Республикаси Давлат чегараларини кўриқлашни кучайтиришнинг ташкилий тадбирлари тўғрисида” Вазирлар Маҳкамасининг 1998 йил 30 ноябрдаги қарори Давлат чегаралари ҳимоясини ташкил этишни янада такомиллаштиришда муҳим воқеа бўлди. Унга мувофиқ Ўзбекистон Республикаси Давлат чегараларини кўриқлаш ва ҳимоя қилиш Концепцияси ишлаб чиқилди ва тасдиқланди³.

Концепцияга мувофиқ, чегара қўшинларининг янги ташкилий- штат таркиби аниқланди. Мамлакатда бешта чегара минтақаси вужудга келтирилди, чегара отрядлари, комендатуралари ва чегара заставалари қайтадан ташкил этилиб, чегара районларига, базалари ва постларига айлантирилди. Чегара қўшинларида ўтказилган ислоҳатларда асосий эътибор қўшинларнинг ташкилий штат тузилишини, моддий-техник базасини кадрлар таркибини мустаҳкамлаш, улар билан ишлаш услубларини такомиллаштириш, чегаралар инфратузилмасини ривожлантиришга қаратилди ва бу вазифалар муваффақиятли равишда амалга оширилди.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг “Тарихий хотира ва инсон омили – буюк келажакимизнинг гаровидир” рисоласини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. - Т.: “Ўқитувчи”, 2012. 116 - б.

² Ўзбекистон Республикасининг “Мудофаа тўғрисида” ги Қонуни (Янги таҳрири), 2001. 11 май / Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. - 2001.- № 5.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг “Тарихий хотира ва инсон омили – буюк келажакимизнинг гаровидир” рисоласини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. - Т.: “Ўқитувчи”, 2012. - 118 - б.

Ўтган давр ичида Юртбошимиз томонидан ишлаб чиқилган ҳарбий ислохатлар стратегияси асосида юртимизда сон жиҳатдан унча катта бўлмаган, замонавий қуроляроқ ва техника билан қуроғланган, жанговар ҳаракатлар олиб боришнинг энг самарали усуллари эгаллаган армия яратилди.

Республика раҳбари таъкидлаганидек, “энг замонавий талаб ва андозаларга жавоб бера оладиган Қуроғли Кучларимизнинг барпо этилиши, халқимизнинг том маънодаги фахр-ифтихорига айланган миллий армиямизнинг вужудга ткелиши давлатчилигимизнинг шаклланиш жараёнида ҳал этилган энг муҳим вазифалардан бири бўлди”¹.

Ҳарбий исохотлар доирасида мамлакат мудофаа тизими фаолиятининг ҳуқуқий базаси ҳам такомиллаштирилди. Ўзбекистон Республикаси Қуроғли Кучлари тизимида олиб борилаётган исохотлар, мамлакат мудофаасини ташкил этиш борасида тўпланган тажрибалар минтақадаги ҳарбий - сиёсий вазият ҳамда мамлакатимиз ички ва ташқи сиёсатидан келиб чиққан ҳолда, давлатимизда 1995 йил 30 августда қабул қилинган Ўзбекистон Республикасининг “Ҳарбий доктринаси” ўрнига “Мудофаа доктринаси” ишлаб чиқилди ва Миллий хавфсизлик кенгаши томонидан 2000 йил 3 феврал куни қабул қилинди. 1992 йил 3 июлда қабул қилинган Ўзбекистон Республикасининг “Мудофаа тўғрисида”ги қонуни 2001 йил 11 майда янги таҳрирда қабул қилинган бўлса, 1992 йил 3 июлда қабул қилинган Ўзбекистон Республикасининг “Умумий ҳарбий мажбурият ва ҳарбий хизмат тўғрисида”ги қонуни тубдан қайта ишлаб чиқилди 2002 йил 12 декабрда янги таҳрирда қабул қилинди. Мазкур қонунга мувофиқ, Ҳарбий хизматнинг қуйидаги турлари жорий этилган: муддатли ҳарбий хизмат; сафарбарлик чақируви резервидаги ҳарбий хизмат; шартнома бўйича ҳарбий хизмат; Ўзбекистон Республикаси Қуроғли Кучлари сафида ҳарбий хизмат ўтаган резервдагилар хизмати².

Тинчлик даврида оддий аскарлар ва сержантлар таркибига мансуб лавозимларда муддатли ҳарбий хизматга, шунингдек. Сафарбарлик чақируви резервидаги хизматга ўн саккиз ёшдан йигирма етти ёшгача бўлган, саломатлигига кўра Қуроғли Кучлар сафида ҳарбий хизмат ўташга яроқли эркак фуқаролар чақириладилар³.

Муддатли ҳарбий хизмат - чақирилиш ёшидаги фуқароларнинг оддий аскарлар ва сержантлар таркибига мансуб лавозимларда, шунингдек, муқаддам ҳарбий хизмат ўтамаган офицерларнинг қонун ҳужжатларида белгиланган муддат давомида Ўзбекистон Республикаси Қуроғли Кучлари сафидаги мажбурий ҳарбий хизматдир⁴.

Фуқароларнинг Ўзбекистон Республикаси Қуроғли Кучларида муддатли ҳарбий хизматни ўташ шарт-шароитларини, қўшинларнинг жанговар ва маънавий - маърифий хизматни ҳамда сафарбарлик жиҳатдан тайёрлигини янада такомиллаштириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Фуқароларнинг Ўзбекистон Республикаси Қуроғли Кучларида муддатли ҳарбий хизматни ўташ шарт-шароитларини такомиллаштириш чора тадбирлари тўғрисида”ги 2008 йил 20 ноябрдаги Фармони асосида 2009 йилдан бошлаб фуқароларни Қуроғли Кучларда ўтиладиган муддатли ҳарбий хизматга йилига бир марта февраль-март ойларида чақириш ҳамда белгиланган

¹Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг “Тарихий хотира ва инсон омили – буюк келажакимизнинг гаровидир” рисоласини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. - Т.: “Ўқитувчи”, 2012 – 57 - б.

²Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2002 й., 12-сон, 217-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2002 .№ 11.

³Ўша манба.

⁴Зияева Д.Х. Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан - Т.: “Шарқ”, -2012. - 234 -235- б.

муддатли ҳарбий хизматни ўтаб бўлган фуқароларни Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари захирасига март-апрель ойларида бўшатиш йўлга қўйилди. Қонун асосида муддатли ҳарбий хизмат муддати 18 ойдан 12 ойгача қисқартирилди. Муддатли ҳарбий хизмат тартиби қонун ҳужжатлари билан белгиланади¹.

Ўзбекистон Республикаси томонидан муддатли ҳарбий хизматни ўтаган ёшларга ҳарбий хизматдан сўнг ишга жойлашиш, олий ўқув юртларига кириб ўқишида қатор имтиёзлар берилди. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2005 йил 31 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари сафида муддатли ҳарбий хизматни ўтаётган ҳарбий хизматчиларга имтиёзлар тизимини янада такомиллаштириш ҳақида”ги ПҚ- 213- сонли Қарори асосида муддатли ҳарбий хизматни ўтаган фуқаролар Қуролли Кучларни малакали кадрлар билан тўлдириш учун зарур техник ва бошқа мутахассисликлар бўйича Республиканинг олий таълим муассасаларига ўқишга кираётганида уларга тест синовларида тўпланиши мумкин бўлган энг кўп баллнинг 25 фоизи миқдорида қўшимча имтиёз берилди. Собиқ ҳарбий хизматчи шартнома асосида олий ўқув юртига ўқишга кирган ҳолда, шартнома тўловининг 35 фоизи Ўзбекистон “Камолот” ёшлар ижтимоий ҳаракати томонидан амалга оширилиши ҳам ўзига хос имтиёзлар сирасидандир.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2012 йилда 31 майдаги имзоланган сўнги қарорига биноан юқорида зикр этилан қўшимча балл миқдори 27 фоиз этиб белгиланди ва ҳарбий хизматни ўтаган ёшлар учун олий ўқув юртларига ўқишга киришида яна бир қатор имтиёзлар берилди. Ҳарбий касбга йўналтирувчи лицейларнинг битирувчиларига рўйхатга олиш чоғида улар тўплаган баллар сонига ўтиш бали энг кўп миқдорининг 10 фоизини қўшиш тарзида имтиёзлар берилди².

Қонун асосида мамлакатимизда жаҳон амалиётида биринчи мартаба сафарбарлик чақируви резервидаги ҳарбий хизмат тури жорий этилди. Бу хизматга муддатли ҳарбий хизматни ўташга яроқли ҳамда чақирилиш муддатини кечиктириш ва чақирилишдан озод этилиш ҳуқуқига эга бўлмаган, бироқ Қуролли Кучлар сафига навбатдаги муддатга чақирилмаган шахслар олинди. Сафарбарлик чақируви резервидаги хизмат ҳудудий принцип асосида ойлик йиғинлар тарзида ташкил этилади ҳамда чақирилувчилар томонидан Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлигининг махсус ҳисоб варағига пул бадаллари киритилишини назарда тутади.

Хулоса ўрнида айтадиган бўлсам, биламизки Қуролли Кучлар Олий бош Қўмондони томонидан мустақиллигимизнинг дастлабки йилларидаёқ халқимизнинг қадимий ва бой тарихи, маънавий мероси, аждоқларимизнинг жанговар анъаналарига таянган ҳолда, замонавий талабларга жавоб берадиган, мамлакатимиз ҳудудий яхлитлиги ва чегараларимиз дахлсизлигини ҳимоя қилишга қодир Қуролли Кучларни ташкил этиш ва ислоҳ қилишга оид муҳим вазифалар қўйилди. Миллий армиямизнинг ҳуқуқий пойдевори яратилди. Барча соҳаларда бўлганидек, Қуролли Кучларимиз тизимида ҳам ислохотлар босқичма-босқич амалга ошириб келинмоқда. Шундай қилиб ўтган қисқа давр мобайнида юртимизда бугунги кун талабларига тўла жавоб берадиган тезкор ва ихчам,

¹Умумий ҳарбий мажбурият ва ҳарбий хизмат тўғрисидаги қонун,- 19 модда (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. - 2002 . - № 12.

²Ахмедов А. Тавсиянома-муҳим имтиёз / Ватанпарвар. - 2012 й. - 14 дек.

замонавий қурол-яроқ ва техника билан таъминланган, жанговар қобилият ва тайёр-гарликка эга бўлган армия барпо этилгани қалбимизни фаҳр туйғуси билан тўлдиради.

Қуролли Кучларимизда олиб борилаётган ислохотларнинг энг муҳим амалий натижаси, ҳеч шубҳасиз, армиядаги ахлоқий - руҳий, маънавий муҳитнинг бутунлай янгиланганида яққол намоён бўлмоқда. Ҳарбий жамоаларда ҳарбий хизматчилар ўртасидаги муносабатлар ва энг асосийси, жамиятимизда армияга ва ҳарбий хизматга нисбатан ёндашув ва қарашлар бутунлай ўзгарди. Бугунги кунга келиб, Қуролли Кучлар сафида хизмат қилиш Ўзбекистон фуқароси учун конституциявий бурч, айтиш жоизки мамлакатимиздаги энг нуфузли ва шарафли касблардан бирига айланди. Миллий армиямиз сафи мустақил Ўзбекистонимизга садоқат билан хизмат қилиш, унинг манфаатлари ва сарҳадларини, халқимизнинг тинч ва осуда ҳаётини таъминлашга азму қарор қилган мард ва фидойи, интеллектуал жиҳатдан етук кадрлар билан тўлдирилмоқда. Бугунги кунда халқимиз Қуролли Кучларимизни Ватанимиз мустақиллиги, тинч-осойишталиги, бунёдкорона меҳнатининг ишончли ҳимояси деб билади.

AQSH TASHQI SIYOSATIDA AFG‘ONISTON: YANGICHA YONDASHUVLAR

*Kazakbayev Hikmatilla
JIDU 2- kurs magistranti
Ilmiy rahbar: s.f.n. Muminova N.*

AQSHda qabul qilingans o‘ngi “Milliy xavfsizlik strategiya”sida mamlakat tashqi siyosatida asosiy va muhim mintaqa sifatida Osiyo-Tinch okeani mintaqasi ko‘rsatilgan bo‘lsada¹, Afg‘oniston AQSH uchun o‘z ahamyatini yo‘qotgan emas.

Hozirgi kunda AQSH o‘z ichki resurslarini afg‘on muammosini hal qilishga sarflagandan ko‘ra, Afg‘oniston bilan harbiy-gumanitar sohada hamkorlik qilishni afzal ko‘rmoqda va o‘z e‘tiborini quyidagi yo‘nalishlarga qaratgan.

Birinchidan, Afg‘on iqtisodiyoti taraqqiyotiga ko‘maklashish;

Ikkinchidan, Harbiy sohada hamkorlik (afg‘on milliy armiyasini shakllantirish, ular bilan o‘quv amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish asnosida ularni harbiy xizmatga tayyorlash);

Uchinchidan, Mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlash;

To‘rtinchidan, Gender tenglik masalasi (xususan afg‘on ayollarini davlat xizmatiga jalb qilish borasida afg‘on hukumatiga ko‘maklashish);

2015-yil oktabr oyida Qunduzni tolibonlar tomonidan egallanishi AQSH prezidenti Barak Obamaning vakolat muddati tugaguncha qo‘shinlarni butunlay Afg‘onistondan olib chiqish to‘g‘risidagi avvalgi va‘dasini o‘zgartirishiga va 5,500 ta askarlarni Afg‘onistonda qoldirish haqida qaror qabul qilishiga sabab bo‘ldi².

AQSH – Afg‘oniston munosabatlari ayniqsa 2016-yil bahor oylaridagi AQSH prezidenti va davlat kotibining Afg‘onistonga tashrifi doirasida bir qator masalalar yuzasidan kelishuvlar imzolanishi o‘zaro hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqdi. Jumladan 5-mart

¹ National Security Strategy 2015. <https://www.fas.org/sgp/crs/natsec/R44023.pdf>

² Don’t Give Up on Afghanistan By Lisa Curtis <http://www.heritage.org/research/commentary/2016/2/dont-give-up-on-afghanistan>

2016-yil AQSH prezidenti Barak Obama rasmiy ashraf bilan Afg'onistonga kelganbo'lsa¹, Jon Kerri 9-aprelda Kobulga tashrif buyurdi, uchrashuvlar davomida quyidagi masalalar muhokama qilindi:

- Xavfsizlik va mudofaa;
- Afg'onistondagi iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish;
- Demokratik institutlarni rivojlantirish;
- Strategik sherikchilik;
- Afg'oniston hukumati va Tolibon o'rtasida tinchlikka erishish².

Umuman olganda AQSH 2002-moliya yilidan boshlab, AQSH Kongressi Afg'onistonda qayta qurish ishlarini olib borish maqsadida 113 mlrd.AQSH dollari miqdorida mablag'ajratdi³, ushbu mablag'lar Afg'onistonda yo'llar, shifoxonalar, maktablar qurish, davat xizmatchilari: afg'on armiyasi, politsiya kuchlariga maosh to'lashga sarflandi.

Bugungi kunda AQSH afg'on muammosini hal qilishda bir qator qo'shni davlatlar jumladan, Pokiston, Xitoy, Eron bilan hamkorlik qilib kelmoqda. Ushbu maqola doirasida ahamiyatni Pokiston va Xitoy omiliga qaratmoqchimiz.

Afg'oniston Pokiston uchun strategik muhim hudud hisoblanadi. Buni bir nechta faktorlar orqali izohlash mumkin. Xususan, PokistonvaAfg'onistonni uzoq yillik umumiy tarix, til yaqinligi va pushtun madaniyati bog'lab turadi. Ma'lumki, pushtunlar Afg'oniston aholisining 47%idan oshig'rog'ini, Pokiston aholisining 15-20%ini tashkil qiladi. Shu sababli ham davlatlar aholisining katta qismi o'rtasida yaqinlik mavjud. Garchi hari kki davlat orasini 1500 mil uzunlikda Dyurand chizig'i chegara sifatida kesib o'tgan bo'lsada, hududlar aholisi hech qiynalmasdan bir-birlarining maskanlariga o'ta oladilar. Pokiston va Afg'oniston munosabatlarida Hindiston omili katta o'rin tutadi. Afg'oniston hukumati Hindistonning ushbu hududda ta'sir doirasining oshishi o'z milliy manfaatlariga katta xavf sifatida ko'radi.

2016-yildan boshlab Pokistonning Afg'oniston Islom Respublikasidagi ichki vaziyatga yondashuvi AQSH va Xitoy Xalq Respublikasi hamda Afg'oniston bilan hamkorlikda ta'sis etilgan To'rt tomonlama uchrashuvlar hamkorligi sifatida ko'rishimiz mumkin. Ushbu harakat Afg'on prezidenti Ashraf G'ani tomonidan 2014-yilda ta'kidlab o'tilgan edi. Afg'oniston-Pokiston-AQSH-Xitoy To'rt tomonlama Koordinatsiya Guruhi (Quadrilateral Coordination Group, QCG) ning ilk uchrashuvi 2016-yil 11-yanvarda Islomobod shahrida o'tkazildi.⁴

Ushbu loyiha **“Afg'on hukumati hamda tolibonlar o'rtasida to'gridan-to'gri muloqotni zudlik bilan tiklash zaruriyati”**ga urg'u bergan edi va Afg'onistonda tinchlik o'rnatishning o'ziga xos “yo'l xaritasi” tuzilishini maqsad qilib qo'ygandi. Afg'oniston delegatsiyasiga boshchilik qilayotgan Tashqi Ishlar Vaziri o'rinbosari Hikmat Halil Karzay ushbu “yo'l xarita”si 3 ta bosqichdan iborat bo'lishini ta'kidlab o'tgandi⁵:

- 1-muzokaralar oldi davri
- Tinchlik muzokaralari va to'g'ridan-to'gri muloqot

¹Ашраф Гани и Барак Обама обсудили вопросы безопасности.<http://afghanistan.ru/doc/95327.html>

²https://www.washingtonpost.com/world/secretary-of-state-kerry-makes-unannounced-visit-to-afghanistan/2016/04/09/839aa1a0-fb58-11e5-813a-90ab563f0dde_story.html

³ Afghanistan's 'Evil Omens' by JIM GERAGHTY <http://www.nationalreview.com/article/433809/afghanistan-reconstruction-expensive-american-failure>

⁴Afghanistan-Pakistan-US-China Quadrilateral Coordination Group, Amina Khan, Research Fellow, ISSI

⁵ Quad meeting hopes to bring Taliban to table, By Tahir KhanPublished: January 16, 2016, <http://tribune.com.pk/story/1028107/quad-meeting-hopes-to-bring-taliban-to-table/>

➤ 3-rejani amalga oshirish bosqichi.

Xitoy ham hozirgi kunda Afg'onistondagi vaziyatni yumshatish uchun iqtisodiy hamda diplomatik jihatdan ancha faol rol o'ynash ixtiyorini bildirmoqda. Washington Xitoyning ushbu harakatlarini iliq kutib oladi hamda To'rt tomonlama Koordinatsion Guruh (Quadrilateral Coordination Group, QCG) ning tashkil etilishi AQSH va Xitoy uchun yagona xavfsizlik maqsadlari ostida birgalikda harakat qilish imkonni beradi.

AQSH va NATOning Afg'onistondan chiqib ketishi bilan Xitoy Afg'onistonda barqarorlik ta'minlash bo'yicha xalqaro muzokarlarda faol qatnasha boshladi. Afg'oniston Prezidenti Ashraf G'ani ham ilk tashqit ashrafini Xitoyga safardan boshlagan edi. Tashrif chog'ida Xitoy Prezidenti Si Szinpin Afg'oniston bilan aloqalarni chuqurlashtirishga va'da berib, 4 yillik muddat davomida 320 million AQSH dollari miqdorida yordam ajratish haqida kelishib olingandi. Shuningdek, rasmiy Pekin ushbu 4 yillik muddat davomida 3000 Afg'on personal-larini turli sohalar bo'yicha treninglar tashkil qilish va 500 Afg'on talabalariga stipendiyalar berish taklini berdi¹.

2016-yil 26-yanvar kuni Xitoy Tashqi ishlar vaziri Vang Yi va Salohiddin Rabboni Pekinda muzokara olib borishdi. Ushrashuvda tomonlar quyidagi 6 yo'nalish bo'yicha kelishuvga erishdilar:

- Oliy darajadagi almashinuvlarni kuchaytirish;
- Xitoy Afg'onistonda qayta qurishishlarini qo'llab-quvvatlaydi hamda uylar qurish, aholi yashash sharoitlarini yaxshilash, infrastrukturani shakllantirish bo'yicha yordam ko'rsatadi;
- Xitoy Afg'onistonning geografik qulayliklarini hisobga olgan holda Osiyoda mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikka qo'shilishini qo'llab-quvvatlaydi;
- Ikki tomon ham terrorizmga qarshi kurashda ikki tomonlama hamda ko'p tomonlama hamkorlikni kuchaytirishga e'tibor qaratadi;
- Tomonlar madaniy almashinuv, Xitoy Afg'oniston talabarlari va mutaxassislari uchun stipendiyalar, o'quv mashg'ulotlari bilan ta'minlaydi;
- Har ikki tomon ham Afg'onistonga oid mintaqaviy hamda xalqaro mexanizmlardagi hamkorligini mustahkamlaydi, AQSH, Afg'oniston va Xitoy doirasida uch tomonlama hamkorlik rivojlantirishni maqsad qiladilar. Shuningdek, Afg'oniston Shanxay Hamkorlik Tashkiloti hamda Osiyo Infrastruktura Investitsiya bankiga a'zo bo'lish xohishini bildirdi².

Yuqoridagi omillarni hisobga olgan holda AQSH asosiy e'tiborni ijtimoiy-gumanitar sohalar, xavfsizlik, gender tenglik masalalariga qaratmoqda. So'nggi yillarda, maxsus afg'on xavfsizlik kuchlarida ayollar soni ortib bormoqda jumladan hozirgi kunda afg'on maxsus xavfsizlik kuchlarida 14,000 xodim xizmat qilayotgan bo'lsa ulardan 80 nafari ayollarni tashkil qiladi bu albatta AQSH tomonidan olib borilgan gender tengligi masalasidagi yutuqlardan biridir³.

¹China's South Asia Strategy, By Lisa Curtis, Asian Studies Center, Testimony Before the U.S.-China Economic and Security Review Commission, March 10, 2016, <http://www.heritage.org/research/testimony/chinas-south-asia-strategy>

² Wang Yi Holds Talks with Foreign Minister Salahuddin Rabbani of Afghanistan, 2016/01/26, http://www.fmprc.gov.cn/mfa_eng/wjb_663304/zzjg_663340/yzs_663350/gjlb_663354/2676_663356/2678_663360/t1335832.shtml

³Women in Special Security Forces: What the U.S. Can Learn from the Afghans <http://www.rand.org/blog/2016/03/women-in-special-forces-what-the-us-can-learn-from.html>

Bugungi kunda Afgʻonistonda tinchlik va barqarorlikni taʼminlash, ijtimoiy-iqtisodiy sohani rivojlantirish eng avvalo Afgʻon milliy hukumatiga bogʻliq va bu maqsadlarda bizning fikrimizcha Afgʻoniston prezidenti quyidagi ishlarni amalga oshirishi lozim:

1) Xitoy, Eron, Pokiston davlatlari hamkorlikda iqtisodiyotni rivojlantirish, chunki afgʻon iqtisodiyoti aynan shu davlatlarga bogʻliq. Afgʻoniston 2014 yilda 770 mln AQSH dollari hajmida mahsulot eksport qilgan boʻlsa, 6,42 mlrd AQSH dollari miqdorida mahsulot import qilgan shundan 2,2 mlrd AQSH dollari Pokiston, 709 mln AQSH dollari Hindiston va 450mln AQSH dollari Eron hissasiga toʻgʻri keladi¹

2) Turli etnik guruhlar oʻrtasida oʻzaro tinchlikni taʼminlash

3) AQSH bilan hamkorlikda Afgʻoniston milliy armiyasini shakllantirish

4) AQSH va qoʻshni davlatlar bilan hamkorlikda terrorizm va giyohvandlikka qarshi kurashish

5) Gender tenglikni taʼminlash

Yuqoridagilarga qaramasdan Afgʻonistondagi tinchlik va barqarorlik boshqa buyuk davlatlarga bogʻliqligicha qolmoqda. Xar bir davlat hozirgi vaziyatdan oʻz milliy manfaatlari yoʻlida foydalanishga harakat qiladi. Shu sababli bizning fikrimizcha muammoni buyuk davlatlar emas Afgʻonistonga bevosita chegaradosh davlatlar ishtirokida hal qilish lozim.

DEMOKRATIK JARAYONLARGA TAʼSIR ETUVCHI SALBIY OMILLAR TAHLILI

*Suyarov Nurbek
ToshDSHI 2-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: t.f.n. Qoriyev O.A.*

Hozirgi globallashtirish sharoitida dunyoda demokratiya shiori bilan niqoblangan keskin gʻoyaviy kurashlar, turli mafkuralar toʻqnashuvi yuzaga kelmoqda. “Demokratiyani eksport” qilish tarafdorlari jamiyat hayotining barcha sohalarini liberallashtirish va demokratlashtirish, inson huquq va erkinliklarini taʼminlash kabi tamoyillarni ilgari surishlariga qaramay, muayyan mamlakatning tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi, xalqining milliy urf-odat, anʼana va qadriyatlarini, kishilar dunyoqarashi va tafakkurini umuman hisobga olmaydi yoki ularni ikkinchi darajali deb hisoblaydi. Shuningdek, shunga oʻxshash gʻoya va qarashlar tarafdorlari demokratik jarayonlarni tezlik bilan sunʼiy ravishda jadallashtirishga asosiy eʼtiborini qaratadi. Vaholanki, ular zamonamizning eng rivojlangan mamlakatlari sifatida eʼtirof etiladigan, deyarli uch yoki toʻrt asrlik tajribaga ega AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiyada bu jarayon demokratiya unsurlari oʻzaro bahs va munozaralar va kurashlar natijasida shakllanganligini unutgan koʻrinadi. Masalan, AQSHda XIX asrning 30-yillariga ham, yaʼni mamlakat konstitutsiyasi qabul qilinganligidan 50 yil oʻtib ham ayollar, hindular va qora tanli kishilar fuqarolik va siyosiy huquqlarga ega boʻlmagan. Jahon tajribasi shuni koʻrsatadiki, demokratiya davlat, xalq va jamiyat taraqqiyoti bilan birga yangicha maʼnomazmunga ega boʻlib, vaqt oʻtgan sari takomillashib boradi².

¹Economy of Afghanistan <http://atlas.media.mit.edu/en/profile/country/afg/>

² Karimov I. A. Asosiy vazifamiz – jamiyatimizni isloh etish va demokratlashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish jarayonlarini yangi bosqichga koʻtarishdan iborat. *Oʻzbekiston Respublikasi*

Demokratik jarayonlarga salbiy ta'sir etuvchi omillardan yana biri bu radikal islom g'oyalari deyish mumkin. Bu g'oyalar o'zining o'ta keskinligi va ommaviy tus olish ehtimolligi xavfi jihatdan fojiali deb hisoblash mumkin. Zeroki, ushbu g'oya tarafdorlari islomning fundamentalistik qarashlarini bugungi jamiyat hayotiga tadbiq etishda keskin fikrlari alohida ajralib turadi. Shuningdek, bu g'oyani amalga oshirish istagidagi kishilar demokratiyaning xalqaro huquq umume'tirof etgan normalari va tamoyillarini inkor etib, shariat qonun-qoidalariga asoslangan jamiyat qurishni asosiy maqsad sifatida belgilab olishadi. Ular uchun eng qulay vaziyat va yo'l demokratik sharoitlar hali mustahkam shakllanmagan, shu bilan birgalikda aholisi islom diniga e'tiqod qiladigan mamlakatlarda demokratiyani tezlashtirish hamda avj oldirish sharoiti vujudga kelgan bir paytda qo'l keladi. Shu o'rinda bu masala xususida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning fikrlari muhim ahamiyatga ega. "Hozirgi paytda, ma'lum tarixiy sabab va sharoitlarga ko'ra, demokratik andozalardan hali uzoq bo'lgan mamlakatlarda demokratik jarayonlarni sun'iy ravishda tezlashtirish, demokratiya g'oyalarini zo'rma-zo'raki qaror toptirish uchun urinishlar teskari natija berishi – bundan uchinchi bir kuch foydalanib qolishi muqarrar bo'lgan vaziyatni keltirib chiqarishi mumkin. Bu uchinchi kuch – radikal islomdir"¹.

Radikal islom nafaqat demokratik qadriyat va prinsiplarni inkor etib kelmoqda, balki bu orqali islom dinini o'zidagi amallarni ham rad etib kelmoqda. Zeroki, aynan islom dini inson huquq va erkinliklarini hurmat qilish, erkin yashash, bu dunyoning ne'matlaridan bahramand bo'lish singari g'oyalarni o'zida mujassamlashtiradi. Biroq, afsus bilan ta'kidlash o'rinliki, islomni butunlay o'zgacha talqin etish, uni murakkablashtirish va o'zgacha tushunish hollari ko'payib bormoqda. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov fikricha, islom demokratik din bo'lib sabr-bardoshli bo'lishni, ma'naviylikni, insonga muhabbatni, soflikni targ'ib qiladi. Taqvodor kishi muayyan axloqiy chegaralardan tashqariga chiqmaydi. Xullas, din barcha millatlardagi har bir inson uchun muqaddas qadriyatdir. Shu jihatdan qaraganda, islom, agar uni buzib talqin etishmasa, oddiy, tushunarli dindir².

Demokratik jarayonlar jadal sur'atlar bilan shakllanib borgani sayin uni talqin etish, uning jamiyat hayotidagi asl rivojlanish mohiyatini ochib berishda ommaviy axborot vositalari (OAV)ning o'rni beqiyos bo'lib borayotganligini kuzatish mumkin. Aynan OAV demokratik jarayonlarning shakllanishida o'zining munosib hissasi bilan alohida ajralib turadi. Xolis va mukammal axborot muhitini ta'minlash va rivojlantirish demokratik jamiyatning eng muhim shartlaridan biri sanaladi. Shu boisdan OAVga ramziy ma'noda davlatning "to'rtinchi hokimiyati" sifatida nisbat beriladi. OAVning asosiy vazifalaridan biri xalqning xohish-istaklarini hokimiyat tarmoqlariga muttasil yetkazib berish, shuningdek hokimiyat tomonidan amalga oshirilgan islohotlar yoki siyosatning asl ma'no-mazmunini xalqqa oshkora tarzda yetkazishi hisoblanadi. Boshqacha aytadigan bo'lsak, ular erkin faoliyat yuritishi davlat tomonidan nazorat o'rnatilishi yoki bosim o'tkazilish mumkin emas. Bu xususida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 67-moddasida batafsil aytib o'tilgan: "Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi

Konstitutsiyasi qabul qilinganining 23 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. – T.: O'zbekiston, 2015. – B. 13.

¹Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч қачон ҳеч кимга қарам бўлмайди. –Т.13. –Т.: Ўзбекистон, 2005. –Б. 339-340.

²Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. –Т.1. –Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б. 237.

uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo‘l qo‘yilmaydi”¹. Shu bilan birgalikda, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov e‘tirof etganidek, “...jamoatchilikning, xalqning hokimiyatga nisbatan, Prezidentga nisbatan, umuman mansabdorlarga nisbatan bildirgan fikrini ifodalovchi mabuotgina demokratik matbuot hisoblanadi. Odamlarda har xil fikr bo‘lishi tabiiy”².

Ammo OAVning demokratik jarayonlarga ta’siri salbiy xususiyat kasb etayotganligini ham nazardan qochirish zarur. Ya’ni OAV siyosiy maqsadlarni amalga oshirishning o‘tkir quroli sifatidajahon maydonida gavdalanmoqda. Ko‘pincha odamlar tarqatilayotgan axborotlarning dastlabkisiga ko‘proq ishonadi. Axborot yordamida har qanday insonni, jamiyatni, qolaversa davlatni ham boshqarish mumkinligi haqida so‘zketse hech kim buni inkor etmaydi yoki bunga qarshi chiqmaydi. Zeroki, bugungi globallashuv davrida axborot quroli ko‘proq salbiy maqsadlarda foydalanib kelinayotgani hech kimga sir emas. Buni ko‘pchilik axborot urushi iborasi bilan ifodalashadi. “Axborot urushi” atamasi ilk bor 1967-yili tilga olingan bo‘lib, bu ibora muallifi sobiq Sovet Ittifoqiga qarshi boshlangan axborot urushi asoschilaridan biri Allen Dallesdir³. Axborot urushining demokratik jarayonlarga ta’sir etish doirasi juda keng va turli-tuman. Afsuski, asosan islom dini e‘tiqod qilinadigan mamlakatlarda, ayniqsa Shimoliy Afrika va Yaqin sharq mamlakatlaridagi “Arab bahori” deb nomlangan inqilobiy harakatlarning vujudga kelishida axborot vositalarining ta’siri nihoyatda katta va sezilarli rol o‘ynaganini anglash qiyin emas.

Xulosa tariqasida aytish mumkinki, demokratiya ichkaridan ham, tashqaridan turib ham o‘rnatilmaydi, balki har bir xalq demokratiyani o‘z mentaliteti, o‘z qadriyatlariga munosib tarzda u yoki bu darajada hayotga joriy etadi. Ayniqsa, sharq mamlakatlarida bu jarayon asta-sekinlik bilan, sharq xalqlarining tarixiy va milliy xususiyatlariga mos ravishda takomillashib borishini e‘tirof etish joiz.

ZAMONAVIY BOSQICHDA O‘ZBEKISTON VA XITOIY O‘RTASIDAGI MUNOSABATLAR

Azbergenov Sharaf
ToshDSHI 2-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: t.f.d., prof. Karimova N.

O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritgan ilk kunlardan boshlab jahoning bir necha davlatlari bilan o‘zaro manfaatli va o‘zaro teng bo‘lgan aloqalarni rivojlantirib kelmoqda. Shu qatorda O‘zbekiston va Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasidagi aloqalar ham bugungi kunda yaxshi ko‘rinish hosil qilmoqda. O‘zbekiston va Xitoy xalqlarini bir necha asrlik madaniy, savdo va boshqa sohalardagi hamkorlik aloqalari bog‘lab turibdi hamda bugungi davrda esa O‘zbekiston va Xitoy munosabatlari strategic sheriklik darajasiga ko‘tarilgan. Ikki davlat o‘rtasidagi aloqalar siyosat, iqtisodiyot, savdo, sanoat, qurilish, ilm-fan, ta’lim, madaniyat kabi barcha sohalarni qamrab olgan. Bu aloqalar Strategik sheriklik o‘rnatish to‘g‘risidagi

¹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston NMIU, 2014. – B. 22.

² Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. –T.5. –T.: 1997. – B. 315.

³ Musurmonkulov O. Axborot urushi va “Fleshmob” hodisasi vositasida mafkuraviy tahdid / Tinchlik va osoyishtalik – oliy ne’mat / mas’ul muxarrir Shayx Abdulaziz Mansur; Uzbekiston musulmonlari idorasi; Milliy foya va mafkura ilmiy-amaliy markazi. –T.: “Movaraunnahr”, 2013. – B. 102.

qo'shma deklaratsiya, Do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnoma, Ikki tomonlama strategik hamkorlikni yanada chuqurlashtirish va rivojlantirish haqidagi qo'shma deklaratsiya kabi qator hujjatlar asosida izchil taraqqiy etmoqda.¹

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning quyidagi so'zlarini keltirib o'tmoqchimiz: "Biz uzoq va yaqin atrofimizdagi barcha davlatlar, birinchi navbatda, qo'shni mamlakatlar bilan do'stona munosabatlar va o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada mustahkamlashni o'zimizning birinchi darajali azifamiz deb bilamiz"². Haqiqattan ham bugungi kunda O'zbekiston dunyoning barchad avlatlari bilan bir qatorda qo'shni davlatlar bilan aloqalarni mustahkamlab kelayotganini ko'rishimiz mumkin.

Bugungi kunga kelib O'zbekiston va Xitoy o'rtasida turli xil sohalarda aloqalar rivojlanib bormoqda va ushbu munosabatlar 120 dan ortiq davlatlarga shartnoma va boshqa ko'rinishdagi kelishuvlar bilan asoslanib kelinmoqda. 2011-yilda O'zbekiston XXR hukumatining "Xitoy kompaniyalari ishtirokida O'zbekiston-Xitoy" yuqori texnologik sanoat parkini tuzish tashabbusini qo'llab-quvvatladi. 2013-yil mart oyida esa mazkur park "Jizzax maxsus industrial zonasi"ga aylantirildi.

Hozirgi kunga kelib esa "Jizzax" maxsus industrial zonasida xitoy kompaniyalarning to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalari ishtirokida 50 mln.dollardan ortiq qiymatga ega bo'lgan 15 dan ortiq qo'shma loyihalar amalga oshirilmoqda. Ushbu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti quyidagi fikrlarni bildirib o'tgan edi: "Ishlab chiqarish sohasini yanada rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan "Jizzax" MIZ nafaqat Jizzax viloyatini rivojlanishidagi katta qadam bo'ldi, balki butun mamlakatning rivojlanishiga sabab bo'ldi. Qisqa vaq tichida mazkur industrial zonada zarur bo'lgan ishlab chiqarish sanoati va infrastruktura joriy qilindi. Yaqin vaqt ichida bu yerda zamonaviy xo'jalik mollari, tikuv mashinalari, quyosh energiyasini olish uchun kerak bo'ladigan jihozlar, energiyani tejoychi chiroqlar, mobil telefonlar, qurilish mollari, charm mahsulotlari ishlab chiqarila boshlanadi"³. Bugungi kunga kelib esa, mana shu fikrlarning isbotini mazkur hududda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va ularning biz uchun qanchalar zarur bo'layotganligidan ko'rishimiz mumkin bo'ladi.⁴

Biz yuqorida ta'kidlaganimizdek Xitoy O'zbekistonning eng yirik savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy sheriklaridan biri hisoblanadi. O'zaro tovar ayirboshlash hajmi muttasil o'sib bormoqda. 2016 yilning dastlabki to'rt oyida Tovar ayirboshlash hajmi 1,4 milliard dollarni tashkil etgan. Xitoyning O'zbekiston iqtisodiyotiga yo'naltirgan investitsiyalari va kreditlari hajmi 6,5 milliard dollardan oshgan. Mamlakatimizda Xitoy kapitali ishtirokida tashkil etilgan 650 dan ziyod korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda.⁵Yana bir e'tiborli jihati shundan iboratki 2016-yilning yanvar-sentabr oylaridagi ko'rsatkichga ko'ra O'zbekiston Respublikasi hududida 370

¹O'zbekiston – Xitoy: hamkorlikning yangi bosqichi – har tomonlama strategic sheriklik-<http://www.press-service.uz/uz/news/5263/>

²I.A.Karimov. "Ona yurtimiz bahtu iqboli va bуюk kelaжaги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир". Т. "Ўзбекистон", 2015 йил, Б. 32.

³Указ Президента Республики Узбекистан «О создании специальной индустриальной зоны «Джизак». Сборник законодательных актов Республики Узбекистан, 2013 г., № 12, Статья 151.

⁴Хасанова Г.Д. Экономические связи между Республикой Узбекистан и Китайской Народной Республикой. // Молодой учёный. Международный научный журнал / № 13 (117) / 2016 - Главный редактор: Ахметов Ильдар Геннадьевич, кандидат технических наук. – Казань: «Молодой ученый», 2016. – С. 535-537.

⁵O'zbekiston – Xitoy: hamkorlikning yangi bosqichi – har tomonlama strategic sheriklik - <http://uza.uz/uz/politics/o-zbekiston-xitoy-hamkorlikning-yangi-bosqichi-har-tomonlama-22-06-2016>

ta korxonalar ro'yxatga olingan bo'lib shulardan Xitoy rezidentlari kapitali ishtirokida 78 ta korxonalar tashkil etilgan va bu yo'nalishda Xitoy birinchi o'rinni egallab turibdi¹. Bu ham o'z navbatida Xitoy-O'zbekistonning eng yirik iqtisodiy sheriklaridan biri ekanligidan dalolatdir.

O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi munosabatlarda yaqinda qurib bitkazilgan va foydalanishga topshirilgan Angren-Pop elektrlashtirilgan temir yo'lining ahamiyati juda katta. Mazkur temir yo'lining foydalanishga topshirilishi biz uchun juda katta imkoniyatlar yaratib berdi. Bu loyihaning amalga oshirilishida mamlakatimizning Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning o'rni beqiyos. Shu o'rinda Prezidentimizning 2013-yilda Xalq deputatlari Andijon viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasidagi nutqiga alohida to'xtalib o'tsak: "Biz uchun suvdek, havodek zarur bo'lgan yana bir muhim tarmoq – transport-kommunikatsiya sohasini rivojlantirish bo'yicha ham katta ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada Qamchiq dovoni orqali o'tadigan avtomobil yo'lini kengaytirish va rekonstruksiya qilish uchun keyingi 5 yilda qariyb 630 milliard so'm, jumladan, yo'l texnikasi xarid qilishga 8 milliard so'm yo'naltirilganini ta'kidlash lozim. Bu esa Farg'ona vodiysi, jumladan, Andijon viloyatiga va bu yerdan mamlakatimizning boshqa mintaqalariga yuk va yo'lovchi tashish hajmi va sifatini yanada oshirish imkonini bermoqda. Shu borada biz ko'pdan buyon o'ylab yurgan, bugungi kunga kelib ro'yobga chiqarish imkoni paydo bo'lgan yana bir muhim rejamiz haqida sizlarga axborot bermoqchiman. U ham bo'lsa, Angren-Pop yo'nalishida umumiy uzunligi qariyb 125 kilometr bo'lgan elektrlashtirilgan temir yo'l qurish loyihasini amalga oshirmoqchimiz"². Aynan shu yildan boshlab mazkur loyihani amalga oshirish ishlari boshlandi.

O'zbekiston bilan Xitoy o'rtasida eng qisqa temir yo'l tarmog'ini barpo etish o'zaro iqtisodiy va transport sohasidagi hamkorlikning dolzarb strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida Xitoyning Markaziy Osiyo mamlakatlariga, undan keyin Janubiy Osiyoga chiqishini ta'minlaydi. Angren-Pop elektrlashtirilgan temir yo'lining qurilishi esa bu borada "ko'priklar" vazifasini o'taydi. "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati va Xitoyning "China Railway Tunnel Group" kompaniyasi hamkorligida bunyod etilgan tunnel qurilishiga umumiy qiymati 455 million dollarlik mablag' yo'naltirildi.

Dengiz sathidan 2 ming 200 metr balandlikda joylashgan Qamchiq dovoni orqali o'tgan Angren-Pop elektrlashtirilgan temir yo'l liniyasining ishga tushirilishi Farg'ona vodiysi viloyatlari va mamlakatimizning boshqa hududlari o'rtasida temir yo'l orqali yuk va yo'lovchi tashish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, Xitoy–Markaziy Osiyo–Yevropa yangi xalqaro tranzit temir yo'l koridorining eng muhim bo'g'ini bo'lib xizmat qiladi.

Uzunligi 123,1 kilometr bo'lgan Angren-Pop temir yo'lining Qamchiq dovonidan o'tgan qismida 19,2 kilometrlik tunnel ochildi. Qolaversa O'zbekiston va Xitoy hamkorligida qurib bitkazilgan Angren-Pop temir yo'lining ochilishi biz uchun yiliga 10 million tonnadan ortiq yukni manziliga yetkazishga imkoniyat yaratib beradi.

Qisqacha aytganda O'zbekiston bilan Xitoy hamda dunyoning rivojlangan davlatlari bilan hamkorlikning shu zaylda taraqqiy etishi bizning mamlakatimiz uchun katta manfaat keltiradi. Sababi, mamlakatimizning ishonchli, mas'uliyatli, siyosiy va savdo-iqtisodiy ham-

¹В Узбекистане в перечне вновь созданных предприятий с участием иностранного капитала лидируют Китай и Россия - <http://china-uz-friendship.com/?p=9827>

²Prezident Islom Karimovning Xalq deputatlari Andijon viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasidagi nutqi - <http://uza.uz/uz/politics/prezident-islom-karimovning-xalq-deputatlari-andijon-viloyati-kengashining-navbatdan-tashqari-sessiyasidagi-nutqi-26.04.2013-26659>

kor sifatidagi xalqaro mavqeyini mustahkamlash, mamlakatning xorijdagi investitsion, turistik, madaniy-tarixiy jozibadorligini kuchaytirish, milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyalari va ilg‘or texnologiyalarni jalb qilish jarayonini jadal-lashtirish uchun ikki tomonlama va ko‘p tomonlama o‘zaro hamkorlik mexanizmlarini ishga solish O‘zbekistonni dunyoda rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirishga zaminy aratib beradi. Shuning bilan birga O‘zbekiston Respublikasi XXRning xalqaro arenadagi faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi. Buni biz Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatilganining 25-yilligi munosabati bilan Si Szinpin nomiga yo‘llagan maktubida ham guvohi bo‘lishimiz mumkin: “Biz Sizning rahbarligingizda amalga oshirilayotgan va chuqur o‘ylangan, vazmin tashqi siyosat yo‘li, yagona Xitoy siyosati, terrorizm, ekstremizm va ayirmachilikka qarshi kurashish borasidagi tadbirlarni doimo qo‘llab-quvvatlaymiz”¹.

МИЛЛИЙ БИРЛИК КОНЦЕПЦИЯСИ – АФҒОНИСТОНДА ТИНЧЛИК ВА БАРҚАРОРЛИКНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ИСТИҚБОЛИ СИФАТИДА

*Бўронов Сухроб
ТошДШИ 1-курс магистри
Илмий раҳбар: с.ф.д., проф. Жўмаев Р.*

Афғонистон учун бугунги давр ўта сиёсий қалтис вазият бўлиши билан биргаликда, керакли ўзгаришларни амалга ошириш учун қулай фурсатлардан бири ҳисобланади. Зероки, деярли 14 йил давомида мамлакатда тинчлик ва барқарорликни сақлаш учун жавобгар коалицион кучларнинг мамлакатни тарқ этиши натижасида давлат ва халқнинг биргаликда бутун назоратни ўз зиммасига олиш учун шароит вужудга келди. Афғон халқи учун ушбу даврни ўзига хос “сиёсий имтиҳон” даври дейиш мумкин. Афғонистон ўлкасидаги турли хил миллат ва элатларни миллий бирлик асосида бирлаштириш мамлакатнинг келажакдаги тақдирини, ундаги тинчлик ва барқарорликни таъминлаш, ташқи кучлар таъсиридан халос бўлиш ва фаровон ҳаёт қуришнинг жуда муҳим пойдевори бўлиб хизмат қилади.

Миллий бирликни таъминлашга бўлган эҳтиёж Афғонистонга совет қўшинлари кириб келиши арафасида анча кучайди. Шунингдек, миллий бирлик масаласи ушбу қўшинлар олиб чиқиб кетилгандан сўнг ҳам вужудга келган ўзаро этник бўлинишларни бартараф этиш мақсадида ижтимоий-сиёсий ғоя сифатида пайдо бўлди. 1993 йилнинг 13 мартида Пешоварда “Афғонистон миллий бирлиги ва ўзаро келишув кенгаши” (Шўрое тафохум ва Ваҳдате миллие Афғонистон) ташкил этилди. Унинг аъзолари афғон мужоҳид қўмондонлари, диний уламолар ва Афғонистон вилоят ва худудларининг турли хил миллат вакилларидан иборат эди². Советлар босқини даврида Афғонистонда этнослар ўртасида миллий бирликни таъминлашга бўлган ҳаракатнинг асосий

¹<http://www.uza.uz/uz/politics/xitoy-xalq-respublikasi-raisi-si-szinpin-janobi-oliylariga-31-12-2016>

² Yunas, S. Fida. Afghanistan. Political Parties, Groups, Movements and Mujahideen Alliances and Government (1879 to 1997), Peshawar, 1997. (RRT Library). <http://www.humanities.mcmaster.ca/%6Empeia/afghanistan.htm>

сабаби ислом омили эди. Шу жиҳатдан, ислом дини Афғонистондаги барча миллатларни бирлаштирувчи ғоявий асос эканлигини кўриш мумкин. Муҳсинжон Парварнинг эътироф этишича, барча афғонларни бирлаштирувчи ягона нарса ислом ҳисобланади¹. Эътиборли жиҳати шундаки, афғон сиёсий сахнасида “Толибон” ҳаракатининг пайдо бўлиши сабабларидан бири ҳам айнан ислом омили воситасида этник мурасимчиликни келтириб чиқариш эди. Афғонистонга сиёсий босим ўтказишнинг ўткир курали сифатида Исломобод томонидан тузилган толибларга қарши бутун бир афғон миллатларининг бирлигини таъминлашнинг имкони йўқ эди. Чунки, бу ерда афғон миллатларининг бирлигини таъминлаб турувчи ислом динидан ўзига хос таъсир воситаси сифатида фойдаланилди. Оқибатда, толибларни кўпчилигини паштунлар ташкил этганлиги сабабли, ушбу этнос ва бошқа этник гуруҳлар ўртасида зиддиятлар вужудга келди. Халқаро коалицион кучлар мамлакатга кириб келганда ҳам миллатлар ўртасида интеграцияга эришиш муҳим аҳамиятга эга бўлиб қолди. Айнан шу даврда, коалицион кучлар мавжудлигига қарамай, Афғонистондаги шарқий паштунлар Кобулга қарши чиқишди. Уларнинг норозилиги 2001 йилдан кейин Афғонистон ҳокимиятида паштунларнинг ўрни анча камайгани билан боғлиқ эди². Бунинг сабаби, афғон сиёсий сахнасида толибларнинг иштирокини таъқиқлашни кўзда тутувчи 2001 йил ноябрь қарори билан боғлиқ эди. Паштун лидерларининг асосий қисми “Толибон” ҳаракатига жалб қилинганлиги сабабли, 2001 йилда улар сиёсий жараёнлардан мосуво бўлди. Бошқа томондан, Кобулдаги марказий ҳукуматнинг асосий тузилмаларида этник озчилик вакиллари иштироки кўрсатилган эди. Умумий бўлиб, ҳукуматнинг 29 аъзосидан 17 таси Шимолий Альянс вакиллари эди³. Шу жиҳатдан олиб қараганда, паштунларнинг Кобул ҳокимиятидаги этник озчилик фаолиятига миллатчилик сифатида қараши миллий бирлашувга тўсқинлик қилувчи асосий омиллардан бири бўлиб қолди. Ташқи томондан Покистон томонининг паштунларни қўллаб-қувватлаши уларни бошқа этнос вакиллари билан муносабатда бирликка эришишига бўлган ҳаракатларни йўққа чиқарарди.

Замонавий босқичда Афғонистонда миллий бирликни таъминлаш наинки, бутун афғон халқини тинчлик ва барқарорлик йўлида биргаликда ҳаракат қилишга ундовчи омил ҳисобланади, балки миллатлар ўртасида ўзаро ҳурмат, ҳамжиҳатлик ва тотувликка эришишнинг муҳим шarti ва истиқболи сифатида гавдаланади. Зероки, Афғонистоннинг азалий орзуси ҳисобланган тинчликни ҳеч қандай ташқи аралашувларсиз, фақат афғон халқининг ўзи орқали таъминлаш долзарб аҳамиятга эга. НАТО раҳбарлигидаги ISAF деб номланган халқаро коалицион кучларнинг Афғонистонни тарқ этиши натижасида миллатлар ўртасида янги фуқаролар урушининг бошланиш хавфи ва эҳтимоли миллий бирлик масаласини афғон халқи учун сиёсий мазмунга айлантирди. Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти Ислом Каримов бу хусусида қуйидагича таъкидлаган эди: “Воқеаларнинг ана шундай йўналишда ривожланиши бугунги қарама-қаршиликнинг миллатлар ва элатлар ўртасидаги можарога айланиб кетиши,

¹محسن جان پرور. همگرایي و واگرایي در افغانستان. کابل، ۱۳۸۹. ص. ۳۸.

Муҳсинжон Парвар. Афғонистондаги келишувлар ва ихтилофлар. - Кобул, 2011. – Б.38.

²Акимбеков Султан, Пастухов Евгений. Проблемы афганского урегулирования до и после 2014. –Астана-Алматы, 2014. –С. 22.

³Ўша жойда.

Афғонистонда фуқаролар урушининг янгидан авж олиши, минтақада турли хавф-хатарлар пайдо бўлиши кўпгина нуфузли экспертлар томонидан истисно этилмаяпти”¹.

Бугунги кунга келиб, афғон халқининг миллий бирлик сари қадам босиши мамлакат келажаги учун асосий пойдевор вазифасини ўтайди. Бунинг асосий сабаби сифатида мамлакат президенти Ашраф Ғани ва ижроия ҳукумати раиси Абдуллоҳ Абдуллоҳ ўртасида 2014 йил 21 сентябрда имзоланган келишувга биноан, янги ҳукуматнинг “Афғонистон миллий бирлик ҳукумати” (ҳукумате ваҳдате милли - *حکومت وحدت ملی*) деб номланганлигига алоҳида урғу бериш жоиздир². АҚШ Давлат котиби Жон Керрининг таъкидлашича, бу икки шахс Афғонистон халқини биринчи ўринга қўйди ва ўз давлатлари тарихида биринчи бўлиб, фаровон демократик ўзгаришларни кафолатлаган миллий бирликни бошлаб беришди³. Бу икки шахснинг ҳоқимиятни тақсимлашдаги келишуви Афғонистон тарихида янги саҳифани очиб берди. Албатта, ушбу келишув Афғонистонда миллатлараро муносабатларда ўзаро миллий бирликни яратиш учун қулай имконият ҳисобланади. Бироқ, улар ўртасида келиб чиқиши мумкин бўлган ихтилоф Афғонистонда миллий бирлашув масаласини асрлар томон улоқтириб ташлаши мумкин. Бунинг асосий сабаби шундан иборатки, президентлик сайловида бир-бирига рақиб бўлган ушбу афғон сиёсий етакчилари фақат АҚШ воситачилигида ўзаро келишув имзолашга рози бўлишди. Ваҳоланки, икки номзоднинг ҳеч бири бундай келишув ҳақида тасаввур қилмаган эди. Бу келишув бир томондан, афғон халқини тинчлаштириш учун амалга оширилган бўлса, бошқа томондан, АҚШнинг афғон сиёсий саҳнасидаги таъсирини кўрсатиб берди. Хусусан, 2016 йил 10 апрел санасида Кобулга ташриф буюрган АҚШ Давлат котиби Жон Керри мамлакат президенти Ашраф Ғани ва ижроия ҳукумати раиси Абдуллоҳ Абдуллоҳ билан бўлган учрашувда Афғонистон миллий бирлик ҳукуматининг ваколат муддати 5 йил эканлиги ва икки йил оралиғида Лўя Жирга ўтказилишини таъкидлаб ўтди. Унинг фикрига кўра, Лўя Жирганинг ўтказилиши миллий бирлик ҳукуматининг ваколат муддати тугагини англамайди⁴. Жон Керрининг ушбу фикрлари кўпчилик афғон сиёсий доиралари ва таҳлилчилари томонидан Афғонистоннинг ички ишларига аралаштириш сифатида баҳоланди. Уларнинг қайд этишича, миллий бирлик ҳукуматининг ваколат муддати давом этиши ёки этмаслигини хорижий бир шахс эмас, балки ушбу ҳукумат бошлиқлари ҳал этади. Жумладан, сенат раиси Фазлҳодий Муслимёрнинг таъкидлашича, президент ва ижроия ҳукумати раиси мамлакат сиёсий муаммоларини ҳал этишда келишувга эришмаган ва шу сабабдан ушбу муаммоларни ҳал этиш учун ташқаридан айрим шахслар келиб, Афғонистоннинг ички ишларига аралашмоқда⁵.

¹Каримов И. А. Инсон манфаати, ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш, ҳаётимизнинг янада эркин ва фаровон бўлишига эришиш – бизнинг бош мақсадимиздир.– Т.: НМИУ, 2012. – Б. 13.

²فرزاد رمضانى بونش. چالشهای فراروی دولت وحدت ملی.

(*Фарзод Рамозони Бунеш. Чолешҳое фаророе давлате ваҳдате милли*) // Фарзод Рамозони Бунеш. Миллий бирлик давлати олдида турган муаммолар. <http://www.afghapaper.com>

³Dipnote Bloggers. Formation of a Government of National Unity and Outcome of Elections in Afghanistan. <http://www.w3.org/MarkUp/DTD/xhtml-rdfa-1.dtd>

⁴محور ملی. سال دوم، شماره ۲۲، شنبه، ۱۶ اپریل ۲۰۱۶ میلادی. ص. ۵.

(*Меҳваре мелли. Соле дуввум, шўмора 22, шанба, 16 апрел 2016 милоди. С. 5.*) // Меҳваре мелли газетаси. Иккинчи йил, № 22, шанба, 2016 йил 16 апрел. - Б. 5.

⁵فضل هادی مسلم یار. عار است که مصلحت ما را کری می اندیشد. ماندگر، شماره ۱۷۵۸، دوشنبه، ۱۱ اپریل ۲۰۱۶ میلادی. ص. ۳.

Таассуфки, афғон муаммосини давом этаётганлигининг асосий сабабларидан бири сифатида шуни айтиш мумкинки, ушбу муаммони ҳал қилишда бир қатор келишувлар фақат “қоғоз”да қолиб кетмоқда.

Халқаро муносабатларда бугун консенсуснинг “Афғонистон варианты” ҳам пайдо бўлган десак муболаға бўлмайди. Консенсусда “афғон варианты”нинг характерли жиҳати шундан иборатки, унда томонлар келишуви юзакичиликка асосланиб, амалда ўз билган йўлларида қолишмайди. Шунинг учун ҳам Афғонистондаги гуруҳлар ўртасидаги шу вақтгача имзоланган ёки келишилган битимлар расмий ва назарий жиҳатдан бенуқсон бўлиши мумкин, бироқ уларнинг амалиётга ярамаётганлиги афғон фожеасининг серқирралигини кўрсатиб турибди¹. Аммо шуни таъкидлаб ўтиш жоизки, ушбу келишувлар имзоланмаса ёки амалга оширилмаса, шубҳасиз, Афғонистондаги барча миллат ва элатлар бир-бирига қарши курашишига ва ишончсизлик руҳиятининг сакланиб қолишига олиб келади. Бу эса мамлакатда чигал бўлган вазиятни яна-да мураккаблаштириб юбориши мумкин. Мамлакат ижроия раиси Абдуллоҳ Абдуллоҳ ушбу келишув хусусида тўхталар экан, “Биз Афғонистон халқининг бирлиги учун ва Афғонистон халқининг тинчлигини ҳимоя қилиш, халққа хизмат қилиш мақсадида бирлашдик. Биз ушбу жараёнда халқнинг азоб-уқубатларини камайтириш ҳамда фаровон ва гўзал ҳаёт тарзини яратиш учун биргаликда ҳаракат қиламиз”².

Шу нарсага эътибор қаратиш лозимки, миллий бирликни таъминлаш айнан ушбу шахслар ёки бошқа сиёсий етакчиларга боғлиқ эмас. Ушбу бирликни амалга оширувчи ягона куч бу афғон халқининг ўзи ҳисобланади, яъни барча миллат ва элатларнинг ижтимоий ва сиёсий мавқеидан қатъий назар, ўзаро иттифоқ сифатида уйғунликка эришишигина ушбу жараёни рўёбга чиқарувчи калит ҳисобланади. Зероки, “Афғон халқи ва унинг раҳбарлари ўз мамлакати тараққиётининг қайси йўлдан боришини ва тинч ҳаёт қандай ҳукумат бошчилигида тикланишини ўзлари мустақил равишда танлаб олишлари керак”³. Шу нуқтаи назардан ҳам фақатгина афғон халқининг ўзи танлаган йўл бу ерда тинчлик ва осойишталикни ўрнатиш ва мамлакат келажагини барқарор суръатлар билан ривожланиши учун замин яратади. Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти Ислоҳ Каримов эътироф этганидек, “Агар афғон халқининг ўзига қўйиб берса, шак-шубҳасиз, бу уруш ҳеч қачон бунча узоқ давом этмасди. Афғон халқи - кўпни кўрган халқ. Бу халқни зўравонлик билан бўйсундириб бўлмаслигини XIX асрдан бошлаб бугунги кунгача баъзи йирик давлатларнинг бу ерга қурол билан келиб, охир-оқибатда енгилиб кетгани ҳам яққол кўрсатиб турибди”⁴.

(Фазлҳодий Мусалламёр. *Ор аст ке маслаҳате мо ро Керри меандишад. Мондегар, шўмора 1758, душанба, 11 апрел 2016 милоди. С. 3.*) // Фазлҳодий Муслимёр. Бизнинг ички ишларимиз тўғрисида Керри ўйлаши биз учун шармандалиқдир. Мондегар газетаси, № 1758, душанба, 2016 йил 16 апрел. - Б. 3.

¹Жумаев Р., Убайдуллаев У. Конфликтология асослари. –Т.: Академия, 2000. –Б.127.

²محمد منصوریان. برنامهٴ حومو متحدتملى، خدمتبهشماست.

(Мухаммад Мансуриён. *Барномае ҳукумате ваҳдате милли, хедмат ба шўмо аст*) // Мухаммад Мансуриён. Миллий бирлик ҳукумати дастури - сизнинг хизматингизда.

³Каримов И. А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. 8 – жилд. –Т.: Ўзбекистон, 2000. – Б. 35.

⁴Каримов И.А. Эришган марралар билан чегараланмасдан, бошлаган ислоҳотларимизни янги босқичга кўтариш - бугунги кундаги энг долзарб вазифамиздир. – Т.23. –Т.:Ўзбекистон, 2015. – Б. 92.

Афғонистонда миллий бирлик масаласини таҳлил қилган ҳолда, миллий бирликни таъминлаш ва уни мустаҳкамлаш учун самарали ўринни эгалловчи асосий омиллар ҳақида тўхталиш жоиз:

- ҳар бир миллат ва элат манфаатларини ҳимоя қилувчи сиёсий етакчиларнинг миллий бирлик ҳукуматида ўзаро муроасага эришиши ва фақат “афғон” халқи манфаатларини ўзининг асосий бурчи деб ҳисоблаши;

- мамлакатнинг этник бирлашмалари ўртасида ҳамкорликларни йўлга қўйиш. Бу борада ҳар бир миллат ва элатнинг анъана, урф-одат ва қадриятларини ҳурмат қилган ҳолда, улар ўртасида мана шу қадрият ва анъаналарни ўхшаш ва яқинлигини кўзда тутувчи институтларни ташкил этиш;

- ислом динидан этнохудудий бўлинган давлатни бирлаштиришга қодир ягона миллий мафкура сифатида фойдаланиш¹;

- маҳаллий органлар фаолиятида миллий бирликка ундовчи дастур ва лойиҳаларни амалга ошириш;

Хулоса сифатида таъкидлайдиган бўлсак, Афғонистондаги ҳозирги вазият жаҳон сиёсий майдонига таъсир ўтказиши мумкин бўлган энг баҳсли масалалардан бири ҳисобланади. Афғон муаммосини бартараф этишга доир янгича ёндашувларни ишлаб чиқиш эса замонавий босқичнинг ниҳоятда муҳим мавзуси саналади. Замонавий босқичда Афғонистондаги вазият ва ҳолатни таҳлил қилган ҳолда, ушбу муаммони ҳал қилишда ташқи омиллардан кўра, ички омиллар асосий ўринга эга бўлаётганини кўришимиз мумкин. Айнан ҳозирги мураккаб бир шароитда мамлакатнинг барча миллат ва элат вакиллари ўртасида миллий бирликни таъминлаш ички сиёсий барқарорлик, мамлакат тинчлиги ва осойишталигини амалга ошириш учун янгича ёндашув ҳисобланади. Афғон халқининг миллий бирлиги концепцияси Афғонистондаги вазиятни барқарорлаштиришда энг етакчи ва устувор йўналиш эканлигини таъкидлаш жоиз.

К ВОПРОСУ ОБ ОБЪЕДИНЕНИИ КОРЕИ

Атажанов Шерзод

Студент 2-го курса ТашГИВ

Научный руководитель: д.и.н., проф. Каримова Н.

Плодом этих доверительных отношений стало принятие РК и КНДР в состав ООН. В 1991 году была проведена официальная встреча министров КНР и РК, в ходе которых были разрешены некоторые противоречивых проблем, в нормализации которых были заинтересованы обе стороны².

После нормализации отношений экономические отношения между странами росли в геометрической прогрессии. Объем торговли между двумя государствами на 1994 год составил 11,7 миллиарда долларов, а спустя несколько лет, в 1996 году Китай занял третье место в списке основных экономических партнеров Южной Кореи. В 1996 году этот показатель превысил отметку в 20 миллиардов долларов³. В 1993 году

¹Осадчий М. Генезис китайско-южнокорейских отношений во второй половине XX в. // http://evolutio.info/index.php?option=com_content&task=view&id=771&Itemid=113

² Торкунов А., Денисов В., Ли В. Корейский полуостров: метаморфозы послевоенной истории // http://www.modernlib.ru/books/li_vladimir/koreyskiy_poluostrov_me-tamorfozi_poslevoennoy_istorii/read/

³Бизнес // Коммерсантъ. 1994. 5 апр. № 60/528. URL : <http://kommersant.ru/doc/75238/print>

южнокорейские фирмы активно инвестировали в экономику КНР. О своем намерении сотрудничать с компаниями КНР в производстве автокомпонентов заявили 20 южнокорейских фирм, среди них «большая авто-тройка»: «Hyundai», «Kia» и «Daewoo».

Переходным моментом во взаимоотношениях двух стран послужил визит председателя КНР Ху Цзиньтао в Республику Корею, который стал вторым официальным визитом председателя КНР. Ху Цзиньтао озвучил четыре предложения, которые могли бы послужить новым витком в развитии отношений двух стран. Первое предложение было акцентировано на укреплении взаимного политического доверия. Второе – на расширении сотрудничества в сфере экономики. Третье – заимствование опыта, полученного в гуманитарной сфере, а также активизация взаимодействия в области культуры, науки, образования, увеличение обмена молодежи обеих стран. Четвертое – проведение консультаций по международным вопросам, а также координация совместных действий в определенных направлениях¹.

К началу 2005 года свыше 30 тысяч предприятий РК вложили финансовые средства в экономику Китая на общую сумму в 27 миллиардов долларов. В 2007 году Китай уже являлся самым большим государством в мире по привлечению южнокорейских инвестиций. Южно-корейские корпорации «LuckyGoldstar», «Samsung» и другие прочно закрепились на китайском рынке бытовой электроники, холодильников, стиральных машин и успешно отражали растущую конкуренцию национальных производителей КНР².

В конце XX столетия Китай и Южная Корея присоединились к клубу «экономических чудес», выведя свое промышленное производство на новый уровень. Южная Корея сегодня – поставщик самых узнаваемых товаров. Основные статьи ее экспорта – наукоемкая, металлургическая и нефтехимическая продукция. Китай же ратует за развитие своей химической и тяжелой промышленности. Такое взаимодополнение предопределяет их тесное сотрудничество. Неудивительно, что Пекин занимает первую позицию в списке торговых партнеров Сеула.

Однако всем понятно, что к настоящему моменту в политическом плане Сеул и Пекин все еще находятся по разные стороны «баррикад». Южная Корея занимает позицию союзника своего нового «старшего брата» – Соединенных Штатов, которые являются главным конкурентом Китая в борьбе за глобальное лидерство в текущем столетии. При этом, если сравнивать с периодом администрации предыдущего президента Ли Мён Бака, в последние годы РК стала еще активнее следовать в фарватере политики Вашингтона. Такой расклад предопределяет преграды на пути разрешения разногласий между Китаем и Южной Кореей и в других областях.

Уже сейчас южнокорейским компаниям приходится считаться с все-усиливающимся конкурентным давлением Китая с его резервами дешевой рабочей силы и быстро растущим внутренним рынком. В будущем это может привести к тому, что традиционная корейская продукция будет становиться все более неконкуренто-

¹ China and South Korea Joined in Criticism of Japan for its View of History // <http://www.cnd.org/mirror/nanjing/Watch.html> (дата обращения: 12.02.2012); China // <http://www.au.af.mil/au/awc/awcgate/sa97/sa97ch4.htm> (дата обращения: 12.02.2012).

² Обзор: Китай и РК углубляют всестороннее партнерство. 2005. 16 дек. // <http://kz.chineseembassy.org/rus/ztd/huchufang/fanghan/t226826.htm>

способной, проигрывая аналогичным китайским товарам. Так, определенную опасность для южнокорейских компаний в сфере высоких технологий уже представляют китайские гиганты Lenovo и Huawei¹.

Несмотря на это, ситуация сложившаяся на данном этапе, вынуждает обе стороны к тесному торгово-экономическому сотрудничеству, а также в области IT технологий и культуры.

¹ Кожевникова А.Д. Китайско-южнокорейские отношения: современные реалии и перспективы взаимовыгодного сотрудничества // Международный студенческий научный вестник. – 2016. – № 2. // <https://www.eduherald.ru/ru/article/view?id=14680>

ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ИҚТИСОДИЁТИ ВА МАМЛАКАТШУНОСЛИК

YAPONIYADA RAQAMLI IQTISODIYOTNING BUGUNGI HOLATI VA UNING IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI O‘RNI

*Maxatov Sirojiddin
ToshDSHI 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: i.f.n. N.Xolmatov*

Zamonaviy iqtisodiyotlarni tavsiflashda axborot iqtisodiyoti, bilimlar iqtisodiyoti, innovatsion iqtisodiyot, yashil iqtisodiyot kabi tushunchalardan foydalanilmoqda. Chunki, bugungi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotini an’anaviy yondoshuvlar orqali tavsiflash etarli bo‘lmay qolayapti. SHunday zamonaviy tushunchalardan biri raqamli iqtisodiyotdir. Raqamli iqtisodiyot yuqorida qayd etilgan tushunchalar singari postindustrial taraqqiyot bosqichiga xos tendensiyalardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda “Raqamli iqtisodiyot” aksariyat rivojlangan mamlakatlar, jumladan Yaponiya uchun iqtisodiyotni rivojlantirish hamda raqobatbardoshlikni oshirishda asosiy kalit rolini o‘ynamoqda. Ushbu maqolada ham Yaponiya iqtisodiyotining ma’lum sohalarida muhim bo‘lgan ushbu sohadagi bugungi zamonaviy o‘zgarishlar to‘g‘risida mulohaza yuritiladi.

Umuman olganda, raqamli iqtisodiyot tushunchasi raqamli texnologiyalarga yo‘naltirilgan bozorni ifodalashda qo‘llaniladi. Odatda, u internet do‘konlar orqali amalga oshiriladigan axborot, tovarlar yoki xizmatlar savdosini o‘z ichiga oladi¹. “Oxford Digital Economy Collaboration Group”ning izoh berishicha, raqamli iqtisodiyot global internet tarmog‘ida elektron tijorat orqali tovarlar va xizmatlar savdosini tashkil etish hamda yuritishni nazarda tutib, uchta asosiy yo‘nalishga bo‘linadi:

- A) jamiyat miqyosida infratuzilmani qo‘llab-quvvatlash va yanada takomillashtirish;
- B) elektron biznes (e-biznes) rivojlanishiga har tomonlama shart-sharoit yaratish;
- C) elektron savdo (e-savdo) jadallashishini tizimli rag‘batlantirish².

Yaponiyada elektron biznes, uning bozor hajmi va bandlikdagi o‘rni har yili faol ravishda o‘sib borishi kuzatilmoqda. (misol uchun, AKT (axborot va kommunikatsiya texnologiyalari) hissasiga YaIMning 9%i, ish bilan bandlikning 7%i to‘g‘ri keladi). Korxonalar o‘rtasida internetdan foydalanish daajasi 2013-yilda 99,9% ni tashkil qilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich bugungi kunga qadar o‘zgarmasdan qolmoqda³. Shunga qaramay, faqatgina 17% korporatsiyalargina AKT dan foyda olish maqsadida foydalanmoqdalar⁴. Bunga sabab qilib, odatda, Yaponiyada axborot va kommunikatsiya texnologiyalariga xajatlarni qisqartirish vositasi sifatida qaralishi ko‘rsatiladi.

2015-yilda internet do‘konlarning raqamli xaridorlari 77 million nafarga yetdi hamda bozor hajmi o‘tgan yilga nisbatan 7%ga o‘sib, 104,99 milliard yevroni tashkil qildi. Bugungi kunda yaponiya aholisining 91% yoki 100,3 million nafari internetdan foydalanadi. Raqamli xaridorning elektron savdoda qilgan o‘rtacha xarajati miqdori 2013 yilni 2016-yilga

¹ <http://www.oecd.org/daf/competition/The-Digital-Economy-2012.pdf>

² <http://odec.org.uk/the-concept-of-a-digital-economy/>

³ <http://www.stat.go.jp/english/data/handbook/c0117.htm>

⁴ <http://www.soumu.go.jp/johotsusintokei/whitepaper/eng/WP2015/key-points.pdf>

taqqoslaganda 15% ga o'sib, 1,272 dollardan 1,488 dollarga yetdi¹. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2016 yilda 76,9 million aholi (jamiga nisbatan 70%) online savdolarida qatnashgan bo'lib, 10,2 % yapon xaridorlari savdoni xorijiy internet saytlari (asosan AQSH va Xitoy) orqali amalga oshirganlar².

Yaponiyada mobil aloqa yuqori darajada rivojlangan bo'lib, 2014 yilda mobil internet foydalanuvchilari 66 millionni (66%) tashkil qilgan bo'lsa, bugungi kunda ularning soni 93 million (87%)ga yetdi. Umuman olganda, hozirda yapon internet foydalanuvchilarini qamrab olish nuqtai nazaridan quyidagicha tavsiflash mumkin: mobil internet aholining 87%ini, kompyuter yordamida internet manbalaridan foydalanish 86%ini o'z ichiga olgan bo'lsa, smartfon vositasida 74%, planshet oqali esa 29% aholi internet xizmatidan foydalanadi³.

2015 yil yakunlariga ko'ra keng polosali aloqa abonentlari soni 124 millionni tashkil qilib, ula o'rtasida 3G mobil telefon foydalanuvchilari 67,78 millionlik ko'rsatkich bilan eng yuqori o'rinni band qilib, jamiga nisbatan 54,6 %ni tashkil etdi. Keying o'rinda esa FTTH (Fiber to the Home – ultra yuqori tezlikda internetni qo'llab-quvvatlaydi, bir sekunda ma'lumot uzatish tezligi 1Gb) joylashgan bo'lib, jamiga nisbatan 21,5 % (26,61 mln) ulushga ega bo'ldi.

Qo'shimcha ravishda shuni aytish mumkinki, so'nggi yillarda BWA (keng polosali simsiz aloqa) foydalanuvchilari soni ham o'sish tendensiyasini ko'rsatib kelmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2015 yilda BWA foydalanuvchilari soni o'tgan yilga nisbatan 16% ga o'sib, 19,47 millionga yetdi.⁴

Hozirda Yaponiya 37,22 million keng polosali tarmoq foydalanuvchilari bilan dunyoda Xitoy (200,48 mln) va AQSH (97,98 mln) dan keyin uchinchi o'rinni egallamoqda.

AKT (axborot va kommunikatsion texnologiyalar). Yaponiya tarixan ushbu sohada yirik bozor ulushiga ega bo'lib, mamalakatda ko'plab yetakchi elektronika brendlari faoliyat yuritadi. Shunga qaramay, xizmat ko'rsatish sohasi asosiy daromad manbaiga aylangan bugungi iqtisodiyot sharoitida Yaponiyaning bu ustunligi yo'qolmoqda. Katta o'yinchilar o'z imkoniyatlarini qayta yo'naltirishga harakat qilgan holda, bozorga kirish maqsadida yangi biznes sohalarini izlamoqdalar.

Yapon AKT bozori 2013 yilda 325 milliard dollarni tashkil qilgan bo'lib, bu bilan u dunyoda uchinchi va Osiyoda ikkinchi o'rinni egalladi hamda global axborot kommunikatsiya texnologiyalari bozorida 8,8 % ulushga ega bo'ldi. AKT yapon sanoatining 11% ini egallagan holda yetakchilik qiladi. Mamlakatning aksariyat kompaniyalari global AKT reytingida yuqori o'rinlarni egallaydi (Toshiba, Panasonic, Hitachi, Sony).⁵

AKT xizmatlari bo'yicha yapon kompaniyalarining yilik savdo hajmi quyidagi ko'rinishda (AQSH dollarida)⁶:

¹ Japan B2C E-commerce Report 2016


² <http://www.thepayers.com/ecommerce-facts-and-figures/Japan/4>

³ https://www.digitalriver.com/marketing_material/japan-infographic/

⁴ <http://www.stat.go.jp/english/data/handbook/c0117.htm>

⁵ www.jetro.go.jp/ext_images/canada/pdf/ictseminarseries.pdf

⁶ www.jetro.go.jp/ext_images/canada/pdf/japanictmarketpresentation.pdf



Shunga qaramay, zamonaviy yapon AKT sohasi rivojlanishi oldida xalqaro bozordagi raqobatbardoshlikni yanada mustahkamlash bo'yicha bir qancha muammolar turibdi. Bu muammolar "Yapon AKT sohasini yanada kuchaytirish strategiyasi 2014"da muhokama qilingan. Ularning asosiylari quyidagilar:

1. Faqatgina 17% kompaniyalargina AKTdan foyda olish maqsadida foydalanadilar. Bu yapon strategiyasi maqsadlariga mos kelmaydi. Mazkur darajani yuqoriga ko'tarish lozim, deb hisoblanmoqda.

2. Yangi AKT echimlari bo'yicha qarorlarni sekin qabul qilish holatlari tez-tez uchrab turibdi. Shu sababli qarorlar qabul qilishga to'siq bo'layotgan tashkiliy, psixologik, ijtimoiy yoki iqtisodiy mazmundagi omillarga chek qo'yish maqsadga muvofiqligi ta'kidlanmoqda.

3. AKT yaratayotgan imkoniyatlarga o'z vaqtida moslashish va uning innovatsion ahamiyatini to'la tushunib etish darajasi yetarli emasligi ham ko'rsatib o'tilgan.

4. Aksariyat postindustrial jamiyatlarga xos bo'lgan elektron hukumat xizmatidan foydalanishga aholi qiziqishining strategiya maqsadlariga mos kelmasligi yoki muvofiq emasligi aniqlangan.

5. Jamiyat miqyosida turli ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-maishiy muammolarni hal qilishda elektron tizim orqali yechim topishga aholi o'rtasida ishonchning kamligi ham belgilab o'tilgan.

6. Aholining turli qatlamlarida biznes yuritish bo'yicha ma'lumot, bilim va tajribaning yetishmasligi hamda bu muammoga barham berish zarurligi aytilgan.

7. Yuqori urbanizatsiya darajasi mamlakatda AKT imkoniyatlaridan foydalanishda hududiy tafovutlarni keltirib chiqarayotganligi ta'kidlangan, ya'ni shahardan tashqari aholi punktlarida mazkur masalaga e'tibor past darajada ekanligi qayd qilingan.

O'zbekistonda AKT sohasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu sohaga tegishli davlat dasturlari, turli loyihalar ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur jarayonga xorijiy kompaniyalar, alohida mutaxassilar jalb etilmoqda. Ta'kidlash o'rinliki, bu sa'y-xarakatlar mamlakatimiz iqtisodiyotining tarkibiy tuzilishi takomillashishiga, ishlab chiqarilayotgan mahsulot, ko'rsatilayotgan xizmatlarning tannarxi pasayishiga va natijada raqobatbardoshlik darajasi ko'tarilishiga olib keladi. Demak, mazkur sohadagi xalqaro tajribani ham chuqur va

atroflicha o'rganishning ahamiyati yuqori hisoblanadi. Yaponiyaning raqamli iqtisodiyotni jadal rivojlantirish borasidagi siyosatining xususiyatlarini bilish va undan amaliy xulosalar chiqarish kelgusida iqtisodiyotimizda AKTning rolini oshirishda ijobiy natijalar berishi mumkin.

INNOVATSION KLASTERLARNI SHAKLLANTIRISHNING JANUBIY KOREYA TAJRIBASI

*Maxmasobirova Nigora
ToshDSHI 1-kurs magistranti
Ilmiyrahbar: i.f.d., prof. Rasulov T.S.*

Bugungi kunda Koreya Respublikasi dunyoning innovatsion jihatdan eng taraqqiy etgan mamlakatlaridan biri hisoblanadi. Global innovatsiyalar indeksi 2016 da mamlakatning 128 davlat ichidan 11-o'rinni¹, Bloomberg innovatsiyalar indeksi 2017 da 50 ta mamlakat ichidan 1-o'rinni egallagani buning yaqqol dalilidir². Koreya Respublikasida mamlakat YaIMning 4.3 foizi ITTKI (ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari) ga yo'naltirilmogda va bu ko'rsatkich bo'yicha mamlakat dunyoda yetakchilik qilmogda. ITTKIni moliyalashtirishda biznes va tadbirkorlik subyektlarining ulushi yuqori bo'lib, ular ITTKI umumiy xarajalarining 75.3 foizini moliyalashtirmogda. Shu bilan bir qatorda, mamlakatning innovatsion jihatdan taraqqiy etishi, iqtisodiy rivojlanishida innovatsion va sanoat klasterlarining o'rnini ham yuqori baholash mumkin. Zero, Global Innovatsiyalar indeksi 2016 ga ko'ra mamlakat klaster rivojlanishi ko'rsatkichi bo'yicha jahonda 22-o'rinda turadi³.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi Koreya Respublikasining innovatsion klasterlarni shakllantirish tajribasini tahlil qilishdan iboratdir.

Klaster deganda avvalo, hududiy jihatdan yaqin bo'lgan hamda funksional jihatdan bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan turli xil subyektlar, ya'ni tashkilotlar, ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish korxonalari, ilmiy-tadqiqot va ta'lim maskanlarining birlashmasi tushuniladi⁴. Klaster ilmiy tashkilotlarga birlashtirilgan turdosh tarmoqlar ichidagi iqtisodiy faollikning hudud jihatdan chegaralangan ko'rinishi hamda vertikal ishlab chiqarish zanjirlari, ularning tor doirasidir. Klasterdagi ishlab chiqarish jarayonining o'zaro bir-birini to'ldiruvchi bosqichlari klasterning yadrosini yaratadi (misol uchun, xom-ashyo yetkazib beruvchi- ishlab chiqaruvchi - sotuvchi - iste'molchi klasteri).

Klasterlarning eng yuqori samaradorlikka ega va mamlakatda innovatsion faoliyatni jadal tarzda rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi turidan biri bu-innovatsion klasterdir. Innovatsion klaster innovatsiyalar, texnologiyalar sohasida faoliyat olib boruvchi, geografik jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan o'zaro bog'liq kompaniyalar, tashkilotlarning guruhi bo'lib,

¹ Cornell University, INSEAD, and WIPO (2016): *The Global Innovation Index 2016: Winning with Global innovation.* – Ithaca, Fontainebleau, and Geneva, 2016.–xviii p.

² www.bloomberg.com/amp/news/articles/2017-01017/sweden-gains-south-korea-reigns-as-world-s-most-innovative-economies

³ Cornell University, INSEAD, and WIPO (2016): *The Global Innovation Index 2016: Winning with Global innovation.* – Ithaca, Fontainebleau, and Geneva, 2016.–236-p.

⁴ <http://www.promcluster.ru/> Торгово-промышленная палата Российской Федерации. Кластеры в федеральном законодательстве и законодательстве. Москвы.

innovatsion soha klasterlarida yangi tovar yoki xizmat bir nechta firma yoki tadqiqot institutlarining sa'y-harakati natijasida yaratiladi. Natijada, ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish, ilmiy tadqiqot ishlarini amaliyotga va ishlab chiqarishga keng joriy qilish imkoni tug'iladi. Shu sababli ham dunyoning iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarida iqtisodiyotni rivojlantirishning klasterli yondoshuviga katta ahamiyat qaratilmoqda.

Janubiy Koreyada innovatsion klasterlarni shakllanishi bevosita mamlakatda amalga oshirilgan sanoatlashtirish islohotlari bilan bog'liqdir. Koreya Respublikasida sanoatni kompleks rivojlantirish 1960-yildan boshlandi va 2000-yillar so'ngigiga qadar sanoat eksportning deyarli 70 foizi, ishlab chiqarishning 60 foizi tashkil qilar va iqtisodiy faol aholining katta qismi sanoat tarmoqlarida band edi. Ammo, bu davrga kelib ilmiy tadqiqot va ishlanmalarining ishlab chiqarishga keng jalb etilmasligi, yuqori malakali kadrlarni jalb etishdagi qiyinchiliklar, intellektual xizmatlarni ko'rsatishdagi kamchiliklar sanoat klasterlarini shakllantirish masalasini kun tartibiga qo'ydi. Natijada hukumat tomonidan Daeduk ITTKI maxsus tumani (Daeduk R&D Special District), Osong bio-sog'lik ilmiy parki (Osong Bio-Health Science Park), Sangam van Seulda yuqori texnologik IT kompleksi (High-Tech IT Complex) kabi sanoat klasterlari shakllantirildi. Bu jarayonda nodavlat sektor ham faol qatnashib, Suvon va Gyeonggida Samsung Electronicsning Yarim o'tkazgichli raqamli vodiysi (Samsung Electronics' Semiconductor Digital Valley), Paju va Gyeonggida LG kompaniyasining LCD klasteri vujudga keldi¹.

2002-yilda hukumat tomonidan "Sanoat tadqiqot klasterlarini qo'llab-quvvatlash dasturi" qabul qilindi. 2004-yilda qabul qilingan "Sanoat kompleksi klaster dasturi" (Industrial Complex Cluster Program: ICCP) esa sanoat klasterlarini innovatsion jihatdan rivojlantirish, ya'ni sanoat klasterlarini innovatsion klasterlarga aylantirishda muhim rol o'ynadi. Ushbu dastur 3 bosqichda amalga oshirildi²:

1. 2005-2008-yillar – Shakllantirish davri: sanoat klasterlarini shakllantirish bazasini yaratish davri;
2. 2009-2012-yillar – O'sish davri: klasterlar tarmog'ini faollashtirish davri;
3. 2012-2016-yillar – Mustaqillik davri: avtonom innovatsion klasterlarni shakllantirish bosqichi.

2005-yilda mamlakatning 7 ta hududida pilot innovatsion klasterlar yaratildi: Vonju (tibbiyot), Gumi (elektronika), Ulsan (avtomobilsozlik), Changvon (mashinasozlik), Gvanju (fotonik), Gunsan (avtomobil va mashinasozlik), Banvol-Shihva (qismlar va materillar). Shuningdek, 2007- yilda innovatsion klasterlar qatori yana 5 ta klaster: Namdong (mashina qismlari), Ochang (elektronika va informatika), Seongseo (mexatronika), Noksan (kemasozlik), va Daebul (kemasozlik) bilan kengaydi³.

Bugungi kunda Koreya Respublikasi aloqa vositalari, dengizda qo'llaniladigan vosita va asbob-uskunalar, tahliliy vositalar, avtomobil hamda kimyo sanoatidagi klasteri bilan dunyoda yetakchilik qiladi. Shuningdek, yuqori texnologik sohalardagi klasterlarning shakllantirilyotgani ham mamlakat iqtisodiyoti, xizmatlar sohasining rivojlanishiga o'z hissasini qo'shmoqda⁴.

¹www.rwvel.unice.fr/SamOckRark, YangmiKoo. Innovation driven cluster development strategies in Korea

² MKE (Ministry of Knowledge Economy) and KICOX. (2011). The Industrial Complex Cluster Program of Korea, 2nd edition, Korea Industrial Complex Corporation

³<http://www.insme.org/news/whats-new/> South Korea: innovation clusters mark turn in industrial policy

⁴ScottStern. Innovation Clusters and a New Korean Economic Strategy. Trust Center for MIT Entrepreneurship and the Harvard Institute for Strategy and Competitiveness (www.sstern@mit.edu)

Janubiy Koreya innovatsion markazlaridan biri Seul shahri hisoblanadi. Koreya Fan va Texnologiyalar Instituti, Seul Milliy Universiteti, Raqamli media Shaharchasi Seul shahrining innovatsion jihatdan yetakchi o‘rinlarda turishini ta’minlaydi. Poytaxtning Kangnam tumani esa venchur kapitali orqali shakllanadigan start-uplar boshlashini markazi hisobaladi.

Mamlakat innovatsion faoliyatida muhim o‘rin tutuvchi ikkinchi shahardan biri bu Daedeok shahri hisoblanadi. Daedeok vodiysi Daejeon shahrining bir qismini, Chungbuk-do, Jeollabuk-do shaharlaridagi sanoat parklarini o‘z ichiga oladi. Daedeok sanoat-innovatsion klasterining markazida Daedeok Innopolisi (6849.5 akr) joylashgan. Daedeok Innopolisda 56 ta tadqiqot instituti, 6000 dan ortiq PhD tadqiqotchilari faoliyat ko‘rsatadi va bu shaharcha Koreya tadqiqotchilik qudratining 10 foizini shakllantiradi. Daedeokda nodavlat sektor faoliyati ham keng yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu hududda faoliyat yuritadigan venchur tadbirkorlarning 45 foizi IT sohasida, 15 foizidan ziyodi biotexnologiya sohasida faoliyat yuritadi.

Janubiy Korea sharqiy qirg‘og‘ida joylashgan Gyeongsanbuk provinsiyasining Pohang shahrida Koreya iqtisodiyotida muhim o‘rin tutuvchi Pohang Temir va Po‘lat Korxonasi (Pohang Iron and Steel Company (POSCO)) joylashgan. 1994 yilda POSCO ning tashabbusi bilan Osiyoda ikkinchi o‘rinda turuvchi fan va texnologiyalar universiteti tashkil etildi. Shuningdek, bu birlashma qoshida Nanomateriallar texnologiyasi milliy markazi (National Center for Nanomaterials Technology (NCNT)) ham mavjud. Pohang Akselerator Laboratoriyasi (PAL) va Pohang biotexnologiyalar markazi (POSTECH Biotech Center) da molekulyar tibbiyot, biochiplar va biokimyoviy injeneriya hamda turli xil vaksina va qand kasaliga qarshi dori vositalarini yaratish ustida tadqiqotlar olib boriladi.

Shuningdek, Busan viloyatidagi Busan-Jinhae EIZ yuqori texnologik tarmoqlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda, Gwangju Texnoparki esa inoptik kommunikatsiya vositalari, fotonik va LED/LD texnologiyalar sohasidagi venchur kompaniyalar uchun muhim rol o‘ynaydi¹.

Koreya hukumati, shuningdek, yashil innovatsion klasterlar (misol uchun Jeonbuk shamol energiyasi klasteri) va yuqori texnologik sohalar klasterlarini shakllantirishga katta e’tibor bermoqda. Misol uchun, 2018-yilga kelib Seulning shimoliy qismi Hongneungda AQSHning Boston Bio klasteriga o‘xshagan Biotibbiy klasterini ishga maqsad qilingan. Bugungi kunda Hongneungda Koreya Universiteti Shifoxonasi va Kyunghee Universiteti Shifoxonasi, 140 dan ortiq start-up korxonalariva, Koreya Fan va Texnologiyalar Instituti joylashgan. Bu yangi avlod klasteri 960 ming yangi ish o‘rinlarini yaratishi hamda 2020-yilga kelib 20 trln. von (\$18mlrd.) qiymatidagi tovar va xizmatlarni eksport qilishi ko‘zda tutilgan².

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, Koreya Respublikasi iqtisodiyoti va innovatsion faoliyatida innovatsion va sanoat klasterlari muhim ahamiyat kasb etmoqda va bu sohani rivojlantirishga hukumat tomonidan katta e’tibor qaratilmoqda. Janubiy Koreyaning innovatsion klasterlarni shakllantirish va rivojlantirish tajribasi yuzasidan esa quyidagi fikr va mulohazlar, xulosalarga kelish mumkin:

- Mamlakatning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida avvalo mamlakatni industriallashtirish, ishlab chiqarishni eksportga yo‘nalishtirish siyosati tanlandi va 1960-2000 yillar davomida Janybiy Koreya sanoati ancha katta rivojlanish davrini bosib o‘tdi;

¹ Ravi Zutshi. Innovation Policy and SME Clusters in South Korea. (www.web.mit.edu/jamchung/www/ucd-seminar/readings/innov-policy-11-13-09.pdf)

² www.clustercollaboration.eu/ South Korea to build a biomedical cluster in Seoul

- XXI asrning boshiga kelib esa mamlakat sanoatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish, ishlab chiqarish xarajatlarini yanada qisqartirish, fan-ta'lim-sanoat integratsiyasini mustahkamlash maqsadida dastlab sanoat klasterlari shakllantirildi hamda tadrijiy ravishda sanoat klasterlarining innovativligi oshirilib borildi;

- Hukumat va nodavlat sektor tashabbusi orqali shakllantirilgan innovatsion klasterlarda ishlab chiqarishni yanada samarali tashkil etish, yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tovar va xizmatlar yaratish imkoniyati tug'ildi;

- Dastlab asosiy e'tibor avtomobilsozlik, asbob va uskunalар ishlab chiqarish, kemasozlik tarmoqlariga qaratilgan bo'lsa, so'nggi yillarda kimyo, farmatsevtika, kosmetologiya sohasidagi hamda yashil innovatsion klasterlarni shakllantirishga ham katta e'tibor yo'naltirilmoqda. Bu esa o'z navbatida Janubiy Koreada innovatsion faoliyatni yanada rivojlantirish, mamlakatdagi oliy ta'lim muassalari, ilmiy tadqiqot institut va markazlarining ishlab chiqarishga jalb etilishi darajasini yanada oshirishga xizmat qiladi.

XXR ИШЧИ КУЧИ БОЗОРИДАГИ ЗАМОНАВИЙ ТЕНДЕНЦИЯЛАР

Наврӯзова Адолатхон

ТДШИ 1-курс магистранти

Илмий раҳбар: и.ф.н., доц. Мелибаева Г.А.

Хитойда сўнгги қирқ йиллик иқтисодий ривожланиш мақбул бўлганлиги билан, мамлакатнинг ижтимоий сиёсатини социалистик тузумга тааллуқлилигини номинал ҳолдагина сақлаб қолишига олиб келди. Ҳукумат асосан, ишчиларнинг асосий иш берувчиси сифатида уларнинг ишчи кучидан фойдали ва самарали фойдаланмаса ҳам манфаатларини ҳимоя қилишда давом этди. Ишчилар ўзларининг хавфсизлигини инобатга олган ҳолда дунёдаги энг юқори бўлган - даромад тенгсизликлари масаласини кўтаришдан воз кечдилар. Энди Хитой ўзининг социалистик негизларини ёддан чиқармаган ҳолда, ўз иқтисодиётини бозор тамойилларига мос равишда ривожлантираётганлигини аввалгидан ҳам кўпроқ қафолатлаши лозим эди.

Бу кенг ислохотларни Хитой Давлат раҳбари Си Цзинпинь 2012 йилда ҳукумат тепасига келганда таклиф этган эди. Афсуски, бу ислохотларни амалга ошириш режаларини маъқуллаш учун Пекинда аввалги ва кейинги режаларни мослаштириш учун имконият чекланганлини аён бўлди.

Биринчидан, Хитойнинг давлат сектори фақатгина ўсди. Давлат корхоналари 2008 йилдаги 110 мингдан 2015 йилда 160 минггага кўпайди¹. Хитойда ялпи ички маҳсулотнинг ўсишини кўрсатувчи кўрсаткич ҳозирда Хитойнинг давлат активларини инвестициялашнинг ўсиши ҳисобига амалга оширилган. Ҳукумат бу йўналишни қўллаб қувватлайди, чунки назарияда катта корхоналар кўпроқ ишчиларни ўзида жамлаб, вақтинчалик ишдан бўшатишларни олдини олади.

Иккинчидан, Ҳукумат кичик ва ўрта бизнесни ривожланишига тўсқинлик қилувчи йўриқномаларни оптималлаштиришда оз бўлсада тараққиётга эришди. Бош Вазир Ли Кецянь кўп ҳолларда маҳаллий даражадаги раҳбарларнинг ислохотларни

¹Rebecca Liao. Labor Unrest: Why China Is Foot-Dragging on Economic Reforms. March 19, 2016

тасаввур қила олмаслиги ва ташаббус кўрсата олмаслигидан таажжубдалигини билдирди. Си Цзинпинь миллий меросни ўрганиш орқали дунёдаги энг йирик трансмиллий корпорациялар билан рақобатлашишни хоҳлайди.

Давлат иштирокидаги корхоналар учун бозорни камроқ муҳофазалаш, уларни рақобатбардошлигини сусайтирилишига олиб келишини англатади. Бу ўз навбатида Хитойнинг 40 фоизли улушини ва 37 миллион ишчи ўрнини йўқотиш маъносини ангалаганлиги боис, унинг салмоғи беҳад катталигини билдиради.

Пекин бундай йўқотиш эҳтимолини олдини олишга тайёр эмас деб бўлмайди. Хукумат кўмир саноат ва пўлат қуйиш саноатидаги 1,8 миллион ишчи ўрнини қисқартириш ҳақида баёнот берган. Бу баёнот ортида эса, 2 йил ичида шунча ишчиларни кўчириш учун 100 миллиард юань (15,27 миллиард АҚШ Доллари)¹ миқдоридаги ассигнация ажратилганлиги ҳам маълум қилинган. Кейинги ишчи ўринларини қисқартириш бошқа юқори капиталталаб саноат секторларида содир бўлади. Давлат улуши бор корхоналарда узоқ давом этадиган банкротлик жараёнлари ва қарздорлик тўловларини ниҳоясига етказмагунча ишчиларни кўчишлари учун зарур маблағнинг мавжуд эмаслиги ишчилар манфаати учун “хизмат қилади”. Ишчиларни ишдан вақтинчалик бўшатиш раунди учун ҳеч қанча вақт мавжуд эмаслигига таажубаланмаса ҳам бўлади.

Иш ҳақининг статистик маълумотлари шаффофлик ва барқарор юқори кўтарилувчи давомийликни кўрсатади. Иш ҳақининг реал ортиб бориши йилига 10% ва 15% оралиғида бўлиб, 25 йил ичида иш ҳақи беш баробар ошганлигини англатади. Аслида, Хитойда иш ҳақининг ортиб бориши, Жануби-Шарқий Осиё мамлакатларига қараганда анча жадал бўлган, 2013 йилда Хитойда йиллик иш ҳақи ойига 610 АҚШ Долларидан ортиқроқ бўлган, бу кўрсаткич Покистон ва Индонезиядаги иш ҳақидан уч баробардан ортиқдир, Вьетнам ва Филиппинлардагига нисбатан эса янада каттароқдир².

Хитойдаги ўртача иш ҳақи, фаолиятнинг турли тармоқлари соҳаси, вилоятлар, қишлоқ ва шаҳар ҳудудларига нисбатан паст малакали ишчилар иш ҳақи ўртасидаги улкан фарқни кўринмас қилади. Иш ҳақининг ортишига қарамасдан, 2014 йилда мигрантлар орасидан бўлган ишчиларнинг иш ҳақи 2,900 юандан ёки шаҳар ҳудудида яшовчи ишчиларнинг ўртача иш ҳақидан тахминан 50% (тахминан 4,700 юан) кам бўлган³.

Хитойда кенг тарқалган, айрим Меҳнат йўриқномаларига амал қилмаслик ҳолатлари меҳнат шароитларини яхшилашга ҳалакит берувчи асосий тўсқинликлардан бири ҳисобланади. Бу ҳолатни Меҳнат шартномалари тўғрисидаги Қонуннинг қабул қилинганидан кейинги олти йилдан сўнг ҳам қонун талаблари мавжуд бўлсада, фақатгина 38% мигрантлар қаторида бўлган ишчилар меҳнат шартномаларини имзолаганлиги кўрсатади⁴. Бундан ташқари, ишчиларнинг манфаатларини ўзда акс эттирувчи хусусий келишувлар самарасиз восита бўлиб, ҳуқуқни муҳофаза қилишга қаратилган мустақил уюшмалар Қонунга кўра ваколатли эмас.

Айрим муаллифлар таъкидлашича, қишлоқ ҳудудларидаги ортиқча меҳнаткашларнинг камайиши ва меҳнат факторига ҳаражатларнинг аста секин ортиши, Хитой-

¹Rebecca Liao. Labor Unrest: Why China Is Foot-Dragging on Economic Reforms. March 19, 2016

² ILO. (2015b), “Wages in Asia and the Pacific: Dynamic but Uneven Progress”, Global Wage Report 2015/2015, Asia and the Pacific Supplement,

³China Labour Bulletin (2013), “Migrant Workers and their Children”, June 27, 2013

⁴China Labour Bulletin (2013), “Migrant Workers and their Children”, June 27, 2013

нинг ишчи кучи бозорининг оғиш бурчагига етганининг исботидир¹. Аммо, бошқа муаллифлар эса, бу фикирни рад этадилар. Бу муаллифларнинг кўрсатишича, қишлоқ ҳудудларида ҳозир ҳам ишчи кучи етарличадир (тақрибан 400 миллионга яқин, тахминан 250 миллиони қишлоқ хўжалигида ишлайди), шунингдек Хитойдаги хайдаладиган ер юзаси аҳоли жон бошига (0,57 га/аҳоли), ҳамон ўртача ва юқори даромадли мамлакатлардагидан 10 баробар кам миқдорни ташкил этади².

Меҳнат шароитларининг эволюциясини, шунингдек хусусан иш ҳақи ва юқори технологик ишлаб чиқариш тенденциясини ўрганилса, хитой ишчи кучи муваффақиятларга эришаётганлигини айтиш мумкин бўлар эди. Бу икки кўрсаткич ўртасидаги бевосита ва жобий алоқани аниқлаш, Butollo (2014)³ томонидан олиб борилган таҳлиллардан кўринишича, у ерда ҳеч қандай ижобий “аввалдан белгиланган” эволюция ва компанияларнинг индустриал ривожланиш ҳамда унинг ходимларининг ижтимоий прогресси ўртасидаги нисбат мавжуд эмас. Ҳудди шунингдек, Хитой иқтисодиётининг ўсиб бораётган роли оқибатида бошқа мамлакатлардаги меҳнат шароитларига таъсири хусусида яқдил ҳулоса ҳам мавжуд эмас.

Меҳнат бозорининг сегментларга бўлиниши оқибати сифатида иш ҳақининг ўсишини ортда қолиши намоён болади. Малакали меҳнатнинг танқислиги шу соҳада иш ҳақининг оширишни келтириб чиқаради, шу вақтнинг ўзида эса нисбатан кам малакали ишчиларнинг иш ҳақининг эволюцияси, кескин муносабатларга ва кўп меҳнат талаб қилувчи ишлар ва хизматлар учун жаҳондаги талабларнинг тебранишига жавоб беради ва ортиқча ишларда ҳуқоулардан фодаланишга эҳтиёжларни оқлайди.

Айрим муаллифларнинг фикрича, яқин келажакда ҳуқоу⁴ тизими юмшатилиши даргумон⁵, бу меҳнат бозорининг бўлақларга ажратилган қисмларига хизмат қилишни англаиб юзлаб оилаларнинг ижтимоий аҳволини яхшиланишига олиб келиши мумкин бўлар эди.

Хитой ишчи кучи бозори моделида икки ўрин мавжуд бўлиб, булар шаҳар ҳудуди ва қишлоқ жойларидир. Шаҳар ҳудуди деб Хитойнинг Шанхай ёки Пекин сингари соҳилбўйи шаҳарларини, қишлоқ жойларини эса Хитойнинг ички ерлари сингари тушиниш мумкин. Маълумки, Хитойнинг соҳилбўйи қисми ички Хитойга нисбатан бойроқ. Аслида, қишлоқдан шаҳарга йўналган мигрантлар соҳилбўйи шаҳарлардан, Хитойнинг марказий ва ғарбий ерларидагидан кўпроқ даромад олиш ниятида кўчадилар. Шундай қилиб, модель Хитойдаги типик, ички қишлоқ жойларидан соҳилбўйи шаҳар ҳудудларига миграцияни намоён этади. Моделда қишлоқ ва шаҳар ҳудудлари деган фарқланиш йўқ.

XXРда бандлик масаласини ўргана туриб учта сегментларга бўлинган секторларини кўриш мумкин. Булар хусусан, давлат корхоналари, хусусий фирмалар ва қишлоқ

¹Wildau, Gabriel (2015), “China Migration: At the Turning Point”, *Financial Times*, May 4, 2015

²Wang, Xiaolu and Wan, Guanghua (2014), “China’s Urban Employment and Urbanization Rate: A Re-estimation”, *China and World Economy*, vol. 22 (1), pp. 30-44.

³Butollo, Florian (2014), “The End of Cheap Labour? Industrial Transformation and Social Upgrading in China”, Campus Verlag GmbH, Germany.

⁴**Хуқоу**-турар жойи бўйича рўйхатга қўйиш тизими. Ушбу тизим асосида асосан қишлоқ ҳудудларидан келган ишчи мигрантлар шаҳарга турар жойга рўйхатга қўйиладилар ва ўз меҳнат фаолиятларини амалга оширишлари мумкин.

⁵Correa, Gabriela and Núñez, René (2013), “Migración y exclusión en China, Sistema Hukou”, *Revista Problemas del Desarrollo*, 172 (44), January-March, pp. 105-121

хўжалик сектори. Давлат корхоналари ва хусусий сектор шаҳар районларида, қишлоқ хўжалик сектори қишлоқ жойларида жойлашган. Замонавий Хитойда, тақрибан 50% ишчи кучи шаҳарлар ҳудудида ва 50% қишлоқ жойларида ишлайди¹. Қишлоқ жойларидаги ишчиларнинг ярмидан ортиғи қишлоқ хўжалиги секторида, қолганлари эса қишлоқ хўжалигига боғлиқ бўлмаган секторда ишлайди. Шаҳардаги ишчи кучининг тўртдан уч қисмидан ортиғи хусусий секторда ишлайди.

Турли секторлар бир биридан иккита: иш ҳақи ва иш топиш имконияти билан фарқланадилар. Эмпирик тадқиқотларда, ишчиларни иш ҳақи таққосланса давлат секторида ўрта ва қишлоқ хўжалигидаги ҳамда хусусий сектордаги иш ҳақи базасидан энг юқори иш ҳақини тўланиши кузатилади. Шунингдек, давлат сектори ишчиларига юқори кафолатли ижтимоий ҳимояни тақлиф эта олади. Айнан шу хитойларни давлат секторида ишлашга ундовчи омил саналади. Бундай сегментланиш барқарор ривожланишга тўсик бўлсада, ХХР мисолида буни аксини кузатиш мумкин.

Хулоса қилиб айтганда, ХХР ҳукумати томонидан қабул қилинган 13-беш йиллик режа асосида мамлакат ижтимоий-иқтисодий сиёсатининг барча соҳаларини қамраб олувчи ислохотлар жадаллик билан олиб борилмоқда. Ҳукумат иш ҳақи ва меҳнат шароитларини мақбуллаштириш бўйича тизимли чора-тадбирларни амалга ошириб келмоқда.

MDHDA LIZING XIZMATLARI BOZORINI YANADA RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI (O‘ZBEKISTON VA ROSSIYA MISOLIDA)

*Mardonov Shohruh
ToshDSHI 1-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: i.f.d., prof. Rasulov T.S.*

MDHda lizing xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish yo‘nalishlarini aniqlash uchun ushbu mamlakatdagi mavjud muammolarni o‘rganib chiqish lozim. Bu esa hozirgi davrdagi lizing bozori uchun yurak vazufasini bajaradi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Xususan, Rossiya Federatsiyasini olib ko‘radigan bo‘lsak. So‘nggi yillarda Rossiyada lizing operatsiyalari yordamida quyidagi qator muammolarni hal qilish mumkin bo‘lmoqda.

- mulkning barcha shakllardagi korxonalarining barcha ishlab chiqarish vositalarini yangilash;
- asosiy mablag‘larni sotib olishga maqsadli kreditlash;
- qo‘yilgan mablag‘lardan samarali foydalanish hamda korxonalar ishi ustidan nazoratni qatitlashtirish;
- lizing kelishuv shartnomalarini tuzish tizimi orqali ishlab chiqarishning eng samarali yo‘nalishlarini rivojlantirish;
- lizing bo‘yicha asbob uskunalarni yetkazib berish orqali xorijiy investorlarning mablag‘larini jalb etish. Xalqaro qonunchilikka ko‘ra bu tashqi qarzni oshishiga olib kelmaydi;
- ishlab chiqarish va moliyaviy kompaniyalarning holdingini lizing va u bilan bog‘liq shartnoma va kelishuvlar orqali².

¹ Gary Fields, Yang Song. A Theoretical Model of the Chinese Labor Market. Germany, 2013

² Галимов Ю. «Лизинг - синтез аренды и кредита». Деловой партнер Узбекистана, феврал, 2004.

Rossiya Federatsiyasida lizing tashkilotlarining faoliyatiga salbiy ta'sir etuvchi omillar lizing tashkilotlari o'rtasida o'tkazilgan ijtimoiy so'rov natijasida quyidagilarni namoyan qildi.

1-jadval

Lizing tashkilotlarining faoliyatiga salbiy ta'sir qiluvchi omillar foiz hisobida

	2005	2010	2011	2012	2013	2014
Moliyaviy vositalarning yetarli emasligi	14,8	43,0	17,8	8,2	8,2	10,4
Kredit olshdagi muammolar	12,6	12,3	13,5	10,9	8,1	16,9
Lizing kompaniyalar bilan raqobatning mavjudligi	18,2	14,4	18,8	65,4	63,3	51,2
Savdo kreditining yuqori foiz stavkasi	77,0	60,1	34,8	31,7	50,0	83,1
Soliq stavkalarining qat'iy darajasi	63,1	27,9	43,5	27,2	41,6	21,7
Lizing tashkilotlari meyoriy-huquqlarida doimiy nuqsonlarning mavjudligi	60,5	64,1	50,5	51,4	19,6	19,4

Manba: Российский статистический ежегодник 2015 ФЕДЕРАЛЬНАЯ СЛУЖБА ГОСУДАРСТВЕННОЙ СТАТИСТИКИ (Росстат) Москва .: 2015. 594с.

2013-yilda Rossiya Federatsiyasida aviasoha jadal o'sishi bilan lizing bozorini qutqarib qoldi, lekin 2014-yil ko'rsatkichlari quvonarli emas. 2013-yilda lizing bozori jiddiy inqirozdan saqlanib qoldi. Buning asosiy sababi 69 foiz o'sishni qayd etgan aviasoha sabab bo'ldi. Lekin 2015-yilda aviasoha ham eng yaxshi bo'lganda ham, lizing bozori manfiy natijani qayt etishi bashorat qilingan edi va bu bashoratlar o'zini oqladi.

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki Rossiya lizing tashkilotlarining faoliyatiga eng katta salbiy ta'sir etuvchi omillardan biri bu foiz stavkalarining yuqoriligidir. Darhaqiqat MDH mamlakatlarining deyarli barchasida kuzatiladigan bu holat lizing bozori rivojlanishiga asosiy to'siqlardan biriligi saqlanib qolmoqda. Dunyoning rivojlangan mamlakatlaridan biri hisoblangan Yaponiyada kreditlarning foiz stavkasi hattoki manfiy darajada olib borilmoqda. Bunga sabab mamlakat moliyaviy tomondan to'yinganligidir. Boshqa rivojlangan mamlakatlarda ham manfiy foiz stavkasi bo'lmasa ham lekin juda kam foizda lizing va kreditlar jismoniy va yuridik shaxslarga taqdim etiladi. Aynan shunday stavkalar hisobiga mamlakatlarda pul aylanmasi yanada jadallashadi va lizing hajmi o'zining yuksalishida davom etaveradi.

2013-yilda avializingning jadal o'sishi lizing bozorini pastlashdan saqlab qoldi: yangi kelishuvlar hajmi deyarli o'zgarmadi va 1.3 trln. rublni tashkil qildi. Butun avializing bozori yuksalganda ham umumiy lizing bozori 10 foiz pasayishni qayd etdi. Xaridorlarning to'lash imkoniyatining pasayishi va fondlarni qiymatining oshishi M & A kelishuvining faollashuvi kutilayotgani vaziyatni qiyinlashtirdi. Real vaziyatga ko'ra 1 foiz o'sish pesimistik vaziyat natijalariga ko'ra tushish 15 foizni tashkil etadi. Kompaniyaning o'sish salohiyati yengil va yuk transportlari segmentlariga bog'liq. Lizing bozorida 2013- yilgi yangi biznes hajmida jiddiy o'zgarishlar bo'lmadi. Yangi shartnomalar hajmi 1300 mlrd. rublni tashkil qildi. Yangi lizing kelishuvlar hajmi muntazam ikki yil sezilarli darajada o'zgarmadi.

Lizing bozori yetakchisi “ВЭБ-лизинг” 2013- yilda yangi kelishuvlar hajmini 2012-yilga nisbatan 30 foizga qisqardi. Kuchi 10 talik kompaniyalar orasida eng yuqori o‘shish suratinı “Транс-фин-М” (63,3%) va “Сбербанк Лизинг” (51,5%) ko‘rsatdi. 2013-yilda mol-mulk qiymatini (QQS siz) dinamikasida yangi tuzilgan sharnomalarga ko‘ra sust darajada o‘shishga davom etdi. 2012 va 2013-yillarda lizing bo‘yicha moliyaviy qo‘shimcha haqlarning qisqarganligini anglatishi mumkin. Shartnomaning o‘rtacha amal qilish muddati, qarzdorlik resurslari qiymati, lizing kompaniyalari marjasi kamaydi. Shunday bir holatda o‘shish sur‘atining past ko‘rsatkichi bozorning turg‘unligidan dalolat beradi, chunki mol-mulk qiymatining oshishi iqtisodiyotga inflatsiyadan past darajani ko‘rsatdi.

Avia va avtotransport bozoriniyuqori darajada pasayishdan saqlab qoldi. 2013- yilda segment lideri – temir yo‘l texnikasining qisqartirilishi 2012-ilga nisbatan 17,6 foizda davom etmoqda. Oxirgi 7 yil ichida aviashartnomalar hajmining rekord darajadga chiqishi hisobiga lizing bozori inqirozdan saqlanib qoldi. Avializingning shunchalik yuqori darajaga o‘tishiga sabab bo‘lgan omillardan biri davlatning maqsadli dasturlari havo kemalari parkini yangilash va lizing kompaniyalari tomonidan davlar qatnashuvi bilan hozirgi resurslarni joylashtirish. Shuningdek, yengil mashinalar 13,5 foiz va yuk mashinalari 33 foiz yangi kelishuvlar hajmida yuqori o‘shish suratlarni ko‘rsatdi.

2014-yilda bozor uchun asosiy da‘vatlardan biri muammoli aktivlar va fondlar qiymatining o‘shishi bo‘ldi. “Экспорт ПА”ning baholashiga ko‘ra, 2014-yil 1-yanvarda lizingda muddati kechiktirilgan qarzlار o‘rtacha darajasi unchalik yuqori bo‘lmagan ya‘ni 3,5-4 foiz atrofida va yirik kelishuvlar 1-1,5 foizni tashkil qildi. Ba‘zi lizing beruvchilar muddatini kechiktirishning muddati o‘tganlari bilan taqqosladilar. 2014-yilda Rossiya iqtisodiyotidagi stagnatsiya lizing oluvchilar to‘lash intizomiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Bunday mushkul vaziyatda bank sektoridagi pul aylanmasi o‘shishi va lizing kompaniyalarining moliyalashtirish qiymati oshadi. Bunday faktorlarning yig‘indisi ba‘zi bir ishtirokchilarning soni 2014-yil oxiriga qadar biznesni tugatish yoki aktivlarni raqobatdoshlariga sotish orqali bozordan chiqib ketishga majbur qiladi. 2014-yildagi o‘shish salohiyati avtolizingda o‘z ifodasini topadi. Buning kafolat omili avtolizing bo‘la oladi, garchi uning qisqarishi absolyut raqamlarda ifodalansa ham. Buning yanada yuqori oshish nuqtasi sifatida yengil va yuk avtotransport o‘zining yuqori pul aylanmasi bilan namoyon bo‘la oladi. Bundan tashqari lizing kompaniyalarining bir qismi 2010-2012 yillarda sotib olingan transportini yangilaydi deb ishonadi. Bozorni qo‘llab-quvvatlovchi faktorlar sifatida avializing o‘zining sezilarli hajmi bilan namoyon bo‘ladi va shu orqali davlatdagi havo kemalari soni kopaydi, shuningdek bu lizing to‘lovlarini davlat tomonidan subsidiyalash tizimi bilan mustahkamlanadi (RF hukumatining №1212 sonli qarori)¹.

“Экспорт ПА” ning ma‘lumotlariga ko‘ra, optimistik senariyga joriy lizing bozori hajmi saqlanib qolinishi, pessimistik holatda esa pasayish 15 foizga yetadi. “Экспорт ПА” ning pessimistik prognizini amalga oshirishda 2014-yilga lizing bozorida yirik segmentlarning birortasi ham yuqori o‘shishni ko‘rsata olmaydi: temir yo‘llar texnikasi bozorida qisqarish davom etadi (-14 %), kuchli ko‘tarilishdan so‘ng aviatsiya o‘z holatini susaytiradi (-30 %). Avto segmentda esa rubl kursining tebranishi va yuk tashishning kamayishi orqali rivojlantirishga erishish qiyin. Optimistik ssenariy aviasegmentning kuchsiz sekin qisqarishi, tog‘ri

¹ Аксенов В. «Лизинг или кредит - что выгоднее?». Банковские ведомости, №50, декабрь, 2006 г.

pozitsiyaning saqlanishi va boshqa segmentlarning mo‘tadil o‘sishi holatida qurilish texnikasi esa uncha katta bo‘lmagan pasayishga asoslandi. Avtolizing kuchli o‘shish holatiga qaramay 2014- yildagi yagi kelishuvlar yig‘indisi o‘tgan yilgi darakada bo‘ldi.

“Экспорт РА” reyting agentligi lizing bozorida tadqiqot olib boradi. Tadqiqot ishtirokchilari lizing beruvchilar tomonidan taqdim etilgan shaxsiy ma‘lumotlar asosida o‘tkaziladi. 2013- yil yakunidagi tadqiqotda kelishuv hajmlari burun lizing bozorining 95 foizini tashkil etuvchi 138 ta lizing kompaniyalari ishtirok etishdi. Bizning baholashimizga ko‘ra tadqiqotga lizing bozorini 5 foizini tashkil etuvchi 70 ta kompaniya ishtirok etmagan. Bu ma‘lumotlardan kelib chiqqan holda bozor hajmi ko‘rsatkichini hisoblashda o‘zgartirishlar kiritildi. Bizning ma‘lumotlarga ko‘ra 2013- yil natijalarida eng kuchli 50 ta kompaniya qatoriga kirishi mumkin bo‘lgan, lekin o‘zining ma‘lumotini taqdim etmagan kompaniyalar qatoriga «РБ лизинг», ЛК «Север/Запад», ARVAL, Базис лизинг va Авангард-лизинг kompaniyalari kiradi¹.

2015 yilda O‘zbekistonda lizing xizmatlari 90 ta tashkilot, shu jumladan 24 ta bank tomonidan ko‘rsatildi. 2015 yil yakunlari bo‘yicha lizing amaliyotlarining umumiy portfeli 2,45 trln.so‘mni tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkich 2014 yil bilan solishtirganda 14,4% ga o‘sgan².

“O‘zbekiston Lizing Beruvchilar Assotsiatsiyasi”ning yillik yig‘ilishida mamlakat lizing bozorining 2015 yildagi faoliyatiga yakun yasaldi hamda lizing sohasining kelgusi vazifalari va uni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilandi.

Tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O‘zbekiston Banklar assotsiatsiyasi, Xalqaro Moliya Korporatsiyasi, “SAIPRO Axborot-reyting agentligi”, «Leges Advokat» advokatlik firmasi, “Kredit-axborot tahlil markazi” kredit byurosining vakillari hamda lizing kompaniyalari va bank xodimlari qatnashdi.

Yig‘ilish davomida 2015 yilda mamlakat lizing beruvchilari tomonidan 5,6 mingdan ortiq yangi lizing bitimlari tuzilib, ularning hajmi 850 mlrd.so‘mdan oshgani qayd etildi.

Lizingga berilgan ob‘ektlar orasida qishloq xo‘jalik texnikasi etakchilik qilmoqda. Xususan, 2015 yilda lizing bitimlarining umumiy tuzilmasida qishloq xo‘jalik texnikasining ulushi 32,9% ni tashkil etgan. Shuningdek lizingga texnologik uskunalar (30,6%), avto-transport (19,8%) va ko‘chmas mulkni (16,7%) taqdim etish bilan bog‘liq bitimlar hajmi ham sezilarli darajaga o‘sgan.

Ko‘rib chiqilayotgan davrda 273,1 mlrd.so‘mlik lizing bitimlarini tuzgan “O‘zqishloq-xo‘jalikmashlizing”, “Uzbek Leasing International A.O.” (68,2 mlrd. so‘m), “O‘zmeliomashlizing” (53 mlrd. so‘m), “O‘zavtosanoatlizing” (50,8 mlrd. so‘m) va “Qurilishmashlizing” (23,1 mlrd. so‘m) kabi lizing kompaniyalari ushbu bozorning yirik ishtirokchilariga aylandi.

O‘tgan yil yakunlariga ko‘ra, “Asaka” ATB (49,8 mlrd.so‘mlik lizing bitimini tuzgan), “KDB Bank Uzbekistan” AJ (28,8 mlrd. so‘m), “Ipoteka-bank” ATIB (17,9 mlrd. so‘m), “Trastbank” XAB (14,7 mlrd. so‘m) va “Hamkorbank” ATB (12,8 mlrd. so‘m) lizing amaliyotlari hajmi bo‘yicha eng faol banklar qatoridan o‘rin oldi.

2015 yil davomida amalga oshirilgan yangi lizing bitimlarida Toshkent shahri (26,73%) hududlar orasida eng katta ulush bilan etakchilik qildi. Ikkinchi va uchinchi o‘rinlarni esa Toshkent viloyati (9,75%) va Qoraqalpog‘iston Respublikasi (8,70%) egalladi¹.

¹ «Финансовый лизинг становится рентабельным». Бизнес-вестник Востока, 23 января 2003 года, №4(574), стр.4.

² www.uzbeklizinginternational.com/ru/about/news/1072/

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiing «2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida» 2010-yil 26-noyabrdagi PQ-1438-sonli Qaroriga, 2011-2015 yillarda respublika mikro-moliyalashtirish sohasi va bankdan tashqari moliya sektorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari bajarilishi jarayonini nazorat qilish rejasining (yuqorida ko‘rsatilgan qarorning 2-Ilovasi) 40, 41, 43-bandlariga binoan, O‘zbekiston Lizingga beruvchilar uyushmasi 2015 yil yakunlariga ko‘ra lizing xizmatlarini ko‘rsatish sohasiga oid ma‘lumotlarni yig‘ib, tahlil qildi. Ushbu tahlil hisobot davri bo‘yicha lizing bozorining sharhini va uning respublika bo‘yicha tendensiyalarini (rivojlanish yo‘nalishlarini) o‘z ichiga oladi².

“LUKOIL” KOMPANIYASINING O‘ZBEKISTONDAGI FAOLIYATI

Ulug‘ov Bobur
ToshDSHI 1-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: i.f.d., prof. Rasulov T.S.

Bugungi kunda butun jahonda kechayotgan shunday bir globalizatsiya jarayonida mamlakatlar davlatlararo integratsiyalashmagan holda milliy iqtisodiyotini o‘shir sur‘atlarida rivojlantirishi, boshqa dunyo mamlakatlari orasida iqtisodiy jihatdan raqobatbardosh bo‘la olishi mumkin emas. Shu sababdan, Rossiya Federatsiyasining investitsion loyihalarini jalb qilish va Rossiya kompaniyalarining mamlakat hududida faoliyatini tashkil etish, rag‘batlantirish va qo‘llab quvvatlash yaxlitlashib borayotgan jahon tizimiga kirib borishning muhim yo‘llaridan biridir.

“Lukoil” davlat korxonasi – Rossiya neft kompaniyasi hisoblanadi. Bugungi kunda DK “Lukoil” jahondagi eng yirik vertikal integratsion kompaniyalardan biri hisoblanadi, uning global neft ishlab chiqarishi 2% va uglevodorodlarning ishlab chiqarilishi jahondagi ulushi 1% ni tashkil etadi. Neft va gaz mahsulotlarini to‘liq o‘z boshqaruvida ishlab chiqarish jarayoni bilan, kompaniya butun ishlab chiqarishni nazorat qiladi. 150 mingdan ortiq ishchi kompaniyaning bozordagi ilg‘or o‘rnini saqlab qolish uchun o‘zlarining say-harakat, istedod va maqsadlarini birlashtirganlar.

“Lukoil” O‘zbekiston hududida 10 yildan beri investitsion loyihalarni amalga oshirib kelmoqda. Kompaniyaning kiritayotgan investitsiya tarmoqning quyidagi sohalarini qamrab olmoqda: tabiiy gaz qidirish, yuqori texnologiyali inshootlarni qurish, dala infratuzilmasini rivojlantirish, qazib olish va qayta ishlash.

“Lukoil” tomonidan O‘zbekistonga kiritilgan investitsiyalarning jamlangan hajmi bugungi kunga kelib 3,5 mlrd AQSH dollarni (shu jumladan 120 mln AQSH dollar geologiya-qidiruv ishlariga) tashkil qildi. Davlat tomonidan ko‘rilgan daromad 1 mlrd AQSH dollarga yetdi. O‘zbekistondagi loyihalarni amalga oshirish davomida “Lukoil” tomonidan kiritiladi-

¹ Экономика Узбекистана информационно-аналитический бюллетень за 2014 год.: Ташкент–2015, 41 с.

² «2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida» 2010-yil 26-noyabrdagi PQ-1438 son.

gan investitsiyalarning umumiy hajmi 8 mlrd AQSH dollardan ortiq miqdorda rejalashtirilgan, bu ko‘rsatkich kompaniyani mamlakatdagi eng yirik investorga aylantiradi.

Yaqin istiqbolli rejaga ko‘ra (2018 yil) “Lukoil” kompaniyasi O‘zbekistonda yillik gaz qazib olishning 18 mlrd kubometrga teng hajmiga erishishni, MTB amal qilishi davrida esa jami 320 mlrd. kubometrda ortiq gaz qazib olishni rejalashtirgan. Neft va kondensat qazib olishning eng yuqori darajasidagi ko‘rsatkich yiliga 0,5 mln tonnani, qazib olinadigan umumiy hajm esa gaz kondesati uchun – 9 mln tonnani, neft uchun – 1 mln tonnani tashkil qiladi. “Lukoil”ning O‘zbekistondagi loyihalarini amalga oshirish davrida davlat tomonidan taxminan 4,3 mlrd dollarga yaqin daromad olinadi¹.

O‘z navbatida, O‘zbekistonga “Lukoil” kompaniyasidan, ya’ni davlatga to‘lanadigan loyiha daromadlarini aniq yil va yillar mobaynida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, kompaniya tomonidan davlatga to‘lanadigan daromadning aniq yil 2014 yilda, 2014 yil 31-dekabrda yil yakuni, daromadi jami 317 mln. AQSH dollaridan ortiq summani tashkil etdi.

1-jadval

“Lukoil” tomonidan davlatga to‘lanadigan loyiha daromadlarining² 2014 yil 31-dekabrda tugaydigan yil davomida taqsimoti (AQSH doll.):

To'lov turi	Davlat	Mahalliy hokimiyat organlari			Jami
		Toshkent	Buxoro viloyati	Qashqadaryo viloyati	
1. Royalti	182 148 552	-	-	-	182 148 552
2. Davlatga berilgan foydali mahsulot qiymati	63 787 970	-	-	-	63 787 970
3. Davlatga boshqa fiskal to'lovlar	25 881 399	28 217	259 822	-	26 169 438
4. Davlat korxonalarining shartnoma bo'yicha daromadi	21 753 295	4 449 298	1 664 077	17 780 664	45 647 334
5. Boshqa mayda to'lovlar	-	-	-	-	-
Jami	293 571 216	4 477 515	1 923 898	17 780 664	317 753 293

Manba: O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiyot vazirligining 2010 yil 14 yanvardagi xati asosida loyihalar bo‘yicha 2012 yil 30 martdagi umumiy shartlar bitimiga binoan Kompaniya rasmiy saytida yillar davomida oshkor etilgan. (<http://lukoil-overseas.uz/uz/reports>)

Lukoildan O‘zbekiston hukumatiga tushadigan daromadning asosiy qismini Royalti³ daromadi tashkil etmoqda - 182,1 mln AQSH dollari. Davlat daromadining eng kichik ulushini esa davlat korxonalarining shartnoma bo‘yicha daromadi egallamoqda – 21,8 mln AQSH dollari, Fiskal to‘lovlar esa 25,9 mln AQSH dollarini tashkil etmoqda. Qolgan mayda to‘lovlarga mahalliy hokimiyat organlariga (Toshkent, Buxoro viloyati, Qashqadaryo viloyati)

¹ <http://lukoil-overseas.uz/uz/general-info>


² Davlat neft va tog‘-kon qazib oluvchi kompaniyalar va boshqa markaziy va mahalliy hokimiyat organlari ham mazkur maqsadlar uchun «davlat» sifatida qaralishi lozim

³ Patent, mualliflik huquqidan, franshiz va tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to‘lanadiga kompensatsiya to‘lovi

to‘langan to‘lovlar tashkil etmoqda. So‘ngi uch yil, 2012-2014 yillarni oladigan bo‘lsak, davlatga Lukoildan tushadigan daromad pasayganligini kuzatishimiz mumkin.

1-diagramma

“Lukoil” tomonidan davlatga to‘lanadigan loyiha yillik daromadlari (doll.):




Manba: O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiyot vazirligining 2010 yil 14 yanvardagi xati asosida loyihalar bo‘yicha 2012 yil 30 martdagi umumiy shartlar bitimiga binoan Kompaniya rasmiy saytida yillar davomida oshkor etilgan. (<http://lukoil-overseas.uz/uz/reports>)

Yuqoridagi diagrammada O‘zbekistonga “Lukoil” kompaniyasidan keladigan foydaning qiymati (Davlat va mahalliy hokimiyat organlari birgalikda) 2012 – yilda 446 160 330 AQSH dollari, 2013–yilda 436899355 AQSH dollari va 2014–yilda esa bu qiymat 317753293 AQSH dollarini tashkil etdi. Yuqoridagi diagrammada O‘zbekistonga Kompaniyadan kelib tushadigan daromad 2014–yilga kelib keskin pasayganini ko‘rdik (2013-yilga nisbatan 119,1 mln AQSH dollarga kam). Bunday holatning yuz berishiga asosiy sabab jahon bozoridagi neft narxining tushganligidadir. “Lukoil” kompaniyasining o‘zining sof daromadi 2013-yilga nisbatan 2014 yilda 39,4 foizga - 7,832 mlrd dollardan 4,746 mlrd AQSH dollarga tushib ketdi¹.

2-diagramma

“Lukoil” kompaniyasining tijorat gaz ishlab chiqarish taqsimoti:



Manba: Годовой отчет «Лукойл» - 2014 (www.lukoil.ru)


¹<http://www.rbc.ru/business/03/03/2015/54f5909a9a79470dcf710257>

O‘zbekiston Lukoilning xalqaro loyihalarda faoliyat olib borayotgan filiallari ichida yiliga eng ko‘p gaz ishlab chiqaruvchi mamlakat hisoblanadi, ammo neft ishlab chiqarish bo‘yicha esa hozirgi kunda so‘ngi o‘rinlarda bormoqda (xalqaro loyihalarda neft ishlab chiqarish bo‘yicha 1% ulush ega).

“Lukoil” kompaniyasining tijorat gaz ishlab chiqarish bo‘yicha taqsimoti nisbatan no-tekis taqsimlangan. Kompaniya 2014 yilda 19 968 mln kubometr gaz ishlab chiqargan bo‘lsa, ularning asosiy qismini “Bolshehexetskaya depressiya”ga (41,3%), xalqaro loyihalar (29,6%) va G‘arbiy Sibir hissasiga (16,8%) to‘g‘ri kelmoqda. Tijorat gaz ham neft kabi asosan mahalliy loyihalarga asoslanmoqda. Yuqorida takidlaganimizdek tijorat gaz ishlab chiqarish bo‘yicha xalqaro loyihalarda (29,6%) O‘zbekistonning ulushi asosiy qismni tashkil etadi.

3-diagramma

“Lukoil”ning xalqaro loyihalarda tijorat gazi ishlab chiqarish taqsimoti:



Manba: Годовой отчет «Лукойл» - 2014


Chet elda Lukoil guruhlaridan tomonidan ishlab chiqariladigan gaz taqsimoti bo‘yicha O‘zbekiston 1-o‘rinni 62,2 foiz ulush bilan egallamoqda (2.2.4-rasm). Shuningdek, Qozog‘iston mamlakati ham sezilarli ulushga ega – 25,3 foiz, Ozarbayjon mamlakati 12,6 foiz ulush bilan so‘ngi o‘rinni egallab turibdi. O‘zbekistonda gaz ishlab chiqarish bosqichidagi Xauzak-Shodi va Janubi-G‘arbiy Hisor loyihalari ishlamoqda va yaqin kunlarda yana bir yirik loyiha, Qandim yaqin yillarda ishga tushirilishi rejalashtirilmoqda. Shunga qaramay Kompaniyaning mamlakatlarda gaz ishlab chiqarish bo‘yicha ko‘rsatkichi 2013 yilga qaraganda 8,4foizga tushgan. Gazdan keladigan foyda esa 157 mln AQSH dollariga yoki 9,6 foizga kamaygan, bunga asosiy sabab O‘zbekistonda gaz ishlab chiqarish pasayganligidir¹.

Kompaniyaning uglevodorodlar zahirasi taqsimoti 31-dekabr 2014 yil sanasiga ko‘ra xalqaro loyihalarning zahirasi umumiy zahiraning (17,6 mlrd AQSH dollari) 10 foizni (1,759 mlrd AQSH dollari) tashkil etmoqda. Bu tarmoqda ham xalqaro loyihalarda uglevodorodlar zahirasi bo‘yicha O‘zbekiston va Qozog‘iston respublikalari yuqori ulushga ega bo‘lib turibdi.

Xalqaro loyihalarda tasdiqlangan uglevodorodlar zahirasi bo‘yicha eng katta ulushga O‘zbekiston – 53,4 foiz bilan egalik qilmoqda. O‘zbekistondan so‘ng Qozog‘iston va Iroq davlatlari mo‘sravishda 26,3 foiz va 11,5 foiz ulushlarni bo‘lib olishmoqda. Qolga ulushlarga Ozarbayjon 8,4foiz bilan va Misr 0,4 foiz bilan egalik qilmoqdalar.

¹Годовой отчет ОАО «Лукойл» – 2014.–Москва: «Лукойл», 2015.–С 168.

**“Lukoil”ning xalqaro loyihalarda tasdiqlangan uglevodorlar zahirasi-
ning taqsimlanishi (31.12.2014y. sanasiga ko‘ra)**



Manba: Годовой отчет «Лукойл» - 2014 (www.lukoil.ru)

“Lukoil” kompaniyasining kelajakda sinovdagi quduqlardan gazni tortib olishda eng yuqori oqimlar orasida O‘zbekistonda ishga tushishi yaqin bo‘lgan Qandim koni ham katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Yuqorida ko‘rib turganimizdek, Qandim (O‘zbekiston) loyihasi bir sutkada 60-181 ming mi gaz uzatish quvvatiga ega bo‘lishi va bu butun Kompaniya guruh-lari orasida uchinchi o‘rinni egallamoqda (2.2.6-rasm). Shuningdek, loyihada 10 mi/sutka gaz kondensati olish quvvatiga ega bo‘ladi va bularning barchasi ekologik-tejamkorlik tizimida olib boriladi. Lukoil razvedka-qidiruv ishlarini oldingisiga qaraganda to‘rt baravar kam tabiat-ga zarar yetkazgan holda amalga oshiradi¹. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan loyihalar albatta kompaniyadan tegishli xarajatlarni talab etadi. “Lukoil” o‘tkazgan hisobotlarga ko‘ra istiqbolli hududlardagi kompaniya xarajatlari bo‘yicha O‘zbekiston 18.0% ulushni egallab turmoqda. Umumiy hisobda Lukoilning 2014 yilda kapital xarajatlari 4,655 mlrd AQSH dollarini tashkil etdi.

2020 yilgacha o‘rta muddatli o‘sish surtida “Lukoil” O‘zbekistonda yiliga 16 mlrd kubometr gaz ishlab chiqarish darajasiga erishishni rejalashtirmoqda. O‘zbekistonda “Lukoil” butun davr uchun amalga oshgan loyihalardan olinadigan davlat daromadi 40 mlrd. AQSH dollarini tashkil etadi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, O‘zbekiston iqtisodi va sanoti rivojlanishida “Lukoil”ning hissasi ulkandir. Shuningdek, “Lukoil” O‘zbekistonda ta’lim, madaniyat, sport, sog‘liqni saqlash va jamiyatning boshqa sohalarida rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, shuning-dek, faol xayriya ishlarini olib bormoqda. 2004 yildan beri mamlakatda olib borilgan faoliyat davrida, xayriya yordami umumiy miqdorda 10 mln AQSH dollaridan oshgan. Lukoil O‘zbe-kistonga jiddiy va uzoqni ko‘zlab va o‘z faoliyatiga katta masuliyat bilan yondashgan holda faoliy olib bormoqda va O‘zbekistonda energiya xavfsizligini ta’minlash uchun muhim hissa qo‘shmoqda. Aytib o‘tilganlarga yakun yasab, shuni ta’kidlash lozimki “Lukoil” O‘zbekis-

¹ Годовой отчет ОАО «Лукойл» – 2014.–Москва: «Лукойл», 2015.–С 26.

tonga jiddiy maqsadda va uzoq vaqtga keldi va o'zining mamlakatdagi faoliyatiga jiddiy qaraydi hamda sanoat rivojlanishini ta'minlashga o'zining sezilarli hissasini qo'shmoqda.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI TARTIBGA SOLISHNING HUQUQIY ASOSLARI

*G'iyosov Ravshan
ToshDSHI 4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: i.f.n., dots. G.A.Melibayeva*

Xorijiy investitsiyalar iqtisodiy taraqqiyoti har qanday darajadagi davlatning iqtisodiy rivojlanishida juda muhim o'rin tutadi. Xorijiy investitsiyalar nafaqat milliy resurslardan yanada samaraliroq foydalanish orqali qabul qiluvchi mamlakat iqtisodiyotining taraqqiy etishiga ko'maklashadi, balki chet el kompaniyalari hisobiga ichki bozordagi raqobatning o'sishini ham ta'minlaydi.

Albatta, jahon xo'jaligining subyektlari o'rtasidagi investitsion aloqalar normativ-huquqiy boshqaruvsiz amalga oshirilmaydi. Bu masalaning muhim ahamiyati shundaki, investitsion boshqaruvning qonuniy negizlari investorlar faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, investor va davlat orasidagi o'zaro aloqalarni O'zbekiston Respublikasi qonunchilik tizimi orqali ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiq etishda O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy bazasi hisoblangan 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan 609-I sonli "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi, 1998-yil 24-dekabrda qabul qilingan 719-I sonli "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi, 30.08.1995-yildagi 110-I sonli "Konsessiyalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlari hamda qator O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va Hukumatining qarorlari.

O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni tartibga solish masalasi bilan bir necha davlat organlari birgalikda faoliyat yuritishadi, bular: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo Vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi adliya Vazirligi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

a) iqtisodiy va investitsion rivojlanish bo'yicha qulay investitsion muhit va investitsiya qilish shartlarini yaratadi, iqtisodiyotni monopoliyadan halos qilish bo'yicha faoliyat yuritadi;

b) konsession aloqalarni boshqarish sohasida esa konsession faoliyatning samarali yo'nalishlariga asoslangan dasturlar ishlab chiqadi, taqdim etilgan konsessiya uchun konkurs va auksionlarni o'tkazishning talab va tartiblarini aniqlab beradi, konsession shartnomalarni imzolashning qoidalarini ishlab chiqadi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo Vazirligi yagona tashqi iqtisodiy va investitsion faoliyat yuritishda quyidagi vazifalarni bajaradi:

a) davlatning tashqi iqtisodiy faoliyatini, shu bilan birga ushbu faoliyatning huquqiy-normativ asoslarini ishlab chiqish, amalga oshirish hamda mukammallashtirish;

b) savdo-iqtisodiy shartnoma, kontrakt va bitimlarni doimiy tekshiruvdan o'tkazish;

c) yuridik va jismoniy shaxslarni, shu jumladan, chet el va xalqaro tashkilotlarini ro'yxatdan o'tkazish tartibini belgilash, ro'yxatdan o'tkazish;

- d) xorijiy firma, kompaniya va tashkilotlarini akkreditatsiyalash;
- e) eksport-import qilinayotgan tovarlarga litsenziya berish tartibini belgilash va litsenziya berish;
- f) eksport dasturlari va xorijiy investitsiyalarni sug'urtalash bo'yicha tashkilotlar yaratish va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi adliya Vazirligi xorijiy investitsiya va bozorga ega bo'lgan korxonalarini hamda tashkilotlarni ro'yxatdan o'tkazadi. Tuman va shahar hokimiyatlari huzuridagi inspeksiyalar tomonidan tadbirkorlik subyektlari, jumladan, xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar ham ro'yxatga olinadi.

O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq chet ellik investorlar O'zbekiston Respublikasi hududida xorijiy investitsiyalar ishtirokida korxonalar tuzishi mumkin, faqat ushbu korxonalar ustav fondining yoki aksiya (ulush, pay)larning kamida 30%i xorijiy investitsiya tashkil etishi lozim. Ular O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid kelmaydigan istalgan tashkiliy-huquqiy shaklda bo'lishi mumkin. Jumladan, ular sherikchilik (butunlay va qisman) xo'jaligi, mas'uliyati cheklangan va qo'shilgan jamiyat, aksionerlik jamiyati (ochiq yoki yopiq) shaklida, sho'ba yoki unitar korxonalar sifatida yoki qonunchilik bilan ta'qiqlanmagan boshqa shakllarda tashkil etilishi mumkin. Hozirgi kunga kelib doimiy investorlar o'z investitsiyalari hisobiga qo'shma korxonalar ochishdan tortib xususlashtirilayotgan korxonalar aksiyalarining bir qismi yoki hammasini sotib olish imkoniyatiga egadirlar.

Xorijiy investorlar va ularning investitsiyalari uchun adolat va tenglikka asoslangan tartib, doimiy himoya va xavfsizlik kafolatlanmoqda. O'zbekiston Respublikasida xorijiy investorlar uchun milliy yuridik va jismoniy shaxslar uchun yaratilganidan kam bo'lmagan darajada qulay investitsion sharoitlar yaratilgan.

O'zbekistonda xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va milliy korxonalar uchun deyarli bir xil soliq siyosati yuritiladi. Soliq tizimi ikki xil tartibda bo'lishi mumkin:

- 1) yagona soliq to'lovi, ushbu to'lovni to'lovchilar sirasiga mikrofirmalar va kichik korxonalar, shu bilan birga savdo sotiq va ommaviy ovqatlanish tashkilotlari, lotereya va totalizator kabi tavakkalga asoslangan o'yinlar bilan shug'ullanuvchi firmalar;
- 2) qolgan barcha korxonalar foydalanadigan umumiy soliq tartibi.

O'zbekiston Respublikasida undiriladigan asosiy soliq va yig'imlar quyidagi 1-jadvalda taqdim etilgan.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida olinadigan asosiy soliq va yig'imlar:

Yagona soliq to'lovi	Umumiy soliq tartibi		Ikki tartibda ham to'lanadigan soliqlar	
5%	Foyda/daromad solig'i (quyida ko'rsatib o'tilgan yuridik shaxslardan boshqa barcha yuridik shaxslar uchun)	7,5%	Aksiz solig'i	5% va undan yuqori
	Tijorat banklari	15%		

Auksionlar o'tkazishdan, gastrol-konsert faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar (jumladan, nerezidentlar)ni jalb qilib, ommaviy yirik tadbirlar o'tkazishdan daromad oladigan yuridik shaxslar	35%		
Ishlab chiqariladigan mahsulotga qo'shimcha qiymat solig'i	20%	Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	2,6%dan 30%gacha
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Yer osti suvi-108,5 so'm/1m ³ ; Yer usti suvi-108,5 so'm/1m ³	Yagona ijtimoiy to'lov	15%/25%
Yuridik shaxslar uchun mol-mulk solig'i	5%	O'zbekiston rezidentlariga dividend va foiz shaklida to'lanadigan daromad solig'i	10%
Yer solig'i	Joylashgan joyiga qarab	Dividenddan olinadigan daromad solig'i	10%
Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i	8%	Import qilinayotgan tovarlarga nisbatan qo'shimcha qiymat solig'i	20%
Bujetdan tashqari umum ta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga	0,5%	Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar	1,4%

	majburiy ajratmalar			
	Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar	1,6%		

*Muallif tomonidan tuzildi <http://www.uzinfoinvest.uz/rus/investiionniyputevoditel/> sayti ma'lumotlariga ko'ra

Yuqori texnologiyalar sanoatiga to'g'ridan-to'g'ri qo'yilmalarni amalga oshirayotgan xorijiy investorlar uchun maksimal darajada qulay investitsion muhit yaratish, respublikaning turli hududlariga xorijiy investitsiya va zamonaviy texnologiyalarni jalb qilish rag'batlantirish, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar va chet el investorlar uchun kafolatlar hamda imtiyozlar tizimini mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-aprelda PF-4434 sonli "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etilishini rag'batlantirishga oida qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Ushbu hujjat asosida xorijiy investorning pul shaklidagi ulushi 5 million AQSH dollaridan kam bo'lmagan yangidan tashkil etilayotgan xorijiy investisiyalar ishtirokidagi korxonalar davlat ro'yxatidan o'tgan sanadan boshlab 10 yil mobaynida soliq qonunchiligida o'zgarishlar yuz bergan hollarda, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i (tovarlar, ishlar, xizmatlarni realizatsiya qilish aylanmasi), mol-mulk solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, yagona ijtimoiy to'lov, yagona soliq to'lovi, shuningdek, Respublika yo'l jamg'armasiga hamda Byudjetdan tashqari umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lashning mazkur korxonalar davlat ro'yxatidan o'tish sanasida amal qilgan me'yorlari va qoidalarini qo'llashga haqlidirlar. Farmon bilan yana qiymati 50 million AQSH dollaridan oshadigan va xorijiy investorning ulushi kamida 50 foiz bo'lgan investisiya loyihalari doirasida, ishlab chiqarish maydonidan tashqaridagi zarur tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini qurish byudjet mablag'lari hamda boshqa ichki moliyalashtirish manbalari hisobidan amalga oshirilish tartibi ham belgilab olindi.

Chet ellik investorlar va xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar uchun imtiyoz va preferensiyalarning to'liq matni bilan yuqorida aytib o'tilgan 2012-yil 10-apreldagi PF-4434 sonli Farmonning 1-ilovasida tanishib chiqishingiz mumkin.

Bundan tashqari, hozirda Respublika hududida o'ziga xos huquqiy tizim amalga oshirayotgan 3ta maxsus iqtisodiy hududlar faoliyat yuritmoqda, bular: "Jizzax" EIH, "Angren" EIH hamda "Navoiy" EIH. Mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan erkin iqtisodiy zonalar yuqori texnologiyali yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish, hududlarda zamonaviy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni rag'batlantirish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni kengaytirishga salmoqli hissa qo'shmoqda.

Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yilning 12-yanvarida "Urgut", "G'ijduvon", "Qo'qon" va "Hazorasp" erkin

iqtisodiy zonalarini tashkil etish to'g'risida" Farmon qabul qildi. Bu Farmonga ko'ra Samarqand viloyatining Urgut tumanida "Urgut", Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanida "G'ijduvon", Farg'ona viloyatining Qo'qon shahrida "Qo'qon" va Xorazm viloyatining Hazorasp tumanida "Hazorasp" erkin iqtisodiy zonalarini tashkil qilinadi. Mazkur viloyatlar hokimiyatlari va qator mutasaddi tashkilotlar mazkur zonalar uchun 2017-yilning fevral oyi o'rtasigacha birgalikda yer uchastkalarini ajratadi va aniq hududlarini belgilaydi. Zonalarning faoliyat ko'rsatish muddati 30 yil bo'lib, mazkur muddat kelgusida uzaytirilishi mumkin. Ushbu davr mobaynida EIZlarda alohida imtiyozli soliq, bojxona va valyuta tizimi amal qiladi.

Xususan, EIZ ishtirokchilari soliqlar va davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar to'lashdan ozod etiladi. Masalan, 300 mingdan 3 million dollargacha mablag'kiritilsa imtiyozlar uch yilga beriladi, 3 milliondan 5 million dollargacha bo'lsa besh yilga, 5 milliondan 10 milliongacha — yetti yilga. Agarda ishtirokchi 10 million dollardan ortiq investitsiya kiritisa, u 10 yil davomida soliq va yig'imlardan ozod qilinadi va keyingi besh yilda daromad solig'i va yagona soliq to'lovining amaldagi stavkasining 50 foizini to'laydi.

Bundan tashqari, farmonga asosan erkin iqtisodiy zonalar butun faoliyat ko'rsatish davrida olib kelinadigan xomashyo, material va butlovchi qismlar uchun bojxona to'lovi to'lashdan ozod qilindi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. 1995-yil 30-avgustdagi 110-I sonli "Konsessiyalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni.
2. 1998-yil 30-apreldagi 609-I sonli "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni.
3. 2012-yil 10-apreldagi PF-4434 sonli "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etilishini rag'batlantirishga oida qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.
4. 2013-yil 18-martdagi PF-4516 sonli "“Jizzax” maxsus industrial zonasini barpo etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.
5. 2012-yil 13-apreldagi PF-4436 sonli "“Angren” maxsus industrial zonasini barpo etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.
6. 2008-yil 2-dekabrda PF-4059 sonli "Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.
7. 2017-yilning 12-yanvaridagi "“Urgut”, "G'ijduvon", "Qo'qon" va "Hazorasp" erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni.
8. <http://uza.uz/uz/business/erkin-iqtisodiy-zonalar-faoliyati-takomillashmoqda-15-01-2017>
9. <http://sputniknews-uz.com/economy/20170113/4593361.html>

MAMLAKATIMIZ IQTISODIYOTINI MODERNIZATSIYA QILISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI VA BUNDA BANKLARNING ROLI

*Maxamadjonov Ahmadxon
ToshDSHI 4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Zokirjonova F.*

*“Bizning doimiy vazifamiz- kichik biznes
va tadbirkorlikning o‘rni va rolini izchil o‘rishini ta‘minlash”
Islom Karimov, O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti*

Bugungi kunda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning hozirgi bosqichi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, unga keng erkinlik berish bilan tavsiflanadi. Shu jihatdan, bugungi kunda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilib kelinmoqda. Chunki, kichik biznes va tadbirkorlik sohasini rivojlantirish masalasiga davlatimiz iqtisodiy siyosatining strategik vazifasi sifatida qaralmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror yuksaltirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi daromadi hamda farovonligini oshirishning muhim omili sifatida qaralmoqda. Shuningdek, respublikamiz iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotini yangi, yanada yuksak bosqichga ko‘tarishning asosiy vositasi sifatida e‘tirof etilmoqda.

Ta‘kidlash lozimki, davlatimiz hukumati tomonidan bugungi kunda 400 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilingan bo‘lib, undan 108 tasi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga taalluqlidir. Tadbirkorlikni rivojlantirishni yo‘lga qo‘yish maqsadida hukumatimiz tomonidan chiqarilgan “O‘zbekiston Respublikasi korxonalari to‘g‘risida”gi, “Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar to‘g‘risida”gi, “Xususiy korxonalar to‘g‘risida”gi, “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Tadbirkorlik to‘g‘risida”gi, “Bank va banklar faoliyati to‘g‘risida”gi, qonunlar soha rivojini ta‘minlashga xizmat qilmoqda.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotining asosi bo‘lgan xususiy mulk ustuvorligini mustahkamlaydigan barqaror qonunchilik bazasi yaratilganini qayd etish zarur. Hozirgi kunda esa o‘rta mulkdorlar sinfini shakllantirish, mamlakat iqtisodiyotini barqaror yuksaltirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi daromadini oshirishning muhim omili bo‘lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish bo‘yicha qulay ishbilarmonlik muhiti hamda ishonchli huquqiy kafolatlar yaratilmoqda.

Mamlakatimizning birinchi Prezidenti Islom Karimov 2014-yilda ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturlarning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasida alohida ta‘kidlaganidek, o‘tgan yili iqtisodiyotimiz va uning yetakchi tarmoqlarini rivojlantirish borasida barqaror yuqori o‘rish sur‘atlariga erishildi. Mamlakatimizning yalpi ichki mahsulot hajmi 8.1 foiz oshib, jumladan, sanoatda 8.3 foiz, qishloq xo‘jaligida 6.9 foiz, kapital qurilishida 10.9 foiz, chakana savdoda 14.3 foiz o‘rishi buning yaqqol dalilidir¹. Jahonda global moliya-


¹O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi T: 2015 yil

viy-iqtisodiy inqirozning salbiy oqibatlari sezilib turgan murakkab bir sharoitda O‘zbekiston iqtisodiyotida qo‘lga kiritilgan bunday ijobiy natijalar barchaning havasini keltirayotgani ayni haqiqat. Ekspertlarning e’tirof etishicha, bu istiqlol yillarida tarraqiyotning o‘zimizga xos va mos bo‘lgan “o‘zbek modeli” asosida bosqichma-bosqich islohotlar olib borilayotgani, ayniqsa kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berilganligi hamda amaliyotga keng joriy qilinganligi samarasidir.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka davlat tomonidan katta e’tibor berilishi hamda qo‘llab-quvvatlanishi natijasida uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi yildan-yilga ortib bormoqda. Mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 1991 yil 1,5 foizni, 2000 yil esa 31 foizni, 2010 yil 52,5 foizini, 2014 yilda bu ko‘rsatkich 56,0 foizni, bugungi kunga kelib esa 56.8 foizni tashkil etdi. Mazkur chora-tadbirlar natijasini raqamlarda ko‘radigan bo‘lsak, bu ko‘rsatkich 2000 yilga nisbatan 25 foizga, 1991 yilga nisbatan 55,3 foizga ortganini ko‘rishimiz mumkin. Iqtisodiyotda band bo‘lganlarning 75 foizdan ortig‘i aynan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida faoliyat ko‘rsatmoqda¹ (1-rasm).

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakatimiz YaIMdagi ulushi (foiz) hisobida²:

1-diagramma



Manba: www.stat.uz Muallif tomonidan tayyorlandi

Mamlakatimiz iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini bu qadar jadal rivojlanishida eng avvalo mazkur soha uchun soliq imtiyozlari yetarli darajada rag‘batlantiruvchi rol o‘ynamoqda. Oxirgi yillarda kichik biznes subyektlari uchun yagona soliq to‘lov stavkasi yil sayin kamayib borishi kuzatilmoqda. Jumladan, 2014-yil belgilangan yagona soliq to‘lov stavkasi 1996-yilga nisbatan 7.6 marta, 2000 yilga qaraganda 6 marta, 2005-yilga nisbatan esa 3 marta qisqartirilgan (2-diagramma).

Joriy yilda tadbirkorlik faoliyatini keng rivojlantirish uchun yanada qulay biznes-muhitni yaratish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amaliyotga joriy etilishi haqida qarorlar qabul qilindi. Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va ularni muhandislik-


¹O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi

²www.cbu.uz O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti.

kommunikatsiya tarmoqlariga ulash tartibi sezilarli darajada soddalashtirildi hamda bu jarayon yanada ochiqlik kasb etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun yagona soliq tolovi (foiz) hisobida¹:

2-diagramma



Manba: www.stat.uz O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari.

Bugungi kunda tadbirkorlik subyektlarining 98 foiz soliq va statistika hisobotlar topshirish, bojxona deklaratsiyasini rasmiylashtirishni eski usulda qog'oz to'ldirish yo'li bilan emas, balki bevosita elektron shaklda amalga oshirmoqda. Ro'yxatga olish uchun davlat boji stavkasi ikki barobarga qisqartirildi. Ishchilarning yillik o'rtacha soni 100 kishigacha ko'paytirilgan kichik korxonalar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxati sezilarli darajada kengaytirildi. Kichik biznes subyektlarini davlat xaridlari jarayoniga keng miqyosda jalb qilish mexanizmi ishlab chiqildi va joriy etildi. O'tgan 2014-yilda 500 dan ziyod yangi korxonalar, birinchi navbatda, kichik biznes subyektlari eksport faoliyatiga jalb etildi. Tashqi savdo balansidagi ijobiy savdo 180 million dollarni tashkil qildi, mamlakatimizning oltinvalyuta zahiralarini 1 mlrd 600 million AQSH dollarga ko'paytdi². Bu borada tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki huzurida tashkil etilgan Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlaydigan jamg'armaning roli ortib bormoqda. 2014 yilda mazkur jamg'arman tomonidan 2400 ta tadbirkorlik subyektiga o'z tovar xizmatlarini tashqi bozorlarga chiqarish bo'yicha huquqiy, moliyaviy va tashkiliy xizmatlar ko'rsatilmoqda. Jamg'arman ko'magida tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 mlrd 250 million AQSH dollar miqdoridagi eksport shartnomalari tuzildi. Mazkur shartnoma asosida o'tgan yili qiymati 840 million dollardan ziyod tovarlar eksport qilingani fikrimiz isbotidir³. Barchamizga ayonki, bugungi kunda tadbirkorlar tashqi bozorlarni o'rganish va chet ellik hamkorlarni topishi, xalqaro tender savdolarida ishtirok etish, eksport shartnomalarini tuzish, xalqaro sertifikatlar, ruxsat

¹O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yonalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasini. Xalq so'zi 18.01.2014 (13).

²O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki statistik ma'lumotlari

³O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki statistik ma'lumotlari

berishga oid hujjatlarni olish va bojxona rasmiylashtiruvini bo'yicha yordam berilishi davlat tomonidan qonuniy tomondan himoya qilinmoqda.

Ta'kidlash lozimki, bugungi kunda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotini shakllantirishda kichik biznesning ulushi 2000-yildan buyon 31 foizdan 56,8 foizga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda 12.9 foizdan 31.4 foizga o'sgan¹. Mamlakatimiz iqtisodiy islohotlarning turli bosqichlarida ijtimoiy-iqtisodiy sharoitdan kelib chiqib, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosati muntazam ravishda takomillashtirib borilmoqda. Misol uchun, 2008- yildan keyingi davrda, ya'ni jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida kichik biznesni eksport amaliyotiga jalb qilish, ishlab chiqarish jarayoniga innovatsion texnologiyalar joriy etilishiga ko'maklashish, ularning faoliyatiga nazorat organlari aralashuvini qisqartirish, soliq stavkalarini muntazam ravishda kamaytirib borish masalalariga birinchi darajali vazifalar sifatida jiddiy e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga mazkur sohani rivojlantirishda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan 2011- yilning "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" deb e'lon qilinishi bu sohani yanada jadal rivojlanishiga sabab bo'ldi. Bu kabi tizimli chora-tadbirlar tufayli kichik biznes yil sayin taraqqiy etib, u kirib bormagan jabha deyarli qolmadi. Qishloq xo'jaligi, qurilish, oziq-ovqat mahsulotlari sanoatida hozirgi kunda xususiy tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqarish ulushi yil sayin o'sib bormoqda.


Iqtisodiy rivojlanishning barcha bosqichida kichik biznesning mamlakat yalpi ichki mahsuloti tarkibidagi ulushini oshirish, iqtisodiyotda tarkibiy va ijtimoiy muammolarni hal etish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi daromadlarini ko'paytirishga qaratilgan mexanizmlar joriy etildi. Ta'kidlash lozimki, 2014- yili kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida 480 mingdan ortiq ish o'rni tashkil etilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich bugungi kunga kelib 600 mingga yaqinini tashkil etmoqda. Bu – respublikamizda mazkuryilda yildayaratilgan jami yangi ish o'rinlarining yarmi demakdir. Ish bilan band bo'lgan aholining 78.5 foizdan ziyodi mazkur sektorlarda mehnat qilgan bo'lsa, 2000-yilda bu ko'rsatkich 49,7 foizga teng edi. Iqtisodiyot sohasida izchil amalga oshirilayotgan ana shunday chora-tadbirlar o'z samarasini bermoqda². Bunda bank tizimining kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida amalga oshirayotgan keng ko'lamlı islohotlari o'zining natijalarini ko'rsatmoqda. Bu jarayonda mamlakatimiz bank-moliya tizimi tomonidan qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish yuzasidan hayotga izchil tatbiq etilayotgan chora-tadbirlar soha taraqqiyotida yangi imkoniyatlar ochmoqda (3-rasm).

¹O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki statistik ma'lumotlari

²O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi

O‘zbekiston Respublikasidagi mavjud banklar ro‘yxati¹:

3-diagramma



Manba: www.cbu.uz Muallif tomonidan tayyorlandi.

Mamlakatimiz tadbirkorlarining yaqin hamkori va ishonchli tayanchiga aylangan bank tizimining asosiy maqsadlaridan biri ishbilarmonlarning ishonchini qozonish bo‘lib hisoblanadi. Ayni paytda mamlakatimiz banklari moliyaviy xizmat ko‘rsatishning barcha sohalarida samarali faoliyat ko‘rsatayotgani va bank tizimini yanada rivojlantirish yo‘lida salmoqli natijalarga erishayotganini alohida qayd etish joiz. Mamlakatimizda zamonaviy bank tizimini shakllantirish borasida erishilgan yutuqlar jahon hamjamiyati tomonidan yuqori baholanib kelinmoqda. Jumladan, 2014 yil dekabr oyida “Standart end Poor’s” va “Fitch Reytings” reyting agentliklari O‘zbekiston bank tizimi faoliyatini yana bir bor **“barqaror”** darajada baholadi. Shuningdek, “Mudis” xalqaro reyting agentligi esa O‘zbekiston bank tizimining rivojlantirish istiqbolini oxirgi besh yil mobaynida **“barqaror”** darajada tasdiqlab kelmoqda. Ta’kidlash lozimki, bugungi kunda respublikamizda faoliyat yuritayotgan barcha tijorat banklari nufuzli xalqaro reyting agentliklarining **“barqaror”** reytingiga ega (2014 yil 26 ta).

Shuningdek, bank tizimi faoliyati jamoatchilik tomonidan qanday baholanayotganini kuzatib borishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Markaz tadqiqotlarining ushbu yo‘nalishi O‘zbekiston bank tizimi tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida hamda oilaviy biznesni, yoshlar va ayollar o‘rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘lida olib borilayotgan ishlarni jamoatchilik nazari bilan kuzatish hamda shu asosda bu boradagi faoliyat samaradorligini yanada yuksaltirishga yo‘naltirilgan takliflar ishlab chiqishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Bu sohada tadqiqotlar muntazam ravishda olib borilmoqda va sotsiologik so‘rovining asosiy natijalari ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinmoqda. Bu esa O‘zbekiston bank tizimi tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, oilaviy biznes, yoshlar va xotin-qizlar o‘rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘lida olib borilayotgan keng ko‘lamli ishlar haqida jamoatchilik fikrining to‘g‘ri shakllanishiga xizmat qilmoqda. Mamlakatimizning yetakchi tijorat banklari tomonidan kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining biznes loyihalarini moliyalashtirish maqsadida berilayotgan imtiyozli kreditlarning yuqori samaradorligi bo‘yicha ham ko‘p xorijiy respondentlar o‘z ijobiy munosabatini bildirmoqda.

O‘tgan yilda mamlakatimiz ta’lim muassasalarining 600 mingdan ziyod bitiruvchisi ish bilan ta’minlandi. Shunisi quvonarliki, yoshlarimizning aksariyat katta qismi o‘z kelajagini

¹www.cbu.uz O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti

kichik biznesda ko‘rmoqda. Xususan, ajratilayotgan ushbu imtiyozli kreditlar yoshlarga tadbirkorlik faoliyatini boshlashi, boshlang‘ich kapitalni shakllantirish va o‘z faoliyatini kengaytirishida katta imkoniyatlar yaratmoqda, ularning nafaqat o‘zini, balki o‘z tengdoshlarini ham ish bilan ta‘minlashga xizmat qilmoqda. Biznesni yuritish uchun zarur bo‘ladigan mablag‘ni tadbirkorlarning asosiy qismi (95,7 foizi) tijorat banklaridan olish maqsadga muvofiq, deb hisoblaydi. Bu ko‘rsatkich ilgari natijalarga nisbatan sezilarli darajada ortganligini ta‘kidlash lozim.

Kichik biznesning mamlakat taraqqiyoti o‘shida ahamiyatini birgina misol bilan isbot qilishimiz mumkin. Barchamizga ma‘lumki, global inqiroz oqibatida dunyoning ko‘pgina davlatlarida iqtisodiy o‘sh sur‘atlari pasayib, ishsizlik muammosini jilovlashning imkoni bo‘lmay qolgan. Ana shunday pallada bandlik masalasini hal qilishning turli usullari orasida eng maqbuli sifatida deyarli barcha mamlakatlarda kichik biznes rivojiga ko‘maklashish deb topilib, shu asosda dasturlar qabul qilindi. O‘zbekistonda esa bu tajriba allaqachon amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etilgani, inqirozga qarshi choralar dasturida ham masalaning ushbu jihati e‘tibordan chetda qoldirilmagani iqtisodiyotimizga bo‘lgan qiziqishni yanada oshirdi. Shuning uchun ham, ko‘plab xorijiy ekspertlar O‘zbekiston tajribalarini o‘rganishga qiziq boshladilar. Xususan, Fransiyalik mutaxassis Daniel Kuedbek shunday degan edi: “Global moliyaviy inqirozdan jahon iqtisodiy davlatlari iqtisodiyoti juda katta ziyon ko‘rdi. Muammo yechimi bo‘yicha turli variantlarni, jumladan, O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqur o‘rganish kerak”.

Chindan ham, aynan kichik biznes sohasida olib borilgan ishlar O‘zbekistonda inqiroz oqibatlarini yumshatish va iqtisodiyot tarmoqlarini barqarorligini ta‘minlashda muhim omillardan biri bo‘ldi. Agar inqiroz eng chuqurlashgan 2008-2009-yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotining o‘rtacha yillik o‘shisi 8 foizdan yuqori bo‘lgan bo‘lsa, shu davrda kichik biznes subyektlari tomonidan xizmat ko‘rsatish 15-16 foiz, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish esa 23-24 foizga oshgan. Yaqin yillarda tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga keng imkoniyatlar yaratgan holda ularga yetarli sarmoya ajratmoqda. 2015-yilda tadbirkorlik subyektlariga 9 trillion so‘mdan ortiq (2014 -yilga nisbatan 1.3 barobar ko‘p) shu jumladan, 2 trillion so‘mga yaqin miqdordagi mikro kreditlar (2013- yilga nisbatan 39 foziga ko‘p) ajratildi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag‘batlantirish bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida o‘tgan yili, fermer va dehqon xo‘jaliklarini hisobga olmaganda, 20 mingdan ziyod yangi kichik biznes subyektlari tashkil etildi, ularning umumiy soni esa 195 mingdan ziyodni tashkil etdi. Bu 2000-yilga nisbatan 2 barobar ko‘pdir. Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining “Biznesni yuritish-2015” navbatdagi yillik hisobotiga ko‘ra, biznesni yuritish shart-sharoitlari bo‘yicha respublikamizning reyting ko‘rsatkichi 2014- yil yakunlari bo‘yicha 189 mamlakat orasida 8 pog‘onaga ko‘tarildi. Shu jumladan, kreditlash shartlari bo‘yicha so‘ngi ikki yilda mamlakatimizning reytingi 50 pog‘onaga, ya‘ni 154-o‘rindan 104-o‘ringacha ko‘tarildi. (2013-yilda 24 pog‘onaga, 2014-yilda 26 pog‘onaga). “Kredit axboroti almashinuvi indeksi” bo‘yicha O‘zbekiston bank tizimi mavjud 8 balli tizimda 7 ballga baholandi va bu ko‘rsatkich Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OECD)ga a‘zo davlatlari bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan yuqori bo‘lib hisoblanadi. Shuningdek, soliqqa tortish borasida esa 61 pog‘ona yuqoriga ko‘tarildi¹. Birlashgan Millatlar

¹O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki statistik ma‘lumotlari

Tashkiloti Taraqqiyot dasturining bahosiga ko'ra, O'zbekiston so'nggi yillarda biznes yuritishni yengillashtirish sohasida amalga oshirilgan islohotlar bo'yicha yetakchi o'nta mamlakat qatoridan joy oldi.

Muxtasar qilib aytganda, mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik harakatlari bundan keyin ham har tomonlama qo'llab-quvvatlanadi. Yurtboshimiz tomonidan joriy yilga xususiy tadbirkorlikni qonuniy himoya qilish va uni yanada rivojlantirish, sohaga to'liq erkinlik berish, bu yo'lda g'ov bo'lib turgan barcha to'siq va cheklovlarni bartaraf etish masalasi qo'ldi. Zotan, mamlakatimiz iqtisodiyotining jadal rivojlanishi, aholining ish bilan ta'minlanishi, yoshlarimizning o'z yo'lini topishi ko'p jihatdan kichik biznes istiqboli bilan chambarchas bog'liqdir.

XITOIDA PUL MUOMALASINING RIVOJLANISHI

Saydaliyev Nuriddin
ToshDSHI 4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: i.f.n., dots. G.A.Melibayeva

Pul insoniyat kashf etgan eng oliy kashfiyotlardan biridir. Uning paydo bo'lishi o'ziga xos uzoq tarixga ega.

Qadimiy xalqlarda pulning shakllanishi turlicha kechgan. Dastlab, turli xo'jalik buyumlari va iste'mol mahsulotlari kishilik jamoalari o'rtasida muomala vositasi sifatida qo'llanilgan.

Xitoy olimlari bu borada yuzlab tarixiy asarlar, minglab maqolalar yozishgan. Biroq, biz, ushbu uzoq jarayonning asosiy bosqichlarini qisqa shaklda ko'rib chiqamiz.

Sharqiy Osiyoda tabiiy tovar ayirboshlash ibtidoiy urug'jamoasi davrida paydo bo'lgan. Tarixiy iqtisodiyotga bag'ishlangan asar "Guan-szi" da pulning vujudga kelishi haqida qisqacha ta'kidlanib o'tilgan. Dastlabki pul shakli nefrit va yashmadan yasalgan bezaklar bo'lgan. Ular Ichki mongoliya va Lyaonin provinsiyalari hududidan topilgan. Bu topilmalarning yoshi qariyb 7500 yildan ko'proqdir. Keyinchalik pullar dengiz chig'anoqlaridan yasala boshlandi, keyin esa In Shan imperasiyasi davriga kelib (mil. av.XI asr-1066 yillar) metal pullar paydo bo'la boshladi. Qadimiy asarlarda ("Chjou marosimlari", "Harbiy hikoyalar" (Tsochuan), "Til" (Gouyu), "davlat harbiy yilnomasi") tovar-pul munosabatlarining afzalliklari haqida keltirib o'tilgan. Keyinchalik yashmadan yasalgan ko'plab ko'rinishdagi pul, hisob-kitob vositalari shakllangan. Bu yashma toshlari eramizdan oldingi III-asrgacha asosiy pul vositasi sifatida ishlatilgan. Undan keyingi davrda Sharqiy Osiyoda toshbaqa kosasi pul vositasi sifatida ishlatilgan¹.

Neolit davrida dengiz chig'anog'i asosan hududiy savdoda faol ishlatilgan. Dengiz chig'anog'i ko'rinishidagi eng dastlabki pullar Qadimiy Xitoyda ya'ni mil.av. 4225-4005 gacha ishlatilgan. Keng savdo operatsiyalarini amalga oshirishda dengiz chig'anoqlaridan foydalanish samarador bo'lmagan. Buning o'rniga bronza, oltin, nefrit va suyak toshbaqa kosasi shakliga keltirilib muomalaga kiritilgan.

¹A.С.Селищев,Н.А.Селищев,А.А.Селищев. Финансовые рынки и институты Китая. Москва, ИНФРА-М, 2016 г.

Birinchi **chig‘anoq shakliga keltirilgan mis pul birligi** Xitoyda Shan imperiyasi davrida joriy qilingan. (mil.av. XI asr-1066 yillar). Chig‘anoq pullardan tashqari hayvon terilari, kamon va nayza o‘q uchlari, mato gazlamalar ham savdo vositasi sifatida ishlatilgan. Shunga qaramay bu bosqichgacha dengiz chig‘anog‘i eng ko‘p ommalashgan hisob-kitob vositasi bo‘lgan¹.

Mis chig‘anoq pullar taxminan mil.av. VII asrlarga tegishli iyerogliflarda tasvirlangan. Mis chig‘anoqlar (tig‘va o‘q uchlari ham) qadimgi Xuanxe daryosi sohillaridagi aholi tomonidan pul vositasi sifatida foydalanilgan. Mis chig‘anoqlarining qiymati nafaqat og‘irligi, balki, shakli bilan ham standartlashtirilgan (og‘irligi 2,5-6; keyinchalik esa 0,6-1,6 gramm-gacha). Pul qiymati yagona chig‘anoq pul birligiga qarab belgilangan. Ulardan Yangszi daryosining quyi yuqori sohillaridagi hududlarda eng asosiy pul vositasi sifatida foydalanishgan.

Shu bilan birga ayni Bahor-Kuz va “Urushayotgan mamlakatlar” davrida (mil.av.475-221yillar) pul munosabatlari rivojlanishi bir qancha susaygan, shunga qaramay tovar-pul munosabatlarining rivojlanishining yangi ko‘rinishi, savdo ko‘lamini kattayishiga olib kelgan. Bu davrda yagona pul birligi mavjud bo‘lmagan va har bir hudud o‘z mahalliy tangasini ishlatgan. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, bir qancha o‘ziga xos pul birliklari: maxsus mahalliy pullar paydo bo‘lgan.

• **O‘q uchi ko‘rinishidagi pul birliklari.** Bu pullar Xan, Jao va Vey davlatlarida, foydalanilgan. Pullar ikki xil ko‘rinishda bo‘lgan (teshikli va teshiksiz) va katta hudud bo‘ylab foydalanilgan—Yan (shimoli sharqiy) imperiyasidan Sin (g‘arbiy) mamlakatigacha. Bu pullarning og‘irlik o‘lchovi *szin* bo‘lgan.

• **Tig‘li (yoki poynakli) shakldagi pul birliklar.** Mis pullar, ular Yan va Sin davlatlarida 43 yildan 13-yilgacha foydalanilgan.

• **Kvadratik mis tangalar.** Chu davlatida kvadrat shaklidagi uncha katta bo‘lmagan mis tangalar muomalaga chiqarilgan. Mis tangalarning og‘irligi 3.5 -4 grammni tashkil etgan.

• **An‘anaviy yumaloq shakldagi tangalar.** G‘arbiy Chjou, Sharqiy Chjou va Sin davlatlarida foydalanilgan. Dastlabki doira shaklidagi tangalari taxminan 10 gramm bo‘lgan. Taxminan mil.av. 5 asrda qadimgi xitoy mamlakatlarida iqtisodiy integratsiyalashuv yuz bergan. Bu mahalliy pul tizimini asta sekin unifikatsiya bo‘lishiga olib kelgan².

Metall pullar dastlab Shimoliy Xitoyda, keyinchalik Janubiy hududlarda – hozirgi Shanxi provinsiyasi (bu yerda pul qishloq xo‘jaligi mahsulotlari o‘rnini bosuvchi sifatida), Yanszi daryosi sohillarida (Chu mamlakati: toshbaqa kosalari, bu yerdan hatto toshbaqa kosalari shaklidagi oltin quymalar ham topilgan) foydalanilgan. Hozirgi Xebey (Yan mamlakati) provinsiyasi hududlarida (ya‘ni ko‘chmanchi qabilalar joylashgan) birinchi qilichga o‘xshagan pullar paydo bo‘lgan. Tszi davlatining dengizboyi hududlarida pichoq shaklidagi pullar paydo bo‘ldi. Shuningdek, Yan mamlakatida va hozirgi Shimoliy Sharqiy Xitoy hududlarida ham **pichoq-pullar** faol ishlatilgan.

Pichoq-pullar asosan misdan yasalgan bo‘lgan. “Bahor va Kuz” davridagi, urushayotgan mamlakatlar davridagi (mil. av 770-221 yillar) hozirgi markaziy va shimoliy Xitoy hududla-

¹马飞海, “先秦货市的若干问题”。上海。1989。

²陈隆文。春秋战国货币地理研究。-北京。2006 第 246 页

rida mis pullarining ikki xil ko‘rinishi, o‘q uchisimon pullar va ikkinchisi dumoloq shaklidagi tangalar mavjud bo‘lgan.

Sin imperiyasi boshlarida Shimoliy va Markaziy Xitoyda aholi punktlari tomonidan soxta pullar ishlab chiqarish holatlari ham kuzatilgan. Xitoy umumiy metall pullari shakllan-gunga qadar, butun mamlakat bo‘ylab metall tangalarni zarb etuvchi zarbxonalar vujudga keldi. Har bir rivojlangan hudud o‘zining pul shaklini ishlab chiqdi, ya’ni butun Xitoy bo‘ylab foydalanilgan xomashyosi va sifati bilan bir-biridan farqlanuvchi bir necha pul birliklari paydo bo‘ldi. Buning natijasi o‘laroq, butun mamlakat bo‘yicha yagona pul emitsiyasi va yagona pul ayirboshlash tizimi mavjud emas edi. Metall pullarni ishlab chiqarish zarbxonalari uchunmetallar mis qazib chiqarish joylaridan olib kelingan. Metall pullar nafaqat Xitoy hududlarida (provinsiya Hebey, Xaynan, Shansi, Shandun, Hubey, Anhuy) balki, ichki Mangoliya, Liolin va Sizilin provinsiyalarida ham muomalada bo‘lgan va zarb qilingan. Birinchi metal pullar Henan (Loyan shahri) hududlarida ham foydalanilgan. Shansi provinsi-yasining janubiy qismi Xitoy metall pullarining vatani hisoblanadi. Metall pullarning ilk namunalari Xuanxe daryosining (34-36) bepoyon kengliklaridan topilgan.

Mis qazib olish Xuanxe daryosi sohillarida, Ichki Mongoliya va Lyaonin provinsiya-larida (mill.av. II asr) boshlangan. Yanszi daryosining quyi va yuqori oqimlari mis konlari-ning vatani hisoblanadi.

Mill.av. 569 yilda Tszin davlati tomondan boshlangan **Oq Di** (*jundi qabilalarining biri*) qabilasini istilo qilish siyosati boshlangan paytdayoq, qabilada pul muomalasi tizimi juda yaxshi rivojlangan edi. Oq Di qabilasi pichoq-pullari Tsi davlatida ham o‘zlashtirildi. Tsi davlati kabi Yan davlati ham, tig‘li pullarni Jundi qabilalaridan o‘zlashtirishgan¹.

Koreya yarim orollarida ham tig‘li (poynakli) pullar to “urushayotgan mamlakatlar” davrigacha muomalada bo‘ldi. Yan davriga oid pullar Xitoyning Xeylongjian provinsiyasi va Rossiyaning Primorskom kengliklaridan topilgan.

“Urushayotgan mamlakatlar” davrida pul tizimi “artireya”si sharqdan tog‘li massiv Taysinshan (hozirgi Xenan provinsiyasi) gacha cho‘zilgan. Bu hududlarning shimolida Yan va Sin davlatlari joylashgan bo‘lib, sharqda — Han va Chjao davlatlari, janubda Chu davlati hududlari joylashgan. Bu hududlarda pul massasining ko‘chib yurishi juda shiddat bilan ro‘y bergan. Bundan tashqari geografik shakllanishga ega pul oqimlarini ham ta’kidlash lozim (Xuanxe daryosi), o‘rtacha ahamiyatli oqimlar janubga qaraganda Yanszi daryosi hududlarida mavjud bo‘lgan (Chu davlati). Bu ma’lum makonga oid pul oqimlari Shimoliy Xitoy mamlakatlari bilan (o‘q uchi va poynakli pullar foydalanilgan) janubiy hududlarni birlash-tirgan, ko‘plab qabilalardan tarkib topgan aholi, umumiy olinganda U va Yue (tajribaviy ayir-boshlash, shuningdek hisob kitob birliklarining sifati – dengiz chig‘anog‘i), g‘arbda Sin (u yerda dumaloq mis tangalar muomalada bo‘lgan) davlati bilan bog‘lagan.

Chu davlatida eng muhim omil, kommunikatsiya rivojlanishini Xitoyning Shimoliy va Janubiy hududlarini bir-biri bilan o‘zaro iqtisodiy aloqalarning kurtak yozishiga imkon tug‘-dirgan. Chu davlatidagi quruqlik yo‘llari shimoliy va sharqiy o‘lkalarni nihoyatda rivojlan-tirgan. Boshqa hududlarda asosan suv transporti ko‘proq edi.

Bundan tashqari ikki muhim bosh geografik aloqa yo‘llari asosiy pul oqimining (hozirgi Xenan va Xubey provinsiyalari) ko‘chib yurishiga imkon bergan. Yana bir shimoliy mamla-

¹欧燕。试论秦汉黄金为上币//江南钱币。1995年第3期：汤可可。中国钱币文化。-天津。2004第27页

kat Yan (hozirgi Xebey provinsiyasi va Lyaonin provinsiyasi g'arbiy hududi)da shimoliy ko'chmanchi qabilalar bo'lib, u yerda mis pullar massasi oqimining shiddatli chashmasi bo'lgan va shuningdek Koreya yarimolida ham yoyilgan.

Nihoyat, eng ahamiyatli harakatlanuvchilarning oqimi tizimi Tsi imperiyasi bilan "aloqa o'rnatgan". Shuningdek bu pullar harakati shiddat bilan daryo va quruqlik yo'llari, dengiz orqali Koreya yarimoroli va Ryukyu oroliga tashib o'tilgan.

Tsin davlatida pullar doirasimon, o'rtasi teshik shaklda bo'lgan. Ular oddiygina, og'irligi yarim liana (taqriban 7 gramm) bo'lgan. Pullar (real yoki nominal) hukmronlik imperator Xuan U-di qo'liga o'tgungacha yarim liana og'irlikda bo'lgan. Keyingi 200–300 yillikda esa pullarning og'irligi besh chju (taxminan 3 gramm) bo'lgan¹.

Metall pullar muomalasi, dengiz sathidan 500 metr yuqorida joylashgan yassi past tekisliklarda, dengiz sathidan 500–2000 metr yuqoridagi tog'li hududlarda ommalashgan, bu yerda mis pullardan kamdan-kam foydalanilgan. Bu pullar Tsin davlati Xitoyni birlashtirilgungacha Sichuan past tekisliklarida – sobiq Bashu davlati hududlarida ishlatilgan. Bundan boshqa, ba'zi hududlarda, Fen va Su daryosi sohillarida, Taysinshan tog'ligining g'arbida, shimol, Shimoliy Xitoy tekisliklarida va Lyao daryosining sohillarida metall pullar qo'ldan qo'lga o'tib iste'molda bo'lgan.

Xitoyda olti mamlakatning birlashishi Tsin davlati dumaloq tangalarining asta-sekin ommalashishi jarayonini, poynakli pullar va o'q uchli pullarning (qadimda barcha hududlarda, qadimgi Tsin va Si mamlakatlari hududlarida foydalanilgan) iste'moldan chiqib ketishini ta'minladi.

Ushbu tadqiqotimizda biz Xitoyda pul muomalasi rivojlanishining tarixiy bosqichlarini ko'rib chiqdik, mazkur jarayonning keyingi bosqichlarini kelgusi izlanishlarimizda yoritib o'tamiz.

KICHIK BIZNES VA OILAVIY BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA BANK TIZIMINING AHAMIYATI

*Xoliqov Hamidulla
TMI 2-kurs talabasi*

Ilmiy rahbar: katta o'qituvchisi Jumaniyozov I.T

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

Iqtisodiyotda ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv tizimidan mutlaqo voz kechilib, bozor islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirilgani va pul-kredit siyosati puxta o'ylab olib borilgani makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyotning yuqori sur'atlar bilan o'sishini, inflyatsiyani prognoz ko'rsatkichlari darajasida saqlab qolishni ta'minladi hamda kichik

¹唐石斧。中国古钱币。- 上海。2001 57 页

biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar va qulay sharoitlar yaratilishiga xizmat qildi.


Mamlakatimizda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni ta'minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining o'rni beqiyosdir. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar o'zining samarasini bermoqda. Bu jarayonda mamlakatimiz bank-moliya tizimi tomonidan qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish yuzasidan hayotga izchil tatbiq etilayotgan chora-tadbirlar soha taraqqiyotida yangi imkoniyatlar ochmoqda. Tadbirkorlarning yaqin hamkori va ishonchli tayanchiga aylangan mamlakatimiz bank tizimi ishbilarmonlarning ishonchini to'la qozonishni o'zining asosiy maqsadlaridan biri etib belgilagan. Ayni paytda mamlakatimiz banklari moliyaviy xizmat ko'rsatishning barcha sohalarida samarali faoliyat ko'rsatayotgani va bank tizimini yanada rivojlantirish yo'lida salmoqli natijalarga erishayotganini alohida qayd etish joiz. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi ichki bozorni sifatli tovarlar bilan ta'minlash, eksport tarkibida yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlarni ko'paytirish, zamonaviy xizmat ko'rsatish, yangi ish o'rinlarini yaratishda mamlakatimiz iqtisodiyotida yetakchi kuchga va muhim bo'g'inga aylanib bormoqda.

Mazkur sohaning iqtisodiyotning yetakchi bo'g'iniga aylanishida mamlakatimiz bank tizimi tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi rivojlanishini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shu jumladan, biznesni yuritish bilan bog'liq barcha jarayonlarni yanada soddalashtirish va arzonlashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar muhim rol o'ynamoqda. Tadbirkorlik subyektlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirish borasidagi chora-tadbirlar samarasida, yurtimiz iqtisodiyoti muttasil o'sishida ularning ulushi sezilarli ravishda oshmoqda. Xususan, mustaqilligimizning dastlabki yillarida yalpi ichki mahsulot tarkibida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi bor-yo'g'i 1,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, hozir ushbu ko'rsatkich 56,9 foizga yetdi, sanoatda esa 45 foizga oshdi. Hozirgi kunga kelib iqtisodiyotda ish bilan band aholining 78 foizi mazkur sohada mehnat qilmoqda. Shuningdek, 2016-yil davomida 32 mingga yaqin yoki 2015-yilga qaraganda 18 foizga ko'p yangi kichik biznes subyektlari davlat ro'yxatidan o'kazilib, o'z faoliyatini boshladi¹.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2013-yil avgustdagi «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksportini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-2022-sonli Qaroriga muvofiq, Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki huzurida respublika mintaqalarida hududiy filiallari bo'lgan «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksportini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi» tashkil etildi. Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki qoshidagi Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari eksportini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi ko'magida qariyb 2,9 mlrd. dollarlik eksport shartnomalari imzolaniib, ular doirasida 470 ta tadbirkorlik subyekti tomonidan 1,4 mlrd. dollarlik eksport amalga oshirildi. Jamg'arma tomonidan jami 3356 ta tadbirkorlik subyektiga o'z tovar va xizmatlarini tashqi bozorlarga chiqarish bo'yicha huquqiy, moliyaviy hamda tashkiliy xizmatlar ko'rsatildi. 2016-yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlar miqdori 2015-yilga nisbatan 1,3 barobardan ziyodga oshib, qariyb 15,9

¹www.cbu.uz. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayti.

trln. soʻmni, shundan mikrokreditlar hajmi 1,3 barobarga ortib, 3,3 trln. soʻmdan ortiqni tashkil etdi¹.



1-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlar

Xususan, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish uchun 367,2 mlrd. soʻm, xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun 1 647,0 mlrd. soʻm, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalariga 2 752,6 mlrd. soʻm, nooziq-ovqat isteʼmol mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalariga 2 993,0 mlrd. soʻm, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining biznes loyihalarini moliyalashtirish uchun 362,1 mlrd. soʻm miqdorida kredit mablagʻlari ajratildi. Shu jumladan, 2017-yilda tijorat banklari tomonidan jami 18,8 trln. soʻm yki 2016-yilga nisbatan 25 foiz koʻp miqdorda kredit mablagʻlarining ajratilishi koʻzda tutilmoqda.

Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va koʻrsatilayotgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi barqaror ravishda oʻsib bormoqda.

Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib oʻtgan taraqqiyot yoʻlining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori konʼyunkturasi keskin oʻzgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal surʼatlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va roʻyobga chiqarishni taqozo etmoqda².

Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoev tomonidan 2017 yilning 7 fevralida imzolangan “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida” farmoni shu sohadagi muammolarning echimini oʻzida ifoda etgan strategik rejani taqdim etdi desak, ayni haqiqat boʻladi.

Harakatlar strategiyasining iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yoʻnalishlarining asosiy yoʻnalishlaridan biri iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini ragʻbatlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish hisoblanadi³. Bunga:

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy Banki maʼlumotlari.

² Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida” 07.02.2017.

³ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida” 07.02.2017.

- xususiy mulk huquqi va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivoji yo'lidagi barcha to'siq va cheklovlarni bartaraf etish, unga to'liq erkinlik berish, "Agar xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va kuchli bo'ladi" degan tamoyilni amalga oshirish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarning qat'iy oldini olish;

- davlat mulkini xususiylashtirishni yanada kengaytirish va uning tartib-taomillarini soddalashtirish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning ustav jamg'armalarida davlat ishtirokini kamaytirish, davlat mulki xususiylashtirilgan ob'ektlar bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

- investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy, eng avvalo, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish;

- korporativ boshqaruvning zamonaviy standart va usullarini joriy etish, korxonalarni strategik boshqarishda aktsiyadorlarning rolini kuchaytirish;

- tadbirkorlik subyektlarining muhandislik tarmoqlariga ulanishi bo'yicha tartib-taomil va mexanizmlarni takomillashtirish va soddalashtirish;

- mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini tartibga solishda davlat ishtirokini kamaytirish, davlat boshqaruvi tizimini markazlashtirishdan chiqarish va demokratlashtirish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, nodavlat, jamoat tashkilotlari va joylardagi o'zini o'zi boshqarish organlarining rolini oshirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga 8-ilovasiga muvofiq mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha 2017-2021 yillarda amalga oshiriladigan chora tadbirlar rejasi aniq ko'rsatib o'tilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda mamlakatimizda bank tizimi tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida hamda oilaviy biznesni, yoshlar va ayollar o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lida olib borilayotgan islohotlar barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlamoqda. Ta'bir joiz bo'lsa, aytishimiz mumkinki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik farovon hayot garovidir.

DEVELOPMENT OF TOURISM INDUSTRY IN ECONOMY OF UZBEKISTAN

Aydarani Aziza

3rd year student of TSIOS

Scientific supervisor: Kurbanova M.

After reaching independence, Uzbekistan started building up in a new way every sphere of its economy, both manufacturing and non-manufacturing industries. We have chosen our own way of development based on 5 principles which is called «Uzbek model». Due to achievements in science and technology, manufacturing industry is mostly automatized. Therefore, service industry is opening its doors widely to the employees creating thousands of new job places year-to-year. In recent years, spheres such as tele-communication services, bank services, health care, transport services etc. have improved widely. Share of non-

manufacturing industry in GDP of Uzbekistan was 54,5 % in 2015. However it showed 49,5% in 2010. Now, I would like to draw attention to the one specific sphere of tertiary sector of industry, tourism.

Uzbekistan inherited rich history being center of civilization since ancient times. Contribution of our ancestors to science is invaluable. Here we can talk about contributions of Al-Khorezmi to mathematics, Ibn Sina to medicine, Al-Bukhariy and At-Termiziy to islamic science, Al-Beruniy to geography and mineralogy and so on. Historical architectural complexes built in our country attract the whole world with its unusual composition and very complex patterns. Architectural jewels of Samarkand built about 500 years ago still have not stopped amazing people. Moreover, cities such as Bukhara, Khiva, and Tashkent are famous all over the world because of big heritage of historical buildings. Some of them even enlisted in the list of UNESCO. These are Ichan-Kala in Khorezm (1990), Historical centre of Bukhara (1993), Historical centre of Shakhrisabz (2000) and Samarkand (2001).

All the things mentioned above became a reason to Uzbekistan to be traveling point for tourists. Travelers all around the world visit our country to see all that historical monuments, get acquaintance with national handicraft art, acquire culture of uzbek people and compare ancient and modern Uzbekistan.

Partnerships with big international TV channels like Euronews, BS-Asahi, World Travel, Russia-1 and many others have been actively expanding. They broadcast author's documentaries on traditions and customs of Uzbekistan, showing the local uniqueness to millions of potential tourists.

The cooperation with Euronews TV channel has been particularly successful: it was selected after a thorough marketing study of tourist flows to Uzbekistan. The channel broadcasts news, cultural, research and other programs 24 hours a day in 13 languages in 155 countries around the world, making special emphasis on Europe and on the increase of the tourist flow from the region.

During the fruitful cooperation Euronews showed programs on Samarkand, Bukhara, Tashkent and Khiva. Millions of spectators in different countries learned about the Silk Road and Uzbek ancient cities, which used to be a part of it, its sites and monuments.

There is another interesting example –a story of Bukhara by the British company 'Pioneer Productions' will become part of a documentary series for 'Discovery Networks International'.

The results of this work can be evaluated in a few years. Meanwhile, today the flow of tourists to Uzbekistan is growing rapidly year-by-year. In the first half of 2015, Uzbekistan has received 950,700 foreign guests, which is 7% more YOY.

The data in the World Tourism Organization report on 'Uzbekistan through the Eyes of Tourists' is also impressive. Representatives of Russia, Turkey, India, Germany and South Korea have become the most active foreign guests in Uzbekistan. The average age group of travelers is above 50. Most of them have higher education; they pre-plan their vacation, buy a travel package and book a hotel.

77% of respondents noted that their choice of Uzbekistan as a tourism destination was driven by a desire to see unique historical monuments included in the UNESCO World Heritage List. Most visitors have picked up all the related information in the Internet.

The interest in the Silk Road brand ranks high among other travel motivators. 81% of respondents named it among other interests. Some others come to Uzbekistan to learn more about famous cuisine, traditions and customs of the Uzbek people.


The average length of stay in our country makes up ten days, during which most of the tourists visit the three pearls - Samarkand, Bukhara and Tashkent.

Prices are another attractive point for travelers. 72% of respondents called them acceptable. Therefore, most of the guests come home with big bags of souvenirs –metal chasing, articles of traditional Uzbek fabrics, jewelry, decorative knives, ceramic items, etc.

Uzbekistan Airways (56%), Turkish Airlines (14%) and Aeroflot (9%) are the three top carriers that have been creating the most comfortable conditions for tourists on their way to our country.

Picture 1

Three top carriers that creating the most comfortable conditions for tourists



Source:www.uzbekistan.org

It is noteworthy that 83% of travelers have rated Uzbekistan as a safe country for tourists, and 76% of them have recommended visiting the country to their friends. 89% of guests have distinguished hospitality as the main feature of the Uzbek people.

The opening of the new five-star ‘Hyatt Regency Hotel’ in the center of Tashkent was scheduled for 2016. Its total cost made up \$205 million, and the hotel stock numbered 305 rooms. The ‘Hyatt International’ provided technical advisory services during the construction and equipping the hotel, and manages it after it have been launched.

The National Bank allocates 100 billion soums for a period of five years and an annual interest rate of 9% for the completion of the hotel, and the Ministry of Finance and the Ministry of Economy envisages allocation of another 77.4 billion soums this year (currency rates of CB RU from 12.10.2015 1\$= 2635.08 soums).


To date, the parties have selected a supplier of modern hotel equipment and inventory, as well as a sub-contractor to perform the engineering and finishing works. They are carried out by the Turkish company ‘Apeas Muhendislik Insaat Taahhutve Dis Ticaret’.¹

¹<http://www.uzbekistan.org/news/archive/4229/?print=1>

The graph below indicates dramatic growth in the number of tourists visiting Uzbekistan starting from 1995. Even in just three years (from 2010 to 2013) figures rocketed to 102%¹.

Picture 2

Number of tourists' arrivals to Uzbekistan:



Source: www.data.worldbank.org

In conclusion, I can say that tourism industry is increasing not only due to reach cultural and historical heritage, but at the same time with the help of government support of this industry and small business, development of hotel services and improvement of national airline «Uzbekistan Airlines» showing better service and constantly opening new directions. And I hope soon Uzbekistan will be on the same level with developed countries but on our own wave.

**MDH MAMLAKATLARIDA SANOAT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA
MODERNIZATSIYANING O'RNI**

Raimboyeva Mashhura

ToshDSHI 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: katta o'qituvchi N.Imomova

Hozirgi kunda jahon xo'jaligi tizimida milliy iqtisodiyotning ishlab chiqarish salohiyati cheklangan resurslar sharoitida intensive ishlab chiqarishga tayanmoqda. Bunday vaziyatda sanoatni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash, uning tarmoqlarida samaradorlik va raqobatbardoshligini oshirish talab etiladi. Sanoat mamlakat iqtisodiyotini miqdor va sifat ko'rsatkichlarida jahon iqtisodiyoti tizimida mavqeyini belgilab beruvchi tarmoq bo'lib, ilm sig'imi yuqori tarmoqlarini rivojlantirish, resurs tejam texnologiyalarni joriy etish, malakali

¹<http://data.worldbank.org/indicator/ST.INT.ARVL>

kadrlarni jalb etish orqali “yangi iqtisodiyot”¹ mamlakatlari qatoriga qo‘shilishga zamin yaratadi.

Axborotlashgan jamiyat, bilimlar iqtisodiyoti yoki postindustrial jamiyat zamonaviy iqtisodiyotning qiyofasini tavsiflaydi. Bugungi kunda rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlari hissasiga (ularning soni 35 dan oshadi) jahon sanoat ishlab chiqarishining 60 foizga yaqini, tayyor sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning 80 foizga yaqini, ilmiy tadqiqot ishlanmalari va yuqori texnologik mahsulotlarning qariyb 90 foizi to‘g‘ri keladi².

Sanoat takror ishlab chiqarish mujassamlashgan soha bo‘lib, texnologiyalar takomillashtirishiga, innovatsion resurslarga, ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlanmalari (ITTKI) amalga oshirilishiga bog‘liq holda salohiyatini oshiradi. Bunda modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash jarayoni ham asos bo‘ladi. Modernizatsiyalash – ishlab chiqarishni takomillashtirishda texnik shart-sharoitlarni yangilash, uni zamonaviy talablarga muvofiqlashtirish, yangi texnologiyani joriy etishdir. Diversifikatsiyalash esa, ishlab chiqariladigan Tovar turlarini o‘zgartirish va ishlab chiqarishning soha va tarmoqlarida yangi faoliyatni joriy etishdir.

Bu ikki omil ham mamlakat iqtisodiyotini barqaror o‘shirishni, tavakkalchilikni minimallashtirishni, inqirozga chidamliligini oshiruvchi va bozor konyukturasida muvozanatni ta‘minlovchi bo‘lib xizmat qiladi. O‘tish iqtisodiyoti mamlakatlari guruhiga kiruvchi MDH mamlakatlari sanoatida ham modernizatsiya va diversifikatsiyaning o‘rni katta. Modernizatsiyaning o‘rnini mamlakat elektro-energetika, metallurgiya, neft-kimyo, mashinasozlik, yengil sanoat va oziq-ovqat sanoat tarmoqlarining sanoat tarkibida ulushining ortganligi bilan izohlash mumkin. Shu bilan birga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologik jihati ham modernizatsiya va innovatsiya jarayonlarida ahamiyatli. MDH mamlakatlaridan Belarus sanoat ishlab chiqarishda yuqori texnologik tarmoqlari rivojlanayotgan mamlakat hisoblanadi.

1-jadval

Belarus Respublikasining sanoat mahsulotlarining texnologik jihatdagi tarkibi, jamiga nisbatan foizda³:

	2010	2011	2012	2013	2014	2015
Sanoat	100	100	100	100	100	100
Texnologik darajasi past sanoat tarmoqlari ⁴	29,9	26,8	27,1	32,4	33,6	33,4
O‘rta darajadan past texnologik sanoat tarmoqlari ⁵	33,3	35,9	35,3	32,1	31,7	29,9

¹ “Yangi iqtisodiyot” – mahsulotni yaratish jarayonida axborot va bilimlarning yetakchi o‘rin tutishini e‘tiborga olgan holda “axborotlashgan iqtisodiyot”, “bilimlar iqtisodiyoti”, yoki “intensive iqtisodiyot”, deb ham ataladi (Vaxabav A.V., Tadjibayeva D.A., Xajibakiyev Sh.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik – T.:2015, 87-b.)

² stat.uz./ O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi rasmiy sayti ma‘lumoti

³ Промышленность Республики Беларусь. Статистический сборник. Минск:2016

⁴ Texnologik darajasi past sanoat tarmoqlariga qayta ishlash sohalari, jumladan, yog‘ochni qayta ishlash, qog‘oz sanoati, poligrafiya-nashr mahsulotlari, oziq-ovqat, to‘qimachilik, tikuvchilik, terini qayta ishlash kab itarmoqlar kiradi

⁵ O‘rta darajadan past texnologik sanoat tarmoqlariga kemasozlik, plastmassa mahsulotlari, nometall mineral mahsulotlari, metallurgiya mahsulotlari, neftni qayta ishlash hamda yadro energetikasi mahsulotlari ishlab chiqarish kiradi

O'рта darajadan yuqori texnologik sanoat tarmoqlari ¹	24,2	26,3	27,0	23,2	21,9	21,5
Yuqori texnologik sanoat tarmoqlari ²	2,5	2,1	2,1	2,5	1,9	3,2

Yuqoridagi jadvaldan shuni ko'rish mumkinki, Belarusda 2015-yilda jami sanoat tarmoqlaridan yuqori texnologik sanoat tarmoqlari ulushi 3,2 foizga yetgan. Bu ko'rsatkich 2014-yilda 1,9 foizni itashkil etgan. 2015-yilda elektr asbob-uskunalar, aniq va optik asbob-uskunlarni ishlab chiqarish mahsulotlari jami sanoat ishlab chiqarishida 3,6 foizni tashkil etgan bo'lib, 26 778 mlrd. Rublga teng bo'lgan³. Jumladan, jami sanoat mahsulotlar ishlab chiqarishda elektroenergetika ishlab chiqarish 10,5 foizni, kimyo sanoati 11,4 foizni, neftni qayta ishlash va yadro energetikasi sanoati 16,3 foizni, rezina va plastmassa mahsulotlari ishlab chiqarish 3,2 foizni, nometall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarish 4,3 foizni, mashinasozlik va mashinasozlik uskunalar sanoati 6,7 foizni, oziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish 23,7 foizni, yengil sanoat va tikuvchilik 2,8 foizni tashkil etgan. Sanoat ishlab chiqarishi esa, 2015-yilda 2010-yilga nisbatan 104,5 foizga o'sgan. MDH mamlakatlaridagi elektroenergetika mahsulotlarining 34,1 mlrd. kv.tsoati 2015-yilda Belarus hissasiga to'g'ri kelgan⁴.

2015-yilda o'tgan yilga nisbatan Belarusda elektroenergiya ishlab chiqarish 5,7 foizga kamaygan. Rossiyada esa, bu ko'rsatkich 0,5 foizga kamaygan⁵.

2-jadval

O'zbekistonning sanoat tarmog'i tuzilishining o'zgarish dinamikasi, (foizda)⁶:

	2000	2005	2011	2012	2013	2014
Sanoat	100	100	100	100	100	100
Elektrenergetikasi	11,9	11,3	7,9	7,7	7,1	7,3
Yoqilg'i	13,4	16,2	17,3	18,0	15,0	13,3
Qora metallurgiya	2,5	2,5	2,6	2,6	2,3	2,7
Rangli metallurgiya	15,4	16,9	10,4	10,0	9,0	8,9
Kimyo va neft kimyosi	5,4	5,6	5,7	5,5	5,4	5,3
Mashina sozlik va metallni qayta ishlash	12,0	13,0	16,2	17,5	18,8	19,2
Yog'och, yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog'oz sanoati	0,9	1,0	1,2	1,3	1,4	1,8
Qurilish materiallari	4,0	3,6	5,3	5,5	6,5	6,4
Yengil	19,2	16,6	13,4	12,9	13,2	14,1
Oziq-ovqat	9,4	8,2	14,1	13,2	15,7	15,1
Boshqalar	5,9	5,9	5,9	5,8	5,8	5,9

¹O'рта darajadan yuqori texnologik sanoat tarmoqlariga elektr asbob-uskunalarini ishlab chiqarish, avtomobil dvigatellari, kimyo sanoati, temir yo'l va boshqa transport asbob-uskunalarini sanoati, mashinasozlik sanoati kiradi

²Yuqori texnologik sanoat tarmoqlariga aerokosmonavtika, farmasevtika, ofis texnikasi, hisoblash va kompyuter vositalari, radio va telekommunikatsiya asbob-uskunalarini, tibbiyot, aniq va optik asbob-uskunalar ishlab chiqarish sohalari kiradi

³Промышленность Республики Беларусь. Статистический сборник. Минск:2016

⁴Yuqoridagi manba

⁵Промышленное производство В России. Статистический сборник. Москва:2016

⁶Узбекистан в цифрах. Статистический сборник. 2015

O‘zbekistonning sanoat tarkibi mustaqillik yillarida takomillashib borgan va sanoat siyosati tarmoqlarni diversifikatsiyalashga qaratilgan. Sanoat tarmog‘i tuzilishi o‘zgarishi natijasidasanoat mahsulotlarining hajmi sezilarli darajada o‘zgardi. 2000-2005-yillarda elektr energiyasi ishlab chiqarish ulushi o‘rtacha 11 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2014-yilga kelib jami sanoat tarmoqlaridagi ulushi 7,3 foizni tashkil etgan. 2000-2014-yillarda jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida mashinasozlik va metalni qayta ishlash ulushi 7,2 foizga, oziq-ovqat sanoatining hissasi 5,7 foizga, qurilish materiallari sanoati 2,4 foizga, yog‘och, yog‘ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog‘oz sanoati 0,9 foizga oshgan.

Sanoat taraqqiyotidagi bunday o‘zgarishlar sanoat ishlab chiqarishida texnik va texnologik yangilash, diversifikatsiyalash va modernizatsiyalash chora-tadbirlarining samarasi hisoblanadi. bu sanoat ishlab chiqarish tarmoq tuzilishining takomillashuviga olib kelmoqda.

Milliy iqtisodiyotning modernizatsiyalashuvi va innovatsion tarmoqlarning jadal taraqqiy etishida sanoat majmuasining o‘rni va roli salmoqlidir. O‘zbekistonda mustaqillik yillarida sanoatning texnologik tarkibi takomillashib bordi. Bu farmasevtika, elektr asbob-uskunalarini ishlab chiqarish, avtomobil dvigatellari, plastmassa mahsulotlarini ishlab chiqarish, to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda yaqqol namoyon bo‘lmoqda. 2012-yilda 28,2 ming dona avtomobil dvigatellari ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 2014-yilga 133,7 ming dona ishlab chiqarilgan. Kimyo-farmasevtika sanoati mahsulotlari esa 2014-yilda o‘tgan yilga nisbatan 118,5 foizga o‘sgan¹.

Sanoatni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash tarmoq tarkibini o‘zgartiribgina qolmasdan, uning raqobatbardoshligini oshirishga ham xizmat qiladi. Jahonning rivojlangan mamlakatlari AQSH, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya mamlakatlarida sanoatning raqobatbardoshligi sanoatda innovatsiyaga asoslangan tarmoqlar ulushining yuqoriligi, yuqori texnologik sanoat tarmoqlarida modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonining uzviyligi bilan izohlanadi.

3-jadval

Sanoat raqobatbardoshligi indeksi (CIP²) mamlakatlar bo‘yicha jahon reytingi (reytingdagi o‘rni)³:

	2000	2005	2010	2011	2012	2013
MDH mamlakatlari						
Rossiya Federatsiyasi	37	35	35	35	31	32
Belarus	51	45	40	37	35	37
Ukraina	59	54	51	51	55	55
Qozog‘iston	82	70	70	65	64	66
Armaniston	110	97	105	106	98	100
Ozarbayjon	108	99	111	113	106	105
Moldova	113	108	117	118	101	111
Qirg‘iziston	118	122	122	125	125	125

¹Узбекистан в цифрах. Статистический сборник. 2015

²CIP (Competitive Industrial Performance) – bu Birlashgan Millatlar Tashkiloti sanoat taraqqiyoti tashkiloti (UNIDO) statistik hisoboti bo‘lib, sanoat xarakteristikasi indikatorlaridan iborat

³Competitive Industrial Performance Report 2014. Working Paper 12/2014. UNIDO, Vienna:2015

Tojikiston	120	125	127	129	129	130
Boshqa mamlakatlar						
Germaniya	2	1	1	1	1	1
Yaponiya	1	2	2	2	2	2
Koreya Respublikasi	9	4	3	3	3	3
AQSH	3	3	4	4	4	4

Sanoat raqobatbardoshligi mamlakatlarning sanoat mahsulotlarining jahon bozorida talabi bilan xarakterlanadi. CIP indeksi mamlakatlarning sanoat salohiyatini raqobatbardoshligini aniqlashda quyidagi indikatorlarga asoslanadi:

- sanoat ishlab chiqarish mahsulotlaridagi yalpi qo‘shilgan qiymatning aholijon boshiga to‘g‘ri keladigan narxi;

- sanoat ishlab chiqarish eksportining aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi ulushi;

- sanoat ishlab chiqarishda o‘rta va yuqori texnologik sanoat tarmoqlari mahsulotlariga yalpi qo‘shilgan qiymatning o‘rtacha to‘g‘ri kelishi va YaIMdagi sanoat ishlab chiqarishi ulushi;

- sanoat ishlab chiqarishda o‘rta va yuqori texnologik sanoat tarmoqlari mahsulotlari eksportining o‘rtacha to‘g‘ri kelishi va sanoat ishlab chiqarishi mahsulotlarining jami eksportidagi ulushi;

- mamlakat sanoat ishlab chiqarishi mahsulotlarida yalpi qo‘shilgan qiymatining jahon sanoati shlab chiqarishi mahsulotlarida yalpi qo‘shilgan qiymatidagi ulushi;

- mamlakat sanoat ishlab chiqarishi mahsulotlariga yalpi qo‘shilgan qiymatining jahon sanoati shlab chiqarishi mahsulotlari savdosidagi ulushi.

Ta’kidlash joizki, hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat sanoat ijobiy ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishi va raqobatbardoshlikni ta’minlash bir qancha omillarga tayanadi. Sanoatda novatorlik, modernizatsiya va diversifikatsiya mana shunday omillardan hisoblanadi. Sanoat ishlab chiqarish mahsulotlarining ijobiy barqaror o‘sishni ta’minlashda bir qancha chora-tadbirlar mavjud bo‘lib ular quyidagilar kiradi:

- sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ITTKI miqdorini oshirish uchun izlanishlar uchun xarajatlarni oshirish, ko‘paytirish;

- sanoatda yangi texnologiyalarni qo‘llashni jadallashtirish;

- rentabelligi yuqori sanoat tarmoqlarini diversifikatsiyalash;

- eksportga yo‘naltirilgan sanoat tarmoqlarida qo‘shilgan qiymati yuqori mahsulotlarni ishlab chiqarish;

- sanoatda innovatsion g‘oyalar sonini oshirish uchun tadqiqotchilarga imkoniyatlar yaratish.

XITOIY VA AQSH O‘ZARO INVESTITSION HAMKORLIGINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Boyqobulova Umida
ToshDSHI 3-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: i.f.n., dots. B.D.Sadibekova

Ma'lumki, Xitoy Xalq Respublikasi YaIM hajmi bo'yicha dunyoda ikkinchi o'rinni egallab, endilikda yetakchi o'rinni egallashni kuchli maqsad qilib qo'ygan. Darhaqiqat, ayrim mutaxassislar tomonidan XXR yaqin o'n yillik ichida jahonning birinchi iqtisodiyoti bo'lgan Amerika Qo'shma Shtatlaridan YaIM absolyut qiymati bo'yicha o'zib ketishi kutilmoqda. Ammo bu holat yuz bergan holda ham, AQSH harbiy salohiyat bo'yicha eng qudratli bo'lib qolaveradi, undan tashqari, ta'lim, yuqori texnologiya va innovatsiyalar hamda ilm-fan sohalarida ham o'z mavqeini yo'qotmaydi.

XXR va AQSH iqtisodiy aloqalari nafaqat jahon iqtisodiyotida turli kuch va ta'sirga ega ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalar, balki dunyo mamlakatlari iqtisodiyotiga ham bevosita ta'sir etuvchi muhim omillardan hisoblanadi.

Xitoy-AQSH iqtisodiy aloqalaridagi investitsion hamkorlik alohida ahamiyat kasb etadi. XXR o'zi chki bozorini dunyo mamlakatlariga ochib bergach, mamlakat iqtisodiyoti katta hajmdagi xorij investitsiyalari oqimini qabul qila boshladi. Jumladan, AQSH investitsiyalari Xitoyga 1980-yillardan kirib kela boshladi va 1990-yillarga kelib uning hajmi keskin ortdi (50.9 mlrd. AQSH dollarga yetdi). Xitoy AQSHga investitsiya eksportini, asosan, JSTga a'zo bo'lgach boshladi va yildan yilga ko'paytirib bordi (2001-yildan hozirga qadar). Mazkur mamlakatlar uzoq yillik hamkorligi davomida o'zaro iqtisodiy, jumladan, investitsion hamkorlikni yanada rivojlantirib kelmoqda.

Ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy aloqlarni rivojlantirish borasida amalga oshirilgan va oshirilishi kerak bo'lgan vazifalar orasida investitsiyalar oqimi muhim o'ringa ega. AQSH va Xitoy o'rtasidagi to'g'ridan to'g'ri investitsiya oqimi 35 yildan ko'proq vaqt davomida katta o'sishga ega bo'ldi. Xususan, 1980-yillar boshidan 2001-yillar boshiga qadar 326 mln. AQSH dollaridan 5.42 mlrd. AQSH dollariga yetdi.

Investitsiya oqimini kuzatarekanmiz, XXRning JSTga a'zo bo'lishiga qadar davr AQSHning Xitoyga qo'ygan investitsiyalari bilan xususiyatlidir. 1999-yil sentabr oyi oxiriga qadar AQSHning Xitoyga to'g'ridan-to'g'ri investitsion loyihalari 28249 taga yetib, jami 50.9 mlrd. AQSH dollarini tashkil qildi¹. Bu investitsiyalar Xitoyning jami 26 provinsiya va avtonom rayonlarida taqsimlanib, avtomobil, dorishunoslik, neft-kimyoy, kimyo, mashinasozlik, tekstil, elektronika, oziq-ovqatsanoatlarini, qishloq xo'jaligini, servis sohasidagi turizm, telekommunikatsiya, ko'chmas mulk, moliyaviy xizmatlarni qamrab oldi.

¹ Xiquan Xu. Sino- U.S. economic and trade relations. 238-bet.

AQSHning Xitoyga bevosta investitsiyasi (1986-2015):

Yillar	Investitsiyalarqiyamati (AQSHdollarida)
1986-yil	541.48 mln.
1990-yil	537.82 mln.
1995-yil	7.471 mlrd.
2000-yil	11.14 mlrd.
2005-yil	19.02 mlrd.
2010-yil	59.53 mlrd.
2011-yil	54.20 mlrd.
2014-yil	65.80 mlrd.
2015-yil	74.56 mlrd.

Manba: www.statista.com

2011-yil soʻnggida AQSH Xitoyda 66500 ta kompaniya tashkil etib, investitsiya hajmini 70 mlrd.ga yetkazdi (bu koʻrsatkich Xitoyga jami xorijiy toʻgʻridan toʻgʻri investitsiyaning 5.9%ini tashkil etgan hamda AQSH Gongkong va Yaponiyadan keyin 3-eng katta xorijiy investitsiya manbayi boʻlgan). Garchi Xitoy kompaniyalarining xorijiy mamlakatlardagi investitsion faoliyati 1970-yillar oxirida boshlangan boʻlsa-da, Amerikaga investitsiya eksport qilishi uning Jahon Savdo Tashkilotiga aʼzo boʻlishi (2001-yil 11-dekabr) bilan boshlandi. 2003-yildan boshlab, ayniqsa, XXR investitsiya eksporti sezilarli oʻsishni boshladi va 65 mln. AQSH dollaridan 2011-yilga qadar 1.8 mlrd. AQSH dollariga oʻsdi. Analitik firma “Rhodium Group” bergan statistikaga koʻra, 2012-yilda Xitoyning AQSHga investitsiyasi keskin oʻsib, 6.5 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan, Qoʻshma Shtatlardagi kompaniyalari esa 2010-yildayoq 50 shtatdan 35 tasini qamrab olgan edi¹. Bugungi kunga kelib, Xitoyning AQSH kompaniyalariga qoʻygan investitsiyasi 50 mlrd. dollarni tashkil etib, shu oʻn yillik soʻngida 200mlrd. dollarga yetishi kutilmoqda. Soʻnggi 15 yil davomida Xitoy investorlari sotib olgan yoki tashkil etgan AQSHdagi kompaniyalari soni 1583 taga yetib, 80600 nafar amerikalikni ish bilan taʼminlamoqda.

Xitoy bilan investitsion aloqalarda AQSHning xorijdagi kompaniyalari jami daromadining 70%ini 1994-yildan beri Xitoy bozoridagi savdodan oladi. Xususan, XXRdagi AQSH kapitalidagi kompaniyalar 2011-yilda jami savdodan daromadi 310 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan boʻlsa, shundan 228.1 mlrd. dollari Xitoy bozoridan, 82.3 mlrd. dollari jahon bozoridan olingan. 2011-yil oxirida AQSHning XXRga toʻgʻridan toʻgʻri investitsiyasi 54.2 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan. Buning 49.25%i ishlab chiqarishga, ulgurji savdoga 8.89%, holding kompaniyalariga (nobank) 8.94%i, axborot sohasiga 5.56%i, konchilikka

¹ “Foreign Investment in China: A Tale of Two Statistics”, ThiloHane-mann, Rhodium Group, 4 January, 2013.

5.25%i, moliya va sug'urta sohasiga 4.58%i to'g'ri keladi¹. O'z navbatida, Xitoyning AQSHga investitsiya eksporti hajmi XXI asr boshidan 2013-yilga qadar jami 40 mlrd. AQSH dollariga teng bo'lgan. Ammo keyingi ikki yilda bu qiymat yarim baravardan ko'proq o'sdi. 2013-yilning 3-kvartalida eng yuqori ko'rsatkich sifatida 7 mlrd.dollardan ko'proq investitsiya kiritilgan. Bunda eng katta ulush 4.7mlrd.dollarni "Shuanghui Group" (Xitoy) Virjiniya shtatidagi "Smith field Group"ga kiritgan².

2-jadval

Xitoy va AQSH xorijiy investitsiyasi yirik importyorlari (2012-yil):

Xitoy uchun	AQSH uchun
Amerika Qo'shma Shtatlari	Niderlandiya
Avstraliya	Buyuk Britaniya
Buyuk Britaniya	Kanada
Qozog'izton	Irlandiya
Kanada	Yaponiya
Rossiya	Avstraliya
Janubiy Afrika	Germaniya
Fransiya	Meksika
Germaniya	Fransiya
Indoneziya	Xitoy

Manba: Brookings Institution, 2015

2008-2014-yillar davomida Xitoyning AQSHga investitsiyasining 10mlrd. AQSH dollari ko'chmas mulkka yo'naltirilgan³. Bu xusudda Xitoy investitsiyasining o'ziga xos tabiati mavjud bo'lib, 3-jadvaldan buni yaqqol ko'rishimiz mumkin.

3-jadval

AQSH ko'chmas mulklariga Xitoy investitsiyasi (2014-yil):

AQSH shtatlari (shahri)	Mablag'(AQSH dollarida)
New-York (asosan Manhattan)	6.7 mlrd.
Californiya	1.6 mlrd.
Los-Anjels	793 mln.
San Fransisko	558 mln.

Manba: China investment policy, 2013.

2012-yilda Xitoy AQSHning Janubiy Karolina shtatidagi kimyo sohasiga 77 mln. dollarlik investitsiya (yuqori sifatli polipropilin, qadoqlashda ishlatiladigan turli xil plastiklar)

¹ U.S. BEA.


² Rhodium Group, Chinese FDI in the United States: Q4 2014 and Full Year Update (January 2015).

³ Cushman & Wakefield, China's Outbound Boom: The Rise of Chinese Investment in Global Real Estate (October 2014), pp. 3, 10.

kiritdi. 2015-2016-yillarda esa Luiziana shtatida metanol zavodi barpo etilishiga ham 1.85 mlrd. dollar, Janubiy Karolinadagi tekstil zavodiga 218 mln. dollar, 2013-yilda Missurida avtomobil zavodi qurilishiga 45 mln. dollar (Amerika avtomobillari uchun Xitoy Kanadadan keyin 2-eksport bozori) investitsiya kiritgan.

4-Jadval

Xitoy to'g'ridan to'g'ri investitsiyasining AQSH sanoatidagi ulushi (million AQSH dollarida, 2005-2015-yillar):



Manba: Rhodium Group, 2016.

AQSHning bugungi kungacha (1990-2015-yillar) Xitoyga jami investitsiya eksporti 228 mlrd. dollarni, Xitoyning AQSHga jami investitsiya eksporti esa 64mlrd. dollarni tashkile tadi. So'nggi yillar statistikasi shuni ko'rsatadiki, AQSHning XXRga capital eksporti 2014-yilda 65.8mlrd. AQSH dollar, ya'ni 2013-yildagidan 9.8%ga ortiq miqdorni, 2015-yilda esa 74.56 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, XXRning AQSHga jami investitsiyasi 2014-yilda 9.5 mlrd¹. AQSH dollarini, 2013-yildan 12%ga ortiq, 2015-yilda 15.7mlrd. AQSH dollariga yetgan. O'tgan yil uchun bu ko'rsatkich 18.4 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga tayanib shunday xulosaga kelish mumkinki, jahon iqtisodiyotidagi bu ikki yetakchi mamlakatlar o'rtasidagi aloqalar bir necha o'n yillar davomida kengayib kelmoqda. Buning ifodasini birgina malakatlar investitsion hamkorligida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, AQSH Xitoyning birinchi raqamli investor iekanligi alohida ahamiyatga molik. Investitsion hamkorlikning mazkur mamlakatlar, qolaversa, jahon iqtisodiyoti uchun muhim ekanligini, faqatgina, capital eksport-importi qiymatining o'sishida emas, uning tobora diversifikatsiya qilinishida ham sezish mumkin.

¹ Office of the US Trade Representative, 2016.

ZAMONAVIY BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA TRANSMILLIY KORPORATSIYALANING O‘RNI

Ortikov Omodbek
ToshDSHI 3-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: i.f.n, dots. B.D.Sadibekova


Jahon iqtisodiyotining barqaror o‘sishi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda Transmilliy Korporatsiyalarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bu ulkan iqtisodiy salohiyatga ega va mamlakatlar o‘rtasidagi savdo munosabatlarda muhim vositalar hisoblangan Transmilliy Korporatsiyalar bugun jahon iqtisodiyotida muhim ishtirokchi sifatida ishtirok etmoqda. Bu yirik iqtisodiy institutlar faoliyati ko‘lami kengligi, daromadlari hajmining yuqoriligi, yuqori ilmiy texnologik qudrati kabi bir qancha ko‘rsatkichlar tufayli bugungi kunda jahon iqtisodiyotida keng ko‘lamdagi vazifalarni bajarmoqda.

Transmilliy Korporatsiyalar (TMK) – xorijiy aktivlarga ega bo‘lgan, operatsiyalarining kamida j qismi mamlakat tashqarisida, o‘zi ro‘yxatga olingan, chet mamlakatlarda ham faoliyat olib boradigan yirik korporatsiya. Bu korporatsiyalar masshatbi keng dunyoning ko‘plab davlatlarida faoliyatini yo‘lga qo‘ygan hamda jahon iqtisodiyotida muhim o‘ringa ega xo‘jalik yurituvchi subyektlardir. Dunyoda dastlabki Transmilliy Korporatsiya 1600-yilda Buyuk Britaniyaning Ost-India kompaniyasi bo‘lgan degan qarashlar mavjud. Shu davrdan boshlab Transmilliy Korporatsiyalar rivojlanib faoliyati kengayib bordi va hozirda jahon iqtisodiyotining ajralmas qismi sifatida e‘tirof etilmoqda.

Agar dunyo miqyosida Transmilliy Korporatsiyalar soniga e‘tibor qaratsak, 1970-yilda dunyoda 7000 ta TMK mavjud bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi kunda ularning soni 82000 dan ortiq bo‘lib, dunyo bo‘ylab 810000 mingdan ortiq bo‘limlariga ega. Har bir Transmilliy Korporatsiya millionlab ishchilarga ega va ularning ishlab chiqarish quvvati ham juda kattaligi, qolaversa dunyoning ko‘plab davlatlarida bo‘limlarga egaligi bilan odiy korxonaga yoki xizmat ko‘rsatish tashkilotidan ajralib turadi.

1-diagramma

Dunyodagi jami Transmilliy Korporatsiyalar soni¹:




¹Гриванов Р.И, Попова А. В. Транснациональные корпорации субъект международных экономических отношений, Владивостокский государственный университет экономики и сервиса

Transmilliy Kompaniyalar bugungi kunda iqtisodiyotning barcha sohalarida yuqori nayijalarga erishib jahon iqtisodiyotining asosiy bo'giniga aylanib bormoqda.

Bugungi kunda bu Transmilliy Korporatsiyalar iqtisodiyotning turli sohalarida faoliyat olib bormoqda. Sanoat, xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi va qo'shimcha sohalardagi Transmilliy Korporatsiyalarning sonini quyidagicha taqsimlash mumkin.

2-diagramma

Transmilliy Kompaniyalarning sonining sohalar bo'yicha taqsimlanishi¹:



Bunday yirik kompaniyalar faoliyati, ularning daromadi, Dunyodagi reytingi va erishgan natijalarini tahlil qiluvchi bir qancha jahon miqyosida agentliklar mavjud. Shulardan biri Global Fortune agentligi hisoblanadi.

Global Fortune agentligi Transmilliy Korporatsiyalar faoliyati va jahon reytingidagi o'rnini aniqlash bilan shug'ullanadi. Bu agentlik 1994 yildan har yili jahonning 500 ta eng yirik Transmilliy Korporatsiyalari 308 ta ko'rsatkich bo'yicha jahon reytingini butun jahonga e'lon qilmoqda. Bu agentlik turli ko'rsatkichlar bo'yicha dunyoning yirik Transmilliy Korporatsiyalari reytingini butun dunyoga e'lon qilish bilan birga Transmilliy Korporatsiyalarning faoliyat doirasini tahlil etib kelmoqda. Global Fortune izlanishlariga ko'ra so'nggi yillarda nafaqat AQSH Transmilliy Korporatsiyalari, balki Xitoy Transmilliy Korporatsiyalari ham dunyoda yetakchilik uchun kurash olib bormoqda.

Global Fortune ma'lumotlariga ko'ra, 2013-yilga kelib jahondagi Transmilliy Korporatsiyalarning umumiy daromadlari 31,1 trillion dollarga teng bo'lib, ularning umumiy foydasi 27% ga o'sgan. Kuchli 500 ta Transmilliy Korporatsiyalar reytingida 95 ta Xitoy va 128 ta AQSH Transmilliy Korporatsiyalari kiritilgan. Dunyoda yetakchi Transmilliy Korporatsiya esa AQSHning Wal-Mart-Store's Transmilliy Korporatsiyasi bo'ldi².

¹ Гриванов Р.И, Попова А. В. Транснациональные корпорации субъект международных экономических отношений, Владивостокский государственный университет экономики и сервиса

² Malgorzate Jawork. TNC in the world economy. Marcin Kuzel Nicolaus University, 2015-yil

**2013-yilda Eng serdaromad Transmilliy Korporatsiyalar
(million dollar)¹:**

	Korporatsiyalar	Mamlakat	Daromad	Foyda
1	Wal-Mart-Stores	AQSH	476,294	16,022
2	Royal Dutch Shell	Britaniya/Niderlandiya	459,599	16,371
3	Sinopec Group	Xitoy	457,201	8,932
4	China National Petroleum	Xitoy	432,008	18,505
5	Exxon Mobile	AQSH	407,666	32,580
6	BP	Buyuk Britaniya	396,217	23,451
7	State Grid	Xitoy	333,387	7,982
8	Wokswagen	Germaniya	261,539	12,072
9	Toyota motor	Yaponiya	256,454	18,198
10	Glencore	Shvetsaiya	232,694	-7,402

So'nggi yillarda Transmilliy Korporatsiyalar daromadlar ko'rsatkichi bo'yicha bir qancha o'zgarishlar yuz berdi. Xitoy Transmilliy Korporatsiyalari esa bevosita bu borada AQSH kompaniyalariga tobora yaqinlashib, yuqori pog'onalariga ko'tarilmoqqa.

**2015-yilda Eng serdaromad Transmilliy Korporatsiyalar
(million dollar)²:**

	Korporatsiyalar	Mamlakat	Daromad
1	Wal-Mart-Stores	AQSH	482,130
2	State Grid	Xitoy	329,601
3	China National Petroleum	Xitoy	299,271
4	Sinopec Group	Xitoy	294,344
5	Royal Dutch Shell	Britaniya/Niderlandiya	272,156
6	Exxon Mobile	AQSH	246,204
7	Wokswagen	Germaniya	236,600
8	Toyota motor	Yaponiya	236,592
9	Apple	AQSH	233,715
10	BP	Buyuk Britaniya	225,982

Transmilliy Korporatsiyalar sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish, yoqilg'i energetika va elektrotexnika qurilmalari kabi ko'plab sohalarda jahonda faoliyat yuritmoqda va bu sohalarda kichik korxonalarni o'zida birlashtirib bormoqda. Bu korporatsiyalar har bir mamlakatning makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. AQSH, Xitoy, Germaniya Buyuk Britaniya davlatlarida asos solingan Transmilliy Korporatsiyalar bugungi kunda dunyoda savdo hajmi bo'yicha yetakchilikni ushlab turishibdi. Bu Transmilliy

¹ Fortune Global 2014 asosida muallif tomonidan tuzildi

² Fortune Global 2016 asosida muallif tomonidan tuzildi

Korporatsiyalar sanoat mahsulotlari, yuqori texnologik mahsulotlar va jahon YAIMIda katta ulushga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

3-jadval

2014-yilda jahondagi eng yirik zamonaviy transmilliy korporatsiyalar¹:

Asos solingan mamlakat	TNK lar soni
AQSH	184
Xitoy	34
Fransiya	24
Yaponiya	38
Rossiya	10
Buyuk Britaniya	38
Germaniya	20

2016-yilda 110 ta Xitoy Transmilliy Korporatsiyalari Fortune Global 500 ga kiritildi (2015-yilda bu korporatsiyalar soni 106 tani tashkil etgan edi). Yuqori 4ta o‘rin AQSH va Xitoy Transmilliy Korporatsiyalariga tegishli bo‘ldi.

- 1-Wall-Mart-Stores
- 2-State Gird
- 3-China National Petroleum
- 4-Sinopec Group²

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki Transmilliy Korporatsiyalar jahon iqtisodiyotida muhim o‘ringa ega bo‘lib borishi bilan birga dunyo aholisining cheksiz ehtiyojlarini qondirishda asosiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, Xitoy Transmilliy Korporatsiyalari nufuzi yildan-yilga ortib borayotganini yuqoridagi holatlardan ko‘rishimiz mumkin. Yaqin yillarda, iqtisodchi olimlar fikriga ko‘ra, Xitoy Transmilliy Korporatsiyalari ushbu reytingda yetakchilikni qo‘lga olish ehtimoli mavjud.

**O‘ZBEKISTONNING JAHON HAMJAMIYATIGA FAOL QO‘SHILIB
BORISHIDAGI ZAMONAVIY TENDENSIYALAR**

*Qulmanov Toshmurod
ToshDSHI 2-kurs talabasi,
Ilmiy rahbar: katta o‘qituvchi N.Imomova*

Hozirgi kundajahon xo‘jalik tizimida globallashtirish va xo‘jalik faoliyati baynalmilallashtirishining kuchayib borishida iqtisodiy faoliyatmilliy xo‘jalikning tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. O‘zbekistonda barqaror iqtisodiy o‘rni ta’minlash ko‘p jihatdan uning jahon xo‘jaligiga integratsiyalashuviga, xalqaro mehnat taqsimotida qatnashuviga hamda mamlakat eksport salohiyatini oshirishga bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

¹ “Транснционльные компании-будущее мировой экономики”/ Окунева Ольга Михайловна, магистрант факультет МЭ и МП, НИУ ВШЭ

² Chinadaily.com/ Top Chinese firms debuted in 2016 Fortune Global by Zhu Linqing.

Xalqaro mehnat taqsimoti - mehnatning jahon davlatlari o'rtasida taqsimlanishi, ya'ni alohida mamlakatlarning tovar va xizmatlarning muayyan turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvidir¹.

Xalqaro mehnat taqsimoti va uning rivojlanishini taqozo qiluvchi omillarga mamlakatning tabiiy-geografik sharoiti, tabiiy iqlim sharoiti, tabiiy resurslarning miqdori va tarkibi, mamlakatning iqtisodiyotining rivojlanish darajasi, mamlakat iqtisodiyotining tuzilishi va ko'lami, mamlakat aholisining ixtisoslashgan an'anaviy ishlab chiqarish turi, mehnat resurslarining miqdori va sifati hamda ichki bozor hajmi kabi omillar kiradi. Anglash qiyin emaski, bu omillarning asosiylari mamlakatning xalqaro mehnat taqsimoti rivojlanishi uchun asosiy omil bo'libgina qolmasdan mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishida ham muhim manba hisoblanadi. Masalan mamlakat tabiiy iqlim sharoiti qanchalik yaxshi bo'lib geografik jihatdan okeanga hech qanday to'siqlarsiz chiqa olsa uning jahon bozoriga erkin chiqishi ta'minlanadi; tabiiy resurslarining miqdori ko'p bo'lib, tarkibi jihatdan turli xilda bo'lsa mamlakat iqtisodiyotidagi ishlab chiqarishning resurslar bilan taminlanganlik darajasi yuqori bo'ladi hamda ishlab chiqarish yaxshi yo'lga qo'yiladi; ichki bozorning hajmi ham iqtisodiyot uchun muhim ahamiyat kasb etadi, mamlakatning ichki bozori keng bo'lsa ishlab chiqarish hajmi, ishlab chiqaruvchilar soni ortadi, raqobatlashuv darajasi mukammallashadi.

Tashqi savdoni erkinlashtirish milliy iqtisodiyot ochiqlik darajasining o'sishiga, ishlab chiqarish samaradorligining oshishiga va raqobatbardoshlikning kuchayishiga, mamlakat eksport salohiyatini oshirishning ichki imkoniyatlarini kuchaytirishga yordam beradi.

Shunday ekan, O'zbekiston Respublikasi uchun jahon xo'jalik tizimiga integratsiyalashish bilan bog'liq masalalarni hal etish dolzarb vazifalardan sanaladi. Mamlakatimiz bugun aksariyat xalqaro iqtisodiy tashkilotlar faoliyatida keng ishtirok etmoqda. O'zbekiston BMTning bir qator tashkilotlariga va dasturlariga, jumladan: Sanaotni rivojlantirish bo'yicha tashkiloti, Osiyo va tinch okeani iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi, Xalqaro tijorat huquqi bo'yicha komissiyasi, Rivojlanish dasturi, Ta'lim, fan va madaniyat bo'yicha tashkiloti, Tijorat va rivojlanish bo'yicha konferensiyalarga a'zodir. Shuningdek, O'zbekiston Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi, Xalqaro mehnat tashkiloti, Intelleksual xususiy mulk bo'yicha umumjahon tashkiloti, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Jahon pochta ittifoqi, Fuqorolik aviatsiyasi xalqaro tashkiloti, Xalqaro elektr aloqa ittifoqi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Xalqaro rivojlanish korporatsiyasi, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Yevropa energetika xartiyasi, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Jahon bojxona tashkiloti, Islom konferensiyasi tashkiloti, Standartlashtirish bo'yicha xalqaro agentlik, Paxta bo'yicha xalqaro konsultativ qo'mita, Avto ishlab chiqaruvchilarning xalqaro assotsiatsiyasi, Mustaqil davlatlar hamdo'stligi, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Tariflar va savdo bosh bitimi, Markaziy Osiyo hamkorlik tashkiloti, Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati, kabi xalqaro moliyaviy-iqtisodiy va ijtimoiy tashkilotlarning faol a'zosi.

Mustaqillik yillarida tashqi iqtisodiy faoliyatning barcha tuzilmalari yangidan tashkil etildi. Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar Milliy banki ana shular jumlasidan.

ЧЧЙ asr jahon mamlakatlari milliy iqtisodiyotida globallashtirish jarayonining tez sur'at bilan kirib borishi makroiqtisodiy rivojlanishga bevosita ravishda ta'sir o'tkazdi. Mamlakat-

¹ T.Jo'rayev, D.Tojiboyeva. Iqtisodiyot nazariyasi II.-T.: "Fan va texnologiya", 2013. – 380 bet.

ning iqtisodiy rivojlanishini aks ettiruvchi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarda barqaror o'sishni ta'minlash iqtisodiy sektorlarni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash hamda innovatsiya kabi omillarga bog'liq hisoblanadi.

1-jadval

O'zbekiston iqtisodiyoti bo'yicha asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi:

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2013	2014	2015
YaIM	mlrd.so'm	118986,9	144867,9	171369,0
YaIMning aholi jon boshiga to'g'ri kelishi	ming.so'm	3934,6	4709,7	5524,0
Sanoat mahsulotlari	mlrd.so'm	61105,8	75193,5	91705,3
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari	mlrd.so'm	30849,4	36957,0	42280,4
Asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalar	mlrd.so'm	27557,3	33715,3	40737,3
Qurilish ishlari	mlrd.so'm	15080,8	19779,3	25329,1
Xizmatlar	mlrd.so'm	65337,6	82261,2	89326,3
Doimiy aholi soni	ming.kishi	30241,1	30759,2	31022,5
Iqtisodiyotda band aholi soni	ming.kishi	12523,3	12818,4	13058,3
Tashqi savdo aylanmasi	mln.AQSH.doll.	28296,6	28093,3	25286,1
Jumladan,				
Ekspart	mln.AQSH.doll.	14322,7	14109,0	12870,6
Import	mln.AQSH.doll.	13946,9	13984,3	12415,5
Saldo	mln.AQSH.doll.	375,8	124,7	455,1

Mamlakatimiz eksporti hamda importining qiymat hajimiga e'tibor qaratsak, 2015yil statistik ma'lumotlariga ko'ra import 12415,5 mln.AQSH dollarini tashkil qilgan bo'lsa, eksport 12870,6 mln.AQSH dollarini tashkil etganligini, natijada saldoning 455,1mln.AQSH dollaridan iborat ekanligini bilish mumkin. Bu esa O'zbekistonning tashqi savdo balansi ijobiy ekanligini iko'rsatadi.

Har bir davlat integratsion tashkilotlarga a'zo bo'lar ekan o'z oldiga ma'lum bir maqsad va vazifalarni qo'yishi tabiiy, shuning pirovardida iqtisodiy hamjamiyat, yoki integratsion tashkilotlarning maqsad va vazifalari kelib chiqadi. Xususan, O'zbekiston a'zo bo'lgan Mustaqil davlatlar hamdo'stligi, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti va Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyatining maqsad va vazifalariga qaraydigan bo'lsak,

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi:

- hamdo'stlik doirasida ekin savdo hududi yaratish;
- savdo-iqtisodiy hamkorlik samaradorligini oshirish;
- tovarlarning erkin harakatlanishini ta'minlash,

Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti:

- o'zaro savdoni kengaytirish;
- barqaror iqtisodiy o'sish va aholi turmush darajasini oshirish uchun sharoit yaratish;

- savdo to‘siqlarini bekor qilishga qaratilgan hamkorlikdagi faoliyat;
- xalqaro forumlarda umumiy yondashuv orqali jahon savdosi hajmini oshirish,

Shanxay hamkorlik tashkiloti:

- terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kursh;
- yagona iqtisodiy bozorni yaratish;

Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati:

- yagona iqtisodiy makonni shakllantirish;
- a’zo mamlakatlarda iqtisodiyotda tarkibiy islohotlarni kelishib olish;
- yagona transport tarkibi va transport bozorini yaratish;
- yagona bojxona tarifini joriy etish,
- milliy qonunchilikni uyg‘unlashtirish maqsad va vazifalari qatoriga kiritishgan¹.

Xulosa qilib aytish mumkinki, O‘zbekiston jahon hamjamiyatiga kirib borishi va jahon hamjamiyatidagi o‘rnini mustahkamlash uchun avvalo, mamlakat miqyosidagi ishlab chiqarishni jahon miqyosi standartlariga mos kelishini ta’minlash chora tadbirlarni yanada jadal-lashtirish zarur. Buning natijasida dunyo mamlakatlari ichida sifatli raqobatbardosh tovarlar bilan yetakchi o‘rinlarda bo‘lishi hamda ushbu tovarlarga bo‘lgan jahon talabini ortib borishi ta’minlash mumkin. Xalqaro mehnat taqsimotida O‘zbekistonning o‘rnini mustahkamlash uchun mamlakat tabiiy geografik sharoiti hamda mamlakat aholisi ixtisoslashgan an’anaviy xo‘jalik turini hisobga olgan holda, mamlakat hududida to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko‘paytirish va yengil sanoatni yanada rivojlantirish orqali samarali natijalarga erishish mumkin. Shuningdek dunyo miqyosida avtomobil ishlab chiqaruvchi davlatlar ko‘p emas 52 ta (2009) hamda bizga qo‘shni davlatlarda yengil avtomobil ishlab chiqarish yo‘qligini hisobga olgan holda avtomobil ishlab chiqarishga ixtisoslashadigan bo‘lsak ham yaxshi natijalarga erishishimiz mumkin.

Shuningdek, xorijiy investorlar uchun qulay investitsion muhit yaratish, ularning erkin industrial zonalaridagi faoliyatini yanada rivojlantirish va ularga imtiyozlar yaratish orqali investisiyalarni jalb qilish, investisiyalarni aynan, mamlakatda mavjud bo‘lmagan ishlab chiqarish tarmoqlarini barpo etish va mavjudlarini rivojlantirishga yo‘naltirishham maqsadga muvofiqdir. Mamlakat hududidagi tarixiyobidalarini rekonstruksiya qilish hamda ularning tarixiy ko‘rinishini qayta tiklab iqtisodiyotda xizmatlar sohasidagi yetakchi o‘rin egallovchi turizmni yanada rivojlantirishham dolzarb vazifalardandir.

TADBIRKORLIK-XALQ FAROVONLIGINING ASOSI

*Rahmatullayev Zamir
ToshDSHI 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Kurbanova M.*

Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va amalga oshirilayotgan inqirozga qarshi choralar dasturining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri yangi ish o‘rinlarini tashkil etish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishda tobora muhim o‘rin tutayotgan xizmatlar ko‘rsatish va servis sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (KBXT)ni jadal rivojlantirishga qaratilmoqda.

“Tadbirkor xalqni boqadi”. Bu gap qanchalik o‘rinli? Haqiqatdan ham shundaymi? Ushbu maqola aynan bu fikrning nechog‘lik asosli yoki asossiz ekanligiga bag‘ishlangandir.

¹ A.V.Vaxabov, D.A.Tadjibayeva, Sh.X.Xajibakiyev. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar/darslik –T: Baktria press, 2015.

Bugungi kunda hech birimizga sir emaski, jahonda turli ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar juda jadallik bilan yuz bermoqda. Har bir mamlakat tobora o'z mavqeini mustahkamlab, o'z o'rniga ega bo'lishga intilmoqda. Shu jumladan, bizning jonajon vatanimiz O'zbekiston ham yuksak rivojlanish tomon shaxdam qadamlar bilan odimlamoqda. Ham iqtisodiy, ham ijtimoiy, ham siyosiy hayotimizda chuqur islohotlar olib borilmoqda. Bundan ko'zlangan yagona maqsad - xalqimiz farovonligini ta'minlashdir. Fikrimizcha, yurt tinchligi, uning ravnaqi, dasturxonlarimizning to'kin-sochinligi, sog'lom turmush tarzi, eng muhumi kelajakka bo'lgan mustahkam ishonch aynan farovonlikdir. Barchamizga ayonki, hech narsa o'z-o'zidan bo'lmagan va bundan keyin ham bo'lmaydi. Mustaqillikka erishishguncha bo'lgan davr, undan keyingi dastlabki yillar ancha qiyinchiliklar bilan boshlangan. O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimov tomonidan olib borilgan odilona siyosat, amalga oshirilgan islohotlar qisqa davrda o'z samarasini ko'rsatdi. Xomashyo yetkazib beruvchi mamlakatdan, ilg'or texnologiya asosida ishlab chiqarish jarayonini yo'lga qo'ygan, har sohada boshqa xorijiy mamlakatlar bilan raqobatlasha oladigan mamlakatga aylanib bormoqda. Bugungi kunda bozor iqtisodiyotiga o'tar ekanmiz, ishlab chiqarishni yanada takomillashtirish, bozorlarimiz hajmini yanada kengaytirish, ularni yetarli darajada tovar va xizmatlar bilan boyitish bizning asosiy vazifalarimizdan biri hisoblanadi. Ana shunday fursatda tadbirkorlar bizning diqqat markazimizda bo'ladi. Yurtimizda tadbirkorlar uchun ko'plab imtiyozlar, yetarlicha shart-sharoitlar yaratilib berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek: "Kichik va o'rta biznesni, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish biz amalga oshiradigan islohatlarimizning asosiy bo'g'ini hisoblanadi"¹. Bu islohotlarni amalga oshirishda birinchi navbatda tadbirkorlarning haq-huquqini himoyalash zarurati mavjud edi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga nazar soladigan bo'lsak, ular tadbirkorlikni rivojlantirishda aynan ularning huquq va majburiyatlarini belgilovchi aniq huquqiy-me'yoriy tizimni yaratishdan boshlashgan. Shuni inobatga olgan holda mamlakatimizda ham bu borada ko'plab qonun va farmoyishlar qabul qilingan. Jumladan, 1995-yil 28-avgustdagi "O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash" Davlat dasturi, 2000-yil 25-maydagi "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'grisida"gi qonuni, 2011-yil "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" deb e'lon qilinishi hamda joriy yilning 20-avgustida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga xususiy mulkni, tadbirkorlik subektlarini ishonchli himoya qilishni yanada kuchaytirishga, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'grisida"gi O'zbekiston Respublikasining O'RQ-391-son qonuni buning yorqin namunasidir.

Bugungi kunda xususiy tadbirkorlikning yurtimiz iqtisodiyotida tutgan o'rni va roli mustahkamlanib borayotganligini milliy iqtisodiyotimiz tarkibida bo'layotgan ijobiy o'zgarishlarda ko'rishimiz mumkin. Aynan shu faoliyat natijasida ishsizlik kabi muammolar sezilarli tarzda bartaraf etilmoqda. Ishsizlik insonni tushkunlikka, umidsizlikka, turmush tarzining yomonlashuviga sabab bo'luvchi jiddiy muammo hisoblanadi. Shu o'rinda bir savol tug'iladi, tushkunlik, umidsizlik bo'lgan yerda farovonlik bo'larmikan? Yo'q bo'lmaydi, albatta! Tadbirkor nafaqat ishlab chiqarishni yo'lga qo'yadi, balki aynan shu kabi masalalarga o'ziga xos

¹I.Karimov. «Jamiyatda tadbirkorlik ruhini qaror toptirish-taraqqiyot garovi». «Xalq so'zi» gazetasi 18-iyul 2001 y.

tarzda yechim topa oladi. Kichik biznesni yo'lga qo'yish uchun barcha shart-sharoitlar va afzalliklar mavjud. Kichik va yirik biznes o'rtasida quyidagi farqlarni keltirib o'tishimiz mumkin. Masalan, kichik tadbirkorlik bozor talabi o'zgarishiga sezuvchan bo'ladi. U yangi texnologiya yoki yangi mahsulot ishlab chiqarishga osonlik bilan o'tishi mumkin. Yirik korxonalarda esa bu jarayon katta xarajatlar va ko'p vaqt talab qiladi. Kichik korxonalarni rivojlantirish mahalliy resurslardan keng foydalanish imkoniyatini beradi. Yirik korxonalarining bunday kichik miqyosdagi ishlar bilan shug'ullanishi ularni qanoatlantirmaydi. Chunki bu faoliyat yirik korxonalariga sezilarli daromad keltirmaydi. Kichik korxonalarda yirik korxonalariga nisbatan boshqarish xarajatlarining ulushi ancha past bo'ladi. Kichik biznes korxonalarini yirik sarmoyani talab qilmaydi va sarf qilingan kapitalning qoplanish muddati qisqa bo'ladi. Kichik korxonalar jamiyatda o'rta mulkdorlar qatlamining shakllanishiga olib keladi. Kichik biznes yangi-yangi ishchi o'rinlarini barpo etib, ishsizlik muammosini hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Har bir yangi ish boshlagan tadbirkor, aytaylik u kichkina sex, yoki bo'lmasa umumiy ovqatlanish kabi faoliyat bo'lsin. Tadbirkor bu ishni yo'lga qo'yishda 3 yoki 4 xodimni ishga yollaydi va ular shaxsiy daromad olish boshlaydi. Bundan shu ko'rinib turibdiki, ana shunday minglab, o'n minglab tadbirkorlar o'z ishlarini yo'lga qo'yib, mamlakat aholisining turmush darajasini yanada oshirishga bevosita o'zlarining ulkan hissalarini qo'shgan bo'ladilar. Shu sababli hozirda tadbirkorlik faoliyatiga bo'lgan e'tibor yurtimizda yuksak darajada. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanib borishi, mamlakat iqtisodiyotidagi o'rning yil sayin yuksalib borishida, albatta, tijorat banklari tomonidan ko'rsatilayotgan moliyaviy rag'batlantirishlar yuqori samara bermoqda. Xususan, mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan „Agrobank“ OATB kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, oilaviy biznesni qo'llab-quvvatlash, kasb-hunar kolleji bitiruvchilarini tadbirkorlik sohasiga jalb qilish, shuningdek, tadbirkor ayollarni moliyaviy jihatdan rag'batlantirish hamda xizmat ko'rsatish va servis sohasini kengaytirish maqsadida imtiyozli kredit va mikro-kredit berish xizmatlari bilan shug'ullanib kelmoqda. Ayni shu sohaga mamlakat iqtisodiy o'sishining asosiy omili sifatida qaralib, 2013-yilda tijorat banklar tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga barcha moliyaviy manbalar hisobidan ajratilgan kreditlar 2012-yilga nisbatan 1,3 barobarga oshib, 5 trln. 346 mlrd so'mni tashkil etdi. Ushbu ajratilgan kreditlarning 1 trln. 172 mlrd. so'mi mikrokreditlar bo'lib, ularning hajmi 2012-yilga nisbatan 1,5 barobar o'sdi. Xalqaro moliyaviy institutlar va xorijiy mamlakatlarning kreditlari va grantlari hisobidan 181,7 mln. AQSH dollari miqdorida mablag'lar ajratildi. 2000-yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining qariyb 31 foizi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hisobiga shakllantirilgan bo'lsa, 2013-yilga kelib bu ko'rsatkich 55,8 foizni tashkil etgan, 2016-yilda ushbu ko'rsatkich 57 foizni, umumiy bandlikni esa 78 foizini tashkil etdi. Bu sohaga kiritilayotgan investitsiya hajmi 2000-2015-yillar oralig'ida 15,4 foizdan 35,8 foizga, eksport hajmi esa 10,2 foizdan 27,8 foizga o'sganini alohida ta'kidlab o'tish joiz.

Tadbirkorlar xalq manfaatini o'ylashadi, davlatimiz, uning har bir organlari esa tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash orqali xalq manfaatlarini ko'zlaydi. Zero yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqimiz manfaatlariga xizmat qilishi kerak". Yuqoridagi fikrlar asosida shuni aytyshimiz mumkinki, "Tadbirkorlar-xalq boquvchisidir"!

ХИТОЙ ХАЛҚ РЕСПУБЛИКАСИ ИҚТИСОДИЙ ЎСИШИНING АСОСИЙ ОМИЛЛАРИ

*Хақбердиева Нозима
ТошДШИ 2-курс талабаси
Илмий раҳбар: Курбанова М.*

Иқтисодиёт фанининг асосчиси, таниқли инглиз олими Адам Смит ўзининг машҳур асари ҳисобланмиш “Ҳалқлар бойлиги” китобида миллатнинг ҳақиқий бойлиги сифатида мамлакатдаги мавжуд аҳоли, меҳнат ресурслари ва унинг сони ва сифатини эътироф этади. Шу нуқтаи назардан, Хитой Халқ Республикаси дунё аҳолисининг деярли 20 фоизга яқин қисмини ўзида жамлаб ҳақиқатдан ҳам жаҳондаги “энг бой миллат” деб аташ мумкин¹.

XXРдаги кенг кўламли ижобий натижаларга олиб келган асосий омилларга қуйидагиларни киритиш мумкин:

- мамлакатнинг ташқи дунёга босқичма-босқич интеграциялашуви;
- ислоҳ қилишнинг асосий усули сифатида иқтисодиётнинг бутунлай эркинлаштирилиши эмас, балки бозор муносабатларига босқичма-босқич, тажрибавий текширувлар билан ўтилиши;
- ислохотларнинг дастлабки йилларидаёқ турли мулкчилик шаклидаги, яъни жамоат, шахсий, хусусий, қўшма (хорижий шериклар иштирокидаги) хўжаликларнинг ривожлантирилиши;
- Ҳукумат миллий ва хорижий тажрибани ўрганиб, ислохотни ўзга кўрсатмалар бўйича эмас, балки мамлакат хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда амалга ошириш зарур, деган хулосага келди ва «хитойча хусусиятли социализмни куриш» йўлига қатъий туриб олди.

Хитой Халқ Республикаси иқтисодий ўсишининг ҳаракатлантирувчи кучи бўлиб ички истеъмол, ички талаб, мамлакат улкан аҳолисининг тез кўпайишига хизмат қилади. Ўсишнинг асосий манбалари бўлиб қуйидагилар ҳисобланади:

- меҳнат ресурслари;
- табиий ресурслар;
- барқарор жамғарма – сармоявий механизмни шакллантириш. Унинг асосида жамғариш ва сармоялашнинг юқори меъёрлари ётади (мамлакат янги ички маҳсулот структурасида сармоялар улуши учдан бир қисмига тенг бўлиб, АҚШнинг шу кўрсаткичидан икки марта кўп).

Умуман олганда, Хитойда юқори иқтисодий ўсиш суръатларини таъминлаган омилларга қуйидагиларни киритиш мумкин: чуқур аграр ислохотларни ўз вақтида олиб бориш; фаол экспортга йўналтирилган сиёсат; иқтисодиётнинг эркинлаштирилиши ва бунинг натижасида иқтисодий ўсиш давлатга тегишли эмас, балки хусусий корхоналар ҳисобига таъминланиши; иқтисодий дастурлар ва давлатнинг иқтисодиётга аралашуви маъмурий эмас, балки пировард натижалар (экспортнинг, меҳнат унумдорлиги ва самардорликнинг ўсиши ва ҳ.к.) билан боғланган кучли иқтисодий рағбатлар ёрдамида

¹www.prb.org. World Population Data 2016. China's Economic Conditions. Wayne M. Morrison, Specialist in Asian Trade and Finance, June 24, 2011. Congressional Research Service, 7-5700, www.crs.gov.

амалга оширилиши; иқтисодиётнинг устувор тармоқларига йирик ҳажмдаги инвестициялар жалб қилиш дастурлари ишлаб чиқилиши ва амалга оширилиши деб ҳисоблаймиз.

Глобаллашув шароитида Хитойнинг иқтисодий ривожланиш дастурининг муҳим йўналишларидан бири - бу мамлакатни жаҳон хўжалигига, шу жумладан халқаро савдо тизимига интеграциялашув стратегиясидир. Хитой 2001 йил ноябрда Умумжаҳон Савдо Ташкилоти (УСТ)га аъзо бўлиб кирди. Бу жараённинг тезлашишига унинг АҚШ билан муносабатларининг нормаллашуви анча ёрдам берди. УСТга аъзолик ХХР олдида янги имкониятлар очиш билан бирга мажбуриятларни бажариш вазифасини ҳам юклайди¹.

Миллий иқтисодиётнинг УСТ қодалари ва шартларига мослашувининг бошланғич босқичида таваккалчиликларва харажатларни камайтириш учун Ўзбекистоннинг УСТга қўшилишининг оқилона стратегияси ўтиш даври босқичига хос талабларни ўз ичига олиши керак. Ушбу босқичда Хитойнинг ижобий тажрибасидан фойдаланиш мақсадга мувофиқдир. ХХРнинг Ўзбекистон учун энг қимматли тажрибаси - савдо режимининг аста-секин УСТ талабларига мослаштирилишидир.

Ўзбекистонда ҳам, ХХРда ҳам ташқи савдони либераллаштиришнинг устуворликларидан бири экспортга йўналтирилганлик, экспортга йўналтирилган соҳалар салоҳиятини ривожлантиришдир.

Ўзбекистоннинг халқаро савдо тизимига интеграциялашувидан энг кўп фойда олиш учун халқаро тажрибадан фойдаланиш ва ташқи савдо салоҳиятини ривожлантиришнинг аниқ стратегиясини ишлаб чиқиш лозим. Бизнинг фикримизча, Ўзбекистон учун Хитой Халқ Республикасининг ташқи савдони ривожлантириш тажрибаси намуна бўла олади. Ўзбекистон ва ХХР иқтисодиёт таркибида ҳам (ҳар иккала мамлакатда ҳам халқ хўжалигини ислоҳ қилиш, соҳалар ва корхоналарни таркибий ўзгартириш жараёнлари давом этмоқда, ЯИМда қишлоқ хўжалигининг улуши, ташқи савдонинг нисбати катта, давлатнинг юқори тартибга солувчи роли, ишчи кучининг ортиқчалиги, иқтисодиётни янада эркинлаштиришга йўналтирилганлик), ташқи савдо салоҳиятини ривожлантириш мақсадларида ҳам (экспортга йўналтирилган соҳаларни ривожлантириш, саноатлаштириш, истиқболли соҳаларга тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар жалб қилиш сиёсати, ташқи савдони эркинлаштиришнинг ўхшаш муаммоларини ҳал қилиш) ўхшаш жиҳатлар мавжуд.

Хитойнинг замонавий стратегиясига аввалги устуворликлар (илмий-техник янгиликлар асосида тузилмавий ислохотлар, бевосита хорижий инвестициялар, экспорт сакланиб) қолиши билан бирга ички хусусий талабни, шу жумладан, ишлаб чиқариш талабини ошириш, шунингдек УСТ бўйича мажбуриятларни бажаришга қаратилган иқтисодиётнинг молиявий ва саноат секторларини аста-секин либераллаштиришга алоҳида эътибор берилади.

Хитойнинг ташқи иқтисодий сиёсатининг ижобий тажрибасидан фойдаланишнинг асосий йўналишлари қуйидагилардан иборат бўлиши мумкин:

¹China's Economic Rise—Fact and Fiction. ALBERT KEIDEL, Senior Associate, Carnegie Endowment for International Peace.

1. Хитойнинг ислохотлар ва модернизациялаш сиёсати миллий хусусиятлар, мамлакатнинг геосиёсий ҳолатини эътиборга олган ҳолда қурилган.

2. Ислохотлар сиёсати мавжуд давлат ҳокимиятини сақлаб қолган ва бозор қонунчилигини такомиллаштирган ҳолда иқтисодиётнинг турли тармоқларини бозор муносабатларига аста-секин кириб боришини, янги нодавлат ва хусусий мулкчилик шакллари шакллантиришни назарда тутди.

3. Хитой ҳукумати иқтисодий ўзгаришларни аҳолини ижтимоий ҳимоялашни ҳисобга олган ҳолда амалга оширади.

4. Мамлакатда барқарор молия-иқтисодий қонунчиликни ўрнатиш йўли танлаб олинган бўлиб, унинг асосида давлат, хусусий тадбиркорлар ва хорижий сармоядорлар манфаатларини ҳисобга олиш ётади.

5. Бозор иқтисодиётининг глобаллашуви ва мулк ҳуқуқларининг халқаро ҳимояланиши талабларига мос келиш мақсадида Хитой қатор халқаро шартномаларни имзолаган бўлиб, улар УСТга қўшилиш учун ҳуқуқий замин яратди.

6. Хитойнинг очиклик сиёсати, энг аввало, халқаро амалиёт талаблари асосида ташқи иқтисодий фаолиятни амалга оширишни англатади. Ташқи савдо ислохоти амалга оширилди, валюта даромадлари ва харажатларини режалаштириш бекор қилинди, божхона тўловларининг умумий даражаси мунтазам ва босқичма-босқич пасайтирилмоқда¹.

Хитой–Ўзбекистон халқаро иқтисодий муносабатларини такомиллаштириш стратегик шериклик, ўзаро манфаатдорлик асосида ва ҳамкорлик тамойилларида қурилишини мунтазам таъминлашга эътиборни кучайтириш керак. Кейинги йилларда ҳам ХХР бизнинг асосий савдо шерикларимиздан бири бўлиб қолмоқда. Айниқса у Ўзбекистон импортида эгаллаб турган салмоғи йилдан-йилга ортиб бормоқда. Жумладан, 2000 йилда икки мамлакат ўртасида савдо айланмаси 95.5 млн. АҚШ долларига тенг бўлган бўлса, 2016 йилга келиб 4 млрд. АҚШ долларидан, Ўзбекистонга Хитой томонидан киритилган инвестиция ва кредитларнинг ҳажми 6,5 млрд. АҚШ долларидан ошиб кетди². Шунингдек, 2016 йил 1 январь ҳолатига мамлакатимизда Хитой капитали иштирокидаги 650 дан ортиқ корхона фаолият юритмоқда.

Мамлакатларимизнинг бой хом ашё ва илмий интеллектуал имкониятлари муҳим инфраструктуравий лойиҳаларнинг самарали амалга оширилишига, ШХТ аъзолари манфаатларига мос савдо, инвестицион ва бошқа соҳалардаги ҳамкорликнинг кейинги ривожини учун мустаҳкам асос яратади. Биринчи навбатдаги муаммоларга минерал хом ашё ресурсларидан унумли фойдаланиш, энергетика, транспорт ва атроф-муҳит муҳофазасининг мувофиқлаштирилган структурасини яратиш киради.

Хитой ва Ўзбекистон бозорлари ҳамда бошқа истиқболли бозорларга мўлжалланган юқори технологияли маҳсулотлар ишлаб чиқариш учун зарур товарлар, бутловчи қисмлар ва аксессуарлар тайёрлаш бўйича қўшма корхоналар ташкил этиш ҳамкорликнинг муҳим йўналишига айланиши мумкин.

¹А. Ходжаев. Антикризисные меры Китая: результаты и перспективы экономического развития. Центр политических исследований (www.cps.uz/publications/index.html) lastenteredon 10.07.2011 year)

²Сунь Лицзе: Дальнейшее укрепление китайско-узбекских отношений отвечает общим интересам и желаниям народов двух стран. Агентство новостей «podrobno.uz» . 02.09.2016г.

HINDISTON IQTISODIYOTINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Sattorova Durdona
ToshDShI2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Kurbanova M.

Hozirgi kunda yangi bilimlarning rivojlanish darajasi va ularning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda samarali qo'llanilishi har qanday mamlakatning muhim raqobat ustunligi hisoblanadi. Aynan shu omil jahon hamjamiyatida davlatlarning o'rni va rolini hal qiluvchi darajada belgilaydi.

Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish innovatsion rivojlanish darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Innovatsiya, birinchi navbatda raqobatbardosh, takomillashgan, ilm-fan sig'imkorligi yuqori mahsulotlar yaratish va ishlab chiqarish, yuqori ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish, texnologik jarayonlarni boshqarishning yangi usul va shakllarini tashkil etishdan iborat.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida innovatsion faoliyatning yakuniy natijasi bo'lib, bozorga chiqarilgan yangi yoki takomillashgan mahsulotlar, yangi yoki takomillashgan texnologik jarayonlar, ijtimoiy xizmatlar sohasida esa yangicha yondoshuvlar bo'lishi mumkin.

So'nggi yigirma yillik davrda ilg'or mamlakatlarning iqtisodiy o'sish tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, dunyo bozorlarida raqobatning kuchayishi sharoitida, mamlakatning iqtisodiy o'sishini ta'minlash avvalambor, raqobatbardosh, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishda va xizmatlar ko'rsatishda innovatsion va ilg'or texnologiyalardan foydalanish. ishlab chiqarish jarayonlari sifatini oshirish, zamonaviy standartlar asosida boshqarish tizimini joriy etish bilan bevosita bog'liqdir.

Rivojlangan mamlakatlar uzoq muddatli istiqbolda o'z iqtisodiyotlarining energetika va ekologiya, transport, axborot va telekommunikatsiya tizimlari, sog'likni saqlash texnologik darajasini oshirishda o'z raqobatbardoshliklarning garovini ko'radilar. AQSH, Yevropa ittifoqi mamlakatlari va Yaponiyada bu tarmoqlardagi ilg'or texnologiyalar ularga jahonda iqtisodiy yetakchilikni, iqtisodiy o'sish hamdaijtimoiy muammolarni hal qilishni ta'minlay oladigan yangi, texnologik ukladni shakllantirish imkonini beradi. Mos ravishda ularning davlat siyosati yuqorida keltirilgan yo'nalishlarni rag'batlantirishga qaratilgandir.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, har tomonlama rivojlangan innovatsion tizimga ega mamlakatlardagina innovatsiya jarayonlari samarali amalga oshirilib, texnologiyalar va boshqa ilmtalab mahsulotlar tijoratlashtirilmogda. Bu jarayonda davlatning ishtiroki, iqtisodiyotning real sektori va yetakchi kompaniyalarning innovatsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlashi muhim ahamiyatga egadir. Zero, ilm-fan davlatning texnik taraqqiyoti va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlaydigan ushbu integratsiya mexanizmining asosini tashkil qiladi.

Hindiston innovatsiya sohasi bo'yicha ochiq davlat hisoblanadi. Oxirgi yillarda aynan Hindiston innovatsiyani rivojlantirish bo'yicha juda katta yutuqlarga erishdi. Umumxalqaro raqobatbardoshlik reytingi bo'yicha Hindiston 2016-2017 yillarda 138 ta davlat ichida 39-o'rinda turadi. Hindiston ilm-fan va axborot texnologiyalarini rivojlantirishda ham yuqori ko'rsatkichni namoyon etmogda. (1-jadval).

**Innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqaruvchi va tadqiqot qiluvchi yetakchi
mamlakatlar, 2012-yil¹:**

Qishloq xo'jaligi	Avtomobil sanoati	Aerokosmik transport	Harbiy aviatsiya Mudofaa va xavfsizlik	Elektronergiya ishlab chiqaruvchilar	Atrof-muhitni himoyalash	farmatsevtika	IT
AQSH	Yapon.	AQSH	AQSH	AQSH	GER	AQSH	AQSH
Xitoy	GER	Xitoy	Xitoy	GER	AQSH	B.B.	Yapon.
GER	AQSH	Fransiya	Rossiya	Xitoy	Yapon.	GER	Xitoy
BRA	Xitoy	GER	B.B.	Yapon.	B.B.	Yapon.	Hindis.
Yapon.	Koreya Res.	Yapon.	Fransiya	B.B.	Xitoy	Xitoy	GER

Hindiston uzoq vaqt Buyuk Britaniyaning mustamlakasi bo'lganligi sababli milliy innovatsion tizimining rivojlanishi 1947-yildan ya'ni mustaqillikka erishganidan so'ng boshlangan. Biroq 1942-yildayoq Hindistonda ilmiy-sanoat Tadqiqot kengashi tashkil etilgan edi. Bu kengash bugungi kunda milliy ilmiy-tekshiruv laboratoriyalarini boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqil Hindistonning davlat siyosati endilikda iqtisodiy va texnikaviy rivojlantirishga qaratilgan edi. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol tovarlar ishlab chiqarish asosida, import o'rnini qoplash siyosati keng joriy qilindi. Hindistonning patent qonuni g'arb mamlakatlari texnologiyalarini nusxa olishga ruxsat berar edi, bu esa o'z o'rnida ko'plab Hindiston korxonalarini rivojlanishiga olib keldi, ayniqsa tibbiyot sohasi jadal suratlarda rivojlandi. Hindiston 1947-yilda birinchi marta ilmiy texnika rivojlanishing 5 yillik rejasini tuzib chiqdi va bu reja mamlakatda texnik axborotlarni tahlil qilish va prognozlashtirish kengashini shakllantirar edi. Bu esa Hindiston innovatsiya sohasini rivojlantirishdagi dastlabki qadamlar sifatida qaraladi.

1990-yil Hindiston uchun murakkab yil bo'ldi, byudjet defitsiti, yuqori darajadagi inflyatsiya suratlari va to'lov balansining o'zgaruvchanligi iqtisodiy tanglikni keltirib chiqardi. Shunga qaramasdan Hindiston 2000-yilga kelib bu qiyinchiliklarni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqdi. Sanoatni litsenziyalash bekor qilindi, samarasiz davlat korxonalarini qayta qurildi, ba'zilari esa xususiyashtirildi. Asosiy islohotlar 2000-yildan boshlanib, intellektual mulk sohasidagi qonunchilik tizimining o'zgarishi, mamlakatda maxsus iqtisodiy zonalarini tashkil etilishi kabi chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Bugungi kunda Hindistonning innovatsion tizimi ko'p tarmoqli tizimga ega. Innovatsion sohani moliyalashtirish davlatning asosiy organi hisoblangan "Ilmiy-sanoat Tadqiqot kengashi" tomonidan amalga oshiriladi. Hindistonning innovatsion tizimining ajralib turuvchi muhim tomoni bu texnoparklarning tashkil etilganligidir. Hozirda mamlakatda 35 ta davlat va 25

¹ Manba: M.A. Галкин, И.А. Родионова "Национальные инновационные системы в условиях интернационализации научно-исследовательской деятельности" Москва-2013

ta xususiy texnoparklar faoliyat olib boradi. Texnoparklar yuqori texnologik va ilmtalab mahsulotlarni eksport qiluvchi korxonalarni qoʻllab quvvatlashda hamda infrastrukturani rivojlantiruvchi vositalardan biridir. Texnoparklar korxonalarining jadal suratlarida rivojlanishidagi asosiy omildir. Texnopark tarkibiga kiruvchi tashkilotlar cheklanmagan chet el investitsiyalarini jalb qila olish xususiyatiga ega. AQSH kabi Hindiston ham venchur investitsiyalar tizimiga oʻz eʼtiborini kuchaytirmoqda va mamlakatda “Hindiston venchur investitsiya assotsiatsiyasi” (IVCA) tashkil qilindi. Bugungi kunda Hindistonning yuqori texnologik sohaslariga farmasevtika va informatsion texnologiyalar kiradi. Bu ikki sohaga roʻyxatdan oʻtgan patentlarning 70%i togʻri keladi. IBM, Texas Instruments kabi katta korxonalarni filiallari ochilishi IT bozorini rivojlanishiga olib keldi. Misol uchun IBM korxonasi “Biznes sohasi boʻyicha ilmiy tekshiruv instituti” (IBV) institutini ochdi. Oxirgi yillarda Hindiston IT texnologiyalarini import qiluvchi davlatdan uni eksport qiluvchi davlatga oʻzgarib bormoqda. Bu esa oʻz oʻrnida Hindiston innovatsion tizimining rivojlanishiga hamda sohada oʻz mavqeini egallagan davlatlar bilan raqobat qila olish xususiyatiga egaligidan dalolatdir.

Soʻnggi yillarda Hindiston ilm-fanni rivojlantirishga oʻz eʼtiborini kuchaytirmoqda. Matematiklarni tayyorlash boʻyicha Hindiston dunyoda 11-oʻrinda turadi. Hozirda Hindistonda 579 ta universitetlar soni mavjud boʻlib, oliy maʼlumotga ega aholi 7,5%ni tashkil etadi. Mamlakat ilmiy, ingliz tilini mukammal biluvchi hamda AQSH va Buyuk Britaniyada amaliyot oʻtab qaytgan malakali kadrlarga ega. Aynan mana shu omil Hindistonning yuqori texnologik xizmatlar koʻrsatish sohasida yuqori natijalarga erishishga turtki boʻlmoqda. Hindistonda 7 ta texnologik institute mavjud (Indian Institutes of Technology) boʻlib, bu institutlar davlat tomonidan qoʻllab quvvatlanadi, yaʼni davlat ular uchun maxsus grantlar ajratadi.

Hindiston innovatsion sohasini rivojlantirishda davlat muhim rol oʻynaydi. Qonunda oʻzgarishlarga qaraganda korxonalariga investitsiya kiritish 49% dan 74% gacha oshirilgan. Hindiston hududida mikroelektron uskunalar ishlab chiqarish uchun bir qator iqtisodiy zonalar yaratilgan. Mahalliy elektron uskunalar ishlab chiqaruvchi korxonalariga elektron komponentlar yetkazib beruvchi chet el kompaniyalari soliqlardan ozod etilgan.

Hindiston hukumati chet el investitsiyalarini kiritish boʻyicha faol siyosat olib bormoqda. Bugungi kunda yuzlab chet el korporatsiyalari Hindistonda ilmiy tekshiruv ishlari olib bormoqdalar, koʻplab korxonalar shaxsiy ilmiy markazlar ochish uchun investitsiya kiritgan, qolgan korxonalar esa ilmiy tadqiqotlarni olib borish uchun akademik litsey, xususiy firmalar va davlat laboratoriyalari bilan shartnoma tuzishgan.

Mamlakatda olib borilgan faol innovatsiya siyosati natijasida hozirda Hindiston koʻplab xalqaro reytinglarda yuqori oʻrinlarni egallamoqda. Jumladan, xalqaro innovatsiya indeksda 128 mamlakat orasida 61-oʻrindadir.

Dunyo mamlakatlarning innovatsion rivojlanish bo'yicha xalqaro reytingi:

Global innovatsion indeks (GII)2016 y ¹		Texnologik-tayyorgarlik indeksi (NRI)2015 y ²		Axborot kommunikatsiya texnologiyalari indeksi (GITR)2015 y ³		Global raqobatbardoshlik indeksi (GCI)2015-2016 yillar ⁴	
1	Shveysariya	1	Singapur	1	Koreya Respublikasi	1	Shveysariya
2	Shvetsiya	2	Finlandiya	2	Daniya	2	Singapur
3	Buyuk Britaniya	3	Shvetsiya	3	Islandiya	3	AQSH
4	AQSH	4	Niderlandiya	4	Buyuk Britaniya	4	Germaniya
5	Finlandiya	5	Norvegiya	5	Shvetsiya	5	Niderlandiya

25	Xitoy	62	Xitoy	82	Xitoy	60	Xitoy
66	Hindiston	89	Hindiston	131	Hindiston	55	Hindiston
49	Rossiya	41	Rossiya	45	Rossiya	45	Rossiya
69	Braziliya	84	Braziliya	61	Braziliya	75	Braziliya
54	JAR	75	JAR	88	JAR	49	JAR

Xalqaro innovatsiya indeksda o'z aksini topgan quyidagi talablar bo'yicha Hindiston yuqori natijalarni ko'rsatmoqda⁵:

Global innovatsion indeks bo'yicha Hindiston 2016-yilda 141 ta mamlakat ichida 31.7 hisob bilan 81-o'rinda turadi.

- Ilm-fan va injenerlik bitiruvchilari bo'yicha 29.1 hisob bilan 8-o'rinda;
- Kichik investorlarni himoyalashning yengillik darajasi bo'yicha 73.3 hisob bilan 8-o'rinda;
- Savdo, raqobat va bozor hajmi bo'yicha 74.9 hisob bilan 20-o'rinda;
- Umum savdoda yangi tovarlarni yaratuvchanlik eksporti foizining yuqoriligi bo'yicha 2.9 hisob bilan 16-o'rinda;

¹http://www.wipo.int/pressroom/ru/articles/2016/article_0008.html

²www.weforum.org/docs/WEF_Global_IT_Report_2015.

³<http://www.itu.int/net4/ITU-D/idi/2015/>

⁴ <http://reports.weforum.org/global-competitiveness-report-2015-2016/the-global-competitiveness-index-2015-2016/>

⁵ The Global Innovation Index-2016.

- Umum savdoda axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) eksporti foizining yuqoriligi bo'yicha 10.7 hisob bilan 1-orinda turadi.

Hindiston innovatsion mamlakat bo'lishiga qaramasdan global innovatsion indeksning quyidagi ko'rsatkichlarida past natijalarni qayd etmoqda:

- Siyosiy barqarorlik va xavfsizlik 38.9 hisob bilan 113-o'rinda;
- Tadbirkorlik muhiti sohasida 54.1 hisob bilan 117-o'rinda;
- Yangi turdagi bizneslarni tashkil qilinishi borasida 39.2 hisob bilan 86-o'rinda;
- Kredit olishning qulayligi bo'yicha 65.0 hisob bilan 39-o'rinda;
- Ta'lim tizimida 26.0 hisob bilan 118-o'rinda turadi.

Jahon xo'jaligi rivojlanishining yangi bosqichida dinamik rivojlanayotgan Hindiston innovatsion texnologiyalar xalqaro bozorida o'z mavqeining oshishiga olib keladigan chora-tadbirlar dasturini qabul qilib, aynan shu sohada olg'a qadam bilan siljimoqda.

KOREYA RESPUBLIKASIDA TURIZM SOHASINING AHAMIYATI VA UNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

*Baymuminova Nigora
ToshDSHI 2-kurs talabasi
Imiy rahbar: Kurbanova M.*

Barchaga ayonki, bugungi globallashuv jarayonida mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi boshqa ko'rsatkichlar bilan bir qatorda uning turizm salohiyati bilan ham belgilanadi. Ya'ni mamlakatda xizmatlar sohasi rivojlangan bo'lsa ushbu davlat postindustrial davlatlar qatoriga kiritilishini anglagan holda, xizmat ko'rsatish sohasining asosini turizm tashkil etishini ham alohida ta'kidlab o'tish joiz.

Xalqaro turizm mamlakatning iqtisodiy o'sishiga, eksport salohiyatiga va aholisini ish bilan ta'minlash masalasiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda

Ma'lum bir mintaqada, hududda xalqaro turizmning rivoji ko'plab omillarga bog'liqdir. Jumladan:


- Turistlarni qabul qiluvchi mamlakatlar, mintaqalar, hududlarning iqtisodiy-geografik joylashuvi;
- Turistlarni qabul qiluvchi va turistlar yuboruvchi mamlakatlarning iqtisodiy jihatdan rivojlanish darajasi;
- Ichki turizm sohasining rivojlanish holati;
- Xorijiy turistlarni qabul qiluvchi mamlakatlarning mehnat resurslari bilan ta'minlanish darajasi, mamlakat kadrlarning soni, ularning tayyorgarlik darajasi va hokazo;
- Ma'lum bir hududda rekreatsion resurslarning qiymati, transport xizmatlari turi, oziq-ovqat mahsulotlarining narxi, mehmonxonalarda joylashish narxlari, turistik obyektlar qurilish maydonlarining bahosi;
- Transport, aloqa vositalarining hududda tutgan o'rni va holati bilan xarakterlanadi.

Xalqaro turizmni rivojlantirish borasida yurtimizda ham ko'zga ko'rinarli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu amalga oshirilgan ishlar natijasida xalqaro turizm sohasida muayyan yutuqlarga ham erishilmoqda. Ushbu ko'rsatkichlarni yanada yaxshilash va yetakchi o'rin tutadigan hamda xalqaro turizm jadallik bilan rivojlanib borayotgan davlatlar tajribasidan foydalanish

muhim hisoblanadi. Bu yo‘nalishda Osiyo mamlakatlaridan biri Koreya Respublikasi tajribasi ahamiyatlidir.

Uzoq Sharq o‘zining noyob madaniyati va ananalariga boydir. Sektor infrastrukturasi va yo‘lovchilarni havoda tashish imkoniyatlari kengayib bormoqda. Davom etayotgan o‘zgarishlar ulkan imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Agar Janubiy Koreya Respublikasi haqida gapiradigan bo‘lsak, yildan–yilga mamlakat mintaqada o‘zining barqaror siyosiy holati va rivojlangan infrastrukturasi, qulay iqlim sharoiti va xizmatning yuqori standartlari tufayli turistlar uchun yanada jozibali bo‘lib kelmoqda.

1-chizma¹



Yuqoridagi chizma ma‘lumotlaridan ma‘lumki, Koreyaga kelib ketuvchi turistlarning asosiy qismini ya‘ni 84%ini Osiyolik turistlar tashkil etadi. Ularning tarkibini qaraydigan bo‘lsak, Koreyada turizmning rivojlanishi asosan Xitoylik turistlar ulushi bilan bog‘liq. 2016-yilda Janubiy Koreyaga 9 million 400 ming xitoylik Koreyaga sayohat qilgan. Bu Janubiy Koreyada yillik 17,070,352 kishining 55% ini tashkil qiladi. Undan tashqari 7% yevropalik va 7% amerikalik turistlar ham Koreya respublikasiga tashrif buyurishadi.

Oxirgi yillarda Koreya Respublikasida turizm rivojlanishida pasayish kuzatildi. Buni Koreyaga kirib kelgan turistlarning yillik soni hamda uning o‘tgan yilga nisbatan o‘sish foizlarini tahlil qilish orqali bilib olish mumkin. 2014-yilda Koreyaga tashrif buyurgan sayyohlar soni, 14,201,651 kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2015-yilda bu ko‘rsatkich 13,231,651 kishiga teng bo‘lgan. Ya‘ni u o‘tgan yilga nisbatan 6.8%ga kamaygan. Aksincha, Koreyadan boshqa davlatlarga sayohat qiluvchilar soni keskin oshgan. 2014-yilda 16, 080, 684 kishiga teng bo‘lgan bo‘lsa, 2015-yilga kelib u 20.1% ga ortgan va 19,310,430 kishini tashkil qilgan. Bu albatta Koreyaning turizmdan keladigan tushumlari miqdoriga ham ta‘sir ko‘rsatmasdan qolmaydi.

1-jadval

¹Korea Tourism Organization, 2016

Koreya Respublikasida turizmdan tushum va xarajatlar hamda ularning farqi¹:

Yillar	Tushum	Xarajat	Farqi
2013 yil	14.5 mlrd.	17.5 mlrd.	(-)3 mlrd.
2014 yil	18.5 mlrd.	19.8 mlrd.	(-)1.3 mlrd.
2015 yil	23 mlrd.	26 mlrd.	(-)3 mlrd.

Koreya turizmidan keladigan yillik tushum 2015-yilda 23 milliard dollarga teng bo'lgan. Bu o'tgan yildagi 18.5 mrd. ga solishtirganda 10%ga o'sgan. Ammo turizmga ketadigan xarajatlar miqdori undan keladigan tushumga nisbatan yuqoriligicha saqlanib qolgan.

Agar Koreya aholisining xorijga sayohat qilishini tahlil etadigan bo'lsak, oxirgi yillarda o'sish tendentsiyasi kuzatiladi. Mamlakat turistlarining ko'pchiligi rivojlangan mamlakatlarga sayohat qilishni yaxshi ko'rishadi. Eng ko'p turistlar Yaponiyaga sayohat qilgan, bu yerda ham Xitoyning ulushi o'sib borganligini ko'rishimiz mumkin.

Mamlakatda turizmning bunday rivojlanishiga asosiy omil – mamlakatdagi iqtisodiy o'sish, aholining hayot darajasi o'sishi bo'lsa, ikkinchi tomondan mamlakat hukumatining turistik biznes rivojlanishiga bergan e'tiboridir. Turistik biznesni keng yo'lga qo'yish natijasida mamlakatda ko'plab ishchi o'rinlari yaratila boshlandi. 2014-yilda yaratilgan ishchi o'rinlari sonining o'zi 520000 taga teng. Mamlakatda turistik biznes rivojlanishini tartibga solish va uni rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish Koreya turistik tashkiloti tomonidan amalga oshiriladi. Koreya Milliy turistik tashkiloti davlat notijorat korporatsiyasi bo'lib, u Madaniyat va turizm vazirligi tizimiga kiradi. 1980-yildan boshlab mamlakatda turizmni erkinlashtirish siyosati olib borilib, ushbu siyosat natijasida mamlakatda turizm jadal rivojlandi.

Koreya hozirgi kunda turizmning zamonaviy infrastrukturasi, shu jumladan, transport, telekommunikasiya, axborot xizmatlari kabilarga investisiyalar kiritmoqda. Chunki turizm sohasiga kiritilgan investisiyalar mamlakatga turistlar kirib kelishini faollashtiradi va o'z o'rnida mehmonxonalarga bo'lgan talabni oshiradi. Bizning respublikamizda mavjud mehmonxonalardagi narxlar ba'zi bir sabablarga ko'ra jahondagi o'rtacha narxlardan yuqori bo'lib, turistlarning mehmonxonalarga bo'lgan talabidan yuqoridir. Hozirgi vazifa ulardagi narxlarni qayta ko'rib chiqishdir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, hozirda asosiy masala – iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishdan iborat. Shu o'rinda Koreya hukumati rahbariyati mamlakatda xalkaro konferensiyalar, ko'rgazmalar o'tkazish, infrastrukturani rivojlantirishga katta e'tibor bermoqda. Mamlakat rahbariyati milliy iqtisodiyotda turizm rolini yanada oshirishga katta e'tibor qaratmoqda. Amalga oshirilayotgan chora va tadbirlar o'z natijasini ko'rsatayotganligini Koreyada turizm sohasi keng rivojlanayotganligidan ko'rishimiz mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ta'kidlash lozimki, Koreya Respublikasi Amirlklar tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda va bu tajriba rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan o'rganilishi maqsadga muvofiqdir.

¹www.tradingeconomics.com

ЁШ ИЗЛАНУВЧИЛАРНИНГНИНГ ИЛК ҚАДАМЛАРИ

HINDIY TILINING RIVOJLANISH TARIXI VA HOZIRGI KUNDAGI AHAMIYATI

Muhamedova Mohina
ToshDSHI 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.d. U.Muhibova

Sharq qadim-qadimdan o‘zining tarixi, madaniyati, etnografiyasi, oshxonasi, adabiyoti va eng asosiysi esa o‘zining bir-biridan go‘zal tillari bilan mashxur. Sharq tillari haqida so‘z ketar ekan, ular uzoq tarixga ega ekanligini va shu bilan bir qatorda hozirgi kunga qadar o‘z o‘rniga ega bo‘lib, rivojlanib kelayotgan tillarni tushunish mumkin.

Sharq davlatlari uzoq tarixdan ma’lumki, siyosiy-iqtisodiy jihatdan barqaror, madaniyatining boyligi bilan ajralib turadi. Mana shunday, Sharqning o‘ziga xos davlatlaridan biri Hindiston Respublikasidir.

Hindiston ko‘p millatli va ko‘p tilli mamlakatdir. Bu yerda insonlar turli xil millat egalari bo‘lishiga qaramay o‘zaro totuvlikda yashaydilar. Hindiston Respublikasida insonlar turli xil tillarda va shevalarda so‘zlashadilar. Davlatning bosh qomusi, Konstitutsiyaga ko‘ra 14 ta til asosiy deb hisoblanadi. Hindiston Respublikasi konstitutsiyasiga muvofiq ularga quyidagi tillar kiradi – hindiy, bangoliy, marathiy, gujarotiy, panjobiy, oriya, assam, kashmiriy, tamil, telugu, malayalam, kannara, urdu va sanskrit.

Hindiston tillari asosan 3 ta lingvistik oilaga mansubdir – hind-oriy, dravid va tibet-xitoy. Hindiston tillarining aksariyat qismi hind-oriy tillari oilasiga mansubdir.

Hind tillarining paydo bo‘lishi va rivojlanish tarixi uzoq qadimga borib taqaladi va 3 ta davrni o‘z ichiga qamrab oladi:

- Qadimgi (eramizdan avvalgi 1500-500- yillar);
- O‘rta (eramizdan avvalgi 500-yildan, eramizning X asrgacha);
- Yangi (X asrdan boshlab, hozirgi kunga qadar bo‘lgan payt).

Hindistonning uzoq shimoli-g‘arbidan kelgan oriy qabilalari istilosidan keyingi davrdagi ijtimoiy tuzumi, madaniyati, dinlari va tillari to‘g‘risida qadimgi yozma manbalar asosida tasavvurga ega bo‘lish. Hindiy tilining hosil bo‘lishi sanaskrit tilidan kelib chiqqan.

Hindiy tili Hindistonning asosiy tillaridan biri bo‘lib, 1965-yil 26-yanvar kuni Markaziy hukumat tomonidan Hindistonning rasmiy tili deb e‘lon qilingan. Bu til asosan Hindistonning markaziy va shimoliy hududlarida keng tarqalgan. Bu tilning Hindistondagi boshqa tillardan ustunligini siyosiy maydonda ko‘rish mumkin. Ayniqsa, Hindistonning konstitutsiyasi ham Devanagari alifbosiga asoslangan hindiy tilida tuzilganligi bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Bundan tashqari rasmiy hujjatlarda yana 22 ta til Hindistonning rasmiy tillari sifatida yuritiladi. Hindiy tili shimoliy shtatlarda, Rajasthan, Dehli, Haryana, Uttarakhand, Uttar-pradesh, Madhya-pradesh, Chhattisgarh, Himachal-pradesh, Jharkhand va Bixar shtatlarida keng tarqalgan va ko‘p foydalaniladi. Yana hindiy tili Andaman-Nikobar orollarida 2-darajali til sifatida ham ingliz tili bilan bir qatorda aholiga tushunarli tildir. Shimoliy va markaziy Hindistonning barcha hududlarida diniy tillar panjob, gujharati, marathi va bengal tillari singari iste’-moldagi ya’ni muloqot uchun xizmat qiluvchi tillardan biri.

Fidji konstitutsiyasiga ko‘ra hindiy tili (ba‘zi joylarda esa hindusthani deb ham yuritiladi) ingliz, fidji tillari bilan ham rasmiy til deb qabul qilingan. Shuni ham aytish joizki Fidji davlatining aholisi hukumatga yoki davlat hokimiyat organlariga yuzlangan paytda ingliz, fidji va hindiy tillaridan birida yuzlanishi yoki 3 ta tildan birida so‘zlashuvchi tarjimon olish huquqiga ega. Hindiy tilida deyarli barcha Fidji aholisi so‘zlasha oladi. Biz esa shu o‘rinda hindiy tilining qanchalik mavqei baland ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Fidji orolining Janubida Vitu-Levu va shimolning Vanua-Levu hududlarida ham hindiy tili keng tarqalgan bo‘lib, Fidji aholisi o‘rtasida va hindlardan kelib chiqqan Fidji aholisi o‘rtasida va mahalliy fidjeylar o‘rtasida ham qo‘llaniladi. Bu yerda hindiy tilida so‘zlashuvchilar 4% ni tashkil qiladi. Bularga esa hind-fidjilar, hindiy tiliga mansub bo‘lmagan insonlar Hindistonga yurish qilganlar kiradi.

Hindiy tilida so‘zlashuvchilar soni bo‘yicha oldingi qatorda turadi. Tahminan 2-5 o‘rinlar, faqat xitoy tilidagina biroz pastroq pog‘onada turadi. Hindiy tili dunyoning eng ko‘p so‘zlashuvchi til sifatida ham e‘tirof etiladi.

Masalan, SIL tashkilotining hisob-kitoblariga ko‘ra hindiy tili (hariyani, magahi va bir qancha dialektlari bilan birgalikda) xitoy tili, arab tili, ispan tili va ingliz tilidan keyin 5-o‘rinda turadi. BMT Bulardan tashqari so‘zlashuvchilarning umumiy soniga urdu tilida so‘zlashuvchilar soni ham ta‘sir qiladi. Bunday ta‘sirning bosh sababi esa urdu va hind tillari bir oilaga mansubligi va ularning o‘zaro o‘xshashligidadir.

Masalan, kitob so‘zi hindiy tilida ham, urdu tilida ham kitaab bo‘lishi mumkin va ikkala til egalariga tushunarli bo‘lishidir.

Quyidagi jadvalda esa turli xil manbalarda hindiy tili so‘zlashuvchilarning soni haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

1-jadval

Manba nomi	Hindiy tili ona tili (rasmiy til) sifatida e‘tirof etiladigan tilda so‘zlashuvchilar soni	Hindiy tili 2-til sifatida e‘tirof etiladigan so‘zlashuvchilar soni
SIL	181 676 620 (1991-yilning ma‘lumoti)	120 000 000 (1997-yilgi ma‘lumot asosida)
Census of India (2001-yil ro‘yhatga olish bo‘yicha)	257 919 635 (aynan hindiy tilining o‘zi)	-

2001-yilning ma‘lumotlariga ko‘ra hindiy tili hindistonning 41% I ya‘ni 422 million kishini tashkil qilgan. Hindistonda umuman olganda hindiy tili bilan bog‘liq muammolardan biri bu dialektlarni aniqlash holatidir.

Hozirgi kunda hindiy tilining ahamiyatini har sohada uchramiz. Ayniqsa, turli xil davlatlarning oliy o‘quv yurtlarida hindiy tili o‘rgatilyapti. Moskva davlat xalqaro aloqalar institutida (MGIMO) 1954-yildan buyon hindiy tili o‘rgatiladi. Hindiy tilini targ‘ib qilish xalqaro markazi tomonidan Kiyev davlat universitetida ham sharq tillari kafedrasida tashkil etildi. Ushbu kafedrada hindiy tili ham bor. Shu o‘rinda hindiy tili O‘zbekistonda ham zo‘r qiziqish bilan o‘rganib kelinmoqda. Xususan, Toshkent davlat shrqshunoslik institutida hindshunoslik maktabi mavjud. Unda hind tillari eng avvalo, Hindistonning davlat tili bo‘lmish hindiy tilining ilmiy va metodologik jihatdan o‘rganish maqsad qilib qo‘yilgan. Hozirgi kunda bu

institutda ko'plab taniqli hindshunoslar yetishib chiqqan. Bu esa O'zbekistonda hindiy tiliga qaratilgan e'tiborning natijasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Constitution of India, part XVII, article 343
2. Languages of the world. 2015
3. Census of India. 2001

RUS TILIDAGI ARABIY O'ZLASHMALAR

*Maxammatova Sojida
ToshDSHI 1-kurs talabasi*

Ilmiy rahbar: katta o'qituvchi N.M.Orifxo'jayev

Qadimgi Yunoniston va Rimda ilm fanning rivojlanishi, uning yunon va lotin tillarida Evropa va Osiyoning turli mamlakatlariga yoyilishi natijasida qadimda meditsina, matematika, fizika, falsafa kabi fanlarda qo'llaniladigan atamalar boshqa tillarga kirib borgan va hozirga qadar mustahkam o'rnatilgan va hamon iste'molda bo'lib kelmoqda.

Til ijtimoiy hodisa bo'lgani sababli o'zaro murojaat, ilmiy aloqalar natijasi o'laroq qaysi tilda ilm-fanga oid asar va risolalar yaratilgan bo'lsa, uning ta'siri shubhasiz boshqa tillarda o'z aksini topadi.

X–XI asrlarda arab tili ilm-fan tiliga aylanganidan so'ng Yevropa davlatlari tillarida arab tilining ta'siri sezila boshladi. O'sha davrda islom olamida ilmiy va adabiy asarlarning ko'pchiligi arab va fors tilida taklif etildi. Shu sababli ularning ta'siri so'zlashuv tilida ham hozirgacha davom etib kelmoqda.

Masalan, rus tilidagi “маскарад” so'zi arab tilidan o'zlashgan so'z bo'lib, مسخرة (مساخرة) “masxara”, ya'ni masxara qilinadigan narsa yoki kimsa, masxaraboz tushuniladi. Bu so'z XIII asrda avval italyan so'ngra fransuz tilida ishlatilib kelingan.

“Шифр” so'zi rus tilida maxfiy yozishma uchun qabul qilingan shartli belgilar degan ma'noni bildirib, arab tilida "صفر" ya'ni “цифр” – “ nol” degan ma'noni anglatadi. Bu so'z rus tiliga arab sonlari bilan birga kirib kelgan bo'lib, boshida bu so'z oddiygina nolni ifoda etgan. “Шифр” so'zi bugungi kunda har qanday mahfiy qo'lyozmalar uchun ishlatiladi. “Шифр” odatda ikki harbiy yoki mamlakat hukumatlari o'rtasida ma'lumot almashishda va ularning mahfiy va behavotir tarzda qabul qilib oluvchiga yetkazish uchun ishlatiladi.

Admiral-البحر امير “amir ul-bahr” amir, dengiz qo'mondoni. Bu nom Sitsiliya orolida ishlatilgan va o'zlashtirilgan. Shundan so'ng, Normandlar bu orolni egallab olganidan so'ng, bu so'z o'zgarib, o'rta asrdagi fransuz va genuya so'zlashuv tiliga aylangan. Qirol Eduart III tomonidan IV asrda bu so'zni “Amiral” shaklida kiritilgan, chunki, ularning talaffuzida D harfi kechroq paydo bo'lgan. Bu harbiy unvon bo'lib yuqori ofitserlar turkumidagi eng oliy harbiy unvon va aynan flot doirasida. Yevropadan bu so'z XII asrda iste'molga kirdi. Unga qadar Rim va Yunon atamalari ishlatilar edi. Admiral flotda barcha harakatdagi kuchlarni boshqaradi. Uning yordamchisi va o'rinbosari esa “Vitse admiral” deb yuritilgan.

Fasllar almashinuvi jarayonida ro'y beradigan jarayon, shamolning esishi yani “муссон” so'zi ham arab tilidan olingan so'zdir. Bu so'z arab tilida موسم “mavsim” – mavsum, vaqt,

fasl degan ma'nolarni bildiradi. Musson yilning ma'lum bir muddatida yuz beruvchi kuchli shamollar mavsumi bo'lib, qish faslida, asosan, okean hududlarida yuzaga keladi. Yozda esa quruqliklarga, tropik mintaqalarga o'z yo'nalishini buradi.

Tarkibida spirt bo'lgan ichimliklar – aroq, uzum va boshqa mevalardan qilingan vinolar, bo'za, musallas, pivo va boshqa ichimliklaralkogol deb alatalgan. Rus tilida “Алкоголь” so'zining etimologiyasi va semantikasiga to'xtaladigan bo'lsak الكحول “al-kuhul” so'zi arab tilida spirt, alkogol degan ma'nolarni ifoda etadi. Bu so'z dastlab “nozik kukun maydalari”, “qayta maydalangan surma kukuni” degan ma'noni anglatgan. Shu holatda bu so'z XIII asrda lotin tiliga o'tgan. XIV asrda esa, shunchaki, maydalangan yoki yanchilgan degan ma'nolarni anglatgan. Faqatgina, XVIII asrga kelib, Angliyaning “Beyli” lug'atida uning ma'nosi nihoyatda toza spirt deb yozila boshlagan.

Ma'lumki, bir turga oid masalalarni yechishda ishlatiladigan amallarning muayyan tartibda bajarilishi haqidagi aniq qoida - “Algoritm” tushunchasini IX asrda vatandoshimiz al-Xorazmiy kiritgan. Yevropaga bu atama dastlab lotin tilida “Algoritmus” yoki “Algorithmus” shaklida kirgan. Aslida bu so'zni dastlab arablar Xorazmiyning tug'ilgan yurtiga nisbat berib خوارزمي(الخوارزمي) “xavarazm” “al-Xavarazm” deb ataganlar, G'arbda esa bu so'z “Algoritm”ga aylangan.

Moskva shahrining markaziy ma'muriy okrugida joylashgan Arbat ko'chasining nomi ham arab tilidan o'zlashgan so'z bo'lib - عربية “araba” ya'ni “arava” degan ma'noni bildiradi. Arxeograf P.M. Stroyev o'z fikrlarida Arbat so'zini mongolchadan “arbi” degan ma'noni bildirishini ilgari surgan. Uning fikricha hozirgi Volhonki tumanida joylashgan Kolimaj to'dalari u yerdagi arava va har xil aravachalarni “arbi” deb atashgan. Lekin tarixchi Trukovski tomonidan aytilgan gipotezaga asosan “arbat” so'zi arab tilidan kelib chiqqan va ko'plikda رباط “rabot” – shahartashqarisi, shahar chegarasiga tutashgan qishloq yoki qishloqchaga, karvonsaroy degan ma'nolarni anglatgan. Bu so'z Moskvaga sharq savdogarlari, hamda qrim tatarlari tomonidan kirib kelgan. Ushbu gipoteza quyidagi olimlar tomonidan ham maqullangan: M.Gorbanevskiy, Yu.Fedrosyuk, V.Sorokin, E.Dvinskiy, P.Sitin va boshqalar.

Magazin – arabcha. مخزن “mahzan” – ombor, chakana savdo korxonasi, do'kon, savdo binosi, obligatsiyalar oldisotdisi bilan shug'ullanuvchi dilerlik kompaniyasini ifodalaydigan atama. Bu so'zning tarixi 1228 yilga borib taqaladi, chunki, shu yili Marselda birinchi magazin ochilgan edi. XVI asrda angliyaliklar bu so'zni narsalar saqlaydigan ombor sifatida ishlatganlar. Shunday qilib, rossiyaliklar bu so'zni britlardan o'zlashtirib muomala vositasiga kiritganlar.

Bizga Gibraltar so'zi bilan tanish جبل الطارق “Jabal ut-Toriq” bo'gozi arab tilida “jabal tog'i” ma'nosida keladi. Bu so'z musulmon sarkardasi Toriq ibn Ziyodning Andaluziyaga yurishi sharafiga qo'yilgan. Shuningdek, uning Yevropada ispan tilidan olingan “Trafalgar” degan ko'rinishi ham mavjud bo'lib, bu so'z ham arab tilidagi “Gibraltar” so'zi bilan bir xil hisoblanadi, ma'nosi esa “g'orning bir tomoni” degan ma'noni bildiradi.

Azimut arabcha التسمت “as-sumut” – yo'nalish, yo'l ma'nosidan olingan bo'lib, “at-tasamut” ya'ni kuzatish joyining meridian tekisligi bilan kuzatilayotgan obyektдан o'tgan vertikal tekislik orasidagi burchak tushuniladi. Bu so'zni dastlab arab astrologlari yangilik quroli sifatida shunday nomlagan. Lekin 1390 yil Joffri Chosser “Astrolobiya haqidagi asar”ida bu so'zni doimiy ravishda ishlatgan va natijada uning nomlanishi bir necha marta o'zgargan.

“Burgut yulduz turkumi” orasidagi eng yorqin yulduz hisoblangan, hamda yorug'ligi bo'yicha o'n ikkinchi o'rinda turadigan “Altair” arab tilidagi النسر الطائر “an-nasr at-toir” –

uchuvchi burgut degan soʻzdan kelib chiqqan. “Altair” – yoz-kuz oylaridagi shimoliy yarim sharda koʻrinadigan “Yoz-kuz uchburchagi”ning eng yorqin yulduzlaridan biridir.

Yuqoridagilardan koʻrinib turibdiki arab tilining boshqa tillarga taʼsiri beqiyosdir. Uni gʻarb tillarida va koʻpgina sharq tillarida ham uchratish mumkin. Ularning asl maʼnosini, kelib chiqishi yaʼni etimologiyasini bilish va tilshunoslik nuqtai nazaridan tadbiq etish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu vaqtgacha rus tilida 450 dan ortiq arabiy oʻzlashmalar boʻlib, ularning hammasi semantik, etimologik va funksional jihatdan atroflicha tasnif hamda tahlilga muhtojdir va rus tili leksik tizimini diqqat bilan tadqiq etishni talab etadigan ajralmas boʻlagi hamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi. T.:2000-2005 maʼlumotlaridan foydalanilgan.
2. X.K.Baranov. Arabcha-ruscha lugʻat., 1998.
3. Халлави М.Х. Лексические арабские заимствования в современном русском языке. – М., 1986.

OʻZBEK TILIDA QOʻLLANILADIGAN ARABIY SOʻZLAR

ToʻlqinovAlisher
ToshDSHI 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.d., prof. Sh. Shomusarov

Arab tilidan oʻzbek tiliga oʻzlashgan soʻzlar serob. Hozirgi kunda ham bu soʻzlar muloqotda, OAVlarda, badiiy adabiyotda va boshqa sohalarda ham koʻp ishlatiladi. Ular ikki turga boʻlinadi:

1. Oʻz maʼnosida
2. Koʻchma maʼnoda

Oʻz maʼnosidagi soʻzlar quyidagilar:

Manzil, markaz, istehzo, muzokara, muloqot, munosabat, ajr, ayb, amr, ahmoq, ayyor, muxtasar, istiloh, muqarrar, umr vaboshqalar.

Koʻchma maʼnodagilarga esa:

(فَقِيرٌ فَقْرَاءً) Fuqaro soʻzi – bu soʻz arabcha “faqir” atamasining koʻplik shakli boʻlib, “kambagʻallar” degan maʼnoni anglatadi. Toʻgʻri, bu soʻz mamlakat aholisini nazarda tutib, yaʼni aholi degan maʼnoda qoʻllanilmoqda. Agar tub maʼnodan kelib chiqsak, bu aholi soʻzidan ancha teskari, boshqa maʼnoni beradigan soʻzdir.

Yana shunday soʻzlardan biri savod (سَوَادٌ) soʻzidir. Bu soʻzning maʼnolari quyidagilardir: qoralik, qora dogʻ. Koʻpchilik savod soʻzini notoʻgʻri qoʻllaydi. Masalan, “men falon narsadan savod olyapman”, deyishadi. “Savod” olinmaydi, savod chiqariladi. Chunki savod-qora (qora doska) demakdir, yaʼni “hajarul-asvad” – “qora tosh”, demakdir.

Qalbi maʼrifatdan holi, qorongʻulik asoratidagi odamni “savodxon” deyish kerak, biz esa nechundir bilimlilarni nazarda tutamiz. Soʻzning asl maʼnosidan qarasak, yoppasiga bilimsizga aylandi, degani, aslida esa kishi qalbidagi qorongʻulik haydab chiqarilib, ilm nuri bilan yoritiladi, yaʼni savod haydaladi, chiqariladi, ziyo esa olinadi.

Lutf (لُطْفٌ) soʻzi. Biz lutfan degan soʻzni ishlatishni yaxshi koʻramiz. Taklifnomalarga “toʻyga lutfan taklif etamiz” deb yozamiz. Oʻzimizcha chiroyli shalkda taklif qilgandekmiz.

Soʻzning maʼnosini bilgan odam esa bu taklifnomadan gʻashlanishi mumkin. Chunki, lutfan taklif qilamiz “Aslida siz toʻyimizga aytishga arziydigan odam emassiz-ku, lekin bizning marhamatimiz kengligi tufayli, istisno sifatida taklif qilyapmiz”, degan maʼnoni anglatadi. Agar shu chiroyli soʻzni oʻz oʻrniga qoʻyib, “toʻyimizga lutfan tashrif buyuring!” desak, goʻzal maʼnoni bayon qilgan boʻlamiz. Yaʼni “Marhamatingizni ayamay, toʻyimizga tashrif buyurib, bizlarni quvontiring”, degan boʻlamiz.

فَاتِحَةٌ fotiha soʻzi biz koʻp marotaba ishlatadigan soʻzlardan biridir. Xalqimizda bu soʻzni buzib talqin qilish odat tusiga kirgan. Televizorda chiqib qoʻshiq aytayotgan baʼzi sanʼatkorlarning qoʻshiqlarini eshitib, oʻzbek tilimizni buzib gapirayotganligidan hayratga tushasiz. “Pataxa bering, oyijon” yoki nahorgi oshlarda “bir pataxa qivoring” deyishadi. Bunday soʻzlarni buzib ishlatilmasa maqsadga muvofiq boʻlardi.

Qazo (قِضَاءٌ) – huquq, adliya, sud muassasasi, ado etish, taqdir. Qazo soʻzi bizda vafot etmoq, namozni oʻtkazib kechiktirmoq maʼnolarida ishlatiladi. Qazo soʻzidagi taqdir maʼnosiga kelsak, bizdagi “qazo qilib dilar” naqli “qazoi qadar” maʼnosida, yaʼni Alloh bergan taqdir (umr)ni yashab boʻlibdilar, maʼnosida qoʻllaniladi.

Basir (بَصِيرٌ) soʻzining asl maʼnosi aniq va tiniq koʻra oladigan odamlarga nisbat ishlatiladi, biroq bizda “ey basir boʻlgin”, deb qargʻab “koʻr boʻlgin” degan maqsadda ishlatiladi. Ammo “basir” soʻzi arabchada aniq va tiniq koʻra oladigan odamga nisbatan aytiladi.

Xulosa qilib aytganda, bunday soʻzlar juda koʻpdir. Shubabli ham, soʻzlarni oʻz-oʻrnida qoʻllash masalasi doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.R.Muhammadjonov. “Oʻzbekiston tarixi”. Toshkent: Gʻofur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2004;
2. Иванов А. “Арабизмы в турецком языке”. М, 1979;
3. Tohir Malik. “Odamiylik mulki”. Toshkent: Sharq, 2014;
4. Т. Кодиров, Д.Алиев. “Араб лексикологияси”. Т., 2013.

OʻZBEKISTONDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH SHART-SHAROITLARI VA IMKONIYATLARI

Mehmonov Quyoshbek

ToshDSHI 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: katta oʻqituvchi N.Imomova

Tadbirkorlikni rivojlantirish va uni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan izchil islohotlarning ustuvor yoʻnalishlaridan biridir.

2016 yilning 25 oktabrida eʼlon qilingan Jahon bankining “Biznesni yuritish 2017: boshqaruv sifatini va samaradorligini baholash” hisobotiga koʻra, Oʻzbekiston dunyoning 190 davlati ichida 87-oʻrinni egallab, oʻtgan yildagi mavqeini saqlab qoldi. Jahon banki ekspertlari hisobotning 10 indikatoridan 5 tasida Oʻzbekiston pozitsiyasi yaxshilagan¹.

Tadbirkorlik subyektlarini internet tarmogʻi orqali davlat roʻyxatidan oʻtkazishning soddalashtirilgan tartibini amaliyotga joriy etish va “yagona darcha” tizimini yanada takomillashtirish tufayli korxonani roʻyxatdan oʻtkazish boʻyicha sezilarli oʻsish qayd etildi (25-oʻrin, 17 pogʻonaga oʻsdi).

¹ www.doing business.org. “Doing Business 2017: boshqaruv sifati va samaradorligini baholash” hisoboti maʼlumotlari.

Ta'kidlab o'tish kerakki, so'nggi yillarda biznesni tashkil etish tartib-taomillarini tubdan soddalashtirish bo'yicha olib borilayotgan tizimli islohotlar natijasida bugun O'zbekistonda har bir shaxs o'z biznesini ochish uchun Shveysariyadagidan 1,8 marta, Germaniyadagidan - 1,9 marta, Yaponiya va Rossiyadagidan - 2 marta, Isroildagidan - 2,2 marta, Gretsiya va Ispaniyadagidan - 2,3 marta, Hindistondagidan - 4,7 marta, Xitoydagidan - 5,5 marta va Braziliyadagidan 14,5 marotaba kam vaqt sarflamoqda.

Xususiy mulk, tadbirkorlik va kichik biznesni jadal rivojlantirish va ularning manfaatlarini himoya qilish, iqtisodiyotda davlat ishtiroki ulushini bosqichma-bosqich kamaytirish borasida qator samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

Jahon bankining yangi hisobotiga muvofiq, tadbirkorlar uchun soliq yuki darajasi 38,1 foizni tashkil etib, bu AQSH, Germaniya, Fransiya, Italiya, Avstriya, Chexiya, Ispaniya, Gretsiya, Yaponiya, Xitoy, Hindiston, Rossiya va shu kabi qator mamlakatlar ko'rsatkichidan ancha pastdir.

O'zbekistonda korxonani ro'yxatdan o'tkazish (25-o'rin), shartnomalar ijrosini ta'minlash (38), kreditlash tizimi (44), minoritar investorlarni himoyalash (70), mulkni ro'yxatdan o'tkazish (75) va elektr tarmoqlariga ulanish (83) yo'nalishlari bo'yicha dunyoning dastlabki 100 mamlakati qatoridan joy oldi.

“Biznesni yuritish 2017”: boshqaruvning sifati va samaradorligini baholash” hisoboti Jahon banki guruhi yillik nashrining 14-soni hisoblanib, unda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish sohasidagi tartibga solish normalari baholab boriladi.

Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari dasturi amalga oshirilishi doirasida 2016-yil mobaynida ham qonunchilik va me'yoriy-huquqiy baza tashkil etish hamda uni takomillashtirish ishlari davom ettirildi.

Xususan, qurilishning barcha bosqichlarida tadbirkorlik faoliyati sohasida ruxsat berish tartib-taomillari doirasida yagona qoida va talablar belgilandi, bino va inshootlar tashqi ko'rinishini o'zgartirish, obyektlarni qayta ixtisoslashtirish va rekonstruksiya qilishga, shuningdek, turar joylarni noturar joylar toifasiga o'tkazishga ruxsat berish talablari joriy etildi. Eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishda tadbirkorlik subyektlari huquqlarini himoya qilish kafolatlari va choralari kuchaytirildi.

Respublikamizda ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilinishini ta'minlash, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish borasida amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar 2016-yil davomida 31766 ta yangi kichik tadbirkorlik subyektlarini (dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari) tashkil etish imkonini berdi. Natijada 2017-yil 1-yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni 218170 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 11066 taga ko'paydi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga yanada qulay shart-sharoitlar yaratib berilayotganligi natijasida 2016-yil yanvar-dekabr oylarining dastlabki yakunlari bo'yicha ularning ulushi mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida 56,9 foizni (2015-yilning yanvar-dekabr oylarida 56,5 foiz), sanoatda 45,0 foizni (40,6 foiz), xizmatlar sohasida 60,5

foizni (57,8 foiz), eksportda 28,5 foizni (27,0 foiz) va bandlikda 78,1 foizni (77,9 foiz) tashkil etdi¹.

2016-yilning yanvar-dekabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan iqtisodiyotga 19963,2 mlrd.soʻmlik investitsiyalar kiritildi. Bu Respublika boʻyicha jami kiritilgan investitsiyalar hajmining 40,3 foizini tashkil etadi. Shuningdek, ular tomonidan 20677,7 mlrd.soʻmlik qurilish ishlari bajarildi (jami qurilish ishlari hajmining 70,7 foizi) yoki oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 15,6 foizga oʻsdi².

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 5-oktabrdagi PF-4848-sonli «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini taʼminlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida»gi farmoni doirasida «Korrupsiyaga qarshi kurashish toʻgʻrisida»gi qonun qabul qilindi. Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan «Davlat xaridlari toʻgʻrisida», «Davlat va xususiy sektor sherikligi toʻgʻrisida»gi qonun loyihalari hamda 30 dan ziyod qonun va meʼyoriy hujjatlarni ishlab chiqish va tasdiqlash borasida faol ishlar olib borilmoqda.

Tadbirkorlik faoliyatini qoʻllab-quvvatlash va kichik korxonalar tashkil etish maqsadida 2016-yil mobaynida kichik biznes subyektlariga 15,9 trillion soʻmlik kreditlar ajratildi va oʻsish 2015-yilga nisbatan 1,3 barobarni tashkil qildi. Jumladan, qiymati 3,3 trillion soʻmlik mikrokreditlar ajratildi, xalqaro moliya institutlarining 206,7 million dollar miqdoridagi kredit liniyalari oʻzlashtirildi³.

2016-yil mobaynida «E-ijro» idoralararo elektron hamkorlik tizimini faol joriy etish asosida tadbirkorlik subyektlariga «Yagona darcha» markazlari orqali 100 mingdan ziyod davlat xizmatlari koʻrsatildi. 127 mingdan ziyod firma nomlariga Internet orqali buyurtma berildi.

Davlat xizmatlari koʻrsatishning «yagona darcha» tamoyilining joriy etilishi tufayli davlat organlariga tadbirkorlik subyektlaridan boshqa davlat tashkilotlarida mavjud boʻlgan hujjatlar va axborotni, shu jumladan, soliq qarzdorligi yoki kommunal toʻlovlar boʻyicha qarzlarning mavjud emasligi toʻgʻrisidagi maʼlumotnomalarni, shuningdek, taʼsis hujjatlarini, litsenziyalar va ruxsat beruvchi tushadigan hujjatlar nusxalarini talab qilish man etildi.

Qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash hamda yanada ragʻbatlantirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar 2016-yil mobaynida qariyb 32 ming yangi kichik biznes subyekti tashkil etish imkonini berdi.

Xorijiy tajriba shuni koʻrsatmoqdaki, «yagona darcha» markazi kabi institutlar davlat xizmatlarining ochiqligi va shaffoqligini taʼminlashda hamda davlat organlarining tadbirkorlik tuzilmalariga oʻz vaqtida koʻmaklashishga doir faoliyati samaradorligini oshirishda muhim oʻrin tutadi.

Mazkur sohada tadbirkorlik subyektlari koʻtargan dolzarb muammo va takliflar, oʻtkazilgan oʻrganishlar natijalaridan kelib chiqib, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlarini koʻrsatish mexanizmlarini takomillashtirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida»gi qarori qabul qilindi.

¹ «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi» 12.01.2017-yil Oʻz.Res. hukumat portali gov.uz

² «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi» 12.01.2017. gov.uz

³ www.mineconomy.uz «Oʻzbekiston Respublikasini 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari toʻgʻrisida»gi maʼruza. 02.02.2017.

Qarorda nazarda tutilgan chora-tadbirlar davlat xizmatlarini ko'rsatish jarayonida sansalorlik, byurokratik to'siqlar va rasmiyatchilik holatlari vujudga kelishiga yo'l qo'ymaslikka, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo'llash orqali ularning sifati va samaradorligini tubdan oshirishga qaratilgan.

“Yagona darcha” markazlari tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun 16 turdagi ruxsatnomalarni boshqa idoralarga bormasdan rasmiylashtirish amaliyoti sansalorliklarning oldini olishga, tadbirkorlik subyektlarining vaqti va moddiy sarf-xarajatlarini tejashga ko'maklashdi.

Ana shunday ijobiy amaliyotni yanada kengaytirish maqsadida qarorda talab eng yuqori bo'lgan qo'shimcha 86 turdagi litsenziya va ruxsatnomalarni “yagona darcha” markazlari orqali rasmiylashtirish mexanizmini bosqichma-bosqich joriy etish nazarda tutilmoqda.

Endilikda tadbirkorlik subyektlari yuqoridagi litsenziya va ruxsatnomalarni olish uchun boshqa idoralarga bormasdan, ularni aniq muddatlarda beradigan “yagona darcha” markazlariga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. “Yagona darcha” markazlari barcha zarur kelishish tartib-taomillarini tadbirkorlik subyekti ishtirokisiz mustaqil amalga oshiradi.

Bundan tashqari, 2018-yil 1-yanvardan boshlab “yagona darcha” markazlari orqali taqdim etiladigan litsenziya va ruxsatnomalarni qog'oz shaklidagi maxsus blankalarda majburiy rasmiylashtirish talabi bekor qilinadi. Bunda berilgan, to'xtatib qo'yilgan, qayta tiklangan, qayta rasmiylashtirilgan, bekor qilingan, shuningdek amal qilishi tugatilgan ruxsatnoma va litsenziyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni “Litsenziya” axborot tizimlari majmuasi orqali olish imkoniyati yaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, yurtimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka yaratilayotgan huquqiy hamda iqtisodiy imkoniyatlar ushbu sohani yanada kengaytirishga, tadbirkorlarning huquqiy savodxonligini oshirishga va aholini bo'sh ish o'rinlari bilan ta'minlashga xizmat qilib kelmoqda. Tadbirkorlarga yaratilayotgan yuksak imkoniyatlar natijasida aholi o'rtasida o'z biznes rejasi asosida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga bo'lgan talab ham ortib bormoqda. Banklar ham ushbu sohaga yordam sifatida imtiyozli kreditlar ajratmoqda, soliq yuklari esa tobora minimallashtirilmog'da. Buning natijasida tadbirkorlar tomonidan aholiga arzon va sifatli tovar va xizmatlar yetkazib berilmog'da. Undan tashqari ushbu tovarlar nafaqat yurtimizda, balki jahonda ham sekin-asta o'z o'rnini topmog'da. Ushbu ishlarning barchasi yurtimiz iqtisodiyotini barqarorlashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini yuqoridagi ko'rsatkichlardan ham bilishimiz mumkin.

МУНДАРИЖА

А.М.Маннонов <i>ф.ф.д., проф.</i> <i>ТошДШИ ректори</i> Қаландаров М.	Кириш сўзи	3
	Буюк шарқшунос – Шоислом Шомухамедов (1921-2007)	5

ФИЛОЛОГИЯ

1. Шомаксудова М.	Взгляды Ван Ли по поводу классификации частей речи в современном китайском языке.....	9
2. Каримжанова Г.	К вопросу о заимствовании и адаптации арабского масдара в системе других языков: история вопроса.....	12
3. Мухамеджанова Ш.	Хитой тилида “来” va “去” ҳаракат йўналиши феъллари семантикаси.....	14
4. Ғиёсов Б.	Хитой тилида “социология” терминининг шаклланиши ва тақомили.....	18
5. Қодирова З.	Алишер Навоий асарларида кийим-кечак номларининг бадиий-эстетик вазифалари.....	21
6. Фозилия М.	Таржимада муаллиф услубини сақлаш.....	24
7. Иноғомова Н.	Сравнительный анализ англицизмов в современном турецком языке и тюркизов в современном английском языке в сфере наименований продуктов питания («еда»).....	27
8. Умарова М.	Выражение благопожеланий и проклятий в узбекском, русском языке и в языке урду (на материале произведения «Юлдузли тунлар» Пиримкула Кадырова).....	34
9. Низомиддинова М.	Хитой тилида 流行语 лиухингю оммалашган сўз ва ибораларнинг ўзига хос хусусиятлари.....	37
10. Зайниддинова К.	Турк ва инглиз халқлари мақолларида “Дўстлик” концепти талқини: ўхшаш ва фарқли жиҳатлар.....	40
11. Хамдамова Н.	Семантика словообразования в арабском языке.....	45
ФАЛСАФА		
12. Shakirova N.	Humanistic ideas in the Upanishads.....	48
13. Po‘latov Sh.	Umumiylik va yakkalik haqida Svami Vivekananda qarashlari.....	52
14. Исроилов У.	Социально-исторические условия возникновения философии экзистенциализма в Японии.....	56

15. Асатуллоев А.	Абдурахмон Сайёҳ Тошкандий ва унинг “Меъёр ул-ахлоқ” асари ҳақида.....	59
ТАРИХ ВА МАНБАШУНОСЛИК		
16. Ummataliyev S.	Amir Temur davrida Movarounnahr va Oltin O‘rda munosabatlarining arab va fors manbalarida yoritilishi.....	63
17. Saydullayev S.	XX asrning ikkinchi yarmida Fransiya migratsiya siyosatining o‘ziga xos xususiyatlari.....	66
18. Saydaliyev U.	O‘rta Osiyo mintaqasining janubiy hududlarini o‘rgangan olimlar etnologik tadqiqot ishlarining umumiy tavsifi.....	71
19. Dusaliyev M.	XX asr oxiri Arab Mag‘ribi davlatlaridagi demokratik jarayonlar shakllanishi masalalari.....	76
20. Toshev X.	O‘rta Osiyoda Sovet hokimiyatiga qarshi harakatlar (1917-1924).....	80
21. Raxmonjonov H.	Turkiya Respublikasidagi 1980-yilgi harbiy davlat to‘ntarishi.....	84
22. Boymatov H.	Ulug‘bek (Muhammad Tarag‘ay) Mirzoning ilmiy merosidan lavhalar va ularning o‘rganilishiga doir.....	87
23. Эгамбердиев А.	Форс Кўрфазида Буюк Британия мустамлакачилик сиёсатининг эволюцияси.....	91
24. Саидов С.	Ибн Сино – тиб илмининг буюк султони.....	94
25. Shodmonov B.	“Таухорю” ва “Таухоритсuryo” qonunlar to‘plami Yaponiya tarixiy manbasi sifatida.....	98
26. Махмасобирова F. (TIU)	O‘rta asr arab sayyohlari asarlarida Movarounnahr va Xuroson shaharlari tavsifi.....	103
ЖАҲОН СИЁСАТИ ВА ХАЛҚАРО МУНОСАБАТЛАР		
27. Ҳайдаров А.	Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучларининг шаклланишида олиб борилган ислохотлар хусусида.....	107
28. Kazakbayev H.(JIDU)	AQSH tashqi siyosatida Afg‘oniston: yangicha yondashuvlar.....	112
29. Suyarov N.	Demokratik jarayonlarga ta’sir etuvchi salbiy omillar tahlili.....	115
30. Azbergenov Sh.	Zamonaviy bosqichda O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi munosabatlar.....	117
31. Бўронов С.	Миллий бирлик концепцияси – Афғонистонда тинчлик ва барқарорликни таъминлашнинг истиқболи сифатида.....	120
32. Атажанов Ш.	К вопросу об объединении Кореи.....	124
33. Ахатов Н.	Миграция в современном мире: образование корейских диаспор.....	130
34. Эркинова М.	Проблема в Южно-Китайском море: острова	

	спратли.....	135
35. Расулов С.	Перспектива межгосударственных отношений между КНР и Южной Кореей.....	139
ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ИҚТИСОДИЁТИ ВА МАМЛАКАТШУНОСЛИК		
36. Махатов С.	Yaponiyada raqamli iqtisodiyotning bugungi holati va uning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi oʻrni.....	142
37. Махмасобирова N.	Innovatsion klasterlarni shakllantirishning Janubiy Koreya tajribasi.....	145
38. Наврўзова А.	ХХР ишчи кучи бозоридаги замонавий тенденциялар.....	148
39. Mardonov Sh.	MDHda lizing xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish yoʻnalishlari (Oʻzbekiston va Rossiya misolida).....	151
40. Ulugʻov B.	“Lukoil” kompaniyasining Oʻzbekistondagi faoliyati.....	155
41. Gʻiyosov R.	Oʻzbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni tartibga solishning huquqiy asoslari.....	160
42. Махамадjonov A.	Mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiya qilishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari va bunda banklarning roli.....	165
43. Saydaliyev N.	Xitoyda pul muomalasining rivojlanishi.....	171
44. Xoliqov H. (TMI)	Kichik biznes va oilaviy biznesni rivojlantirishda bank tizimining ahamiyati.....	174
45. Aydarani A.	Development of tourism industry in economy of Uzbekistan.....	177
46. Raimboyeva M.	MDH mamlakatlarida sanoat raqobatbardoshligini oshirishda modernizatsiyaning oʻrni.....	180
47. Boyqobulova U.	Xitoy va AQSH oʻzaro investitsion hamkorligining rivojlanish xususiyatlari.....	185
48. Ortikov O.	Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida transmilliy korporatsiyalarning oʻrni.....	189
49. Qulmanov T.	Oʻzbekistonning jahon hamjamiyatiga faol qoʻshilib borishidagi zamonaviy tendensiyalar.....	192
50. Rahmatullayev Z.	Tadbirkorlik – xalq farovonligining asosi.....	195
51. Хақбердиева Н.	Хитой Халқ Республикаси иқтисодий ўсишининг асосий омиллари.....	198
52. Sattorova D.	Hindiston iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirish istiqbollari	201
53. Baymuminova N.	Koreya Respublikasida turizm sohasining ahamiyati va uning rivojlanish tendensiyalari.....	205

ЁШ ИЗЛАНУВЧИЛАРНИНГ НИНГ ИЛК ҚАДАМЛАРИ

54. Muhamedova M.	Hindiy tilining rivojlanish tarixiva hozirgi kundagi ahamiyati.....	208
-------------------	--	-----

55. Maxammatova S.	Rus tilidagi arabiy o‘zlashmalar.....	210
56. To‘lqinov A.	O‘zbek tilida qo‘llaniladigan arabiy so‘zlar.....	212
57. Mehmonov Q.	O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish shart-sharoitlari va imkoniyatlari.....	213

“ШАРҚШУНОСЛИК КЕЛАЖАГИ ЁШЛАР НИГОҲИДА”



**ЁШ ШАРҚШУНОСЛАРНИНГ I ФОРУМИ
МАТЕРИАЛЛАРИ ТЎПЛАМИ**

Масъул муҳаррир:

*Филология фанлари номзоди, доцент
Гулчеҳра Рихсиева*

Нашрга тайёрловчилар:

*Нигора Махмасобирова
Сирожиддин Махатов*

Ушбу илмий тўплам ТошДШИ Кенгашининг 2017 йил 30 март кунидаги 8-сонли йиғилишида нашрга тавсия этилди.

© Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2017